

MUHAMMADIYEVA M.M.

XALQ PEDAGOGIKASI

MUHAMMADIYEVA M.M.

XALQ PEDAGOGIKASI

74.03

M96

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MUHAMMADIYEVA M.M.

XALQ PEDAGOGIKASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi tomonidan 5111800 – maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Qarshi
“Fan va ta’lim” nashriyoti
2023

КБК 74.03
УЎК 371(075.8)
М 96

Muhammadiyeva M.M.
Xalq pedagogikasi / darslik / Qarshi: "Fan va ta'lim"
nashriyoti, 2023. – 276 b.

Ushbu darslik "Xalq pedagogikasi" fanidan nazariy va amaliy
materiallardan foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan.
Qo'llanma 5111800 – maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi
talabalar va MTT pedagog xodimlari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:
Pedagogika fanlari doktori, professor **R.Shodiyev**

Taqrizchilar:

M.B.Artikova – Andijon davlat pedagogika
instituti magistratura bo'limi
boshlig'i, pedagogika fanlari
doktori (DSc).

Sh.O'.Nurullayeva – Qarshi davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasini
professori, pedagogika fanlari
doktori.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligining (guvohnoma №233-0374) 2022-yil 19-iyuldagi
233-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida
nashirga ruxsat etildi.



Muhammadiyeva M.M., 2023.
"Fan va ta'lim" nashriyoti, 2023.

ISBN 978-9943-8994-9-3

SO'Z BOSHI

Yurtimiz taraqqiyoti hozirgi kunda yosh avlodning har tomonlama kamol topishi bog'liq bo'lib, bu jarayon muvaffaqiyati, avvalo, xalqimiz tomonidan ko'p yillardan buyon amal qilinib kelayotgan boy tajribaga asoslanilgan ta'lim-tarbiyaga jarayoniga ham bevosita bog'liq ekanligini davr taqozo etmoqda. Chunki tarixini bilmagan, bugunini o'ylamagan har bir inson ertasini qura olmaydi. Shu sababli ta'lim-tarbiyaga juda jiddiy masala sifatida e'tibor qaratsak, har qanday sharoitga mos barkamol shaxs yetishtirgan bo'lamiz. Zero, qadim sharqda ilm-fan, madaniyat shunchalik darajada yuksalgandiki, bu yuksalish nafaqat yurtimiz taraqqiyotiga, hatto dunyo taraqqiyotiga ham o'z ulushini qo'sha oldi. Bu yuksalish davrini insoniyat uyg'onish (renessans) deb tan olganligi bejiz emas, albatta. Bu yuksalishning sodir bo'lishini aynan shu davrda yurtimizda qudratli markazlashgan davlatlar tashkil topib, o'lka-mizda tinchlik va osoyishtalik qaror topganligi, bu holatlar ilm-fan, madaniyat rivojiga imkon yaratganligi va bundan tashqari bu davrda hukmdorlik qilgan amir va podshohlarning aksariyati ilmi va ma'naviyatli bo'lganligi, ularning o'zlari ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilganligi bilan bog'laydilar.

IX-XII asrlarda nafaqat ilm-fan, balki madaniyat, moddiy ishlab chiqarish ham rivoj topdi. Hunarmandchilik va savdo ham taraqqiy etdi. Yoshlarni tarix bilan, xalqimizning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari va o'tmish ajdodlarimizning ma'naviy merosi bilan qurollantirish, ular bilan faxrlanish tuyg'usini rivojlantirish bugunning muhim vazifasidir.

Ushbu darslikni o'rganish xalqimiz falsafiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy sohaga oid qarashlari, fikrlarini ochib berish ko'zda tutiladi, shuningdek, turli tarixiy davrlarda xalq pedagogikaning muammolari va ularni hal etish, hozirgi kunda o'tmish merosimizdan foydalanish nazarda tutilgan. Shu bilan birga eng asosiy o'ziga xosligi darslikda allomalarning pedagogik qarashlari va ularning xalq pedagogikasi bilan chambarchas bog'liqlarining ahamiyati haqidagi qarashlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Darslikning mazmuni "Xalq pedagogikasi" fani uchun namunaviy o'quv dasturi "5111800 – maktabgacha ta'lim" yo'na-

lishi bo'yicha tahsil oladigan bakalavrlarni tayyorlash uchun Davlat ta'lim standartiga mos keladi.

Darslik ustida ishlashda biz "Xalq pedagogikasi", "Pedagogika tarixi", Sharq o'yg'onish davri taraqqiyotiga hissa qo'shgan allomalar Yusuf Xos-Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Sa'diy Sheroziy, Nizom ul Mulk va boshqa mutafakkirlarning asarlaridagi shaxs tarbiyasi, shaxs faoliyati, shaxs sifatlari, shaxs mas'uliyati muammolari bo'yicha ichki nazariy va uslubiy ishlanmalar jamg'armasiga tayandik. Shuningdek, mazkur darslik aynan shu masalalarni keng va atroflicha o'rganilishiga e'tibor qaratilgan. Darslikda xalq pedagogikasi fanining nazariy asoslari va uning tarixiy ildizlari, o'zbek xalq pedagogikasining taraqqiyot tarixi, o'zbek xalq pedagogikasi o'z tarbiya borasidagi tajribalarini aks ettiruvchi manbalar tizimi, xalq pedagogikasida diniy ta'limotlarning mazmuni va mohiyati, xalq pedagogikasida yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid fikrlar, oila va maktab tizimida xalq pedagogikasi tushunchalaridan foydalanish, xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, xalq pedagogikasida ilm egallash, kasb-hunar va iqtisodiy tarbiyaga oid fikrlar, xalq pedagogikasida jismoniy va mehnat tarbiyasining yoritilishi borasidagi xalqimizning boy tajribasi va qarashlari pedagogik jihatdan nazariy yoritishgan. Bundan tashqari darslikda fanga oid atamalar va izohli lug'atlar, fan yuzasidan test topshiriqlari va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Umid qilamizki, ushbu darslik maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha pedagoglar, "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan talabalarga, MTTlarning tarbiyachi-pedagoglari, hamda barcha pedagogik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Muallif

MUNDARIJA

So'z boshi	3
I BO'LIM. XALQ PEDAGOGIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI	
Xalq pedagogikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari...	7
Etnopedagogika – Xalq pedagogikasi tushunchasining fanga kirib kelishi va uning ahamiyati.....	12
Xalq pedagogikasi fanining metodologik asosi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi.....	16
Komil inson tarbiyasida xalq pedagogikasining tutgan o'rmi....	22
Xalq pedagogikasining imkoniyatlari.....	27
O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASINING TARAQQIYOT TARIXI	
Xalq pedagogikasining davrlashtirish masalasi.....	32
Islomgacha bo'lgan davr xalq pedagogikasi.....	34
Islom ta'siri davri xalq pedagogikasi.....	41
Tashqi ta'sirlar davri xalq pedagogikasi.....	56
Mustaqillik davri xalq pedagogikasi.....	64
O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI O'Z TARBIYA BORASIDAGI TAJRIBALARINI AKS ETTIRUVCHI MANBALAR TIZIMI	
Etnopedagogika manbalari tizimi va ularning xilma-xilligi.....	67
Xalq pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlari.....	94
XALQ OG'ZAKI IJODI – XALQ PEDAGOGIKASINING ASOSIY MANBAI SIFATIDA	
Xalq og'zaki ijodi turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	96
Xalq og'zaki ijodi janrlari, ularning tarkibi.....	101
Maqollar, topishmoqlar, qo'shiq va termalarning pedagogik ahamiyati.....	103
Marosimlar, dostonlar, og'zaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati.....	112
Afsona, rivoyat, naql, ertak, latifa, loflar tizimining pedagogik xususiyatlari	126
XALQ PEDAGOGIKASIDA DINIY TA'LIMOTLARNING MAZMUNI VA MOHIYATI	
Yurtimiz tarixidagi dastlabki diniy qarashlar va uning xalqimiz hayotida tutgan o'rmi.....	131

Islom diniy ta'limotining pedagogik g'oyalarga singdirilishi....	135
Hadislarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.....	142
Xalq pedagogikasida tasavvuf ta'limotining o'mi.....	146
XALQ O'YINLARI VA O'YINCHOQLARI	
TARBIYA VOSITASI SIFATIDA	
Xalq o'yinlarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.....	158
Xalq o'yinlarining turlari.....	160
Ta'lim-tarbiyada xalq o'yinlaridan foydalanish usullari.....	164
II BO'LIM. XALQ PEDAGOGIKASIDA	
FARZAND TA'LIM-TARBIYASIGA OID FIKRLAR	
OILA VA MAKTAB TIZIMIDA XALQ PEDAGOGIKASI	
TUSHUNCHALARIDAN FOYDALANISH	
O'tmishda bola tarbiyasida ota-onalarning qo'llagan usullari...	169
Maktabda o'qitiladigan fanlarda urf-odatlar, xalq og'zaki ijodining ahamiyati.....	175
Xalq pedagogikasida farzand tarbiyasida ijobiy ta'sir etadigan metod, usul va vositalari.....	184
XALQ PEDAGOGIKASIDA ILM EGALLASH, KASB-HUNAR VA IQTISODIY TARBIYAGA OID FIKRLAR	
Etnopedagogika manbalarida ilm va ilm sohiblarining ulug'lanishi.....	190
Etnopedagogikada kasb-hunar egallashning afzalligi va vorisiyligi	194
Etnopedagogikada iqtisodiy tarbiyaning yoritilishi.....	205
XALQ PEDAGOGIKASIDA JISMONIY VA MEHNAT TARBIYASINING YORITILISHI	
Etnopedagogikada jismoniy barkamollikning ijtimoiy ahamiyati haqida.....	207
Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va mehnatsevarlikning ulug'lanishi haqida.....	216
Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlari.	219
Atamalar izohli lug'ati.....	226
Fan yuzasidan test topshiriqlari.....	251
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	273

I BOB. XALQ PEDAGOGIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI

Xalq pedagogikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Dunyoda qaysi xalq, millat bor bo'lsin uning o'ziga xos qadryatlari, an'analari, ijtimoiy qarashlari mavjud. Hozirgi globallashuv va ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri ostida har bir xalq o'z qadryatlarini asrab avaylashi, uni kelajak avlodga yetkazib berish va zamon bilan hamnafas tarzda boyitib takomillashtirib borish kabi vazifalarni hal etish muammosi turibdi. Bu kabi muammolar bizning jamiyatimiz hayotida ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p madaniyatli va ko'p millatli mamlakat fuqarosining ma'naviy mustaqil va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda, xalqning ma'naviy boyligi asosiy va muhim o'rin tutadi.

Ajdodlar an'analari, o'zbek xalqining etnik urug'-guruhlari-ning hayoti va o'zaro ta'sirining ko'p asrlik tarixida rivojlangan qadriyatlarni himoya qilish millatimizning oldidagi burchidir. Davlatimizni yurt sifatida birlashtiruvchi va mustahkamlovchi milliy g'oyasi, milliy mafkurasi, boy ma'naviyati, noyob o'zbek madaniyatining shakllanishiga donishmand xalqimizning alohida hissasi bor. Shuningdek, har bir xalqning o'z tarbiyaviy qarashlari ya'ni xalq pedagogikasi mavjud bo'lib u o'zida mazkur xalqning boy manaviyati va bilimni aks ettiradi.

Ta'lim-tarbiya tizimining mazmuni, yo'nalishlari, ularni amalga oshirishning shakl va usullari xalqning turmush tarzidan, milliy an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Chunki tarbiya tizimining yaratuvchisi, ijodkori ham, uni keyingi avlodga yetkazuvchi ham xalqdir.

Mustaqillik yillarigacha qo'llanilgan sobiq tuzum davrining tarbiya nazariyasi xalqimizni o'z milliy va ma'naviy boyluklaridan mahrum qildi. Bu davrda ta'lim-tarbiya tizimiga Yevropa pedagogikasi asos qilib olindi va o'rganildi O'zbek xalqining necha ming yillik tarixga ega bo'lgan tarbiyaviy ta'siri, boqiy an'analari, urf-odatlari va ularni amalda qo'llash usullarining yo'qolib ketish xavfi paydo bo'ldi.

Xalqimiz o'z ona tilini, madaniyatini, tarixini, boy ma'naviyatini unutayozdi. Xalq pedagogikasi inkor etildi. Faqat istiqloq tufayligina o'zbek xalq pedagogikasini o'rganish, tiklash, amaliyotda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lindi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi endigi vazifa Sharq pedagogikasini o'rganish, bu sohaga e'tibor qaratishdan iboratdir. Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va kundalik turmushimizga qaytarildi. Chunki milliy qadriyatlarimizni e'zozlamay turib, o'z milliy qiyofamizga ega bo'la olmaymiz. Millatimiz, xalqimiz, davlatimizning erki va mustaqilligini saqlab qololmaymiz. Zero, milliy qadriyatlarimizga millatning tili, dini, urf-odatlarini, an'analari, bayramlari, o'zaro muloqot va muomala shakllari kiradi.

Shu bilan birga, o'zbek xalq pedagogikasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarining uyg'unligini ta'minlashi, uning tor milliy qobiqda chegaralanib qolishining oldini olishni taqozo etadi. Bizning milliy qadriyatlarimizni e'zozlashimiz boshqa xalqlarning qadriyatlarini yo'qotish, kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak. Chunki milliy qadriyatlar insoniyat uchun umumiy bo'lgan talab va Umuminsoniy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlardan oziqlanadi. ehtiyojlarni qondiradi, barcha xalqlar uchun birday ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirgan istiqloq mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda o'zimizga xos milliy xususiyatlarimizni unutmasligimiz kerak. Bu milliy xususiyatlarimiz oila, mahalla, ona yurt muqaddasligi, ota-onaga, Vatanga, kattalarga hurmat, ona tiliga muhabbat, ayolga ehtirom, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarimizdan iboratdir.

Xalq pedagogikasi fan sifatida shakllanib uning mazmuni boyib borar ekan mamlakatimizda bu sohada faoliyat yuritgan bir qator pedagog, olim va adabiyotshunoslarning mehnati kattadir. Xususan, A.K.Munavvarov, K.Hoshimov, I.Jabborov, I.M.Mo'minov, G.A.Hidoyatov, S.X.Temurova, Z.M.Mirtursunov, B.A.Qodirov, O.M.Musurmonova, M.Sherboyev, M.Sattor, T.Javliyev, M.Ochilov, R.Usmonov, M.T.To'laboyev, U.Mahkamov, M.Murodov, M.Mutalipova, A.Sohibov, adabiyotshunos olim Q.Yuldoshevlar xalq pedagogikasiga doir muhim ilmiy-nazariy izlanishlarni olib borib uning rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar.

M.Mutalipova o'zining "Xalq pedagogikasi" nomli qo'llanmasida xalq pedagogikasini xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to'plangan va avlodan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlar yig'indisi sifatida ta'riflaydi¹.

Xalq pedagogikasi ta'lim va tarbiya borasiga ma'lum bir xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o'yin singari empirik vositalarda namoyon bo'ladi.

Qozoqboym Yo'ldoshev xalq pedagogikasini quyidagicha ta'riflaydi: "Xalq pedagogikasi-tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui..."².

Xalq pedagogikasi xalq ommasining og'zaki tarzda yaratgan va avlodan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiyaviy tadbirlar yoki pedagogik ijodlar yig'indisi³.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki *xalq pedagogikasi* – ijtimoiy hayot va jamiyat taraqqiyotida muhim jarayon bo'lgan inson tarbiyasi, uning shakllanishi, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishini o'rganish bilan birga xalqning qadimiy tarbiya usullarini, qo'shiq, topishmoq, maqol va o'yinlarini to'playdi, umumlashtiradi, tizimga soladi va ta'lim jarayoniga tadbir etadi.

Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada ota-onaning o'rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o'rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalq pedagogikasi mazmunan boyib, mukammallashib borishida ilm-fanning boshqa sohalari, ya'ni mumtoz adabiyot, san'at, musiqa, xalq og'zaki ijodi,

¹ Mutalipova M. Xalq pedagogikasi. – Toshkent, "Fan va texnologiya" 2015. – 8 b.

² "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 9-jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 704 b.

³ Sohibov A. Xalq pedagogikasi istoriyagrafiyasi. – Qarshi. "Nasaf" NMIU, 2021. – 17 b.

qadrshunoslik, odatshunoslik, ruhshunoslik kabi sohalar zaminida shakllanib, ular bilan bevosita aloqada bo'ladi, eng yaxshi namunalari o'ziga qabul qilib oladi.

Shu o'rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o'tish o'rinli. Buyuk pedagoglar ko'proq xalqning pedagogik tajribalariga e'tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham o'zining faoliyatini xalq og'zaki ijodi, uning urf-odatlari, qadriyatlarini to'g'risida material to'plashdan boshlagan.

O'zbek ma'rifatparvari Hamza Xakimzoda Niyoziy "Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan" – deb ta'kidlaydi. U yana o'zbek xalqi tarbiya sohasida o'ziga xos tizimga ega ekanini aytib o'tadi. Niyoziyning fikricha xalqni tarixiy tarkib topishida xalq tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Uning hikoyalarida, dramalarida, pesa va povestlarida xalq pedagogikasi o'z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan uning hayotiyiligi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya – maqsadlarga qaratilgan bo'lganligidir.

Xalq pedagogikasi fani orqali, mutafakkir olimlar o'gitlaridan baxra olish va tarbiya jarayoniga tadbiiq etish, qadriyatlar, udumlar urf-odatlarga sodiqlik, ilm olish, ustozlar qadriga yetish, oila mustahkamligiga erishish, xalqqa muhabbat, hayotni sevish, milliy odob-axloq me'yorlariga itoat qilish kabi jihatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi.

Xalq pedagogikasi xalqimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini o'rganadi, bu esa bo'lg'usi pedagoglarni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlashga, ta'lim-tarbiya tizimini milliy ruh bilan sug'orishga yordam beradi. Zero, o'zbek milliy an'analari, urf-odatlarini har tomonlama o'rganish, tadqiq qilish. talabalarga ularning mazmuni va tarbiyaviy xususiyatlarini tushuntirish, ulardan ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri foydalanish, talaba-

larda, o'qituvchilarda, jamoatchilikda xalq qadriyatlariga qiziqish uyg'otish, ular asosida kishilarning madaniy, axloqiy, jismoniy, ma'naviy darajasini yuqori saviyaga ko'tarish kabi bugungi kunning dolzarb muammolarini ha! etishda ham xalq pedagogikasi muhim rol o'ynaydi.

Xalq pedagogikasi fanining asosiy **maqsadi** — xalqimizning uzoq va yaqin o'tmishdagi pedagogik qarashlarini, baynalmilallik tuyg'ularini tarbiyalash, milliy ta'limga oid an'analari, qadriyatlarini o'rganish, uni hayotga va ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiiq etish, komil shaxsni tarbiyalashga oid xalqimizning ta'lim-tarbiya nazariyasi bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy merosi va pedagogik qarashlarini o'rgatish orqali bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat.

Xalq pedagogikasi fanining **vazifasi** — xalqimizning turmushi, madaniyati, ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, xalq pedagogikasining tarbiya usullarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarda, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishdan hamda o'rganish. Shuningdek, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, xalq pedagogikasi an'analari ta'lim-tarbiya sohasiga tatbiiq etish, uning eng yaxshi tomonlaridan unumli foydalanishdir.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida xalq qadriyatlaridan ijodkorona foydalanish pedagogika fanini xalq hayoti, turmush tarzi bilan jiplashtiradi, jamoatchilik, ota-onalar va maktab o'rtasidagi aloqani yanada kuchaytiradi, milliylikni tarbiyalaydi.

Xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo'lgan xususiyatlarning saqlanishini ta'minlash sanaladi.

Bugungi kunda bo'lg'usi pedagogik kadrlar tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'zi yashayotgan hududning urf-odatlarini, an'analari, aholining udum va qadriyatlarini, ularning axloqiy, huquqiy, maishiy, oilaviy munosabatlarini, bolalarga ta'sir qiladigan barcha xususiyatlarini bilishi kerak.

Xalq pedagogikasining **predmeti** xalqimizning asrlar davomida to'plagan axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy merosi va pedagogik g'oyalari bilan tanishtirish jarayoni

sanaladi. Mazkur jarayonni amalga oshirishda xalq pedagogikasi-ning asosiy tadqiqot obyektini belgilab olish muhimdir.

Xalqimizning tarbiyaga doir o'ziga xos tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan to'la bilish uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab beradi. Chunki, o'z elining murakkab tarixini, etnik xususiyatlari va pedagogik g'oyalarni aniq bilish ma'naviy barkamollikni ta'minlovchi mezondir. Zero, mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ham bu borada "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" – deb ta'kidlaydi⁴.

Etnopedagogika - Xalq pedagogikasi tushunchasining fanga kirib kelishi va uning ahamiyati

Xalq pedagogikasi fani xalq og'zaki ijodi namunalarida olg'a surilgan pedagogik g'oyalar vositasida komil insonni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirish muammolari xususida bahs yurituvchi fandır. "Xalq pedagogikasi" va "Etnopedagogika" atamaları bir xil ma'nodagi sinonim so'zlardir. Shuning uchun "Etnopedagogika" atamasi o'rnida ba'zan "Xalq pedagogikasi" ifodasi ham ishlatiladi.

Xalq pedagogikasi ilmi har bir xalqning hayotiy faoliyati, ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida asrlar osha to'planib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan. U xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribalari maxsul bo'lib, hayot sinovlarida o'zini oqlagan empirik bilimlar majmuidir.

⁴ Sh.M.Mirziyoyev Prezident farmoni PF-6000-son 26.05.2020. "Madaniyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".

Chunonchi, etnopedagogikaga doir biror-bir manba yo'qki, unda ilm, ma'rifat, ezgulik, aqliy va jismoniy komillik, ma'naviy-axloqiy go'zallik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do'stlik va boshqa sifatlar targ'ib etilmagan bo'lsa. Afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar singari manbalarda yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy sifatlar xalqning o'zi yaratgan qahramonlar timsolida targ'ib etiladi.

Xalq pedagogikasi tarixan xalqning o'zi, uning ijtimoiy ongi, tafakkuri, turmush tarzi bilan baqatmi ravishda shakllangan. U hozirgi zamon pedagogikasi ilmining ibtidosi hisoblanadi. Xalqning o'zi hayot ekan uning pedagogik fikri, o'z milliy pedagogik qarashlari ham yashayveradi.

Markaziy Osiyoda antik davrdayoq badiiy-pedagogik ijod namunalari vujudga kelgan. Farg'onaning Saymalitosh, Samarqandning Afrosiyob, Surxondaryoning Zarautsoy, Qoraqalpog'istonning Qo'yqirilgan qal'asida topilgan yodgorliklar va yozuvlarda xalqning ilk pedagogik fikrlari aks ettirilgan. Ularda hozirgi zamon pedagogikasi ilmining shakllanishiga zamin yaratilgan.

Buyuk ajdodlarimiz, pedagog-olimlarimiz o'z asarlarida xalq badiiy ijodi namunalariga tayanib ish ko'rganlar. Donishmand xalq olg'a surgan tarbiyaning xalqchilligi va tabiatga uyg'unligiga doir g'oyalarni ijodiy rivojlantirganlar. Xalq MDH mamlakatlarida xalq pedagogikasi muammolari Rossiyalik G.S.Vinogradov, Gruziyalik A.F.Xintibidze, Chuvashistonlik G.N.Volkov, Tataristonlik Ya.I.Xanbikov, Ozarbayjonlik A.Sh.Hoshimov, Tojikistonlik Sh.A.Mirzayev, Turkmanistonlik K.Pirlijev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda xalq pedagogikasining ba'zi muammolari Z.Mirtursunov, B.Qodirov, I.Ashirboev, G.Ubaydullaev, M.Sherboev, J.Mutalipova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

"Etnopedagogika" atamasini ilk bor Chuvashistonlik G.N.Volkov pedagogik adabiyotlarga kiritdi va uni alohida fan sifatida ta'riflab berdi⁵.

Xalq pedagogikasi manbalari va ulardagi pedagogik fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligi ham kishi diqqatini o'ziga tortadi. Avvalo, xalq pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida

⁵ Volkov G.N. va boshqalar. Etnopedagogika. – Toshkent: "FAN", 2000. – B. 6.

etnopedagogika manbalarida pedagogika nazariyasi muammolari emas, balki pedagogik amaliyotiga doir fikrlar ko'proq o'z aksini topgan. Shuningdek, etnopedagogika manbalarida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, xalq muhim deb hisoblagan tarbiya yo'nalishlari haqidagi tasavvurlar, yoshlar tarbiyasida foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or tarbiya an'alaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Xalq pedagogikada faqatgina tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoniga dahldor fikrlar ham olg'a surilgan. Shunday bo'lishi tabiiy ham. Chunki yosh avlodga hamisha xalqning o'zi tarbiya bilan birga ta'lim ham berib kelgan, ularga kasb-kor, amaliy san'at malakalari, sport o'yinlarini o'rgatib kelgan. Demak, etnopedagogikada ta'lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning komponentlari sifatida qaraladi.

XX asr 70-yillarda etnopedagogika terminining asoschisi chuvashistonlik G.N.Volkov etnopedagogikani etnik guruhlarning bolalarni tarbiyalash va o'qitishdagi empirik tajribasi, oila, urug', qabila, millatning dastlabki qadriyatlarini haqidagi axloqiy, va etnik qarashlari haqidagi fan sifatida olib chiqdi. Volkov xalq pedagogikasi muammolarini har tomonlama va ancha chuqur o'rgangan olimlardan bo'lib, "Chuvash Xalq pedagogikasi" "Etnopedagogika" monografiyalari (1974) muallifi hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi bo'yicha ko'plab qiziqarli tekshirishlar o'tkazilgan. Misol uchun N.S.Safarov o'zining "O'zbekistonning Xalq pedagogikasi ilg'or g'oyalar va tajribalari" (1989) nomli monografiyasida o'zbek Xalq tarbiyasi asosiy yo'nalishlarini o'rganib bu jarayonning milliy o'ziga xosliklarni ko'rsatadi, o'zbek oilasidagi ko'p farzandli onalarining hozirgacha saqlanib qolgan o'zbek oilasining ko'p qatlamligiga Xalq tarbiyasi g'oyalari va tajribalarini asosiy saqlovchisi va yetaklovchisi bo'lganligini isbotlaydi.

"Etnopedagogika" atamasi paydo bo'lgan kundan boshlab ayrim olimlar, ko'pchilik amaliyotchilar "etnopedagogika" va "xalq pedagogikasi" tushunchalarini tenglashtira boshladilar. Bir qator tadqiqotchilar etnopedagogika bilan xalq pedagogikasi o'rtasida aniq chegara qo'ymasdan, ko'pincha an'anaviy xalq tarbiya tajribasini tavsiflab, etnopedagogika atamasini qo'llaydilar. Akademik

G.N.Volkov bu ilmiy tushunchalar orasidagi asosiy farqni izohlab xalq pedagogikasi ko'proq amaliy tajriba va uning tavsifi bilan bog'liq sohani, etnopedagogika nazariy va ilmiy yonadushvni qamrab oladigan fan sohasi ekanligini uqtiradi.

V.S.Kukushina esa xalq pedagogikasi muayyan etnik guruhning tarbiyaviy an'analari, etnopedagogika esa turli umumlashgan an'anaviy, ta'limiy tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish bilan shug'ullanadi deb hisoblaydi.

Shunday qilib **Etnopedagogika** xalq pedagogikasini tushuntirib, uni zamonaviy sharoitda qo'llash yo'llarini taklif etadigan pedagogika fanining bir sohasi hisoblanadi.

Etnopedagogikaning predmeti – xalq pedagogikasi.

G.N.Volkovning fikricha, etnopedagogikaning obyekt-subyekt sohasi quyidagi asosiy masalalarni qamrab oladi:

- oilaviy hayot pedagogikasi;
- maqollar, matallar, hikoya va ertaklar;
- boshqotirmalar, topishmoqlar;
- xalq o'yinlari, namunali o'yinchoqlar va bolalar ijodiyoti;
- turli xalqlarning pedagogik madaniyatlarining umumiyligi va boshqalar.

Har qanday fan kabi etnopedagogikaning ham o'z vazifalari bor.

Vazifalar ijtimoiy ong harakati bilan bog'liq ijtimoiy tuzumning o'zgarishiga qarab shakllanadi va takomillashtiriladi.

Demak, etnopedagogika fani:

1) xalqning asosiy pedagogik tushunchalarini (g'amxo'rlik, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash, o'qitish, o'rgatish, ko'niktirish) o'rganadi;

2) bola shaxsini ta'lim obyekti va subyekti sifatida qabul qiladi (tug'ilgan bola, etim, asrab olingan bola, tengdoshlar, do'stlar, boshqa odamlarning bolalari, bolalar muhiti);

3) tarbiya funksiyalari (mehnatga tayyorgarlik, axloqiy va irodaviy xarakter xususiyatlarini shakllantirish, aqlni rivojlantirish, sog'liqni saqlash, go'zallikka muhabbatni singdirish) amalga oshirishni ta'minlaydi;

4) ta'lim omillari (tabiat, o'yin, so'z, muloqot, an'ana, biznes, hayot, san'at, din, namuna va o'rnak, shaxsiy timsollar, hodisalar-ramzlar, g'oyalar timsollari) bilan amalga oshadi;

5) tarbiya usullari (ishontirish, misol qilish, buyruq berish, tushuntirish, o'rgatish, jazolash, kaltaklash va boshqalar)ni amalga oshiradi va boyitadi.

6) tarbiya vositalari (maqollar, matallar va maslallar, topishmoqlar, dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, urf-odatlar, afsonalar va boshqalar)dan foydalanadi;

7) ta'limni tashkil etish shakllari (bolalar va yoshlar mehnat birlashmalari, yoshlar bayramlari, davlat bayramlari) bilan namoyon bo'ladi.

Etnopedagogikani fan sifatida o'rganish quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- talabalar tomonidan etnopedagogikaning nazariy asoslarini, an'anaviy xalq ta'limi bilimlarini o'zlashtirish, ular asosida bolalar bilan o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali qurishga imkon berish;

- xalq pedagogikasi va atoqli o'qituvchilarning pedagogik g'oyalari bilan o'zaro ijodiy boyitish munosabatlarini bilish.

- hozirgi bosqichda yosh avlod ta'lim va tarbiyasini takomillashtirishda xalq pedagogikasi va xalq madaniyatining boyitish roli haqida bilimlarni egallash;

- sharoitlarda bolalar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini egallash bag'rikenglik, ona madaniyati va boshqa xalqlarning madaniyatini hurmat qilish, insonparvarlik va boshqalar tamoyillari bo'yicha ko'p millatli jamoalar;

- etnopedagogika manbalarini o'rganish, ularni tahlil qilish va o'quvchilarning bolalarni tarbiyalash va o'qitishga oid ilg'or an'anaviy xalq bilimlarini zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalashning usul va usullarini shakllantirishda o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Xalq pedagogikasi fanining metodologik asosi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi

Xalq pedagogikasi fani o'z faoliyati jarayonida ma'lum qoida va qonuniyatlarga tayanib ish ko'radi. Mazkur qoida va qonuniyatlar, g'oyalar fanning harakat va faoliyat traektoriyasini belgilab beruvchi metodologik asoslari hisoblanadi. Ular yordamida u jamiyat talablariga ko'ra o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni hal qilishga erishadi.

Xalq pedagogikasi fanining metodologik asosini:

- mamalakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa sohaga oid qonuniy hujjatlar;

- Prezidentimiz asarlarida olg'a surilgan milliy, madaniy merosni asrab-avaylash, ularni o'rganish, yanada boyitib kelajak avlodlarga meros qoldirish haqidagi fikrlari;

- falsafaning jamiyat, shaxs, ong va ularni tarbiya vositasida o'zgartirish mumkinligi haqidagi qonuniyatlari;


- buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari;

- komil insoni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga dior diniy ta'limotlar;

- xalq pedagogikasi manbalari tizimi tashkil etadi.

Xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlarda va qur'oni karim hamda payg'ambarimizning hadislarida o'z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining hozirgacha yashovchanligi asosan og'zaki tarzda bo'lib, har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha etib kelgan.

Xalq pedagogikasining metodologik asosi



Xalq pedagogikasida tarbiyaning birlamchi, ikkilamchi bo'lmaydi. Hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chekkadan qolmasligi, ayni chog'da tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Shuningdek, xalq tarbiyasida kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutiladi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boriladi. Unda hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko'rinish qisqasi jonli jonsiz neki bor undan mukammal foydalanadi.

Xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasining ajralmas tarkibiy qismidir. Uning qamrovi nihoyatda keng, bag'oyat serqirra va serjilo tushunchadir. Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajribaxulosalarini lo'nda, ammo bag'oyat teran; donishmandnamo tarzda ifodalaydi.

Xalq og'zaki ijodi dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq-odob, inson qadriyatlarini va uning ma'naviy ustuvorligi, iymone'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usulmetodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas qur'oni karim va payg'ambarimiz Muhammad Rasulullohning muborak hadisi shariflariga suyanadi.

Xalq pedagogikasida insonning ona qornida paydo bo'lishidan tortib, to tug'ilganiga qadar, ilk tarbiyasidan tortib, to voyaga etguncha hamda oila qurgunga qadar, yoshini yashab to omonatni topshirgungacha bo'lgan axloqiy, aqliy, estetik mehnat, ekologik tarbiyasi, shuningdek, jismoniy chiniqish bilan bog'liq o'yinlar, xalq pedagogik an'analari hozirgi zamon yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni hamda ahamiyati aks etadi. Shu bilan birga o'zbek an'anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusmlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o'ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi bag'oyat dolzarb mavzularni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida qo'llanma-dastur yoxud darsliklar shaklida etib kelmay, balki asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlar, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunosliklar qatida saqlab qolingan, hamda ollohning so'zi bilan bo'lgan qur'oni karim va payg'ambarimizning hadislarida o'z ifodasini topgan.

Xalqning oilaviy-maishiy hayoti, ta'lim-tarbiyaviy axloq-odobga oid hayotiy yo'l-yo'riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa misollar – dostonlar, ertaklar, mehnat-mavsum marosim qo'shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matalar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tezaytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, aytimlari, olqish va qarg'ishlar, suyush-erkalash qo'shiqlari, erkalamalar, ovutmachochlar, qiziqmochochlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmochochlar, guldur-guplar, sanamalar, o'yinkulgular bilan bog'liq lapar, aytishuv, o'lan, termalar, bolalar tarqalish, chorlash qo'shiqlari ramazon, boychechak, yomg'ir, quyosh, yulduzsuv aytimlari, chandishlar, tegishmochochlar, masharalamalar, "navro'z", "mehrjon", bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo'shiq ashulalari, dehqonchilik, chorvadorlik, kasb-hunarmandchilik bilan bog'liq nasriy va nazmiy asarlar; inson, tabiat va hayvonlar dunyosiga oid namunalar hamda mifologik tasavvurlar aks etgan asarlar bilan boyitilgan.

Qur'oni karim, hadis hamda sharq mutafakkirlarining axloq-odobga oid qarashlari ham xalq pedagogikasining tarkibiy qismiga kiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq nazdida, inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo'lib tug'ilmaydi – u birday tug'iladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, mahalla-ko'y, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat-tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros-oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek, udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi sa'y-harakatlari hal qiluvchi o'rin tutadi.

Xalqimizning ta'kidlashicha, bola boshdan to'g'ri, haqqoniy tarbiyalansa u kelgusida yaxshi inson bo'lib etishadi, egri yo'lda tarbiyalansa – yomon kishiga aylanadi. Zero, "ko'chat boshdan,


bola yoshdan" maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bosh yo'nalishidir. Shu boisdan, xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda-chuydasi, ya'ni birlamchi-ikkilamchisi bo'lmaydi: hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chetda qolmasligi, ayni choqda tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Xarakterlisi yana shundaki, xalq tarbiyada kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutadi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunni qadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boradi...

Xalq pedagogikasining yana bir ibratli jihati bor. Bu hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko'rinish, qisqasi jonli-jonsiz neki bor, undan mukammal foydalanishdir. Kezi kelganda xalq an'anaviy pedagogikasida ishonirish, isbotlash, ta'sir, ibrat namunasi, tajriba natijalari, tasdiqlash ham alohida o'rin tutishini aytib o'tish zarur. Buni ayniqsa dov-daraxt, tog'-tosh, parranda-darrandaga bag'ishlangan folklor namunalarida yaqqol ko'rish mumkin. Xalqning bunday qarashlari tag-zaminida to'rt unsumni asrash, avaylash, ya'ni ekologik tarbiyani anglash qiyin emas. Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so'zlar - duo-olqishlar ham tarbiyaga qaratiladi. Xalq an'anaviy pedagogikasida yaxshi so'z, duo-olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustuvorligi, imon-e'tiqod butunligi, qisqasi kishilarning har tomonlama mukammal kamoloti borasida tutgan o'rni va roliga alohida ahamiyat beriladi.

El-yurt uchun har tomonlama mukammal insonni tarbiyalashga qaratilgan o'zbek xalq pedagogikasi ham ayrim shaxslar yohud bir-ikki jamoa (ular qanchalik iqtidorli-iste'dodli bo'lishmasin) tomonidan yaratilmagan, albatta. Uni xalqimiz asru asrlar bilan o'lchanuvchi hayotida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan tutimlari, sa'y-harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aql-zakovatlari bilan yaratgan.

Xalq pedagogikasi o'z rivojida, boyib, mukammallashib borishida ilm-fanning boshqa sohalaridan, ya'ni mumtoz adabiyot, tarix, etnografiya, san'at, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar bag'rida shakllanib, ular bilan bevosita aloqada bo'ladi, eng yaxshi namunalarini o'ziga qabul qilib oladi. Shuningdek, pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi barcha fanlar, psixologiya,

fiziologiya, gigiyena fanlari bilan hamkorlikda rivojlanib boradi.



Hamisha safarlarda bo'lib, o'zga yurt kishilari bilan muloqotlarda bo'lish, izlanishlar olib borishdan toliqmaslik kabi xislatlar o'zbek xalqi karakteriga xos fazilatlaridandir. Insonparvarlik, baynalmillilik, hushyorlik, zukkolik, topqirlik, bilimdonlik, uquvlikni o'ziga e'tiqod qilib olgan o'zbek xalq pedagogikasi ayni choqda sharq odobnomasi, ibratnomasidan doimiy ravishda bahramand bo'lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go'zal namunalarini o'ziga qabul qilib olgan. Shunday qilib, o'zbek xalq pedagogikasi turkiy xalqlar - otabobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, saqlab kelgan ota meros, sharq xalqlarining boy va betakror odobnoma va odatnomasi, xalq pedagogikasidagi eng yaxshi namunalar, allomalaru adabiyot va folklor ijodkorlari-ijrochilarining bu boradagi sa'y-harakatlari, yaratgan asarlari bilan qo'shilgan holda shakllanganligi, rivojlanganligi va boyib borganligini e'tirof etish birdan-bir to'g'ri yo'ldir.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida yashab keldi. Ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol o'ynadi. Oddiy insonlarni yoxud buyuk allomalar, shunchaki fuqaromi va yo yurt sultonlari, kichik

suvoriymi yoki ulug' sarkardami, baribir xalq tomonidan yaratilgan, amalda bo'lgan xalqona tarbiya an'alariga to'la amal qilgan. unga suyangan, tayangan holda yashasa, faoliyat ko'rsatsa kam bo'lmagan, el-yurt nazariga tushgan, olqishiga sazovor bo'lgan. Xalq pedagogikasining bunchalik ta'sir kuchi, ahamiyati nima-da? Yashovchanligi, "umri"ning shunchalar uzoq muddatlar bilan o'lchanishi, uni hech qanday kuch-qudrat bilan tenglashtirib bo'lmashligining boisi qayerda? degan savollarga javoban:

– birinchidan, xalq pedagogikasining hayotiyligi, ta'sirchanligi, serqirra va serma'noligi;

– ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'alarda yaratilishi, yashashi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari echimini hal qilishga qaratilgani;

– uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya-maqсадlarga qaratilgan bo'lganligidir deyish mumkin.

Shu bois, boshqa dunyoqarash, mafkura, ma'naviyat omillari kabi, xalq pedagogikasi tarix to'fonlari-yu ur-yiqitlariga, to's-to'olonlarga bardosh berib, tajriba-sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, toblanib, sayqallashib, hech bir payt, hech bir davrda – u qanchalik og'ir, murakkab, qiyin bo'lmasin, baribir o'z "faoliyatini" to'xtatmasdan, aksincha faol xizmat qilib, avlodlar tarbiyasi, kamoloti borasida hal qiluvchi rol ni o'ynab keldi.

Xalq bor ekan, el yashar ekan, xalq pedagogikasi yashay- veradi, o'zining avlod-ajdodlarga beminnat "xizmati"ni o'tayveradi. Zero, xalq orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, g'ussasi-yu armonlari, shodlik, baxtiyorlik onlari-yu qadr-qimmatlari, ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, dunyoqarashi, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalari xalq pedagogikasida zuhr etiladi.

Komil inson tarbiyasida xalq pedagogikasining tutgan o'rni

Milliy istiqloq tufayli xalqimizning o'z milliy, madaniy, tarixiy merosini o'rganish imkoniyatlari qayta tiklandi. Milliylik, o'zlikni anglash yo'lidan borib, milliy istiqloq mafkurasi xalq ommasiga ongiga singdirilmoqda. Ota-bobolarimiz e'tiqod qilgan islom dinining tarbiyaviy ahamiyati yanada kuchaydi.

Qadimgi Turon mulkida yaratilgan adabiyot, san'at, moddiy va ma'naviy boyliklar barcha turkiy xalqlar boyligiga aylandi. Ularda xalqimizning milliy qadriyatlarini o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida komil insonni tarbiyalashda ular muhim ahamiyat kasb etadi.

Xatto, komil inson haqidagi mukammal ta'limot ko'xna Sharq falsafasida yaratilgan. Bu haqdagi fikrlar etnopedagogika manbalarida o'z aksini topgan. Ularni qayta tiklash, o'rganish, ijobiy jihatlarni pedagogik amaliyotga joriy etish milliy istiqloq davridagina mumkin bo'lib qoldi. Modomiki: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifat..." ekan, xalq pedagogikasi xuddi shu ma'rifatni targ'ib etuvchi tarbiya vositasidir. Shuning uchun Respublikamizda milliy istiqloq davrida komil insonni tarbiyalash kelajagi buyuk davlatni barpo etishning asosiy sharti sifatida talqin qilinmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda etnopedagogika yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Vujudimiz va qadriyatlarimizda neki bo'lsa, barchasi o'tmishdoshlarimiz va buyuk ajdodlarimiz rihiyatida jamlanganligini har bir o'qituvchi va o'quvchi chuqur bilmog'i va his etmog'i darkor. Bu kabi mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda bizga "Xalq pedagogikasi" fani yaqindan yordam bera oladi. Shuning uchun mazkur fanni o'rganish, uning manbalari haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lish bulajak pedagog-kadrlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy pedagog-kadrlarni tayyorlashni ushbu omillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jamiyat taraqqiy etgani sari ommani itoatkorlikka chorlovchi, diniy ruhdagi asarlar paydo bo'la boshladi. Ko'pincha, etnopedagogik asarlarda zulm va yovuz kuchlar ustidan g'alaba qiluvchi, komil shaxs darajasiga ko'tarilgan qahramonlarni tasvirlash kuchaydi. Ularda eng oliy insoniy (tarbiyaviy) sifatlar: ilm egallash, kasbhunar o'rganishga undaydi. Adolatli jamiyat va odil hukmdorlar orzu qilindi.

Vatanparvarlik, ma'naviy va jismoniy komillik, halollik va adolat, insonparvarlik, do'stlik g'oyalari targ'ib etildi. Xalq pedagogikasi asarlarida xalq ideal darajadagi fazilatlar sohibi bo'lib, barcha yaxshi va yomon tarbiyaviy sifatlarni ko'ra biladi. Shuning

uchun u eng barkamol, ommani ergashtira oluvchi qahramonlarnigina tan oladi. Shuning uchun ularda ijobiy qahramonlar tipiklashtiriladi. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li, Avaz, Ravshanxon, Nasriddin afandi, Aldar ko'sa va boshqalarda yuksak tarbiyaviy sifatlar mujassamlashgan. Dostonlarda qahramon va uning dushmani, ertaklarda dono dehqon va zolim boy, o'gay ona va jafokash qiz kabi obrazlarda xalqona kamtarlik va hukmrona takabburlik zuhr etilgan.

Xalqning yuqorida qayd etilgan azaliy orzu-umidlari aks etgan etnopedagogika manbalari vositasida buyuk mutafakkirlar pedagogik qarashlari ham shakllangan. Chunonchi, Ibn Sino o'zining "Tadbiri manozil" asaridagi "Maktabda bolalarni o'qitish va tarbiyalash" deb nomlangan bobida umumta'lim g'oyasi olg'a suradi. Ta'limda suhbat metodini qo'llashni, aqliy mashg'ulotni jismoniy mashg'ulotlar bilan almashib turishni tavsiya etadi. Jamoada o'qitish afzalliklarini uqtiradi. Bunday ilg'or pedagogik fikrlarni Beruniy, Forobiy, Rudakiy, Nosir Xisrav, Sa'diy, Yusuf Xos Hojib, Umar Hayyom, Burxoniddin Zarnudjiy, Ahmad Yugnakiy asarlarida ham ko'rish mumkin. Buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari shakl va mazmuniga ko'ra xalqning pedagogik donishmandligi bilan uyg'unlashib ketgan. Ular Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Demak, xalq pedagogik g'oyalari buyuk mutafakkirlar pedagogik qarashlari bilan hamohang shakllanib, ular bir-birini takomillashtirib, boyitib borgan.

Donishmandlar asarlarida xalqning amaliy pedagogikaga doir fikrlari ilmiy pedagogik tusga kira borgan. Shu taxlitda pedagogika ilmi takomillasha borgan. Xalq pedagogikasining bosh obyekt - yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonidir. Shuning uchun xalq tarbiyaning mohiyatini qanday tushunishi, tarbiya jarayonida qanday metod va usullardan foydalanishi, tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini qanday talqin etishi haqidagi masalalar qiziqarlidir. Shuningdek, xalq asrlar davomida to'plangan, ilmiy-pedagogik tushunchalar bilan boyib borgan bilimlarni oilaviy tarbiyaga qanday tadbir etganligini ham tahlil etish zarur.

Xalq hamisha yosh avlod tarbiyasi mohiyatini to'g'ri talqin etgan. Bu yo'ldagi qiyinchiliklar va quvonchlarni, uning bebaho ish ekanligini to'g'ri anglab yetgan. Shuning uchun: "Tarbiya - bebaho

boylik" deganlar. Turkmanlar: "Bola aziz, odobi undan aziz" desalar, o'zbeklar: "Aql bahosiz, tarbiya esa chegarasiz" deb bejiz aytmagan. Chunki tarbiya jarayoni tarkibiga ko'plab yo'nalishlar kiradi. Ammo, bunda eng muhim yo'nalishni aqliy tarbiya tashkil etadi. Shuningdek, tarbiya jarayoni g'oyat murakkab ish, u alohida e'tibor, bilim va malakani talab etadi. Xalq inson tarbiyasini ona qornidayoq boshlash zarurligini allaqachon anglab yetgan. Agar bola tarbiyasida vaqt o'tkazib qo'yilgan bo'lsa, yoki tarbiya noto'g'ri olib borilgan bo'lsa, qayta tarbiyalash zarurligi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta'kidlangan.

Xalq pedagogikasi manbalarida bola tarbiyaviy sifatlarining shakllanishi bevosita ota-onaga bog'liq ekanligi alohida ta'kidlangan. Chunonchi: "Bolaning qadami oiladan boshlanadi", "Yomon o'g'il uchun ona, yomon nabira uchun buvi javobgar", "Sababi otada, natijasi bolada" kabi maqollar shular jumlasidandir.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino ham bola tarbiyasida ota-onaning tutgan o'rnini yuqori baholab, "Tadbiri manozil" asarida: "Agar oila tarbiya metodlaridan to'g'ri foydalansa, u hayotda baxtga erishadi. Oilada bosh tarbiyachi - otadir, onaning yumshoq ko'ngilliligi bola xarakterini buzadi", - deydi.

Xalq bola tarbiyasida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ham hayratlanarli darajada to'g'ri tushunadi. Shuning uchun yomon xislatli bolalar muhiti bola tarbiyasini buzib qo'yishi mumkinligi quyidagiga ta'kidlanadi: "qovun-qovundan rang oladi", "Oriyatsiz odamdan qoch!" "Yomon bilan yursang qolarsan uyatga, yaxshi bilan yursang yetarsan murodga", "Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqor" kabilar. Shuning uchun Ibn Sino pedagogik jarayonni yaxshi xulqli bolalar jamoasida olib borishni tavsiya etib: "Barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarini jamoada olib borish zarur. Chunki bolalar jamoa muhitida do'stlashadilar, bir-birlarini hurmat qilishni o'rganadilar, yaxshi xislatlarni ham bir-birlaridan o'rgandilar" - degan edi. ("Tadbiri monozil" asaridan).

Bola tarbiyasida yomon tomonga og'ish yuz berishi ham mumkinligini to'g'ri his etgan xalq, ularni qayta tarbiyalashga oid qator metodlarni tavsiya etadi: "Buyumni suv bilan, insonni o'rgatish bilan tozalashadi". Lekin Rudakiy ta'kidlaydiki: "Agar kim olmasa hayotdan ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim".

Yoki: "Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo'q.", "Toptalgan o'tloqda ham gul unadi" va boshqalar shular jumlasidandir.

Muslihiddin Shayx Sa'diy bolani oilada yoshlikdan tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolani yoshligida istalgan maqsad yo'nalishida tarbiyalash mumkin. Chunki bola yoshligida ho'l novda singari tarbiyaviy ta'sirga tez beriladi. Shuning uchun: "Ho'l novda egilar qay holda egsang, qurigach to'g'rilar uni o't-otash", - deydi. Shuningdek, u hatto: "Temirchining bolasi o'qisa bulur olim" - deb ta'kidlaydi.

Xalq pedagogikasi manbalarida ta'kidlanganidek: "Bir ota-ning bolalari ham har xil bo'ladi", "Beshta barmoq teng emas" kabi maqollar mazmuniga tayanib ish ko'rgan. Xalq pedagogikasida tarbiya jarayonida uning mezonlariga amal qilish lozimligi ko'rsatib o'tilgan, kattalarning o'rnak bo'lishi, o'z-o'zini tarbiyalash singari metodlar ham e'tibordan chetda qolmagan. Shuningdek, tarbiyada bolaning ruhiy va yosh xususiyatlari ham inobatga olingan: jumladan: "Bola tarbiyasini beshikdaligidan, buzoqnikini qoziqdaligidan boshla!", - maqoli ushbu fikrning isboti bo'la oladi.

Etnopedagogikaning barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifatni egalash, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarini egallash yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" va boshqa asarlarida komil inson tarbiyasi haqida o'z qarashlarini ifodalashda xalq pedagogikasi elementlaridan unumli foydalan-ganlar.

Xalq bola fe'li va ruhiyatini go'dakligidan kuzatish oqibatida uning axloqiy sifatlarini bilib olgan. Shuning uchun tarbiyani ona qornidayoq boshlash lozimligini tavsiya etgan. Chunonchi, "Bola boshidan, meva ko'chatidan bilinadi", "Bolani beshikdan tarbiyalash kerak", "Uch yoshlining amali sakson yoshda ham saqlanadi" kabi maqollar va hikmatli so'zlar fikrimizning dalilidir.

Xalq pedagogikasining imkoniyatlari

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan eng ilg'or pedagogik bilimlar, malaka va ko'nikmalar, zamonaviy o'quv dargohi va oila tarbiyaviy tizimida yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun qulay shartsharoitlarni yaratish tushuniladi. Masalan, xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi esa har tomonlama yetuk inson, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir. Chunonchi, xalq pedagogikasi qadriyatlari ma'naviy yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash, barkamol shaxs tarbiyasi hamda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratib beruvchi manbadir.

Hozirgi kunda ommaviy madaniyat ortidan yoshlarimiz orasida bir qator yomon xulq va illatlar: odobsizlik, baxillik va nokamtarlik, sabrsizlik, qadrlamaslik, bevafoqlik, kaltabinlik, ishonchsizlik, nomussizlik, nosamimiylik, andishasizlik, isrofgarchilik, rejasizlik, me'yorsizlik, mas'uliyatsizlik kabi salbiy xususiyatlar ko'paygani qatorida, kiyinish, so'zlashish, yurish-turish, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati, muomala, jamoat va kattalar oldida o'zini tuta bilish ko'nikmalarining shakllanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Jamiyatimizda yuzaga kel-yotgan mazkur muammolarning yechimini ishlab chiqishda ham xalq pedagogikasi bilan hamkorlikda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ayni muddaodir.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalqning yoshlarga bilim va amaliy ko'nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o'stirish, axloqiy nafosat g'oyalarini egallashlarida qo'llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy ta'lim jarayonida qo'llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san'atga o'rgatish uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, musiqa asboblarini yasash, kulolchilik va boshqa amaliy san'at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o'z usullari, uslub va vositalari mavjud.

Shuningdek, o'zbek xalq pedagogikasi asosida:

– farzandlarni estetik idroki, hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish;

– bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish va takomillashtirish;

– estetik tarbiyada bolalar o'yin folklorining o'rni va ahamiyati, bolalar folklor-etnografiya dastalari – estetik tarbiya markazi ekanligi, vorislik, ustoz-shogirdlik an'alarining pedagogik, axloqiy-estetik ahamiyati;

– yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha san'ati – sirk, dorbozlik, askiya, baxshi – shoirchilik, dostonchilik, ertakchilik, qiziqchilik, taqlidgo'ylik, qiroatxonlik, qissaxonlik, otunlik, voizlik kabi san'atlarining tutgan o'rni va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati;

– xalq an'anaviy sporti, farzandlar jismoniy baquvvatligi va etukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi, bolalar o'yin folklorining pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati;

– xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayohatning, savdo-sotiq va tijoratning o'rni, jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarida xalq qiziqarli tomosha san'ati;

– axloq-odob va ta'limning uyg'unligi va o'ziga xosligi xalq sport va jismoniy tarbiyasida jinsiy tafovutlarga ahamiyat berishning, axloqiy-aqliy ahamiyati;

– xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uyg'unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrdaraxtlar, o'simliklar va giyohlarga: yer, suv, borliq-atrofga insoniy munosabat – xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asosi ekanligi;

– odatlar, udumlar, rasm-rusmlar, marosimlar, irim-sirimlar, qarg'ish va olqish-duolar, tabiat, diniy bayramlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, xalq ommaviy bayram-sayllari “navro'z”, “mehrijon”, “hayit-ro'za”, “hayit bayrami” va boshqalarning, bolaning dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, tish chiqishi. ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-bosh kiydirish, besh, yetti

kun, o'n bir kunligi, bir yilligi, uch, to'rt, besh yilligining alohida bayram qilinishi, maktabga borishi, sunnat qilinishi, kokil qo'yish, kokil oldirish, mo'ylov oshi, uylanish-nikoh to'yi, birinchi farzand ko'rish, qirq, ellik, oltin yoshlar tantanalari, payg'ambar yoshi, etmish, sakson, to'qson yillik yubileyi, kumush to'y, oltin to'y, marvarid to'y va boshqa bayram-sayllar, to'y-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an'alarining ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik yo'nalishi va ahamiyati va shu kabilar yotadi.

Sanab o'tilgan va boshqa yuzlab udumlar, rasm-rusmlar, odatlar, marosimlar, an'alar, boshqacha ibora bilan aytganda, qadriyatlar, xalq pedagogikasining qirralari naqadar ko'p va xo'b-ligini taqozo etadi.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirishda kundalik hayotdagi tanish hayotiy voqealarni misol tariqasida qo'llash o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi va dunyoqarashini kengaytiradi. Xulosa qilib aytganda, milliy ta'lim-tarbiya xalq pedagogikasi an'analari asosida o'qitish va tarbiyalashdan boshlanadi. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya tizimining barcha tarkibiy qismlarida foydalanish mumkin. Milliy tarbiya an'alarining didaktik imkoniyatlari asosan o'qitish jarayonida qo'llaniladi.

Ko'pgina fan o'quv dasturlari va darsliklarida xalq donishmandligidan olingan va boy tarbiyaviy ahamiyatdagi mavzular hamda o'quv materiallari berilgan. Buni maktabning boshlang'ich sinfidan tortib to oliy ta'limning bakalavriat va magistratura yo'nalishlaridagi fanlarni o'rganishda ko'rish mumkin. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejaridagi “O'zbek tili”, “Vatan adabiyoti” kabi darsliklarida atroflicha yoritilgan xalq og'zaki ijodiyoti, o'zbek adabiyoti klassiklari asarlari xalq pedagogikasi manbalari sifatida chuqur tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Xalq og'zaki ijodi namunalari va o'zbek mutafakkirlari asarlari bilan yoshlarni tanishtirishda o'qituvchi yorqin badiiy obrazlarga asosiy e'tiborini qaratishi zarur. O'quvchilar esa bu obrazlarni qabul qilishlari, tushunishlari va his etishlari kerak. Zero, badiiy obraz orqali o'quvchilarda turli hissiyotlarni vujudga keltirish mumkin. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonini o'rganishda Farhodning jasoratli mehnatiga tan berish, Shirinning vafodorligi va

go'zalligiga lol qolish, Xisravning yovuzligi va makkorligiga g'azablanish kechinmalari uyg'otiladi. O'zbek tili darsliklarida o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rganishda, grammatik qoidalarni egallashda chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega boigan folklor asarlari, ya'ni dostonlar, rivoyatlar, qo'shiqlar, ertaklar, maqollar, naqlar, hikmatli so'zlar va hokazolardan tuzilgan misollardan iborat mashqlar qo'llaniladi. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida o'tiladigan tarix darslarida turli tarixiy davrlarda xalqimizning milliy urf-odatlar va an'analari, me'morchiligi va amaliy san'ati, hamda fan va madaniyatning boshqa sohalari qanday rivojlanganligi haqidagi qator bilimlar o'zlashtiriladi. Bunday bilimlar o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, ularda axloqiy nafosat xususiyatlarini shakllantirishga, vatanparvarlikni tarbiyalashga ko'maklashadi, ya'ni xalq tarixi – milliy ongning bir bo'lagi sifatida o'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Biz o'zbek tili, adabiyoti, tarix darslari misolida gumanitar fanlar mazmunida xalq pedagogikasini qo'llashning imkoniyatlari haqida so'z yuritdik. Lekin aniq fanlarni o'qitishda ham o'quv materiali mazmunining tarbiyaviy xususiyatlarini aniqlash va ulardan yoshlar tarbiyasida foydalanishga ko'proq ahamiyat berish talab etiladi, zero, barkamol shaxsni shakllantirish uchun tarbiyaga kompleks yondashish zarur.

Avvalo, aniq fanlarda darsning didaktik maqsadlarga erishishining o'zi o'quvchilar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aniq fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Masalan, fizika, biologiya, geografiya va boshqa aniq fanlar bo'yicha darslar davomida aniq tabiiy qonuniyatlar, hodisalar, jarayonlarni tushuntirish orqali ulardagi eng umumiy belgilar, sifatlar va xossalarni yoritib beriladi. Jumladan, fizika darslarida materiya haqida tushuncha berishda xalq og'zaki ijodi namunalari biri – topishmoqlardan keng foydalanish mumkin. O'quvchilarga fizik hodisalar yoki osmon jismlari haqida topishmoq tarzida aytib berish havola etiladi. Masalan: Ko'k ko'ylakka qo'l yetmas. (Osmon)
Uzoq tog'da o't yonar. (Quyosh)

Shu o'rinda U.Gadoyboev, K.Yo'ldoshevlarning "Fizika darslarida xalq maqol va masallaridan foydalanish" xususidagi maqolasiga murojaat etish mumkin. Astronomiyani o'rganishda buyuk alloma Mirzo Ulug'bekning hayoti va asarlari, biologiya darslarida Abu Ali ibn Sino asarlari, matematikada Al-Xorazmiy, Umar Hayyomning hayoti va asarlarini, falsafiy she'rlar bilan qo'shib o'rganish ham katta samara beradi. Aniq fanlar, xususan, iqtisodiyotga oid fanlarni o'qitishda avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan xarid qilish, mahsulotni xaridorgir qilib tayyorlash, raqobatga bardosh berish, savdo usullari, tejamkorlik haqidagi ma'lumotlarni o'zbek xalq maqollari, diniy ta'limotlar, hadislardan namunalar keltirib berilsa, yoshlarning g'oyaviy-siyosiy va iqtisodiy tarbiyasi samarali bo'ladi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda ham xalq pedagogikasi manbalaridan unumli foydalanish mumkin. Bunda o'quv fanlari bo'yicha turli to'garaklar, tematik kechalar, muloqotlar, savol-javob kechalari, tanlovlar, olimpiadalar, sayohatlar, "Quvnoqlar va zukkolar" bellashuvlarini tashkil qilish lozim. Xalq pedagogikasi asosida tashkil qilinadigan yuqoridagi kabi tadbirlarning yagona talabi: mashg'ulotlar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va mazmuni hayot bilan bog'liq bo'lishi hamda tizimli olib borilishi, mashg'ulotlarda yoshlar faoliyati xilma-xil va yangi ma'lumotlar, bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni egallashdan iborat bo'lmog'i kerak. Axloqiy mavzuda o'tkaziladigan munozaralar, savol-javob kechalari, yoki o'zbek xalqi tarixi va madaniyati bo'yicha ko'rik-tanlovlar o'quvchilarni xalq pedagogikasi asosida tarbiyalashga katta imkoniyatlar yaratadi.

Xususan, pedagogika va psixologiya mutaxassisligini mukammal egallashda ham xalq pedagogikasining o'rni beqiyos, "Pedagogika tarixi", "Pedagogik konfliktologiya", "Oila pedagogikasi", "Pedagogik korreksiya", "Tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi", "Ijtimoiy pedagogika" kabi pedagogika yo'nalishidagi hamda psixologiya shaklidagi qator fanlarni o'qitishda ham xalq pedagogikasi manbalaridan unumli foydalanish mumkin. Bu esa har bir fan o'qituvchisidan o'z kasbiga, mehnatiga vijdonan yondashishni va uning shaxsiy namunasini talab qiladi. Zero, o'zbek xalq pedagogikasi, uning manbalari, tarbiyaviy va didaktik imkoniyat-

larini har bir fan o'qituvchisi avvalo o'zi yaxshi o'zlashtirib olishi, bunda fanni o'qitish metodikasi bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalariga asoslanishi lozim bo'ladi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi va muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Xalq pedagogikasining asosiy tadqiqot obyekti nima?
3. Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Etnopedagogika fani nimalarni o'rganadi?
5. Pedagogik madaniyat tushunchasini ta'riflang.
6. Xalq pedagogikasiga ta'rif bering.
7. Xalq pedagogikasi qanday fanlar bilan o'zaro aloqada o'rganiladi?
8. Xalq pedagogikasi manbalariga nimalar kiradi?
9. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda nimalarni tushunamiz?
10. Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari.

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASINING TARAQQIYOT TARIXI

Xalq pedagogikasining davrlashtirish masalasi

O'zbek Xalq pedagogikasi uzoq tarixga ega va millatdagi eng konservativ, sekin o'zgaradigan, ana shu xususiyati tufayli xalqning o'ziga xos qiyofasi saqlanib qolishini ta'minlaydigan hodisa ekanligiga qaramay, o'z taraqqiyoti davomida bir qator o'zgarishlarni boshidan kechirdi.

O'zbek Xalq pedagogikasining taraqqiyot tarixi:

- islomgacha bo'lgan davr xalq pedagogikasi;
- islom ta'siri davri xalq pedagogikasi;
- tashqi ta'sirlar davri xalq pedagogikasi;
- mustaqillik davri xalq pedagogikasi singari bosqichlardan iborat.

O'zbek Xalq pedagogikasining bu tarzda davrlashtirishda xalq ruhiyati, yashash va fikrlash tarzidagi tub sifat belgilarining o'ziga xosligi hisobga olingan.

Ko'p ming yillik tarixga ega o'zbek xalqi ilmiy va moddiy buyum tarzidagi dalillarga ko'ra, islom dini qabul qilingungacha bo'lgan vaqtda tamomila o'ziga xos tarzda hayot kechirgan. Olam hodisalarini o'zgacha yo'sinda tushungan va izohlagan, hayotdan boshqacha ta'sirlangan va ta'sir ko'rsatgan, tiriklik va o'lim, u dunyo va bu dunyo, ezgulik va yovuzlik, go'zallik va xunuklik, savob va gunoh, halol va harom singari tushunchalar o'zgacha mazmun anglatgan. "Avesto" asari yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, shuningdek, Selengur, Xorazm, Bolaliktepa, Issiq-qo'rg'on, Chust, Rishton va Burchmulladan topilgan obidalar shundan dalolat beradi.

Islom dinining qabul qilinishi o'zbek xalqining turmush tarzini tamomila o'zgartirib yubordi, uni olamning musulmonlar deb atalmish ko'p sonli qavmi bilan yaqinlashtirdi, xalqning turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, ruhiyati, iqtisodi va ijtimoiy turmushiga favqulodda katta ta'sir ko'rsatdi. Ayni vaqtda, xalq o'zining azaliy milliy qiyofasini ham saqlab qoldi. Chunki u qadimdan puxta shakllangan va qat'iy amal qilnadigan udumlar, odatlar, an'analar tizimiga ega edi. Xalq islomni qabul qilgandan keyin uning yashash, fikrlash, ta'sirlanish tarzida sodir bo'lgan o'zgarishlar Xalq pedagogikasida aks etdi. Endi xalq halol va harom, gunoh va savob, taqdir, qismat, u dunyo va bu dunyo, hayot, o'lim hamda qayta tirilish borasida tamomila yangi qadriyatlarni o'zlashtirdi, ularni hayot tarziga, udumlarga, urfodatlarga, an'analarga, marosimlarga, ya'ni pedagogikasiga aylantirdi. Bu davrdagi xulq-atvor, an'ana, udum, odatlar ma'naviy turmushdagi ayni shu jihatlarni aks ettiradigan bo'ldi.

O'zbek millati juda uzoq vaqt mobaynida islom dini ta'siridagi Xalq pedagogikasiga amal qilgan holda yashadi. XIX asrning 2-yarmiga kelib, Rossiya bosqini sababli o'zbek xalqining turmush tarzi, fikrlash yo'sini, tarbiya tamoyillarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Faqat islom dini belgilagan turmush tarzi, aqida, an'ana va odatlar bilangina yashash mumkin bo'lmay qoldi. Xalqning ongi, axloqi, fikri, turmushi o'zgarishi bilan uning pedagogikasi ham o'zgarishlarga uchradi. Yangi an'ana va odoblar paydo bo'ldi, ayrim pedagogik qadriyat, axloqiy aqidalar esa yo'qoldi. Xalq pedagogikasidagi yo'qotishlar, ayniqsa, sho'ro davrida keng tus

oldi. Xalq pedagogikasi tufayli shiddatli o'zgarishlar girdobida qolgan o'zbek millati o'z qiyofasini saqlab qola bildi.

Istiqloq natijasida esa o'zbek xalqining fikrlash, yashash, olamni anglash va izohlash yo'sini yangilandi, xalq ruhiyati, ma'naviy qiyofasi o'zgardi. Bu o'zgarishlar xalqning turmush tarzida paydo bo'layotgan yangi odat, an'ana, xulq-atvor, urf va odumlar tarzida namoyon bulmoqda. Mustaqillik davri Xalq pedagogikasida ko'plab islomiy an'analar qayta tiklanib, amaliy tarbiya jarayoniga tatbiq etila boshlandi. Xalq pedagogikasi tarixiy tushuncha sifatida hozirgi kunda ham zamon talablariga moye ravishda boyib bormoqda va jiddiy amaliy tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.

Islomgacha bo'lgan davr xalq pedagogikasi

O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ibtidoiy jamoa tuzimi davrida ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etib borishi bilan jamoa a'zolari zarur vositalarni oddiy qurollar yasashga kirishdilar. Ularning bu harakati jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etdi, natijada jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli yuzaga keldi, turmush kechirish uchun jamoa bo'lib yashash zaruriyati payd bo'lishi bilan ishlab chiqarish aloqalari-ibtidoiy jamoa shakllandi. Jamoada etnografik asosdagi muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni ayollar bajardilar, bola tarbiyasi ularning ixtiyoriga topshirildi. Shu asosda jamoada ayollarning mavqei ortdi.

Keyinchalik, jamiyatda ishlab chiqarish qurollarining mukammallashib borishi bilan jamoada mehnat taqsimoti o'zgardi. erkaklar asosan, chorvachilik va ov bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajardilar, iqtisodiy hayotda ular yetakchilik mavqei egalladilar.

Jamiyat hayotida ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida turli xilda xo'jaliklar shakllana boshlandi. Odamlarda turmushga munosabat o'zgardi. Toshkent, Buxoro, Surxandaryoda yashovchi jamoa a'zolari, tasviriy san'at, o'ymakorlik san'ati, kulolchilik, naqqoshlik bilan shug'ullandilar. Sug'oriladigan erlarda dehqonchilik, chorvachilikning taraqqiy etib borishi, ayrim jamoa, urug', oila xo'jaligida qo'shimcha ishchi kuchiga muhtojlik sezilishi oqibatida yuzaga kelgan qulchilik jamiyatida quldorlik xususiyatini ifodalovchi jamiyat, turli din va aqidalar paydo bo'ldi.

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki to qurollardan tirikchilik uchun foydalanish ancha takomillashgan mehnat qurolini yasash, urug'chilik davriga kelib xo'jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o'z ichiga olgan davrgacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatiga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarda turli qabila va elatlar yashaganlar. Ular saklar, massagetlar, sug'd-lar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabilalardan iborat bo'lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiy zabon xalqlarning hayot kechirish san'ati donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishni namunasi tarzida e'tirof etilgan. Ma'naviy-madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Maxmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" kabi asarlari, Urxun-enasoy bitiklari kabi adabiy tarixiy manbalarda saqlangan.

Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay daraja katta o'rin tutganidan dalolat beradi.

Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan hislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari, qadimgi eposlarda aks etgan, afsonaviy obrazlar hamda qahrmonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Afsona va rivoyatlarda eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxiologik qazilmalar natijalarida topilgan ko'rgazmali ashyolar.

2. Xalq og'zaki ijodi materiallari va yozma manbalar.

3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Eramizdan avvalgi mingingchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusida juda ko'p afsona va rivoyatlar yaratilgan. Agar bu afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" mundarijasidan o'rin olmaganda edi, biz bular haqida hech qanday ma'lumotlarga ega bo'lmagan bo'lar edik. "Avesto" kim tomonidan yaratilganligi borasida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, mashhur sharqshunos olim Ye.E.Bertelsning fikriga ko'ra, asar 1278-yili Zardusht ibn Baxrom ibn Pashdu degan kishi tomonidan yozilgan. Zardusht taxminan milloddan avvalgi 570-yili tug'ilgan bo'lib, 77 yoshida ibodat qilayotgan paytida dushman kohinlaridan biri tomonidan o'ldirilgan.

"Avesto" eramizdan avvalgi IV asr oxiri VI asr boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli hisoblanadi. Asarning to'liq kitob holida shakllanishi eramizdan avvalgi I asrga to'g'ri kelishi barcha manbalarda qayd etilgan.

G'arb, rus va o'zbek olimlari mazkur asar mazmunining har tomonlama tahlil qilishda harakat qilganlar. Zero, "Avesto" inson shaxsining kamolotga erishishga oid fikrlar ifoda etilgan.

Avesto o'zbek, umuman O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona manba "Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir"⁶.

O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasi "Avesto" yaratilganining 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi (1999-yil noyabr.).

"Avesto"ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o'rini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi qarordan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror e'lon qilib (2000-yil 29-mart), "Avesto"ning 2700 yilligini nishonlash tadbirlarini belgiladi. Unga ko'ra 2001-yilning oktyabr oyida O'zbekistonda xalqaro ilmiy konferensiya va tantanali bayram tadbirlari o'tkaziladi.

O'zbekiston hududida er.av. VII-VI asrlarda sug'orish ishlari rivojlanib, ho'jalik a'zolari bog'dorchilik, polizchilik bilan shug'ullandilar. Bu davrda Ariya, Xorazm, Sug'd va boshqa viloyatlarning iqtisodiy-jo'g'rofiy xaritasi, qazilmalaridan olingan mis, temirdan turli qurol va ro'zg'or buyumlari ishlana boshlandi.

Er. av. IV asr boshlarida Aleksandr Makedonskiy hukmronlik qilgan yillarda ijtimoiy hayotda ziddiyatlar bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyo ilm-fan, madaniyat sohasida rivojlanish yuz berdi. Tabiiy fanlarni rivojlantirishga e'tibor berildi, antik tipdagi binolar qurildi.

Er, av. 2 ming yillikda paydo bo'lgan, XVI asrga qadar Uzoq Sharq, ya'ni Xitoy, Yaponiyani Old Osiy bilan bog'lagan "Ipak yo'li" faqat savdo, siyosiy va ijtimoiy madaniy aloqa yo'li ham bo'ldi, mamlakat, shaharlar xalqlarining, jumladan, O'rta Osiyo va Eron, Turkiya halqldari Musiqa madaniyatining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. "Ipak yo'li" xalqlarining urf-odati, an'analari, madaniyatining bir-biriga uyg'unlashuvida muhim rol o'ynadi. "Ipak yo'li" – xalqlari tarixining o'ziga xos bir yodgorligi bo'lib, xalqlarning ham savdo madaniy sohada o'zaro hamkorlikda yashashi, do'stlashi uchun xizmat qildi.

Er. keyingi VI-VII asrlarda Turk xoqonligi hukm surgan davrda O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi kuchlarning ortishi bilan dehqonchilik yana yuksaldi, dalalarni sunniy o'g'itlash usuli joriy qilindi, sug'orish ishlari, to'qimachilik rivojlandi, ipak-gazlama korxonalari bunyod etildi, oltin, temir, qo'rg'oshin, kumushlardan turmush uchun kerakli buyumlar yasaldi. Ijtimoiy hayotda yuz bergan bu o'zgarishlar natijasida O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari bilan Vizantiya, Xitoy va Hindiston, umuman Sharq xalqlari o'rtasida madaniy aloqalar taraqqiy etdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida aloqa rivojlandi. Bu aloqa ular yaratgan og'zaki ijodlarida ham o'z ifodasini topdi.

O'rxun-Yenisey yodgorliklari dastlab Yenisey havzasida, so'ngra Mo'g'ilistonning Urxun daryosi bo'yida topilib, ushbu yozuvlarni 1893-yilda birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomson o'qigan. V.Tomsondan so'ng olimlar – N.M.Yadrinsev, V.V.Radlovlar mazkur manbalarni izlab topib, o'qishga muvaffaq bo'ldilar.

⁶ I.A.Karimov, "Adolatli jamiyatsari". – Toshkent, 1998. – B. 39-40.

O'rxun-Yenisey yodgorliklari S.Ye.Malov hamda I.V.Stebleva-
lar tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda O'ybek,
O.Sharafuddinov, N.Mallayev, Aziz Qayumov va N.Rahmonovlar
O'rxun-Yenisey bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va
ushbu manbaning ta'lim va tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishdagi
ahamiyatini yoritib berdilar.

Ma'lumki, eramizning VI asri o'rtalariga kelib, Oltoy,
Yettisuv va Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi turk qabilalari-
dan iborat Turk xoqonligi davlati tarkib topdi. Bu xoqonlik g'arb-
dan Vizantiya, janubdan Eron va Hindiston, sharqdan Xitoy bilan
 chegaradosh bo'lgan. Turk xoqonligi Turkyut davlati deb ham atal-
gan. Xoqonlik 604-yilda Sharqiy va G'arbiy xoqonlikka ajralgan.
Eramizning 745-yiliga kelib esa Turk xoqonligi barham topgan.

Turk xoqonligi asosan uch kishi: Bilga xoqon (Mog'iliyon).
Kultegin, Tunyukuklar tomonidan boshqarilgan. Bilga xoqon
(Mog'iliyon) – xoqon, Kultegin – sarkarda. Tunyukuk esa – vazir
bo'lib, ularning hamkorligida boshqarilgan davlat ushbu davrda
ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan.

Bitiktoshlarda turk xoqonlarining yurishlari, yurishlar davrida
alp kishilar, sarkardalar tomonidan ko'rsatgan jasoratlar. ularning
bilimli, mard, xalqparvar ekanliklari bayon etiladi. o'z vatanining
mustaqilligi uchun kurashish, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning
birdamligini ta'minlash xoqonlar Bo'min, Istami, Eltarish. Eltarish-
ning o'g'illari – Bilga xoqon, lashkarboshi Kultegin, ma'naviy
otolari Tunyukuklarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi. Masalan.
Kultegin bitigida uning ta'rifi berilgan. Kultegin xalqparvar. tadbir-
kor, xalqning kelgusi taqdirini ham o'ylaydigan jonkuyar sarkarda
yuqori qo'yan shaxs. Kultegin Eltarish xoqonining kichik o'g'li.
U 713-yil 27-fevralda qirq yetti yoshida vafot etadi. Bitiktosh
732-yilda o'rnatilgan. Ushbu bitiktoshda barcha voqealar Kultegin-
ning akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi. Uning asli ismi
Mug'iliyon bo'lgan. Bitigni Kulteginning jiyani Yo'llug' tegin
yozgan. Demak, bitigning muallifi ham ma'lum.

Kultegin bitigida Bilga xoqonning og'a-inilari va qarindosh-
urug'lariga murojaat qilib, ularning xatolari tufayli turk elida ko'p
falokatlar yuz berganini bayon etganligi ifodalangan. Turkiylarning

harbiy yurishlari, ularga qo'shni bo'lgan tabg'achlarning bosqinchi-
ligi tufayli xalq boshiga tushgan kulfatlar haqida so'z yuritiladi,
shuningdek, xalqning yolg'onchilik, firibgarlik qurboni bo'lganligi
ta'kidlanadi: "Oltin, kumush, ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz
berayotgan Tabg'ach xalqi so'zi shirin, ipak kiyimi nafis ekan.
Shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda yaqin-
lashtirar ekan. Yaxshi qo'shni bo'lgandan keyin yovuz ilmni u
yerda o'rganar ekan.

Yaxshi, dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror
kishi aldasa, urug'i, xalqi, uyi, yopinchi'igacha qo'ymas ekan.
Shirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ko'p turk xalqi o'lding... Turk
xalqining ayrimini u yerda yovuz kishi shunday pishiqlar ekan:
yiroq bo'lsa yomon ipak beradi, yaqin bo'lsa yaxshi deb beradi.
Ilmsiz kishilar bu so'zga ishonib, unga yaqinlashdilar va ko'plari
o'ldilar".

Xoqon tomonidan xalqqa qilingan murojaatda turkiy xalq-
larni hokimiyatni mustahkamlash, o'zaro urushlarga chek qo'yish,
tinch-totuv bo'lib yashashga undashdek ezgu maqsad ham yotadi.

Kultegin esa, dono, bahodir, jasur inson sifatida tasvirlanadi.

Kultegin bitigida Bilga xoqon eng muhim insoniy xislatlar,
hayotiy zaruriyatlar borasidagi fikrlarni nasihat, o'git tarzida bayon
etadi.

Turk xalqi o'zaro birlashmagani, bir-birlariga ishonmagan-
liklari uchun hiyla va firib qurboni bo'lib, tabg'achlar ularni qul va
cho'ri etgani, oqibatda ular qashshoq, erksiz va mute bo'lib qolgan-
liklarini kuyunib so'zlaydi.

"Beklari, xalqi insofsiz bo'lgani uchun, tabg'ach xalqi
hiylakor bo'lgani uchun, toymas bo'lgani uchun, firibgar bo'lganligi
uchun, og'a va ini bir-biriga qarshi bo'lishini hohlaganlari uchun,
begi va xalqini bir-biriga chaqqani uchun turk xalqi ellashgan
davlatini qo'ldan chiqarib yuborgan".

So'ng turk xalqini qanday qilib birlashtirgani, ukasi Kultegin-
ning jasorati tufayli el bosqinchilar hujumidan omon qolgani, to'q
va farovon hayot kechirgani, u jasur va yengilmas alp yigitlardan
ekani bayon etiladi.

"Tangri yarlaqasin, baxtim bor uchun, nasibam bor uchun
o'layotgan xalqni tiriltirib tarbiyat qildim, yalang'och xalqni

kiyimlik qildim, yalang'och xalqni ko'p qildim. To'rt jihatdan xalqni butunlay el qildim, bir-biriga do'st qildim, butunlay menga qaradi. Mehnatni, kuchni beruvchi shunday hokimiyatni qozonib inim Kul tegin vafot etdi", – deydi. Bu yodnoma yoshlarni o'z elini sevish, do'st va ittifoq bo'lib yashash, vatan va xalq manfaati uchun kurashga tayyor turish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Turk xoqonlari Bilga xoqon hamda Kul tegin jasoratlari haqiqiy vatanparvarlik hamda jasoratning ibrat namunasi bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchi bitiktosh – Bilga xoqon bitigidir. Bu bitiktosh Eltarish xoqonning katta o'g'li – Kulteginning akasi Bilga xoqon sharafiga 735-yilda o'rnatilgan. Bilga xoqon 734-yilda ellik yoshida o'z yaqinlari tomonidan zaharlab o'ldirilgan. Bu bitig ham Yo'llig' tegin tomonidan yozilgan.

Bilga xoqon bitigida xalqning tinch-totuv yashagani, Bilga xoqon davrida tinchlik hukmron bo'lgani, u davlatni adolat bilan boshqargani, turkiy xalqlarni birlashtirgani, o'z yurtini boy-badavlat etib, iqtisodiy jihatdan mustahkamlagani mahorat bilan betashvish hayot kechirishi ifodalanadi. o'z navbatida davlat boshliqlarining xatti-harakatlari bayon etiladi. Keyin Bilga xoqon yurishlari haqida hikoya qilinadi.

Bilga xoqon turk eli o'rtasida elparvar xoqon deb tanilgan edi. "Bilga" so'zining o'zi ham "dono" degan ma'noni anglatadi. U turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashadi. Xalqqa qarata shunday o'git qilar edi: "Vatanni saqlab qolmoq, faqat xoqonga emas, xalqqa ham bog'liq. Ajdodlarimizning xato va yutuqlari buning dalilidir. Xalq o'z xoqonining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirmasa, boshiga ko'p kulfatlar tushadi. Xoqon o'ta ishonuvchan bo'lmasligi, boshqalarning gapini o'ylab, mulohaza qilib amalga oshirishi lozim. Samimiy so'z bilan yolg'onni farqlay olishi kerak. qattiqqo'l xoqon o'z xalqiga yomonlikni ravo ko'r-maydi. Ishonuvchan bo'lsa, yaxshi-yomonni ajrata olmasa, fojiga yo'l ochiladi, mamlakatda tartibsizlik yuzaga keladi".

Bilga xoqon tarqoq xalqni birlashtiradi, oyoqqa turg'izdi, yurtda farovon hayot qaror topadi. U xalq farovonligini ta'minlash davlat boshlig'ining burchi, mamlakatning ozodligi, xalqning

osoyishtaligi uning moddiy farovonligiga bog'liq deb biladi. Bitiklarda yurtboshining boylikka hirs qo'yishi xalqning nochor hayot kechirishiga olib keluvchi sabab ekanligi qayg'u bilan ifodalanadi. U o'z xalqiga shunday murojaat etadi: "Men yashadim, turk beklari, turk xalqim. Bu xoqoningdan, bu beklaringdan, yeringdan, suvingdan ayrilmasang, turk xalqi, o'zing ezgulik ko'rajaksan, betashvish bo'lajaksan".

Islom ta'siri davri xalq pedagogikasi

VII asr birinchi yarmida Islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaliga tashkil topib, bu davlat o'z mavqeyini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt etib boshlaydi. Butun arabiston yarimoroli, Eron, Suriya, Janubiy ispaniya, Kavkaz hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qancha mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi. Arab istilochilarining Movorunahruga bo'lgan birinchi yurishi 651-yil. Ubaydulla ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676-yilda esa Sayid Ibn Usmon rahbarligida Buxoro, Samarqand, Kesh hamda Nasaf kabi shaharlar bosib olindi.

Ikkinchi yurish 705-yil Xuroson hokimi Qutayba ibn Muslim boshchiligida sodir bo'ldi. Qutayba ibn Muslim 706-yil Zarafshon vodiysiga yurish boshlab oqibatda Poykent, Buxoro, Samarqand, Sug'd, Farg'ona va boshqa joylarni qo'lga kiritdi. Arab istilochilari tomonidan VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahrni to'la zabt etishga erishdilar.

Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar islom dini qabul qilishga majbur qilindi. Arab istilochilarining Movarounnahr xalqining islom dinini qabul qilish jarayoni qiyin kechgan va bu jarayon bir necha yillar davomida amalga oshirilgan. Chunki Movarounnahr yurti arab istilosiga qadar ham ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy etgan xalq hisoblangan. Islom dinini qabul qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda islom dini targ'ibotchilarining xizmatidan birdek foydalanadilar.

Movarounnahrda islom dini yoyilgunga qadar bu yerda yashovchi xalqlar ko'p sonli xudolarga, quyoshga, ko'k din (shaman)ga hamda o'zlari muqaddas deb bilgan narsalarga sig'inishar edi. Islom dini aqidalariga bo'ysinib, yagona va qudratli ollohga sig'inib.

Arablar o'lkada islom dini g'oyalarini yoyishda turli usullardan foydalanadilar. Ana shunday usullardan biri mazkur dinga e'tiqod qilgan kishilarning jon solig'idan ozod etilishi bo'ldi. Islom dini kishilik jamiyatining ibtidoiy davri xususiyatlaridan voqif bo'lish va O'rta asr uyg'onish davrining ro'y berishi uchun ma'naviy-g'oyaviy poydevor qo'ygan ijtimoiy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqdi.

Islom talimoti o'zining insonparvar g'oyalari va ularning insonlar ongida chuqur singdira olish imkoniyatlari tufayli XIV asrdan buyon borliqni ong yordamida mafkuraviy tarzida idrok etishining asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Islom ta'limotining ulkan hududga yoyilishi va umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilishida ollohning rasuli bo'lgan payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning o'rni beqiyosdir.

Islom dini ta'limoti asoslarin yorituvchi Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to'plash va ularga muayyan tartib berish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o'rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishi (muhaddis)lar tartib bergan. VIII asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan keyingi yillarda Muhammad alayhissalomning hayoti faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-jomiy as-sahih" (ishonarli to'plam), "Al-adab, al-mufrad" (Adab durdonalari) Muhammad Iso At-Termeziyning "As shomoil, an-nabaviy" asarlari nashr etildi.

VIII-IX asrlarda hadis ilmining rivojlanishining "Oltin davr" hisoblanadi. Bu davrga kelib, islom ulamolari tomonidan hadislar-ning qay darajada to'g'riligi, ularning qanday manbalarga tayanib to'planganligi jiddiy tadqiq etila boshlandi.

Hadislarda insonning kamolotiga erishishi uchun talab etilgan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, bu fazilatlar sirasiga o'zgal-arga mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona-kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarini ulug'lash, halollik, poklik, rostgo'ylik kabi xisltalar kiritiladi.

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yagona islom dinning tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir

etdi. Ana shu madaniy ko'tarilish butun arab xalifaligini yaqin va o'rta sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq uyg'onish davri deb ataldi. Bu uyg'onish davri IX asrdan boshlab XV-XVI asrgacha davom etdi.

Xalifa Xorun ar-Rashid va uning o'g'li Al-Ma'nun davrida Bog'dodda "Bayt ul-Hikma" (Donishmandlik uyi) tashkil topdi.

XI asrda Xorazmda ilm fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'nun 2 o'z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan majlis ulamo – "Ma'nun akademiyasi" deb nom qoldirgan. Bu akademianing rivoj topishiga Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayh, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Maishiy, tabib Abul Hayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug'ullanganlar. Lekin toju taxt kurash natijasida bu ilm o'z faoliyatini to'xtatib olimlar tarqab ketadi.

Yusuf Xos Hojib




Yusuf Balasog'uniy Yettisuv o'lkasidagi Kuzo'rda (Balasog'un) shahrida 1021-yilda dunyoga keladi. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston o'lkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan Qoraxoniylar sulolasi qo'l ostida edi. Bu sulola VI-IX asrlarda hukm surgan Buyuk Turk xoqonligining davomchilari bo'lib, IX asr o'rtalaridan davlatni boshqarib keldilar. X asr boshlarida

Abdulkarim Sotuq Bug'raxon (924-955) islom dinini qabul qildi va shu bilan turkiy elatlar ham uzil-kesil islom mintaqa madaniyatiga kelib qo'shildilar. X asr oxiriga kelib, Somoniylar tanazzulga yuz tutgach, Qoraxoniylar Movarounnahrni tugal egalladilar. Balasog'un ushbu ulkan mamlakatning shimolidagi poytaxti edi. "Qutadg'u bilig" asarini 1070-yilda yozib tugatgan Yusuf o'zi haqida asar muqaddimasida shunday ma'lumot beradi: "Bu kitobni tartib beruvchi Balasog'unda tug'ilgan, sabr-qanoatli kishidir. Ammo bu kitobni Koshg'arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg'achxon dargohiga keltiribdir. Malik uni yorlaqab, ulug'lab, o'z saroyida Xos Hojiblik lavozimini beribdi. Shuning uchun Yusuf

Ulug' Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi". Kitobda nomi tilga olingan xoqon Nasriddin Tavg'ach ulug' Bug'ro Qoraxon Abu Ali Hasan Xorunxon binni Arslonxon bo'lib, 1070-1103-yillar davomida Qoraxoniylar davlatini boshqargan.

Muhammad al-Xorazmiy



Muhammad al-Xorazmiy (783-850) yillar insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan, nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlarda Bobil, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini yaratdi. Muhammad Al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga uning ulkan hissasini qo'shdi. Xorazmiy "Al-jabr va al-muqobila" (tiklash va qiyoslash) amallarini kiritdi. Muhammad al-Xorazmiyning ikkinchi kitobi "Hind arifmetikasi haqida kitob" asar o'nlik sistema raqamlari (1,2,3,4,5,6,7,8,9) bag'ishlangan. Muhammad Al-Xorazmiyning bu fikrlari bu faoliyatining ezgulikga xizmat qilishini yoritadi, ikkinchi tomondan, o'sha davrda ilmiy-tadqiqot ishlari va o'qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko'rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy



Sharqda ilk Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy (973, 4-sentabr - 1048, 11-dekabr) umumjahon tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan buyuk aql-zakat sohibidir. Uning dunyoqarashi X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshida Markaziy Osiyoda rivojlangan feodalizm qaror topayotgan g'oyat murakkab, jo'shqin

voqealarga boy tarixiy vaziyatda shakllandi. Birinchi ustoz bo'lmish Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq uni Evklid geometriyasi va Ptolemey asarlari bilan tanishtiradi. Ibn Iroq unga Xorazmning turli shaharlaridagi madrasalarda va mashhur ustozlaridan ta'lim olishga yaqindan yordam bergan. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va ma'rifiy-pedagogik hamda psixologik qarashlarining shakllanishida qomusiy olimlardan Muhammad al-Xorazmiy (780-850), Abu Abbos Ahmad Farg'oniy (IX asr), Marvaziy (IX asr), Javhariy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abul Vafo Buzxoniy (840-938), Abu Said as-Sijiy (951-1024) hamda yunon olimlaridan Fales, Pifagor, Arximed, Galen, Gippokrat, Evklid, Ptolemey, Platon, Aristotel, hind olimi Bramagupta va boshqalarning asarlari ta'lim va tarbiya maktabi vazifasini o'tadi. Beruniy bu olimlarning asarlarini o'qib bilish uchun yoshligidanoq arab, fors, yunon, sanskrit, yahudiy tillarini puxta o'rgandi.

Abu Nasr Forobiy



Abu Nasr Forobiy allomaning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin sharqda "Muallimi soniy" ikkinchi muallim deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy 70 dan oshiq tillarni bilganligi haqida gapiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyada nimalarga e'tibor berish

zarurligi ta'lim-tarbiya usullari va uslublari haqida fikr yuritadi. Uning "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv to'g'risida", "Aql ma'nolari tug'risida" kabi asarlarida allomalarning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifoda topgan.

Insonning kamolga yetishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy orzu qilgan ta'lim va tarbiya birligi hozirgi davrimizda ham yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Forobiy "Aql ma'nolari to'g'risida", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarlarida yoshlarning bilimiga bo'lgan intilishlarini har

tomonlama keng yoritishga harakat qiladi: “Kishi biror buyum haqida bilishni istasa, uning qandaydir bir holatini biladi, ongini o’sha predmet shaklidagi bilimga yo’naltiradi.

Bu o’zi intilgan haqiqatni qidirish demakdir”. Forobiyning bilish to’g’risidagi nazariy asoslarini, xususan, mantiq fanida bilish jarayoni va bilish shakllarini mohiyati birinchi marta ochib berildi. Bu jarayonlar mantiqda unga rioya qilish tafakkurini takomillashtirish va murakkab bilish jarayonida qo’pol xatolarning oldini olish qonunlari sifatida aks etadi.

Abu Ali ibn Sino

Abu Ali ibn Sino ham qomusiy olim singari matematika, astronomiya, fizika, kimyo, tibbiyot va hokazo ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoda mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali ibn Sino “Al qonun”, “Hay ibn-Yakzon”, “Risolat at-tayr”, “Risolat Fil-ishq” (Ishq haqida risolat) kabi asarlari shular jumlasidandir. Ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ishlarni o’rganish ta’limotlari, ta’lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida yuksak o’rinni egallaydi.

Olim ta’lim va tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Olimning bolani tarbiyalash va o’qitish haqidagi ko’p fikrlari o’zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ibn Sino o’zining o’rta asr “Yetti ozod san’ati” tizimidan farq qiladigan tarbiya tizimiga odob, falakiyotshunoslik, tibbiyot, mantiq, falsafa, tabiatshunoslik fanlarini kiritgan. U tavsiya qilgan musulmon qonunshunosligi fanlarini o’z ichiga olgan: ta’lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o’z ichiga olgan:

1. Aqliy tarbiya.
2. Jismoniy sog’lomlashtirish (davolash) tarbiyasi.
3. Estetik tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Mehnat tarbiyasi (hunar o’rgatish).

Ibn Sino “Bolaning yetuk inson bo’lib shakllanishida unga g’amxo’rlik, poklik, mas’uliyatni his etish, do’stona munosabatlar tuyg’usini singdirib borish zarur”ligini uqtirib o’tadi.

Sa’diy Sheroziy

Muslihiddin Sa’diy Sheroziy (1184-1292) O’rta va Yaqin Sharq o’lkalarida Shayx Sa’diy nomi bilan mashhur. Uning ajoyib asarlari o’zbeklar orasida ham keng tarqalgan. “Guliston” va “Bo’ston” kabi axloqiy kitoblari eski o’zbek maktablarida darslik sifatida o’qitilar edi. Sa’diyning mavqei juda baland. U birinchi bo’lib g’azal shaklini mustaqil janr darajasiga ko’tardi. Uning Kulliyotiga 4 devon

(g’azallar to’plami) kiritilgan. Kulliyotga kiritilgan badiiy asarlar ichida eng mashhurlari 1257-yilda yozilgan “Bo’ston” va 1258-yilda yozilgan “Guliston” asarlaridir. “Guliston” o’ziga xos didaktik hikoyalar va she’riy aforizmlar to’plamidir. Mazkur asarda insoniy munosabatlar, shaxs sifatлари, mas’uliyatlilikni tarkib toptirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan. Kitob 8 bobdan iborat.

Ahmad Yugnakiy

Pedagogika tarixida Adib Ahmadning tutgan o’rni, uning “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası”) asari.

O’zbekiston milliy ensiklopediyasida uning XII asr oxiri – XIII asrning birinchi yarmida yashaganligi, tarixchilar Adib Ahmadning faoliyat yillarini aniqlashda uning yuqorida keltirilgan asosiy asari va As-Sam’oniyning

“Nasabnoma”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” kabi kitoblariga, shuningdek, olimlarimizning tadqiqotlariga tayanadilar.

Alisher Navoiy ma’lumotlari adibning o’zi haqida bo’lsa, As-Sam’oniyning ma’lumotlari uning o’g’liga oiddir. Manbalardagi

ma'lumotlar uch avlod, ya'ni otasi Mahmud Yugnakiy, o'zi Adib Ahmad Yugnakiy va o'g'li muhaddis Abu Homid Ahmad ibn Abu Ahmad al-Yugnakiylar haqida ma'lumot beradilar. Tadqiqotchi Sh.Kamoliddin xulosalari O'rta Osiyo turklari orasida VIII-IX asrlarda harbiy-siyosiy, ilmiy-madaniy harakat (shu'ubizm) mavjudligini isbotlab, ularning ko'pgina vakillarini xalifalikning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuqori pog'onalarni egallab turganligini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, – deb yozadi tadqiqotchi, – Adib Ahmadning otasi VIII asrning o'rtalarida Abu Muslim qo'zg'olonining Xurosondagi harakatida qatnashgan bo'lishi mumkin. Abbosiylar xalifalik boshiga kelganda, adibning otasi Xalifa al-Mansurning turk qo'shinida xizmat qilgan. Uning o'g'li Adib Ahmad fiqh va hadisni o'rganib shoir sifatida “Hibat ul-haqoyiq” asarini yozgan.

Unsurulmaoliy Kaykovus



Unsurulmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashagan Gilon qabilasidandir. U 1021 yoki 1022-yil may oyida feodal oilasida tug'ilgan va “Qobusnoma” asarini 1082-1083-yillarda yaratgan. Kaykovus uni o'z o'g'liga bag'ishlagan bo'lsa-da, ammo kitob yosh avlodni tarbiyalash, ularning kamolotini ta'minlashning muhim muammolariga doir Sharq pandnomasidir.

“Qobusnoma”ning 44-bobidagi fikrlar bir-birini to'ldirib va rivojlantirib boradi. Mazkur asar o'tmishda maktab va madrasalarda “Guliston”, “Bo'ston” kabi asarlar bilan bir qatorda darslik vazifasini o'tagan. “Qobusnoma” mashhur shoir va tarjimon Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Uni taniqli olim Subutoy Dolimov hozirgi o'zbek tilida so'z boshi, ayrim sharhlari va lug'ati bilan nashr ettirgan. “Qobusnoma” qomusiy didaktik asar bo'lib, boshidan oxirigacha ta'lim-tarbiyadagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Asardagi bosh masala inson va uning kamol topishidir. Kaykovus o'z farzandini barkamol, har tomonlama bilimdon, zakovatli va yuksak axloqli bo'lishini ta'minlash uchun inson tarbiyasida zarur bo'lgan hamma tomonlarini asoslab beradi: Ota-onaning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchi, farzandning ota-onalariga munosabati, ularni qadrlashi, insonlar orasidagi muomala, odob, ularning o'zaro axloqiy munosabatlari, ilm va bilimning inson uchun zarurligi, davlat rahbarlarining vazifasi, tijorat ishlari, xo'jalik yuritish, mehnat zavqi shu bilan birga inson uchun zararli hisoblangan ichish, so'kish, qo'pollik kabi yomon odatlardan saqlanishni ham bayon etadi: “Ey farzand, senga zamona sitamining qo'li yetmasdan burun hushing quloqi bila mening so'zimni eshitg'il va pandlar bila ikki jahonda yaxshi nom chiqarg'il. Mening so'zimni eshitmoqdan ibo qilmag'il. Agar mening so'zimni qabul qilib, undan bahra olsang, o'zgalar yanada qabul qilurlar va unga yarasha ish qilmoqni g'animat bilurlar”, – deb yozgan edi Kaykovus. Shuningdek, alloma: “Hech ishda shitob qilmag'il. Har ishgaki kirishar bo'lsang, oldin o'sha ishdan chiqmoqni yaxshi o'zlag'il va ishning oxiriga qarag'il. Har ishning o'lhog'in bilg'il va barcha ishni o'ylab qilg'il. Barcha ishga, so'zga aql yuzi bila qarag'il, toki botilni ko'ra olg'aysan”, – degan fikrlari bilan mas'uliyatni aql tushunchasi bilan bog'laydi va aql bilan bajariladigan har qanday ish, aql ila so'zlangan so'zning natijasini avvaldan bilish mumkinligi haqida ma'lumot beradi.

Amir Temur



Amur Temur ustozlarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rniga yuqori baho beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotini yuksaltirishda buyuk sohibqiron Amir Temurning xizmatlari nihoyatda kattadir. Ayniqsa, uning ilmu-ma'rifat sohadagi islohotlari, tadbirlari va yuritgan siyosati hozirga qadar o'z qadrini yo'qotgan emas. U mamlakatni boshqarish davrida ustoz va murabbiylarga yuksak ehtirom ko'rsatdi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatladi.

Qariyb bir yarim asr davomida mo'g'ullar istibdodi ostida xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo'g'ul istilochilari zulmidan qutula boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'oldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixida Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki bu davr madaniyati o'z tamoyillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII asr madaniyatining davomi sanaladi.

Shu bois XIV asr oxiri va XV asrlarda Movarounnahrda Sharq Uyg'onish davri madaniy ravnaqini IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko'rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan Samarqand va Hirotga madrasalar, jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotga madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga havas kuchaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa, Samarqand va

Hirot shaharlari madaniyat, ilm-ma'rifat markaziga aylandi.

Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e'tiqodiga ko'ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlakatning rivojlanishiga hissa qo'sha oladi. Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Bu borada ta'lim tizimining o'ziga xos o'rni bo'lishi kerakligini anglagan holda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o'n ikki bog' va qasr yaratadi, shahar arki Ko'ksaroy, uning atrofida esa Bo'stonsaroylar bino etadi. Jome' masjidi, maqbaralar, me'moriy yodgorliklar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o'zi emas, uning atrofidagi yaqinlari ham turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo'ladilar. Bulardan Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono Qutbiddin, umr yo'ldoshi Saroymulkxonim, nabirasi Muhammad Sultonlar ham madrasalar qurdiradilar.

Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom, olim, maktab o'qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari ixtisoslashgan. Lekin ularning hammasida Qur'on, Hadis, fiqh o'rganilgan. Shuningdek, madrasalarning ixtisosligiga ko'ra umumi aqliya, umumi askariya, umumi ma'muriyalar ham o'rgatilgani haqida ma'lumotlar bor.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o'zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o'rgatishga ko'proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa'diy Sheroziyning "Guliston", "Bo'ston", Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" va boshqalar ham o'qitilgan.

Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmiar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o'quv ishlarini yuritish belgilangan⁷.

⁷ Валихўжаев Ботурхон. Самарқандда олий таълим – мадрасаи олия – Университет тарихидан лавҳалар. – Самарқанд: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2001. – В. 38-47.

Mirzo Ulug'bek

Ulug'bek Mirzo nafaqat buyuk astronom olim va matematik, balki o'z davrining peshqadam bilimdoni, musiqachi va tarixnavis edi. Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay) 1394-yil 22-mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida tavallud topadi.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar, ayniqsa, rivoj topdi.



Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko'zga yaqqol tashlanadi: "Ilm olmoqqa intilmoq har bir musulim va muslima uchun qarzu farzdir".

Ulug'bek 1428-1429-yillarda Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437-yilda ana shu rasadxonada "Ko'ragoniy jadvali"ni, ya'ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo'lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo'lsa, XIV-XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning "Shohnoma" asarining shu davrda to'liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo'lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo'lsa, XIV-XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning "Shohnoma" asarining shu davrda to'liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

Ulug'bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403-1474) o'sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o'ynadi. Astronomiya to'g'risida "Risolai dar falakiyot" degan kitob yozgan Ali Qushchini o'z davrining Ptolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to'la ta'riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang'ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo'linib ta'riflanadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Hirotida fan, madaniyat, ma'rifat ishlarini yo'lga qo'yishda, u yerni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da Hirot to'g'risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko'rmaganligini aytadi.

Alisher Navoiy



Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy 1441 yil 9-fevralda Hirot shahrida tavallud topgan. Uning adabiyot va san'atga muhabbati erta bolaligidan uyg'onib, she'r aytish va tinglash esa uning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. U Hirot va Mashhadda ta'lim oladi. Mantiq, falsafa, musiqa kabi fanlarni puxta o'zlashtirgan. Arab va fors

tilLARINI mukammal o'rgangan. U o'n besh yoshidayoq shoir sifatida xalqqa tanildi. Alisher Navoiy ham masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko'priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruhi fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

Hirotda Alisher Navoiy bilan birga Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, xattotlar Sulton Ali Mashhadiy, kotib Mir Ali, sozanda — Qulmuhammad, tarixchilar — Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalar yashab ijod etgan.

Hirotda xattotlik san'ati rivojlangan. Hatto Buxoroda "Hirotda yozuvi" mirzalar, xattotlar tomonidan 1920-yilgacha qo'llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.

Bu davrda Movarounnahrda ham san'at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) "Muzakkir al-ahbob" tazkisasi, Mutribiyning "Tazkira — tush shuaro" (1604-1605) to'plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo'lgan "Boburnoma" o'sha davrda yaratilgan asarlar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Amin Ahmad Roziy "Haft iqlim" ("Etti iqlim") degan geografik bibliografik lug'at tuzdi.

XVI asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga yetdi. Sulton Ali Mashhadiy, Mirali Halaviy, Mahmud ibn Ishoq ash-Shixaybiy va ibn Do'stmuhammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to'g'risida asar yozdi.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari bunyod etildi, jumladan: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim sadr madrasasi. Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi.

Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham ma'lum darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o'rganar, uning ayrim harflarini chizishni mashq qilari edilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olari edilar.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatildi. Jumladan, Hindiston Shox Akbar, Sharqiy Ovrupodan Ivan Grozniylar bilan do'stona aloqa o'rnatildi.

Buxoro xoni Abdullaxon 1001 ta rabot va sardobalar qurdirdi, madrasa, masjidlar, xonaqox va ko'priklar, suv omborlar va boshqa inshootlar qurildi. — Bu davrda "Abdullanoma" nomli tarixiy kitob yozildi. Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiyning "Dastur al-iloj", Muqammad Yusuf Mahxolning "Taxqiq al xumayyot", "Zubdat ul-qaxxolin" asarlari, Shayboniyxonning "Tavorixi guzidayi nusratnoma", Boburning "Boburnoma", Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe", fazliddin Ibn Ro'zbekxonning "Mehmonnomayi Buxoro" kabi asarlarida o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, adabiy, ma'rifiy hayoti o'z aksini topgan.

Jahon Otin Uvaysiy

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar ta'limi ham rivojlana boshladi.

Jahon otin Uvaysiy (1789-90 Marg'ilon — 1850 y. Marg'ilon)-XIX asr Qo'qon madaniy muhitining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri yetuk shoira va maktabdor muallimalardandir. Jahon otin Uvaysiyning she'rlar va maktabdor-



lik xizmatlari xalq ommasi orasida keng yoyilgan. U Marg'ilonning Childuxtaron mahallasida she'riyatga ixlosmand Siddiq bobo (Qaynar devona ham deb atashadi) va Chinni bibilar oilasida dunyoga keladi. Otasi kosibchilik qilgan, onasi esa savodli ayol bo'lib, maktabdorlik qilgan va mahalla ahli qizlarini o'qitgan.

Marg'ilon tumanining hokimi Umarbek bo'lganidan keyin, bu paytda maktabdor va shoira sifatida shuhrat qozongan Uvaysiy Nodira bilan yaqinlashadi. Bu yaqinlik keyincha Qo'qonda Nodira-begimning fojiali qatl etilguncha davom etadi. Uvaysiy qizi Quyoshxonga homilador ekanligida eri Hojixon vafot etadi. Shunda Uvaysiy erining yilini o'tkazib ikki bolasi bilan Nodira taklifiga binoan, Qo'qonga keladi. Endi Uvaysiy Nodirabegim himoyasida bo'ladi.

Qo'qonda Uvaysiy xon saroyida yashaydi. U xaramdagi qizlarga, kanizaklarga ham xat-savod o'rgatadi. Kanizaklarga boshlang'ich ta'lim, ya'ni alifboni o'qitishdan. yozishdan tortib, to ilm musiqiyning amaliy jihatdan ta'lim berish bilan shug'ullanadi. Uvaysiy xon saroyida 3-4 yildan ortik yashay olmaydi va boshqa yerga ko'chib o'tadi. Shoira bu yangi joyda yana o'zi sevgan mashg'ulotini davom ettiradi. Shu bilan birga Nodira iltimosi bilan uning himoyasidagi tutqunlarni ham o'qitadi. Uvaysiy qizlarga xat-savod o'rgatish bilan birga, sozanda-xonanda kizlar guruxini ixlosi bor qizlar ichidan yig'ib, ularga san'atning ayrim sirlarini o'rgatadi. Yangi xovlida dars berayotgan bir paytda Uvaysiy Nodira xuzuriga borib qaytsa, eshigining qulfi singan, xona ichidagi tanburlar yo'q ekan. Uvaysiy surushtirib bilsa, bu ig'vogarlarning ishi bo'lib chiqadi. Bu xususida Nodira Umarxon orqali tanburlarni o'rniga qaytarishda yordam beradi.

Ma'lumki, qizlar maktabida talabalar zexnini tarbiyalash, bilimlarni mustahkamlash, uzoq esda saqlab qolish, tafakkur qobiliyatini mustahkamlash ham katta e'tibor beriladi. Shu maqsadda chiston (topishmoq)larni yechish, muvashshaxlar yozish, adabiy asarni sharxlash va izohlash kabilardan foydalanilgan. Bu usullar talabani rag'batlantirgan, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini oshirgan.

Tashqi ta'sirlar davri xalq pedagogikasi

Turkiston o'lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, chor ma'murlari ming-minglab rus oilalarini Markaziy Osiyoga ko'chirib keltiradi. Farg'ona viloyati, Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatdagi (shaharlar) mahalliy dehqonlarning serunum yerlari tortib olinib, ularga beriladi.

Rus muhojirlari Turkiston general - gubernatorining farmoniga binoan o'lkada rus maktablari, rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish, hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o'tkaza boshladilar.

Bu bilan go'yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo'ldilar va har bir qilingan ishni bo'rttirib ko'rsatishga urindilar, deya kamsitishga urindilar, quruq aholisini, yoppasiga savodsiz edi, 1917-yilgi to'ntarishgacha 21 foiz savodxon bo'lgan o'lkani bo'xton yog'dirdilar.

O'lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus tuzem, gimnaziya kabi o'quv maskanlari kerak, madrasa va "usuli qadimiya" eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo'lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897-yildagi Rossiya tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxati ma'lumotlarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'sha aholi ro'yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O'rta) Osiyo aholisining savodxonlik darajasi quyidagicha belgilangan:

Tojiklar – 99,5 % savodsiz;

Qirg'izlar – 99,4 % savodsiz;

Turkmanlar – 99,3 % savodsiz;

O'zbeklar – 98,4 % savodsiz;

Qozoqlar – 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Aslida Turkiston o'lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisining savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki Turkiston o'lkasi xalqlari 1917-yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, yuksak ilm egasi bo'lganlar.

1917-yil to'ntarishdan keyin Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy va xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Bu davrda milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan: jadidchi ziyolilar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozii Yunus, Xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat ko'rsatdilar.

1917-yil fevralidan oktabr orasida Turkistonning yirik shaharlarida turli tillarda dars beriladigan xususiy maktablar ochildi.

Turkiston o'lkasining markazi – Toshkentda 1917-yil 9-14-may kunlari o'qituvchilarning 1-o'lka qurultoyi bo'lib, bunda "Turkiston o'qituvchilar ittifoqi" tashkil etildi.

1918-yilning 23-martida RSFSR Maorif Xalq Komissarligi Turkiston o'lkasi Xalq Komissarligi Kengashi o'lka xalq ta'limi kengashini tashkil etish haqida buyruq chiqardi. Mazkur Kengash Turkiston hududida xalq ta'limi tizimiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda ularning viloyat, shahar, UEZD kengashlari huzurida xalq ta'limi kengashlari tashkil etildi.

1918-yilning yozida Samarqandda "musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar" ochildi. O'sha yilning kuzida Toshkentda — Toshkent uezdining tub yerli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi.

1918-yil 9-aprelda Munavvar Qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. O'sha yilning 3-mayida dorilfunun musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar Qori rais (rektor), Iso To'xtaboev birinchi muavin, Burxon Habib ikkinchi muavin, Abdusamad Qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bokir sarkotib bo'lib saylandi. 13-may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozov-teatri)da musulmon aholi uchun "Xalq dorilfununi" ochildi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi.

Universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo'jaligi va texnika fakulteti bor edi. 1919-yil fevraldan universitet qoshida ishchi fakulteti ham faoliyat ko'rsata boshladi.

1918-yil noyabrda Toshkentda maxsus sharqshunoslik ixtisosligidagi oliy ta'limning to'ng'ichi — Turkiston sharq instituti tashkil qilindi. Institut haqidagi Nizomda uning asosiy vazifalari qilib Turkiston mahalliy aholisi va qo'shni mamlakatlar aholisi tilini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar tayyorlashdir, deb belgilab qo'yilgan edi.

1920-yilda Turkiston xalq universitetiga muqobil Turkiston davlat universiteti (keyin O'rta Osiyo, hozirgi M.Ulug'bek nomi-dagi O'zbekiston milliy universiteti) tashkil qilindi⁸.

⁸ O'zbekistonning yangi tarixi. (tuz. N.Juraev va bosh..). 2-kitob. — Toshkent: "Sharq", 2000. — 148 b.

Universitet faoliyatining birinchi yili oxiriga kelib unda 6 ta fakultet: ijtimoiy-iqtisodiy, tarix-filologiya, fizika-matematika, texnika, tibbiyot, qishloq xo'jalik fakultetlari ish olib bordi.

Vaqt o'tishi bilan universitet faqat eng yirik o'quv yurtigina emas, balki ilmiy-nazariy va amaliy tafakkurning, tabiiy va amaliy fanlarning juda xilma-xil sohalari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning eng muhim markazi ham bo'lib qoldi.

Bolsheviklarning aksil milliy, umuminsoniy ilg'or ma'rifatchilikka dushmanlik qilishlariga qaramasdan 1917-1924-yillarda O'zbekistonning hozirgi hududida madaniy-ma'rifiy turmush vujudga keldi, xalq ma'naviyatida o'z aksini topdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abdulqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullaev, Ishoqxon Ibrat, Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar.

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi, ijtimoiy-siyosiy, diniy to'siqlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg'or fikr egalarini, buyuk olimlarni yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, ma'naviyat sohasida o'lmas durdona asarlar, fikrlar qoldirdi.

Bunday ilg'or fikrli mutafakkir olimlarning asarlari Turkiston o'lkasi maktablarida to 1917-yil oktyabr to'ntarishiga qadar asosiy manba sifatida foydalanib kelingan. Jumladan, "Haftiyak" kitobi bo'lib, unda Qur'on suralaridan yettitadan biri tanlab olingan. Taxminan, VIII asrlarda yozilgan. X-XII asrlarda fors-tojik tilida islom dini ruknlari bayon etilgan "Chorkitob", XII asrlardan boshlab esa Ahmad Yassaviyning hikmatlari asosida bilimlar berilgan.

Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariy, Alisher Navoiy asarlaridan ham keng foydalanilgan. Zero, bunday nodir asarlar va sharq mutafakkirlarining oliyjanob hikmatlari, g'oyalari XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida pedagogik va uslubiy fikrlarning taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Turkiston xalqlarining ma'rifatparvarlik pedagogikasi taraqqiyotida asosiy zamin bo'ldi.

Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston o'lkasida mahalliy maktablarning xususiyati, ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, uni tashkil etish usullari o'sha davr tarbiyasi maqsadiga mos bo'lgan.

Umuman Markaziy Osiyoda Oktabr to'ntarishiga qadar bir necha turdagi maktablar mavjud edi. Ular:

1. Musulmon diniy maktablar:

a) maktab (xona) – eski maktab;

b) qorixona;

d) madrasa;

2. Rus maktablari:

a) umumiy ma'lumot maktablari;

b) kasb maktablari;

d) rus-tuzem maktablari;

e) rus tilini o'rgatish maktablari.

3. "Yangi usul" maktablari (usuli jadid).

Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotidagi kuchlar o'rtasida yuz berayotgan sinfiy kurashning murakkabligi maktab-maorif masalalarida ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Demak, endi turli vositalarni ishga solib yangi mazmundagi ma'rifatni tashviq qilish, tarbiya usullarini zamonaviylashtirish ta'limda qulay usullarni topish muammolari turar edi. Bu borada Turkiston o'lkasidagi dastlabki maktablarda ilg'or-ma'rifatparvar pedagoglar – toshkentlik Saidrasul Saidazizov, Abdulla Avloniy, namanganlik Ishoqjon Junaydullaev – Ibrat, samarqandlik Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ismatulla Rahmatullaev, qo'qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziyalar muhim rol o'ynashdi.

Maxmudxo'ja Behbudiy



Maxmudxo'ja Behbudiy Turkistonda jadidlar harakatining asoschilaridan biri edi. U jamoat arbobi, islomshunos, geograf, pedagog olim, o'zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri. U o'zbek millati tarixining g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi va ijod qildi.

Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlo-otasidan erta ajralib qoladi va uning tarbiyasi bilan tog'asi qozi Muhammad Siddiq shug'ullanadi. Arab yozuvini kichik tog'asi

Mulla Odildan o'rganadi. U 18 yoshidan boshlab qozixonada mirzolik qila boshlaydi va o'z ustida qunt bilan ishlab, o'z davrining yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha erishadi. Keyinchalik u Turkistondagi maktablarni isloh qilish yuzasidan general-gubernator N.O.Rozenbaxga murojaat etadi. Javob olmagach, 1893-yilda o'zi Toshkentga keladi va Samarqand, Buxoroda bo'ladi. Mahalliy aholi bilan uchrashib, dastlabki yangi usul maktablarni ochishga muvaffaq bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Behbudiy Gasprinskiyning izdoshi hisoblanadi, u jadidchilikka oid ko'plab bilim va ma'lumotlarni egallaydi. "Usuli jadid" maktablari uchun bir qator darsliklar yozdi. "Qisqacha umumiy geografiya", "Bolalar maktubi", "Aholi geografiyasiga karshi", "Rossiyani qisqacha geografiyasi", "Amaliyot islomi", "Islomning qisqacha tarixi" kabilar.

U bu kabi asarlarida yosh avlodga munosib tarbiya berish, ularda ilm va ma'rifatga havas uyg'otish, ilm-ma'rifatga qiziq-tirishni shakllantirishni maqsad qilib oladi. Chunonchi, Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarko'sh" dramasida yoshlarni biror-bir kasb-hunar va ilm o'rgatishga da'vat etish jamiyatdagi ziyolilarning burchi deb hisoblaydi. Shu boisdan mutafakkir ziyoli obrazi misolida ota-onalarga o'z farzandlari tarbiyasi va ta'lim olishiga befarq bo'lmaslik kerakligi uqtirib o'tadi: "Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo'ldan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur" [79; 43-b.]. Adib bu kabi asarlarida yoshlarni ilmi qilishda ko'proq muallimlar, ziyolilar, o'qituvchilarning jonkuyarligini ko'rsatib beradi.

Abdulla Avloniy



Abdulla Avloniyning jadidchilik harakatining yorqin namoyondalaridan biri, tarbiyashunos olim. U 1878-yil 12-iyulda hunarmandlar oilasida dunyoga keladi. Dastlab u eski usuldagi maktabda, keyinchalik madrasada tahsil oladi. Arab, fors va rus tillarini qunt bilan o'rgandi. Abdulla Avloniy o'lkada ilm-ma'rifatni keng targ'ib qilishda jonbozlik ko'rsatdi. U 1908-yilda

juda katta qiyinchiliklar bilan Mirobodda yangi usuldagi maktab ochdi. Ushbu maktabda bolalarga diniy bilimlar bilan birga, dunyoviy bilimlar ham berilar edi. Avloniy o'zi ochgan maktablar uchun "Birinci muallim" (boshlang'ich maktablarga mo'ljallangan) va "Ikkinchi muallim" (birinchi kitobning davomi va takomillashtirilgan shakli) darsliklarini yozdi.

Abdulla Avloniy 1917-yilda milliy tarbiyatshunoslikka oid bo'lgan "Turkiy guliston yohud axloq" kitobi nashr ettirdi. Kitob ikki qismga bo'lingan. U mazkur asarida yaxshi va yomon fazilatlarini tavsiflab beradi. Shu bilan birga, muallif asarda o'z davrining muammo va masalalarini tilga oladi. Bunda millatning jaholat botg'iga botganligini, mamlakatdagi qonunsizlik, jabr va zulm kabilar ko'rsatib o'tiladi. O'z navbatida xalqning bu hayoti yozuvchini jo'nbo'shga keltiradi.

Allomaning ta'kidlashicha, tarbiya jarayoni bola tug'ilgan kundan boshlanadi va hayotning oxirigacha davom etadi. Avloniy tarbiyani kim va qayerda berishi kerak? – degan savolga tarbiya oiladan boshlanishini, keyin maktab va madrasada davom etishi kerakligini ta'kidlaydi. Mazkur asarda vatanparvarlik tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi. Uning fikricha ko'ra, Vatanni shunchaki mavzusiga bag'ishladi. Shuningdek, Avloniy butun ushbu asarda ona sevish emas, u bilan faxrlanish, o'z amallari bilan yurt taraqqiyotiga hissa qo'shish lozim. Shuningdek, Avloniy butun ushbu asarda ona tili va adabiyotga katta e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, til va adabiyot millat mavjudligining ko'rsatkichi va belgisidir. Bu fikrlardan ko'rinadiki, Abdulla Avloniyning o'zi ham millatparvar va vatanparvar shaxs hisoblanadi.

Avloniy ta'kidicha, bolalarning axloqiy tarbiyasida oilaviy muhit va bolaning atrofidagi kishilarning ta'siri kattadir. U bola tarbiyasini quyidagi bo'limlarga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni. Ushbu bo'limda Avloniy tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, uni uzluksizligini, bola tarbiyasida ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning birdek javobgar ekanligini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, "Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq"dir. Tarbiya bir qancha bosqichdan – uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan iboratdir.

2. Badan tarbiyasi. Avloniy tarbiya doirasini keng ma'noda anglaydi. U birgina axloq bilan chegaralanib qolmaydi. Alloma dastlab ota-onalar bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi kerakligini uqtiradi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr va ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir".

3. Fikr tarbiyasi. Abdulla Avloniy bolaning fikri, dunyoqarashi, tafakkurini o'stirishda o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liqdir: "Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur". Shu bilan birga, alloma ta'lim va tarbiya jarayonining uzviy bog'liq ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. Uning bu borada quyidagi fikri diqqatga sazovor: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrimaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kavidur".

4. Axloq tarbiyasi. Kitobda bolalarning axloqiy tarbiyasiga keng o'rin ajratiladi. Avloniy shaxs xulqlarini yaxshi va yomon turlarga ajratadi va har biriga alohida ta'rif beradi. Jumladan, u yaxshi xulqlarni shunday izohlaydi: "Yaxshi xulq – bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munsilik, sadoqat, muhabbat va afvdur". Yomon xulqlarga esa quyidagilar kiritiladi: "Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgon, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimizda masmum bo'lgan axloqi zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, ta'ma, zulmdur", deydi.

Abdurauf Fitrat



Abdurauf Fitrat o'zbek adabiyoti, madaniyatining yirik namoyondalaridan biri hisoblanadi. U 1884-yilda Buxoroda tavallud topadi. Fitrat uning taxallusi bo'lib, "tug'ma iste'dod" – degan ma'noni anglatadi. Uning otasi Abdurahimboy savdogarlik bilan shug'ullangani uchun chet ellarga tez-tez borar, dunyodagi o'zgarish va yangiliklardan xabardor, ziyoli va ilmi inson edi. Fitrat boshlang'ich

ta'limni diniy maktabda, so'ng mashhur "Mirarab" madrasasida oladi. U fors, o'zbek arab tillarini chuqur egallaydi va o'lkada yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga, jumladan, jadidchilik harakati amalga oshirayotgan ishlarni kuzatib boradi. Dastlab u jadidlar harakatining mohiyatini to'liq anglamadi va ularning harakatini qo'llab-quvvatladi. Keiynchalik jadidlar yordami bilan bir guruh yoshlar qatori Fitrat Istanbulga o'qishga yuborildi. U 1909-1913-yillarda Turkiyada tahsil oladi va Turkiyadagi hayoti Fitratning dunyoqarashi, siyosiy ongi va ma'rifiy-madaniy qarashlarini o'zgartirib, rivojlantirib yubordi.

Mustaqillik davri xalq pedagogikasi

Xalq ta'limi tizimida muhim o'rinni egallagan umumiy ta'lim maktablari respublikamiz hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham respublikamizda hukumati, xalq ta'limi vazirligi joylardagi hokimiyatlar va jamoatchilik xalq ta'limi tizimini, jumladan, umumiy ta'lim maktablarini rivojlantirish, ularning tarmoqlarini kengaytirish va yangi binolar bilan ta'minlash, o'quv moddiy va texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni yuqori bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan ta'minlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Jamiyatimizdagi mavjud maorif tizimining barcha bo'g'inlarida jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yosh avlodning kamolotga yetishi, bir butun shaxs sifatida shakllanishiga nihoyatda kamo-e'tibor berilar edi. Natijada umumiy ta'lim maktablarida ta'lim-

tarbiya tizini, mazmuni, shakl va metodlari, yosh avlodni har tomonlama shakllangan yaxlit shaxs sifatida shakllantirishga mos kelmay qoldi.

Bu esa umumiy ta'lim va hunar maktablarni isloh qilishni taqozo etdi.

Islohotda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, I-IV sinflar boshlang'ich maktab, V-IX sinflar esa to'liqsiz o'rta va X-XI sinflar barchasi umumta'lim maktabini tashkil qiladi. Shuningdek, o'rta hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari kabi nomlangan. Mazkur tuzilishga binoan o'rta umumiy ta'lim maktablarida bolalarni yetti yoshdan boshlab o'qitish nazarda tutiladi.

Hunar-texnika ta'limi esa qayta tubdan o'zgartirilib, "O'rta hunar-texnika bilim yurtlari"ga aylantirildi.

O'rta ma'lumotga ega bo'lmagan, ishlab chiqarishdagi faol yoshlar uchun kechki (smenali) va sirtqi maktablar saqlanib qolindi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi tizimining o'zgarishi bilan, oliy o'quv yurtlari, bilim dargohlariga qabul qilishning yangi qoidalari, talablari ishlab chiqiladi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi bilan unda beriladigan ta'limning mazmuni, shakllari, metodlari va usullarini ham tashkil etilishini o'zgartirishni taqozo etadi. Buning uchun islohot taqozo etganidek, ta'limning mazmunini takomillashtirish zarur. Ta'limning mazmunini takomillashtirishning muhim shartlari o'quv dasturlari va darsliklari materiallarini o'quvchilarning yoshiga mos holda soddalashtirish, ortiqcha ikkinchi darajali materiallardan xalos etish zarur edi.

O'quv fanlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga o'rgatishni yo'lga qo'yish, ta'lim mazmunining politexnik yo'nalishini ta'minlash masalasi asosan amalga oshiriladi.

O'quv darsliklari, metodik qo'llanmalar yaratildi; o'quv rejasiga "Atrof muhit bilan tanishish" (I-II sinflarda), "Informatika fa hisoblash texnikasi asoslari" (X-XI sinflarda), "Oila etikasi va psixologiyasi" (X-XI sinflarda), "Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash" (VIII-X sinflarda) kabi fan asoslari kiritildi va o'qitilmoqda, o'qituvchilar mehnatiga tabaqalashtirib haq to'lash joriy etildi, o'qituvchilar malakasini oshirish va qaytadan tayyorlash

masalasi ijobiy siljishlar ro'y berdi, o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasining mazmuni takomillashtirildi; hunar-texnika ta'limi tizimida ishchi xodimlar tayyorlash kengaytirildi; maorifning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasiga nisbatan jamoat tashkilotlarining munosabatlari birmuncha o'zgargandek tuyuldi. Biroq, bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uyushtirish uchun yetarli emas edi, albatta. Islohot birinchidan, "qayta qurish" sharoitida, maktab islohotining evolyutsion xarakterga egaligi, maktab ishining mazmuni, ilmiy-pedagogik kadrlar, moddiy-texnikaviy ta'minlanish, boshqarishning tubdan o'zgartirilmaganligi ta'lim-tarbiyaning rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Islohn amalga oshirishdagi tashkilotchilik ishlarining yetarli bo'lmayotganligi, boshqarishdagi byurokratik metodga asoslanilayotganligi, xalq xo'jaligining ehtyojiga mos ravishda kadrlar tayyorlash mo'ljallanmaganligi ham islohot talablarini qiyinchilik bilan ham etilayotganligiga sabab bo'ldi. Bular esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya saviyasini oshirishga salbiy ta'sir etdi.

Shuni qayd etish zarurki, o'zbek maktablari sobiq ittifoq davrida milliy zamindan batamom uzilib qolgan edi. O'qishdagi zamonaviylashtirishning "bilimdon" va "zukko" tashkilotchilari ming yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirib, natijada maktablarimiz o'quv-tarbiyaviy ishlar va xalq ruhiyatidan deyarli ajralib qoldi, avlod-ajdodlarimizning dunyoviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy merosi esa umuman o'qitilmay, o'rgatilmay tashlab qo'yildi.

Xalq pedagogikasini ma'lum darajada mustaqillik davrida yaratgan kitoblar ham to'ldirmoqda: Haydarov M, "Etnopedagogika", Minovarov A.K. "Oila pedagogikasi". – T., (1994). Musurmonova O., Baubekova G. "O'zbek Xalq pedagogikasi". – T., 2000. Misol uchun Musurmonova O., G.Baubyekova, "O'zbek Xalq pedagogikasi", o'quv qo'llanmasida o'zbek Xalq pedagogikasi bo'yicha mustaqillik yillarida birinchi o'quv qo'llanmasi bo'lgan kitoblarda etnopedagogikaning yuzaga kelishini, uning predmeti mazmuni va metodlarini ochib beradilar. Birinchi bor bunday qo'llanmada hadislar asosida hamda o'zbek milliy o'yinlari maqol va matallari xalq qo'shiqlari va ertaklari xususiyatlari o'rganiladi. Mualliflar o'zbek

Xalq pedagogikasini mazmunini hozirgi sharoitlarda o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy va barkamol rivojlangan qilib tarbiyalash orqali ochib beradilar.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Xalq pedagogikasi qanday bosqichlardan iborat?
2. Islomgacha bo'lgan davrda xalqning pedagogik qarashlari qaysi manbalar ta'sirida bo'lgan?
3. Islom davri xalq pedagogikasining asosiy g'oyalari nimalarda nomoyon bo'ladi?
4. Islom ta'siri davrida faoliyat yuritgan sharq o'yg'onish davri mutafakkirlarni bilasiz?
5. Tashqi ta'sirlar davridagi xalq pedagogikasida qanday omillar xalq pedagogikasiga o'z ta'sirini o'tkazgan?
6. Mar'ifatparvar allomalarimizning xalq tarbiyasiga oid qanday ishlarini bilasiz?

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI O'Z TARBIYA BORASIDAGI TAJRIBALARINI AKS ETDIRUVCHI MANBALAR TIZIMI

Etnopedagogika manbalari tizimi va ularning xilma-xilligi

Etnopedagogika manbalari o'z tuzilishi, qo'llanish o'ri, vazifasiga ko'ra muayyan tizimlar (guruhlar)ni tashkil etadi. Bunday guruhlarni ko'rsatish uchun ma'lum atamalardan foydalaniladi. Etnopedagogika manbalari turlari ijtimoiy taraqqiyot davomida sekinlik bilan o'zgarib boradi: ularning ba'zilari so'nishi yoki boshqasi bilan almashishi mumkin.

Etnopedagogika manbalari turlarining vujudga kelishini ijtimoiy hayot taqoza qiladi. Chunki voqelikning o'zi voqealarga, obrazlarga boy bo'lib, xalq ijodiyoti oldiga uni g'oyaviy-tarbiyaviy va estetik mohiyatini idrok etgan holda biror shaklda ifodalashni zaruratga aylantiradi. Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsona va dostonlarni, tabiat kuchlari oldidagi o'zligi esa so'z magiyasi (afsun)ga sig'inishni paydo qildi. Demak, voqelik-

ning muayyan xarakteri xalq og'zaki ijodida yziga xos ifoda shaklini vujudga keltirishga xizmat qildi.

Xalq pedagogik tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi ham u yoki bu turning yuzaga kelishiga olib keldi. Agar taraqqiyotning ilk bosqichida oddiy shakllar yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik murakkab shakllar paydo bo'ldi.

Shunday qilib, o'zbek xalq pedagogikasining janrlar turi xilma-xil bo'lsada, u boshqa xalqlar pedagogikasi tizimlaridan farq qiladi. Jumladan, barcha xalqlar pedagogik manbalari tizimida ertak, maqol, topishmoq, qo'shiq turlari bo'lsada, ruslarda doston, o'zbeklarda blina yo'q, yoki o'zbek va tojiklarda ramozon, hayitlik aytimlari, ukrain va beloruslarda kolyadkalar, ruslarda ratseyka va chastushkalar tizimlari mavjud. Bir necha xalqlardagi etnopedagogika manbalarining bir xil tizimi ham o'z xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Etnopedagogik asarlar janrlari o'z ijodkorlari faoliyati bilan ham bog'liq. Agar topishmoq va maqol singari turlar ommaviy xususiyatga ega bo'lsa, doston, og'zaki drama, ertak, askiya kabilar maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo, mazkur turlarga xos quyidagi tamoyillarni ta'kidlab o'tish lozim:

1. Etnopedagogika manbalari pedagogik xususiyatlarining musharakligi;
2. Manbalar janrlariaro o'zaro ta'sir, bir-biriga muvofiqlik va bir-birini boyitish xususiyatlari;
3. Har bir turning vujudga kelishida ikkinchi turning manba sifatida xizmat qilishi – genetik aloqa;
4. Bir turdagi asarning boshqa bir tur tarkibida uchrashi;
5. Bir turdagi asarning yana bir necha boshqa turlar tarkibida uchrashi va boshqalar.

Etnopedagogika fanining asoschilaridan biri G.N.Volkovning quyidagi ta'rifi **xalq pedagogikasi manbalari** haqida yorqin tasavvur uyg'onishiga yordam beradi: "Xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o'yinlari va o'yinchoqlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir".

Shunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasida manbalar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi (folklori).
2. Milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar.
3. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlari.
4. Diniy ta'limotlar.
5. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.
6. Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati.
7. Tasviriy san'at.
8. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik.
9. Xalq raqs san'ati (xoreografiyasi).
10. O'rta Osiyo va o'zbek xalqi mutafakkirlarining asarlari.

1. **O'zbek xalq og'zaki ijodi.** Xalqimiz o'z tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijod merosini yaratgan. Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon xalq pedagogikasining tarbiya vositalaridan biri bo'lib kelgan. O'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlari, jumladan, afsonalar, asotirlar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, xilma-xil qo'shiqlar, allalar, termalar, maqollar, matallar, topishmoqlar, dostonlar, askiyalar, aytishuvlar, tez aytishlarning tarbiyaviy imkoniyatlari cheksizdir. Barkamol shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy, axloqiy, jismoniy mehnat, nafosat tarbiyasiga oid ajoyib ma'lumotlar o'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida o'z ifodasini topgan.

O'tmish ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'p asrlar davomida orttirgan boy tajribasini o'zlashtirish asosida yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, sog'lom va bilimdon qilib tarbiyalash hozirgi kunda g'oyat muhim va dolzarb masaladir. Shuning uchun ham Respublika Xalq ta'limi vazirligi xalq pedagogikasini hayotga tatbiq etishni, o'quvchilarni milliy-madaniy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi.

Ma'lumki, xalq pedagogikasi deganda xalq og'zaki ijodiyotining barcha janrlarida aks ettirilgan tarbiya borasidagi qarashlar, g'oya, urf-odat, rasm hamda an'analar yig'indisi tushuniladi.

Hozirgacha nashr qilingan xalq og'zaki ijodi namunalari va folklor materiallarida bevosita bolalar ishtirok qilmagan. Bolalar bevosita ishtirok qilgan xalq ijodi namunalari esa qay darajada bo'lmasin, xalq pedagogikasining tarbiyaviy an'analari chetlab

o'tilmaydi. Demak, xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalq pedagogikasining ham yagona tarbiya vositasi bo'lib kelgan.

O'zbek xalq pedagogikasi bola ko'rish, tarbiya jarayoni va uning jamiyatda tutgan o'rnini, xalq pedagogikasida tarbiyaning tarkibiy asoslari, milliy tarbiyani amalga oshirish usul va vositalari, yoshlarni dastlabki oilaviy odob qoidalariga odatlantirish va uni amalga oshirish yo'llari, yoshlarni dastlabki oilaviy dastyorlik va mehnatiga odatlantirish, uni amalga oshirishda foydalanadigan usul va vositalar, xalq pedagogikasida maktab va hunar ta'limi, shuningdek, boshqa shu kabi tarbiyaviy tadbirlarni qamrab oladi. Bularning hammasi xalq og'zaki ijodida aks etib kelgan. Xalq pedagogikasi xalq og'zaki ijodida namoyon bo'lishni alohida ta'kidlash lozim. Ma'lum ma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodi to'g'ridan-to'g'ri bola tarbiyasiga tayyor etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda.

Chunonchi, tez aytish – bolalar nutqini o'stirishga, topishmoq – bolalarning topqirligini tarbiyalashga, maqol – bolalarning odob-axloq tarbiyasiga, qo'shiq – bolalarning nafasat tarbiyasiga, doston va ertaklar bolaning turli tomonlarga tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilib kelgan.

Onangga boshingni ham qil, Otangga gapingni kam qil singari maqollarda o'git-nasihat birinchi darajaga ko'tariladi.

Shunday qilib, ona tili va adabiy o'qish mashg'ulotlarida o'rganilayotgan mavzu xususiyatlarga qarab xalq og'zaki ijodi namunalari ertak va dostonlarda, maqollarda yozuvchilarning asarlarida aks ettirilgan xalqimizning milliy urf-odatlar ustida keng ko'lamda so'z yuritisa bo'ladi. Asarda tasvirlangan lavhalarning mazmunini bolalarning o'zlarini bilgan, eshitgan, an'ana va odatlar bilan taqqoslab aytib beradilar. Mehnat ta'limi darslarining qiziqarli va mazmunan boy bo'lishini ta'minlash uchun xalq ertaklari va maqollariga tez-tez murojaat qilib turish lozim.

“Mehnat qilishdan uyalma, mehnat qilish ibodat qilish bilan barobardir”, “Ketmon chopdim – non tishladim”.

Xalqimiz yaratgan “Uch og'ayni botirlar”, “Sehrli so'z”, “Tovuq, o'rdak va sichqon” kabi ertaklari ham bolalarda yoshlikdan mehnatga muhabbat ruhini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Ertaklar bolani har tomonlarga yetuk qilib tarbiyalashda asosiy omildir. O'zbek oilasida ertak aytib bermay bola o'stirgan ota-ona va kattalarni yoki ertak eshitmay ulg'aygan yoshlarni tasavvur qilish qiyin.

Buni tarixda o'tgan ilm-fan vakillari, shoir va adiblar, jamoat arboblari e'tirof etadilar.

Ertaklarning tarbiya uchun muhim tomoni shundaki, unda xalq og'zaki ijodidagi topshmoq, maqol, qo'shiq kabi janrlar jamlangan bo'lib, ular pedagogik g'oyalarning mukammalroq, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Ertaklarda bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy qismlari: xis va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, mehnatsevarlik, ma'naviy sifat hamda nafis didlarning tarkib topishga oid ko'pdan-ko'p pedagogik materiallarni uchratish mumkin.

Masalan: “Qorasoch pari” ertagida Nodir juda yosh chog'ida otadan yetim koladi. Uning onasi – doya Qambar Nodirni safarga jo'natish oldidan uni bag'riga bosib: “Mening uch nasihatimni qulog'ingdan chiqarma, birinchi – birovga xiyonat qilma, ikkinchi – birovning dilini og'ritma, uchinchi-qaysi shaharga borsang eng avvalo o'sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish ko'r!” deb nasihat qildi va bola umrining oxirigacha ona nasihatiga amal qilib, murod-maqсадiga yetadi. Shunga o'xshash “Erali va Sherali” dostoni, “Zumrad va Qimmat” ertagi, unda Zumradning ochiq-ko'ngilligi, mehribon va aqilligi, donoligi olqishga sazovor. Qimmatning esa erka, tantiq, ishyoqmas, dangasaligi qoralanadi.

Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plangan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shuning uchun ham ular bola tarbiyasiga, xususan, axloq va odobga ijobiy ta'sir etishda samarali ta'sir ko'rsatishga qodir.

Maqollarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'zbek maqollari asosan ikkinchi shaxs-tinglovchiga nisbatan o'git-nasihat yusini badiiy o'xshatishlar orqali aytiladi.

*Yaxshi bola yog' keltirar,
Yomon bola dog' keltirar.
Yaxshi bola – to'rga tortar,
Yomon bola – go'rga.*

Odob – kishining zebu ziynati

Obod – oltindan qimmat

So‘z kishining o‘zagi

Odob kishining bezagi

kabi maqolalarda odob-axloqning qimmati haqida gap yuritilsa,

Oltin olma, duo ol,

Duo oltin emasmi

kabi maqollarda esa beminnat ta‘masiz yaxshilik qilish ulug‘lanadi.

2. Milliy urf-odatlar, an‘analar va marosimlar.

Milliy urf-odatlar, an‘analar, marosimlar zamirida katta tarbiyaviy imkoniyatlar mavjud, zero, ularning barchasi ajdodlarimizdan qolgan madaniy meros sanaladi. Milliy to‘ylar, ommaviy bayram – sayllar, sharqona va turkona an‘analar, hayit bayramlarida xalqimizning o‘ziga xosligi yorqin aks etadi.

Milliy bayram va an‘analar donishmandlik manbai, hayot sabog‘i. Tarixiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi hisoblangan xalq ommasi – milliy bayram va an‘analarini ko‘z qorachig‘idek asrash, avlodlarga meros qilib qoldirishga harakat qildi.

Xalq o‘z bayram va an‘analarini ijodkoridir. Shaklan milliy, mazmunan umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan xalq an‘analari, urf-odatlari va marosimlari jahon madaniyati xazinasiga qo‘shilgan buyuk hissa bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbek xalqining milliy an‘analari ijodidan avlodga, bobodan otaga, otadan bolaga o‘tib kelmoqda va yoshlarni tarbiyalashda katta rol o‘ynamoqda. Zero, xalqimizning madaniy merosini chuqur bilmasdan milliy o‘zligini anglash va milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas.

Har bir millat va elat o‘ziga xos bayram, urf-odatlariga ega. Milliy bayram va an‘analarimizga Navruz bayrami. Ramazon hayit, Qurbon hayit, Mustaqillik kuni kabi bayramlari; Nikoh to‘yi, kelinchak qo‘lidan choy ichish, chorlar, qizlar bazmi kabi marosimlar shular jumlasidandir.

Yosh avlodning ma‘naviy va axloqiy kamol topishiga ta‘sir etuvchi an‘analar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Gul sayli o‘zbeklarning qadimiy bayrami hisoblanadi, bu esa xalqimizning tabiat go‘zalliklaridan zavq olishi, o‘ta nozik

ta‘bligidan dalolat beradi. Lola sayli aslida Navruzning davomi, uning ajralmas qismi bo‘lgan bu bayrami hamal oyi oxirlarida, dala-qirlarda lolalar qiyg‘os ochilgan bahor ayyomida o‘tkazilgan.

Marosimlar – an‘analarning yana bir ko‘rinishidir. Marosim urf-odatning amaliy ifodasi.

Marosim qat‘iy tartib – qoida, oldindan belgilangan rasm-rusumlar, rejalashtirilgan taomlar bo‘lib muayyan me‘yor asosida o‘tkaziladi. Marosimlar tantanali yoki qayg‘uli bo‘lishi mumkin. Marosimchilik har qanday g‘oya pand-nasihatlardan, afsona va rivoyatlardan ko‘ra kishi qalbiga chuqur, kuchli ta‘sir etadi va mustahkam saqlanadi. Bilim egallashga odatlanish, lafzi halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehmondo‘stlik – o‘zbek xalqining eng yaxshi fazilatlaridir. Yoshlarni yuksak axloq-odob ruhida tarbiyalash – kattalarning azaliy burchi. Milliy an‘analar hayot sabog‘i, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi.

3. Xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlari.

O‘zbek xalq o‘yinlari o‘zlarining serharakatligi, chidamliklikka o‘rgatuvchanligi, chiniqtiruvchi harakatlardan iboratligi bilan ajralib turadi. Xalq o‘yinchoqlarida xalqning turmushi, uning qadriyatlarini va orzu istaklari ustalik bilan tasvirlangan.

Mustaqilligimiz sharofati bilan tarixiy taraqqiyotimiz zarvaraqalarini qaytadan ochib, asrlar mobaynida buyuk turon xalqini tarbiyalab kelgan tarbiya uslublaridan, ota-bobolarimiz yaratgan va katta samara bergan tarbiya nazariyasidan saboq olamiz.

Bu borada milliy xalq o‘yinlarining ahamiyati beqiyosdir. Milliy xalq o‘yinlari orqali yoshlarning aqliy va axloqiy jihatdan barkamolligi ortadi. Baquvvat, jismoniy yetuk, chidamli irodali bo‘lib tarbiyalanadi. Milliy xalq o‘yinlari uzoq tarixga ega bo‘lib musoboqalarda turli urf-odatlar marosimlarda o‘ynab kelingan. Xalq milliy o‘yinlarning turlari juda ko‘p professor F.N.Nasriddinov boshchiligida bir guruh mutaxassislar va olimlar milliy o‘yinlarni o‘rganish, ularni chuqurroq ommalashtirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy ishlarini amalga oshirmoqdalar 1991-yildan boshlab Respublika davlat sport qo‘mitasi, Forish tumani hokimiyati milliy o‘yinlar bayramini an‘anaviy ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

“Chillik”, “Oq suyak”, “Qo‘loq so‘zma”, Kichik ko‘pkari”, kabi harakatli o‘yinlar uzoq tarixiy taraqqiyotga ega. Harakatli

o'yinlar va mashqlar bolalarning etin va estetik milliy dunyo-qarishini o'stiradi., mustaqil harakat qobiliyatini rivojlantiradi. Milliy o'yinlarni tiklash sohasida mamlakatimizda anchagina ishlar qilindi va uning salmog'i ortmoqda. Keng jamoatchilik ayniqsa keksalar yordamida esda chiqqan milliy o'yinlarni aniqlash, o'yin qoidalarini mukammallashtirish va shu asosida yoshlarga o'rgatish jismoniy tarbiya sohasidagi qadriyatlarimizni tiklashga qo'shilgan katta hissa bo'ladi.

Bunday o'yinlar tafsilotlari xalq og'zaki ijodida alohida ta'rifu-tavsifga sazovor bo'lgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida "Alpomish", To'maris" afsonasi. "Go'ro'g'li", "Kun tug'mish", "Yodgor" kabi ko'plab dostonlar mavjudki, bu dostonlarda pahlavon, chaqqon, chidamli, aqli qahramonlarning sifatlari ochib berilgan.

"Alpomish" dostonida yigitlarning jismoniy sifatlarini ko'rsatilgan qismlardan namunalar keltiramiz. Bu doston o'zbek xalq qahramonlik dostonlarining gultojisi hisoblanadi. Dostonda tasvirlanishicha, Oybarchinga qalmoq elidan slvchi keldai. Qung'irot elining to'rasi Alpomish sevgilisi haqidagi xabar eshitada. Oybar-chin janjal chiqishini oldini olish maqsadida barchaga barobar shart quyadi.

*Qirq kunli yo'l Boboxonning orasi.
Boboxon tog'idan poyga qilaman.
Boboxondan poyga qilib o'zdirsa.
Oti ildam boyvachchaga tegaman.*

*Yoy tortishga, yoyi sinmay qolganga.
Ming qadamdan tanga pulni urganga.
Men tegaman shul qarag'ay merganga
Kurag qilib, to'qson alpni yiqqanga.
Men tegaman nor bilakli polvonga.*

Har bir yigit uchun jismoniy chiniquqan bo'lib otda poyga qilishi. Merganlik, kurash va boshqa yigitlarga xos hislatlarini egallashi urf-odatimiz bo'lib xizmat qilgan.

Dostonda ifoda etilgan voqealar yigit-qizlarning qahramonligi, jasorati shunday nozik misralarda bayon etilgan ularning epchilligi, chaqqonligi, chidamlilik hislatlari hozir davr yoshlarining tarbiyasiga ham ijobiy namuna sifatida ta'sir etadi.

Bunga o'xshash voqealar, g'oyalar. Boshqa dostonlarda ham bayon etilgan. Ko'rinadiki, dostonida milliy g'urur, yigitlarga xos qahramonlik, mardlik sifatlari ochiq bayon qilingan xislat hozirgi zamon yoshlarini tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi.

Bu xalq pedagogikasini chuqurroq o'rganish, mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga, axloq odobga doir asarlarini ko'zdan kechirish jarayonida o'zbek xalqi bolalarini tarbiyalashda eng ta'sirchan uslub, ya'ni uslubidan foydalantirishni ko'ramiz.

4. Diniy ta'limotlar.

Islom dinining muqaddas manbalari bo'lgan "Qur'oni Karim", hadis va boshqa diniy ta'limotlarda odob-axloqqa, insoniylikka oid qimmatli pedagogik g'oyalar ilgari surilgan. Islom aqidalarining uning axloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai "Qur'ondir".

"Qur'on" – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida "qiroat" ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 suradan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. "Qur'on"ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Quron"da uylanish, er-xotin, ota-ona va farzandalar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, har bir muslim va muslimaning oila qurishi Oллоhning farzi ekanligi ta'kidlanib, "Qur'oni Karim"ning "Baqara" surasi 223-oyatida shunday bayon etiladi: "Hotinlaringiz sizlarning ekinzor erlaringiz bo'ladi. Ziroat erlari urug' sepganda Samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili farzand. Bas o'z xotinlaringiz farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo'rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun berilgan quvvatni bekor qoldirmang va zoe qilmang. Ey, Muhammad saodat mujdasini iymonlilarga bergin".

Islom olamida Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyliги puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so'zining ma'nosi sog'lom, to'g'ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi

isnod, hadislarini to'plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, otana, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi.

Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:

- to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;

- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;

- kishi o'z ustida ishlamoq'i va o'zini ibodat va itoatga chaqirmoq'i

Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdagilar va jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishida muhim omildir deya ko'rsatiladi. "Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham". Bilimsizlik kishilarning nodonligiga zamin hozirlashi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat hamda razolatning hukmronlik qilishi aloqida ta'kidlab ko'rsatiladi. "Ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning fazilati" borasidagi hadis (XXI bob) da ilm o'rganish ko'p yoqqan yomg'irga qiyoslanadi va ilm ahli quyidagi uch turga bo'ladi: "Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'ziga to'playdir, undan Oллоh taolo bandalari foydalangaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, hayvonlari va ekinlarini sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha muhoyasa qilish mumkindir: Bir kishi Oллоh ilmini (Islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadi va Oллоh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabburlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir".

Ammo ilmga e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi. Hatto "Rasululloh quyidagilar qiyomat alomatlaridir, deganlar:

- ilmning susaymog'i;

- jaholatning kuchaymog'i;

- zinoning avj olmog'i;

- xotirlarning ko'paymog'i;

- erkaklarning ozaymog'i"

Demak, qiyomatni odamlarning o'zlari sodir etadilar. "Ilm ravnaq topmagan mamlakatda zino avj olgan, o'zaro urushlar kuchayib, erkaklar ozayib ketganda albatta, qiyomat qoyim bo'ladi" (XXII bob). Shu bois "Ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar", - deyiladi (637-hadis). Islomda ikki xil ilm haqida so'z yuritiladi: biri huquqiy (fikh), diniy yo'l-yo'riqlar to'g'risidagi ilm bo'lsa, ikkinchisi dunyoviy ilmlardir. Har ikki turdagi bilimlarni chuqur egallash va ularga qat'iy amal qilish har bir mo'min uchun farz hisoblanadi.


5. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining sohaları xalq moddiy hayotining ko'z gusi va ijtimoiy hayotining aksi bo'lib, o'quvchilarda nafosat his-tuyg'ularini shakllantiradi.

Amaliy san'at, amaliy bezak san'ati - bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi.

Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va ang-lashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmatini bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir.

Xalqimizda amaliy san'atning naqqoshlik, rang tasvir, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, misgarlik, zargarlik, matolarga naqsh ishlash, kandakorlik kabi turlari mashhur bo'lgan. Yurtimizda ushbu amaliy san'at turlari bilan hozirgi kunga qadar shug'ullanib kelinmoqda.



Yog'och o'ymakorligi

Hunarmandchilik — milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi, shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saqlangan.

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshlaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nehilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'ndachilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik, ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning 3 turi shakllangan:

- 1) uy hunarmandchiligi;
- 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;
- 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.

Uy hunarmandchiligi kapitalizmga qadar bo'lgan davrlarda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi bo'ldi. Hunarmandchilikning bu turi natural xo'jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o'sishi bilan uzviy bog'liq. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha bordilar. Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasbkoriga qarab shakllangan (XX asrning boshlarida Toshkentda ko'nehilar, kulollar, egarchilar, beshikchilar, o'qchilar, kosiblar mahallalari bo'lgan). Ayrim mahalla, guzar, shahar, hunarmandchilikning ma'lum mahsulotlari bilan shuhrat qozona boshladilar.

O'zbekiston o'zining rang-barang shoyi, atlas, beqasam, xon atlas va boshqa turli buyumlari bilan uzoq asrlardayoq nom chiqarib kelgan. Hozirgi vaqtda badiiy to'qimachilik san'ati Marg'ilon, Farg'ona, Namangan, Samarqand va Buxoro shaharlarida juda rivojlangan.

Badiiy to'qimachilik sohasining asosiy shoxobchalaridan bo'lgan gilamchilik san'ati ham keng tarqalgan. Mohirlik bilan tayyorlangan gilamlar, paloslar, sholchalar xalq to'qimachilik san'ati asosida har manzilda turli shakllarda to'qiladi. Qarshi va Koson tumanlarida rang-barang bo'yoq va geometrik shakldagi guldor sholchalar, Samarqand viloyati tumanlarida uzun patlik Julqirs shakldagi paloslar, Andijonning Oyim qishlogida "qizilo'yoq" gilamlar to'qiladi. Xiva esa tiqin texnikasi asosida to'qiladigan gilamlari bilan mashhurdir.

Keyingi paytlarda O'zbekistonda kulolchilik ishlari anchagina yo'lga qo'yildi. Sopol buyumlarni yasash va unga bo'yoq berishda har bir shahar va tumanning o'ziga xos uslubi mavjud

bo'lib, ustalar o'zlariga xos an'analarga egadir. Buxoro va G'ijduvon ustalari ko'proq qizgish-jigar rang bo'yoqlarda, Rishton ustalari ko'kimtir, moviy-havo rang, Samarqand ustalari yashil-sariq rang tusda, Shahrisabz ustalari qizg'ish bo'yoqdan foydalanadilar.

O'zbekistonning qo'l-hunar san'atida mis buyumlariga badiiy naqsh o'yish kasbi alohida o'rin tutadi. Asosan bu hunar ko'proq Qo'qon, Qarshi, Buxoro, Shahrisabz, Xiva shaharlarida rivoj topgan Naqqosh miskar ustalar tomonidan nozik shakllarda ajoyib ishlangan choy idish, qumg'on, choynak, barkash, kuldon, patnislar va xilma-xil buyumlarni har bir xonadonda uchratish mumkin.

Yog'ochdan sharq an'anasi asosida xilma-xil badiiy buyumlar ishlaydigan o'zbek yog'ochsozlari orasida alohida uslubga ega bo'lgan ustalar ko'p. Yog'och o'ymakorlik san'ati Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Toshkentda ko'proq rivoj topgan. Uymakor ustalar o'z hunarlarini asosan eshik, ustun, darcha, tepa tuynuk va shu kabi binokorlik qismlarini yasashda namoyon etib kelganlar. Hozirgi vaqtda ular o'z san'atlarini aholi, jamoat binolarini bezatishga baxsh etmoqdalar. Yogoch buyumlar do'konida turli xil buyumlarning (kiyim ilgichlar, shifonerlar, divan, stol-stullar) yangicha shaklda ishlanganiga ko'zingiz tushadi. Bularning ko'rinishi chiroyli, sodda, ishlatishda ancha o'ng'aylik tug'diradi. Ular yangi yetishib chiqqan ustalarning ijodiy mahsulidir. Bu ishda yorqin bo'yoqlarni tanlagan bo'yoqchilarning ham hissasi katta.

Yog'ochga naqsh ishlash san'ati taxminan IV asrdan boshlangan. Badiiy jihatdan bezalgan gulli naqshdor o'rta asr yodgorliklari hozirgi davrga qadar saqlanib qolgan. Qadim zamonlardan boshlab madrasalarning to'sini, araqi, ustunlari, boylar yoki jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan joylar, amaldorlar qurdirgan mehmonxonalar naqqoshlar tomonidan nafis (nozik) naqshlar bilan bezatib kelingan.

Madrasa devorlari va karniz oraliqlariga ganch ustalari nafis gullarni o'yib ishlashgan.

Naqqoshlik, ayniqsa, sabr-toqat, mustahkam asab, yuksak quntni talab qiluvchi hunardir. X asrda yashab o'tgan Qobusning nabirasi Kaykovus ham kasb-hunar o'rganish har bir yoshning burchi, deb hisoblagan.

Bola tarbiyasida hunar o'rganishning ta'siri, halol mehnat kabi axloqiy tushunchalar shubhasiz yuksak ma'no kasb etadi. Bu bilan insonlar o'rtasida do'stlik aloqalarini rivojlantirishga, turmush darajasini taraqqiy ettirishga yaxshi dalillar keltiriladi.

Kaykovus o'z zamonasining farzandlari mehnatsiz, ilm-hunarsiz na ilm cho'qqisiga, na ma'rifatga ega bo'lishi mumkin emasligini o'zining hayotiy tajribasi orqali tushuntiradi. U: "Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir. Chunki dangasalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo'ladi. Agar mehnat qilib badanni o'zingga bo'ysindirmasang, sog'lom va baland martabali bo'la olmaysan..." – degan edi.

Kasb va hunar yoshlar vaqtining behuda o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Hunar va kasb o'rganish yoshlarni har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan xoli qiladi. Hayotda uchragan qiyinchiliklar oqibatida tugilishi mumkin bo'lgan yomon fikrlardan qaytishga o'rgatadi.

Jahonga mashhur bo'lgan buyuk olim va mutafakkirlar Aristotel, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Nizomiy Ganjaviy, Muslihiddin Sa'diy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bedil, Bobur kabilar kishilik madaniyati taraqqiyotining rivoji uchun o'zlarining ilmiy-badiiy ijodlari bilan katta hissa qo'shganlar. Ular jozibador go'zalliklar insonlar qalbiga doimo shodlik baxsh etib, har qanday g'am-g'ussa, iztiroblarni yenga olishiga ishonganlar. Bobur o'z zamonasidagi badiiy naqshli irmoqlar bilan gul soluvchi naqqoshlar mehnatini yuksak qadrlab, ularni tez-tez o'z huzuriga chorlab, esdalik sovg'alar taqdim etgan va ular haqida: "Mehnatda sinalgan elda aziz", – deb maqol yaratgan.

A.Navoiy esa, naqqoshlar hunaridan zavqlanib, ularga el oldida boqiy umr tilagan. Bu olimlar naqsh gullarining topilishi va takomillashishiga, o'ymakorlik ishlarining davom etib rivojlanshiga o'z hissalarini qo'shganlar.

6. Miliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati.

Musiqa ma'lum darajada hayotni va davmi aks ettiradi. Jumladan, o'zbek musiqa va qo'shiqchilik san'ati xalqimizning turmushini, uning orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtirgan.

Dunyodagi har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'alariga egadir. Shular qatorida o'zbek musiqasi ham juda qadimiy va o'ziga xos an'alariga egadir.



O'zbek musiqasi azaldan ikki ulkan yo'nalishda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Birinchi yo'nalish, bu xalq hayotiy voqe'liklari bilan bog'liq bo'lgan folklor musiqasidir. Insoniyatning kundalik hayoti, mehnati va faoliyatini in'ikos etuvchi musiqadir. Folklor musiqasining asosiy mezonlari marosimlar va voqe'liklar bilan bog'liq bo'lib, to'rtta yo'nalishdan iboratdir. Bular:

1. Bolalar musiqasi.
2. Mehnat qo'shiqlari.
3. Marosim qo'shiqlari.
4. Diniy, afsuniy qo'shiqlar.

Amaliyotda har bir yo'nalishga xos va voqe'lik bilan bog'liq bo'lgan janrlar vujudga kelganki, ular asrlar davomida xalqlar milliy an'alarida yuzaga kelgan. Bular – alla, yalla, lapar, terma, qo'shiq-aytishuv kabi janrlardir.

Xalq folklor musiqasining asosiy xususitlaridan biri: folklor musiqasini xalq yaratadi, xalq tomonidan ijro etiladi va tinglanadi. Lekin folklor musiqasining ham bilimdon ijrochilari bo'lib, xalq orasida ular laparchi, yallachi kabi nomlar bilan atalib kelinadi. Folklor musiqasining ijrosida va ijodida muayyan janrlar tarkibiga asoslangan erkinlik xususiyatlari mavjuddir.

Musiqiy namunalarining shakl jihatidan soddaligi, barmoq vazniga xos she'riy matnlarga asoslanishi va unchalik katta bo'lmagan diapazon doirasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi yo'nalish mumtoz musiqadir. Mumtoz musiqaning namunalari, har tomonlama mukammallik kasb etishi bilan folklor

musiqasidan farq qiladi. Mumtoz musiqaning alohida yaratuvchisi, ya'ni bilimdon bastakori tomonidan ijro etiladi. Bilimli va mohir sozanda yoki xonandalar tomonidan ijro etiladi. Asosan aruz vazniga xos bo'lgan so'z matnlariga asoslab va muayyan shaklda yaratiladi. O'zbek xalq mumtoz musiqasi o'zining mukammalligi va murakkabligi bilan boshqa xalqlar orasida alohida o'ringa egadir.

Mumtoz musiqaning eng yirik shakli maqomlardir. Maqomlar O'zbekistonning uch vohasida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona-Toshkent maqom yollari" deb yuritiladi. Bundan tashqari, maqomlar yollarida yaratilgan, shakllan va ijroviy xususiyatlari doirasi maqomlarga xos bo'lgan "Suvora"lar, Katta ashula, Surnay maqom yollari, dutor maqomlari hamda cholg'u yollari mavjuddir. Mumtoz musiqaning shakllan muqimligi, qonun-qoidalarga egaligi, talqin uslublarining mavjudligi uning murakkabligidan dalolat beradi.

Maqomlarni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta keng diapazonli ovozga ega bo'lish lozimdir. Maqomlar, odatda bir necha yillar davomida hamda ustoz-shogird qabilidagi ta'lim asosida o'zlashtiriladi. Bu mumtoz musiqaning merosimining asrlar osha o'z badiiy va estetik imkoniyatlari saqlab kelishining asosini bildiradi.

O'zbek musiqasining ijodiyoti yillar davomida turli janrlar bilan boyib kelgan. XX asrga kelib, bastakorlik an'alariga xos va jahon musiqasining ijodiyoti namunalariga mos kompozitorlik ijodiyoti kirib keldi. Bu albatta o'zining yangidan-yangi janrlari, ulami yaratish va ijro etish qonuniyatlari bilan bog'liqdir.

Shu bilan birga musiqaning san'ati bilan birga cholg'uchilik maktabi ham rivojlandi. Milliy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, ulardan turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib

takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi. An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doyra, nog'ora. Xalq ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'i, safoil kiradi. Qayta ishlangan cholg'u asboblari – rubob, g'ijjak, dutor va chang sozlarining musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlari mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalari kiradi.

7. Tasviriy san'at.

Xalqning hayoti, u turmush kechirayotgan tabiiy sharoit, insoniy obrazlar ma'lum darajada pedagogik bilimlar va ma'lumotlarni ifodalab bergan.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotno(mato)larga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmuni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jaz, dastgoxli turlarga bulinadi.

Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'lik bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlash-tirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

Mo'jaz san'at asarlari turli mamlakatlarda shu jumladan, O'zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Hamsa" asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgoxli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabi-larga ishlanadi. Dastgoxli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera buyoqlarida maxsus dastgox (molbert)larga o'rnatilib ishlanadi.

Grafika – lotincha "grafo" so'zidan olingan bo'lib, "yozaman", "chizaman" degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atining bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va hozakolar kiradi.

Xaykataroshlik – tasviriy san'at turlaridan biri. U lotincha "skulpo" so'zidan olinib, qattiq materiallarga "qirqish, kesish, o'yish, taroslash" orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

Rassomchilik san'atining turlari.

Portret – rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret – portret janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, musavvir o'zining tashqi qiyofasini o'zi tasvirlaydi.

Manzara – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar xaqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqiyalar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavirlar vodiylarni, tog'u – toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan U.Tansiqboyevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da bahor", Z.Inogomovning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Timurovning "Bibixonumda bahor", "Ulug'bek madrasasi" asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort – fransuzcha so'z bo'lib. "jonsiz tabiat" degan ma'noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro'y berayotganligini ham ko'rsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R.Axmedov, L.Salimjonova, G.Abduraxmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.

Tarixiy – bu janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko'rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr – "botal" fransuzcha so'z bo'lib, "jang", "urish" ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu

janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi, jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo de Vinchi, M.B.Grekov, G.K.Savitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabiyevning "Spitamen qo'zg'oloni", musavvir R.Rizamammedovning "Muqanna qo'zg'oloni", musavvir T.Sodiqovning "Tumarisning qasosi" nomli asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Animalistik — janr o'zgacha tasviry san'at turidir. U lotincha "anim", "hayvonot olami" degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Miniatyura san'ati bu o'zining shartlilik, dekorativligi, shakl, faktura va bezaklarining o'ziga xos usulda berilishi bilan ajralib turuvchi kichik o'lchamdagi tasviri san'at asari hisoblanadi. O'rta asrlarda qo'lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar miniatyura san'atining paydo bo'lishiga olib keldi.

O'rta asrlarda kitob miniatyura san'ati Yaqin Sharq, Markaziy va O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Vizantiya, Qadimgi Rus va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida gullab yashnadi. Shu davrlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Maxmud Muzaxxib, Murod Samarkandiy va boshqa qator musavvirlar Sharq miniatyura san'atining nodir na'munalarini yaratib qoldirdilar. Bular orasida Ayniqsa Kamoliddin Behzodning faoliyati (taxminan 1466-1535-yillar) diqqatga sazovordir. Kamoliddin Behzod Xirotda tugilgan. Bu yerda Husayn Boyqaro kutubxonasida ishlagan. 1507-yil Xuroson Shayboniyxon qo'liga o'tgach, Behzod Buxoraga ko'chib kelgan va shu yerda 1522-yilgacha yashab, ijod qilgan va o'zining mashhur Shayboniyxon portretini yaratgan. Keyinchalik qisqa vaqt Tabrizda (1522-1524) keyin yana Xirotda yashab ijod etgan. Buyuk Alisher Navoiy g'amho'rligida kamol topgan Behzod Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston", Nizomiyning "Hamsa", Hisrav Dehlaviyning "Hamsa", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlariga ko'plab suratlar chizgan.




*Kamoliddin Behzod qalamiga mansub
"Chavgon o'yini" va "Shayboniyxon" portreti.*

A.Navoiyning dostonlarini ajoyib suratlar bilan bezagan. Behzodning ijodiy rejalarini keyinchalik uning shogirdlari Qosim Ali, Maxmud Muzaxxib, Mulla Yusuf va boshqalar davom ettirdilar. O'rta asrlar kitob miniatyurasi hozirgacha bizni o'zining go'zaligi, bo'yoqlarining yorqinligi va tozaligi, bezaklarining murakkabligi, obrazlarining qiziqarliligi bilan lol qoldirib keladi.

8. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik.

Har bir tarixiy yodgorlik zamirida xalqning ma'lum davrdagi tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayoti yotadi. Har bir tarixiy obidalar yoshlarda vatanparvarlik hissini, bunday betakror obidalami yaratgan ajdodlar bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

Me'morchilik xalq arxitekturasida bino va inshootlarning qurilish san'atini ifodalovchi atamadir. Me'morchilik bino va inshootlar qurishning o'ziga xos texnikasini, san'atini, xalq tarixini, uning ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, madaniy-maishiy hayotini ma'lum shaklda mujassam etadi. Yurtimizda ko'plab tarixiy shaharlar, qadimiy madaniy yodgorliklar saqlanib qolgan. Xususan, Samarqandda 290 dan ortiq arxitekturaviy va 2 mingga yaqin arxeologik yodgorliklar mavjud. Tarixchi va adiblar bu shaharni Sharq musulmon dunyosining qimmatli durdonasi. "Sharq Rimi" deb ham ataydilar.



Registon maydoni, Samarqand.

Registon maydonida qad rostlagan Sherdor, Tillakori (XVII asrda qurilgan) va Ulug'bek (XV asrda qurilgan) madrasalari bezab turibdi, shuningdek Samarqanddagi Shohi Zinda va Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi ham mashhur qadamjoldardan sanaladi.

Buxoroga asos solinishi qadim-qadimgi asrlar tubiga borib taqaladi. 1997-yilda YuNESKO ning qaroriga ko'ra butun madaniy dunyo uning 2500-yilligini nishonlagan edi. Afsonalar shaharning paydo bo'lishini tarixiy shaxs obrazi bilan bog'liq Zardo'shtiylik xudolaridan biri – Siyovush bilan bog'laydi. Buxoroning eng qadimiy qismi uning qal'asi – Ark hisoblanadi, bu yerda arxeologlar eramizdan avvalgi IV-III asrlarga oid bo'lgan ba'zi topilmalar borligini aniqlashdi. Bu balandligi 20 metr bo'lgan katta tepalik bo'lib, u yerda ilgari Buxoro amirining saroyi, uning harami, xazinasi, qurol-yarog' saqlanadigan xonalari, o'ta xavfli jinoyatchilar uchun zindon bo'lgan edi. Hozirgi paytda ular tiklanmoqda. Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan biri X asrning boshida Somoniylar sulolasining asoschisi tomonidan qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasidir.




Ismoil Somoniy maqbarasi, Buxoro

Shaharning asosiy va eng baland ko'tarilgan inshooti – 1127-yilda qurilgan Kalon minorasidir. Bu har tomonlama komil muhandislik inshooti hisoblanadi. Bundan tashqari Labi hovuz, Mir Arab madrasasi, Chor Minor masjidi kabi qadimiy me'morchilik yodgorliklari hozirgacha shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg'oniy,

Burhoniddin al-Margʻinoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulugʻ allomalarimizning shaʼnlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad koʻtardi.



Minorai Kalon, Buxoro

Bugungi kunda mamlakatimizda yetti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta meʼmoriy obida, 2700 tadan ortiq monumental sanʼat asari davlat muhofazasiga olingan. 1991-yildan Xivadagi Ichonqalʼa qoʻriqxonasi, 1993-yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000-yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskonning “Umumjahon madaniy merosi” roʻyxatiga kiritildi.

Oʻtmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni eʼzozlash, asoriy atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk oʻtmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bogʻliqdir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati boʻlib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan.

9. Xalq raqs sanʼati.

Oʻziga xos maʼnoni anglatuvchi chiroyli, mutanosib harakatla nafas tarbiyasining muhim vositalaridan biri boʻlib kelgan. Buyuk allomalarning asarlarida ilgʻor pedagogik fikrlar, qarashlar va

gʻoyalar ifodalangan boʻlib, ularni oʻzbek xalqi tarbiya madaniyatining tarkibiga kiritish juda oʻrinlidir.

Raqs sanʼat turi boʻlib, musiqaqa monand ritmik tana harakatlarida namoyon boʻladi. Raqs turli madaniyatlarda mavjud va hissiyotlar, ijtimoiy aloqalarni bildirish shakli sifatida yoki koʻngilxushlik uchun ijro etiladi.

Markaziy Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimligidan guvohlik beradi. Oʻzbek raqs sanʼatining qadimiyligi, shakl va turlarining boyligi ajdodlarimiz asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bogʻliq boʻlganidan kelib chiqqan. Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” davridayoq raqs sanʼati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yoʻnalishda rivojlanishga kirishgan edi. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida (mil, av. IV-III asrlar) Turon raqs sanʼatining darajasi Yunoniston, Vizantiya, Hindiston va Xitoy raqsi bilan bahslashishiga imkon bergan. Shahar madaniyatining rivojlanishi tufayli bu sanʼat yanada mazmundor va rang-barang boʻla boradi. IV-VIII asrlarga kelib Oʻzbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlaridan raqs ustalari Buyuk ipak yoʻllari boʻylab Rum, Misr, Gʻarb oʻlkalarigacha, Sharqda Xitoy, Koreya va hatto Yaponiyagacha borib, oʻz sanʼatlarini namoyish etadilar. Chunonchi, Xitoyda ajdodlarimizning “Xusyuanyu” raqsi mashhur boʻlgan. Shoir Yuan Chjan (776-831) va boshqalar madh etgan.

Musulmonlik davrida ham Oʻzbekiston sarhadlarida turli taraqqiyot bosqichlarida paydo boʻlgan. Raqs, oʻyinlar bir-biriga taʼsir koʻrsatib, yonma-yon yashab kelgan. Shu bois shahar va qishloqlarda oʻtkazilgan toʻy, bayram va maʼrakalardagi “Beshqarsak” kabi qad. oʻyinlar ham, “Katta oʻyin”, “Lazgi”, “Kema oʻyin”, “Ashshadarozi” singari katta umumlashmaga, ramziy timsollarga ega. Raqs, jangovar oʻyinlarni ham uchratish mumkin boʻlgan. IX-XII asrlardagi Uygʻonish davrida raqs sanʼatida ham chinakam koʻtarilish yuz bergan, koʻpgina qad. Raqs tiklanib, navroʻz, mehrjon va sada bayramlarida namoyish qilingan. Abul Fayz Bayhakiyning yozishicha, oʻsha davrda birgina Termiz shahrining oʻzida yuzlab sanʼatkorlar boʻlib, Amir Maʼsudni kutib olish uchun Termizdan 300 dan ziyod sanʼatkor Amudaryo boʻyiga

kelgan ekan. Buxoro, Gurganj, Kesh va boshqa shaharlarda ham raqsga e'tibor baland bo'lgan. Xorazmda Abul Abbas Ma'mun hukmronligi davrida (1003-1017) raqs san'ati yaxshi rivojlangan.



Namangancha raqs

Raqs san'ati, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar saltanatida ravnaq topgan. Unda xotinzilarning o'rni katta bo'lgan. Rang-baranglik, tarixiy qatlamlar raqsda yaqqol ko'zga tashlangan. Olov atrofidagi o'yinlar, Anaxita va Rustam timsollariga bag'ishlangan o'yinlar, maqom raqslari, "Arg'ushtak" kabi raqslar shu jumladandir. "Munojot", "Tanavor", "Lazgi" raqslari ham aynan shu davrda malakali ijrochilar dasturidan mustahkam o'rin olgan. XV asrning 2-yarmi va XVI asr boshida Sayyid badr, Tohir chakka, Mohchuchuk, Maqsudali, Katta Moh, Kichik Moh laqabli raqs ustalari shuhrat qozondi. Bu davrda raqs san'ati xalq raqsi va malakali raqs yo'nalishida rivojlandi.

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san'atida ham o'ziga xos uslublar maydonga keldi. Bu davrda jaholat, mutaassiblik kuchaygani sababli raqs san'atida o'smir bolalar va yigitlar yetakchilik qilgan. Ayollar raqsi esa sozanda (Buxoro amirligi), xalfa (Xiva xonligi) va yallachi (Farg'ona vodiysida) deb yuritilgan ayol san'atkorlardan iborat ixcham to'dalarning teatrlashgan dasturlarida rivojlanib, ichkarilarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ko'rsatib kelingan. Erkaklarning yig'inlarida raqqosalar xufiyona qatnashganlar.

XX asrda raqs san'ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg'ona raqsi yo'nalishida; zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida; milliy raqs unsurlaridan foydalanган balet spektakllari tarzida rivojlanib keldi. Mazkur yo'nalishlarning har biri asr davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o'tib, o'z shakli shamoyili, mazmuniga ega bo'ldi. Bir qator davlat va xalq raqs jamoalari jahonga tanildi. Bunda Hamdamxon, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Gavhar Rahimova, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Karim Rahimov, Qodir Mo'minov, Ma'mura Ergasheva, Yulduz Ismashova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana Sultonova, Dilafroz Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhamedova, Malika Ahmedova kabi raqs ustalarining xizmati katta.



Tamaraxonim



Mukarrama Turg'unboyeva

Mustaqillik davrida raqs san'ati yanada tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 1997-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va mazkur farmonni bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining o'sha yili 25-fevralda 101-qarori chiqdi. Shu asosda M. Turg'unboyeva nomidagi "O'zbekraqs" ijodiy birlashmasi tashkil topdi, birlashma qoshida maxsus jamg'arma tuzildi. Xoreografiya bilim yurti negizida esa Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi barpo etildi. "O'zbekraqs", "O'zbeknavo" ijodiy birlashmalari tarkibidagi

ansambllar, xalq raqs merosini o'rganish va tiklash asosida yangi raqslar yaratish, an'anaviy raqslarni asrabavaylash va munosib darajada namoyish etish, yosh raqqos va raqqosalarni tarbiyalab yetishtirish bo'yicha olib borayotgan harakatlari ijobiy natijalar bermoqda. Milliy raqs ijrochiligi bo'yicha M.Turg'unboeva nomi-dagi mukofot ta'xis etilgan. Bir qator davlat va xalq raqs ansamb-lari (masalan, "Bahor", "Tanavor" va boshqa), raqs ustalari jahon-ning turli mamlakatlarida bo'lib, o'zbek raqs san'atini namoyish etmoqdalar.

Xalq pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlari

Asrlar davomida xalq pedagogikasi shakllanish jarayonini boshdan kechirdi. Sayqallanib, mazmunan boyib borish natijasida ma'lum xususiyatlarni o'zida saqlab qoldi. Bu xususiyatlar xalq pedagogikasining asrlar davomida avlodan-avlodga o'tib kelishiga zamin yarata oldi. Xalq pedagogikasini oltita xususiyati aniqlangan. Xalq pedagogikasiga xos eng muhim belgilaridan biri uning qadimiyligidir. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bo'lishi uchun o'ziga xos qiyofaga ega bo'lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma'naviy, intellektual qiyofasi esa uning ped. Vositasida-gina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o'zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng.

Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi uning to'liq amaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta'lim-tarbiya jarayoni va uning natija-lariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun Xalq pedagogikasi g'oyalar shaklida emas, balki urf-odat, an'ana, amal, udum, xulq-odoblar tarzida namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi ta'lim tarbiya haqidagi fikrlar yig'indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo'lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko'nikmalar va sh.k. majmuidir.

Xalq pedagogikasining uchinchi xususiyati uning muallifi noma'lum, anonim ped. ekanligidir. Xalq pedagogikasi talablarining yaratuvchisi ma'lum bo'lmaganligi uchun ham muqaddas sanalgan va so'zsiz bajarilgan. Etnopedagogikaga doir biror talabning muallifi ma'lum bo'lsa, uning ta'siri pasayib ketadi. Chunki u, kim bo'lsa-da, qandaydir bir odamning istagi sifatida qabul etiladi. Anonimlik esa urf-odat, udum, xulq odatlarga sirlilik, muqaddaslik tusini beradi.

Xalq pedagogikasining to'rtinchi belgisi uning sinkretik (qorishiq) xususiyatga egaligidir. Xalq hayoti ko'p qirrali ekani holda yaxlit bo'lgani singari uning pedagogikasi ham qorishiqdir. Xalqning turli yo'nalishdagi pedagogik tadbirlari sinkretik tarzda bir varakasiga olib borilgani uchun Xalq pedagogikasiga alohidalik emas, umumiylik xosdir.

Xalq pedagogikasining beshinchi belgisi uning keng yayil-ganligidir. Xalq pedagogikasiga oid amallar muayyan etnik birlik-ning hammasiga birday tatbiq qilinadi. Muayyan shaxslarning xohish-irodasi qandayligidan qat'i nazar, xalqning har bir vakili uning tarbiya va yashash tarziga doyr talablariga rioya etishga majbur. Xalq pedagogikasi talablarini bajarishda tarbiyalanuvchi-ning istaklari inobatga olinmaydi.

Muayyan etnik birlikning turmush tarzida namoyon bo'lishi Xalq pedagogikasining oltinchi xususiyatidir. Xalq pedagogikasi empirik tabiatga ega bo'lib, jamiyat a'zolari hayotini yo'lga qo'yishga qaratilgan va uning qoidalari muhokama uchun emas, balki turmush mobaynida amal qilish uchundir.

XALQ OG'ZAKI IJODI – XALQ PEDAGOGIKASINING ASOSIY MANBAI SIFATIDA

Xalq og'zaki ijodi turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari
Inson dunyoda paydo bo'lganidan buyon o'zaro hamkorlikda yashashga, bir-biri bilan munosabatda bo'lishga intilgan. Chunki o'zaro hamkorlik uni turli tabiiy ofatlardan saqlagan, turmush qiyinchiliklarini bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda zavq bilan o'qilayotgan, maroq bilan aytilayotgan doston, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona va rivoyat, askiya va latifa, loflar o'zbek xalq og'zaki ijodining janrlari hisoblanadi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'naviy boyliklarimiz butun o'zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Ilmda xalq og'zaki ijodi folklor atamasi bilan yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Vilyam Toms taklif qilgan edi. Folklor deganda ma'lum millatga mansub, xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan san'at namunalari: so'za nalar, xalq kuylari, raqslar va boshqalar tushuniladi. Ammo folklorning alohida sohasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis esa ko'pincha folklor deganda o'zi o'rganuvchi sohani nazarda tutadi. Jumladan, tasviriy san'atni o'rganadigan olim folklor deganda, naqsh san'atini nazarda tutadi. Xoreograf esa xalq raqsini, musiqashunos xalq kuylarini, folklorshunos esa xalq og'zaki ijodini nazarda tutib ish olib boradi. Ma'lumki, o'rta umumta'lim maktablarida adabiyotning ikki asosiy turga bo'linishi o'rganilgan. Ularning birinchisini ilmiy, ikkinchisini badiiy adabiyot deb ataydilar. Badiiy adabiyot o'z navbatida ikki yirik turga bo'linadi: xalq og'zaki adabiyoti (folklor), yozma adabiyot (individual ijod). Xalq og'zaki ijodi deb atalgan adabiyot yozma adabiyotdan bir necha xususiyatlar bilan farqlanadi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- a) an'anaviylik;
- b) og'zakilik va improvizatorlik;
- c) jamoalik va ommaviylik;
- d) variantlilik va versiyalik;
- e) anonimlik.

An'anaviylik. An'ana deganda, uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib odat tusiga kirgan tadbir yoki amal tushuniladi.

Xalq og'zaki ijodidagi an'anaviylik bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Jumladan:

a) folklor asarlarining og'zaki tarzda yaratilishida (bu haqda og'zakilik yuzasidan fikr yuritilganda ma'lumot beriladi);

b) og'zaki ijod asarlarining matnida;

d) mazkur asarlarning ijrosida.

Xalq yaratgan asarlarning matni janrlarga ko'ra uzoq muddat davomida doimiy ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega. Ertaklarning boshlanishi, yakunlanishi, xalq dostonlaridagi qahramonlarning ot egarlashi, poygada qatnashishi, dushman bilan jang olib borishi kabi lavhalari asardan asarga ijrochining ixtiyori va mahoratiga ko'ra ko'chib o'taveradi. Undan tashqari, doston va ertaklarda ko'pincha takrorlanib turadigan farzandsizlik, farzandga ega bo'lish, shartning buzilishi, safarga chiqish, turli to'siqlarni bosib o'tish, to'y kabi voqealar ham an'anaviylikka xosdir.

Og'zakilik. Xalq ijodidagi so'z san'atiga oid asarlar yozuv madaniyati kashf qilinmasdan oldin ham yaratilgan, ijro etilgan. Og'zaki ijoddagi topishmoqlardan tortib maqollargacha, dostonlardan qo'shiqlargacha og'zaki tarzda aytiladi.

Har bir ijrochi o'zi aytayotgan ijod namunasi hayot tajribasini, dunyo qarashini, yonveridagi yurtdoshlari bilan bo'lgan munosabatini singdirib ijro etgan. Yaqin kunlarga og'zaki ijod namunalari avloddan avlodga meros bo'lib o'tar ekan, folklor namunasi sayqal topib boradi degan tushuncha mavjud edi. Aslini olganda, og'zaki ijod asarining badiiy jihatdan mukammallashuvi yoki zaiflanishi ijrochining mahoratiga bog'liqdir. Agar asarni yaxshi ustoz ko'rgan, badiiy ijod qilish iste'dodiga ega bo'lgan shaxs ijro etsa, asar badiiy jihatdan sayqal topadi. Aks holda, asarning go'zalligiga zarar yetishi ham mumkin. Ijrodagi og'zakilik ijobiy va salbiy xususiyatga ega bo'ladi. Xususan, og'zakilik folklor asarining keng tarqalishiga, xalq orasida ommalashuviga bosh sabablardan bo'lgan omildir. Bu – og'zakilikning ijobiy jihati. Ammo, shu bilan birga, og'zaki ijod asari o'tmish zamonlarda yozma tarzda saqlab qolinmaganligi uchun mohir ijrochining vafot etishi asarning ham yo'q bo'lib ketishiga olib kelgan. Xalq dostonlari va ertaklarini o'qir ekanmiz, faraz yo'li bilan ularning naqadar

mukammal va go'zal nusxalari mavjud bo'lganini payqaymiz. Ammo asarlarning og'zaki tarzda ijro eti lishi bugungi kunda u nusxalarning yo'qolib ketishiga olib kelgan. Improvizatorlik bevosita og'zakilik xususiyati bilan bog'liqdir. Bu atama badiha-go'ylik ma'nosini bildiradi.

Baxshi doston ijro etar ekan, asarga tinglovchilarni qiziqtirish uchun yo'l-yo'lakay o'zgarishlar kiritadi. Bunday o'zgarishlarni qo'shiq, ertak, askiya, latifa kabi janrlar ijrosida ham kuzatish mumkin. Jumladan, hamma taniydigan tinglovchilarning nomini, mahalliy hududda ro'y bergan o'ta qiziqarli voqealarni yoki mamlakat miqyosidagi ijodiy yoki salbiy hodisalarni eslab o'tish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, to'ylarda ijro etiladigan askiyalarni improvizatsiyasiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki og'zakilik bilan bog'liq bu xususiyat har bir asar ijrosini jonlantiradi, qiziqish darajasini oshiradi, unga alohida fayz bag'ishlaydi. Ba'zan ilhomi kelib turgan baxshi tinglovchilarning qo'llab-quvvatlashi oqibatida o'zi bilgan an'analarga suyangan holda tomomila boshqa mazmundagi yangi asarni yaratib yuborishi ham mumkin bo'ladi.

Jamoalik. Jamoalik deganda biron ish-harakatning ma'lum bir guruh odamlar ishtirokida birgalikda analga oshirish nazarda tutiladi. Jamoa bo'lib imorat qurish mumkin, paxta terish yoki yer chopish, hosil yig'ishtirish mumkin bo'ladi. Ammo biron asarni jamoa bo'lib yaratish nisbiy tushunchaga egadir, chunki doston, ertak, qo'shiq kabi badiiy asar namunalarni misrama-misra, jumlama-jumla yaratish amaliy jihatdan mumkin emas. To'g'ri, folklorshunoslik tarixida ba'zan qo'shiq janriga oid badiiy asarni bir guruh odamlar aynan jamoa bo'lib yaratgan holler bo'lgan, bunda qo'shiq misralari har biri kelishgan holda bitta-bitta guruh vakili orqali aytilgan va oxir pirovard qo'shiq vujudga kelgan. Ammo bari bir bu asar badiiy jihatdan talabga javob bermagani tufayli omma e'tiboridan chetda qolib ketgan. Binobarin, xalq og'zaki ijodiga oid boshqa janr namunalari yaratilishida ham jamoaning ishtirokini yuqorida qayd qilganimizdek, hosil yig'ish, imorat qurish kabi mehnat ko'rinishlari bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodi asarlari qaysi janrga mansub bo'lishidan qat'i nazar uni badiiy ijod qilish iqtidoriga ega bo'lgan yakka shaxs yaratadi. Yaratilgan

asar omma tomonidan ma'qullangan taqdirda, boshqa ijodkor xalq vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ularga asta-sekinlik bilan ijodiy o'zgarishlar kiritiladi. Yaratilgan asar og'zaki shaklda vujudga kelgani tufayli turli o'zgarishga duch kelishi rasmiylashtirilmaydi, ya'ni ijod namunasining qaysi qismi kim tomonidan yaratilgani aynan qaysi o'rinlarga kim o'zgarishlar kiritgani qayd etilmaydi. Natijada, ma'lum muddat o'tgandan so'ng, asarning dastlabki nusxasi juz'iy yoki muhim yangiliklarga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, mazkur ijod namunasini birinchi yaratgan ijodkor o'zo' zidan mualliflik da'vosini qilolmaydi. Xalq og'zaki ijodi asarlarini to'plash uchun chiqilgan ekspeditsiyalardan shu narsa ma'lum bo'ladi, xalq orasida yashab og'zaki ijod xazinasiga o'zining iste'dodi bilan hissa qo'shgan ko'pchilik yurtdoshlarimiz mazkur asarlarga muallif yoki muallifdosh bo'lishni tabiatan xohlamaydilar ham. Bunday odamlar o'z ijodlarini xalqqa bag'ishlagan bo'ladilar. Har qanday tamagirlik ular uchun yotdir. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday odamlar o'zlari yaratgan namunalarni boshqa yurtdoshlari tomonidan ijro etilganini bilib, olam-olam bahraladilar. Biz, o'zbeklar, millatdoshlarimiz o'rtasida ana shunday oily himmat odamlar borligidan faxrlanmog'imiz lozim. Shunday qilib, bugungi kunda hech qanday moddiy qimmat bilan baholab bo'lmaydigan og'zaki ijod xazinasini yuqorida aytganimizdek, olijanob va o'z xalqi uchun beminnat xizmat qiladigan ajdodlarimiz tomonidan jamoa bo'lib yaratilgandir.

Variantlilik va versiyalilik. Bir asarning syujet va kompozitsiyasida muhim o'zgarishlar bilan bir necha nusxalarga ega bo'lishi xalq og'zaki ijodidagi variantlilik xususiyatini hosil qiladi. Avvalgi mavzularni bayon qilishda biz og'zaki ijod namunasiga ijrochi o'z dunyoqarashini, ijod usulini, kasbkori xususiyatlarini singdirishi haqida ma'lumot bergan edik. Bir asarni yoshi, yashash sharoiti, kasbi, tabiati, fe'l-atvori turlicha bo'lgan odam ijro qilganida, shubhasiz, ijro etilayotgan asarda muhim, nomuhim o'zgarishlar bo'ladi. Jumladan, bir ijrochi qahramonlik voqealarini mukammalroq aytadi. Ikkinchi ijrochi ishq-muhabbat, sevgi lavhalarni ehtiros bilan ta'sirli qilib aytadi. Shuning ta'sirida bir asardagi qahramonlik, jasorat-mardlik bilan bog'liq qismlar mukammallik kasb etadi. Boshqa ijrochida esa aynan shu qismlar qisqaradi, ammo ishq-muhabbat

lavhalari atroflicha, tafsilotlar bilan bayon etiladi. Folklorshunoslar mashhur "Alpomish" dostonining o'ttizdan ortiq variantlari borligini qayd etganlar. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, ba'zan bir ijrochining o'zi kayfiyatining haddan tashqari yaxshiligi yoki o'ta yomonligi oqibatida ham yangi variantni vujudga keltirib qo'yishi mumkin. "Alpomish" dostonini Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan Jonmurod o'g'li va boshqa o'nlab baxshi-shoirlar ijro etganlar. Har bir ijroda baxshining bayon usuli, fe'li, hayot tajribasi o'z izini qoldirgan. Shuning uchun "Alpomish" dostoni ning Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, "Alpomish" dostonining Ergash Jumanbulbul o'g'li varianti degan tushunchalar vujudga kelgan.

Versiyalik og'zaki ijodda variantlilikdan kengroq tushuncha hisoblanadi. Agar variantlilikda obrazlar tavsifi, voqealar tizimi, bayon usuli boshqacharoq ko'rinishga ega bo'lsa, versiyada asarlarning nomi ham, voqealarning rivoji ham keskin farqlanadi. Jumladan, folklorshunoslikda "Alpomish" dostonining to'rtta versiyasi qayd etilgan bo'lib, ular: qo'ng'iroq, o'g'iz, qipchoq, oltoy versiyalari nomi bilan yuritiladi. Bu versiyalar faqat ayrim umumiy voqealar bayoni bilangina "Alpomish" dostonini eslatadi, xolos. Shuningdek, "Tohir va Zuhra" dostonining qozoq xalqida "Qo'zi Ko'rpesh va Bayan Suluv" versiyasi mavjud.

Anonimlik. Anonimlik deganda, asar yaratuvchisi nomining noma'lum ekanligi nazarda tutiladi. Biz og'zakilik haqida fikr yuritganimizda, ko'pchilik yurtdoshlarimiz og'zaki ijod namunalari yaratishlarida o'z nomlarining yashirin qolishini ma'qul ko'rishlarini aytib o'tdik. Bu yurtdoshlarimiz o'z ijodlarini xalq og'zaki ijodi an'anasida yaratganliklari uchun ham (an'anaviylik-ismilarini baralla aytishga iymangan bo'lishlari mumkin. Ammo yozma ijod namunasi muallifining nomi yo'qolganligi bilan og'zaki ijoddagi anonimlikning farqi bor. Bunday vaziyatdamasalani mavjud asarning yaratilishi an'anasiga qarab belgilash mumkin. Agar asar og'zaki ijod an'ansi bilan yaratilgan bo'lsa, anonimlik oddiy holat hisoblanadi. Agar asar yozma ijod an'anasida yaratilgan bo'lsa, tasodif hisoblanadi. Masalan, "Farhod va Shirin", "Gul va Navro'z" kabi dostonlarini yozgan shoirlar nomi ma'lum bo'lmasa

ham an'anaviylik jihatdan ularni og'zaki ijod namunasiga mansub deb bilish to'g'ri bo'lmaydi. Shunday qilib, anonimlik xalq og'zaki ijodida xalq vakillarining o'z xalqiga xolis, beminnat xizmat qilishi namunasi sifatida qadrlanadi.

Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo'lgan va yozma adabiyotning bunyodga kelishi uchun zamin hozirlagan. Xalq yaratgan asarlar o'zining g'oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo'lgan ishonchini, haqiqat, adolat, tinchlik va baxt haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi. Xalq shoirlari yoki jamoat tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi deyiladi. Xalq og'zaki ijodi fol'klor deb ham yuritiladi. Xalq og'zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar va h.k.

Lapar, lof, askiya kabi janrlar tortishuv, bahslashuv, aytishuv, hazil-mutoyiba, mubolag'a asosida ijro etiladi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari, ularning tarkibi

Adabiyotshunoslikda, shu jumladan, folklorshunoslikda badiiy asarlarning janrlari masalasi hamisha muhim ahamiyatga ega nazariy ilmiy muammo sifatida baholanib kelgan. Xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlar, maqollar, askiya, lof va boshqa janrlar birligidan qanday jihatlar bilan farqlanadi. Ularning bevosita janr sifatida qanday belgi va xususiyatlari bor. Bu xususiyatlarning hisob-birlari ayni paytda boshqa janrlardagi asarlarda mushtarak hisoblanadi. Ma'lum bir janrga oid asarlarning hajmi, mazmuni, nasr va nazm parchalar mutanosibligi qanday muhim belgilari bilan ajralib turishi olimlarni qiziqtirib kelgan. Binobarin, badiiy asarlarning janr jihatidan qaysi atamaga aloqadorligi faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Qadim zamonlardan o'z taniqli adabiyotshunos olimlar so'z san'atining asosan uch jinsga bo'linishini ta'kidlaganlar. Xususan, bu uch tur epos, lirika va dramadan iboratdir.

Xalq og'zaki ijodiga oid badiiy asarlarni ham ana shu tamoyil asosida uch turga bo'lish mumkin bo'ladi. Bu jins va turlarning bosh xususiyatini quyidagicha farqlash mumkin:

1. *Epos* – yunoncha “epos” – rivoya, hikoya, qo‘shiq so‘zidan iborat bo‘lib, so‘z san‘atida biron hikoya, voqeani bayon qilish yoki hayotiy lavhani ifodalash ma‘nosini anglatadi. Ta‘rifdagi qo‘shiq so‘ziga ajablanish kerak emas, chunki qadimgi yunonlar nazarda tutgan qo‘shiqlar bizning tasavvurimizdagilardan farqli o‘laroq voqea-hodisalar bayonini she‘riy tarzda aks ettirib ohang bilan ijro etish xususiyatiga ega bo‘lgan. Shunday qilib, “epos” deganda, aniq bir voqeani badiiy tarzda hikoyalash tushunilar ekan. Umuman, hamma xalqlar og‘zaki ijodida epos yoki epik janrdagi asarlar mavjud bo‘lib, ular ertaklardan, afsonalardan, ruaslarda bilinalardan, turkiy xalqlarning ko‘pchiligida dostonlardan iboratdir. Ammo shu bilan birga o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, tarixiy qo‘shiqlar, terma, doston kabi janrlarni epik asarlar deb atash mumkindir. Shu bilan birga maqollar, topishmoq lar kabi atamalar bilan yuritiladigan asarlarni ham, professor B.Sarimsoqov “maxsus tur” deb ataydi. Haqiqatan ham, ularda ma‘lum darajada epiklik, ya‘ni qaysidir hayotiy lavha yuzasidan ma‘lumot berish belgisi mavjuddir.

Lirika – inson hayotida, tabiatda ro‘y bergan biron hodisa, lavhadan ta‘sirlanish natijasida unga nisbatan paydo bo‘lgan munosabatni ichki kechinmalar, his-tuyg‘u vositasida ifodalashdir. Lirika o‘zida ichki kechinmalarni ifodalash xususiyati bilan epik asarlardan farqlanadi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir bo‘lgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlarni ifodalashdan iboratdir.

Shuning uchun lirik asarda voqea bayonini nisbiy tushunish lozim. Masalan, “Alpomish” dostonidagi bir lavhani olaylik: “Kunchi qoldi”. Bu parchada baxshi tinglovchiga Hakimbek hayotida ro‘y bergan bir voqea haqida xabar bermoqchi. Aslini olganda, dostonning butun mazmuni ana shunday xabarlar yig‘indisidan tashkil topadi. Endi “Yor-yor” dan olingan quyidagi parchaga e‘tibor qilaylik:

*Tokchadagi qaychini
Zang bosibdi yor-yor,
Yangi tushgan kelinni
G‘am bosibdi yor-yor.*

Yuqoridagi to‘rtlikda yor-yor aytayotgan ijrochining maqsadi tinglovchilarga mutlaqo tokchadagi qaychini zang bosgani haqida ma‘lumot yoki xabar berish emas. Bu qo‘shiqda yosh qizning ko‘ngil qo‘ymay turmushga chiqayotganiga nisbatan achinish kayfiyatini ifodalash yetakchidir. Qo‘shiq ruhi bizning holatimizda, ruhiyatimizda o‘ziga xos kechinmalar hosil qiladi. Ijrochi ichki kechinmalarini bizning ruhimizga singdiradi. Jumladan, bolalar ijro etadigan “oftob chiqdi olamga” qo‘shig‘i har bir tinglovchida sovuq kunlar tugagani, olamning yorishgani bilan bog‘liq xursandlik tuyg‘usini paydo qiladi.

Drama. Bu so‘z harakat ma‘nosini bildiradi. Dramatik asarlar sahna bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu asarlarning ijrochilari faqat gaplari bilangina emas nutqlaridagi intonatsiyalar, yuz, bosh, qo‘l harakatlari bilan obrazga kiradilar. Oqibatda tomoshabin tinglovchilarni o‘ziga jalb qiladigan teatrlashgan tomosha ko‘rinishi vujudga keladi. Ana shunday xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan janrlar dramatik janr hisoblanadi. Xalqimiz og‘zaki ijodidagi xalq dramasi va askiya janrlarini ana shunday asarlar namunasi sifatida baholash mumkin. Chunki xalq dramasi tomosha ishtirokchilari asar mazmuniga ko‘ra qozi, jinoyatchi, jabrlanuvchi, sho‘rpehona ona, baxtsiz ota, landovur farzand kabi rollarni bajaradilar, ularning xarakteriga mos ohangda so‘zlaydilar, atrofdegilarni kuldirish uchun turli harakatlar o‘ylab topadilar. Askiyada esa mazkur so‘z o‘yini musobaqasida qatnashadigan askiyabozlar to‘y, sayilga kelgan odamlarning davrasida ko‘zga ko‘rinarli e‘tiborni egallaydilar.

Ular bir-birlariga gap tashlar ekanlar, nutqlaridagi alohida ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlarni maxsus urg‘u bilan, nozik intonatsiya bilan talaffuz qiladilar. Natijada, askiyabozlar o‘z-o‘zidan jonli sahna ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Qizig‘i shundaki, jonli ijro bilan yashaydigan og‘zaki drama va askiya asarlarini yozma matnlari hech qachon jonli ijro kabi taassurot qodirgan emas.

Shuning uchun ham yuqorida qayd etilgan janrlarni dramatik asarlar majmuasi deb qabul qilish mumkin.

Maqollar, topishmoqlar, qo‘shiq va termalarning pedagogik ahamiyati

“Maqol” atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar,

voqelik haqidagi lo'nda xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba'zan to'g'ri, ba'zan ko'chma ma'noda ifodalanadi.

Maqolda ifodalangan pedagogik g'oyalar alohida shaxsga-gina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo'ladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o'z shakliga ko'ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo'ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo'nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma'naviy-axloqiy e'tiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Shuning uchun ham yillar davomida tajribadan o'tgan, uning haq ekanligiga ishonch hosil qilingan, badiiy jihatdan mukammal-lashib brogan namuna sifatida qabul qilish mumkin. "Devonu lug'otit turk"da "savlashmoq" so'zi berilgan. Buning otalar so'zini eslamog ma'nosini anglatishi aytiladi. Taxmin qilish mumkinki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni "sav" deb ataganlar. Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi "masal" tarzida beriladi: "masaldurkim - uyqu o'limdir". "Masal" atamasining XX asr boshlarigacha qo'llanib kelingani ma'lum. O'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so'zi tez-tez uchray boshlaydi. XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qo'llandi.

Maqollar tematikasi. O'zbek xalq maqollari dunyodagi boshqa xalqlarda bo'lgani kabi mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangdir. Ular mazmuniga vatan, xalq, mehnat, oila, oliy insoniy fazilatlar kabi inson hayotida muhim hisoblangan masalalar haqidagi hukmlar singdirilgan. Shuning uchun ham bu maqollarni xalqning og'zaki qomusi bilan tenglashtirish odat tusiga kirgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan o'rin olgan maqollarda ham vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ham-jihatlik, mardlik, vafodorlik kabi g'oyalar o'z ifodasini topgan. Bu maqollarning xalq hayotida tutgan o'rni va ahamiyati shu jihatdan ham muhimki, ularda inson maishiy hayotidagi hamma lavhalarga mos hikmatli fikrlar bayon etilgan.

Ikkinchi tomondan, bu asarlarda, o'zbek xalqining xalq sifatida, millat sifatidagi o'ziga xosligi, o'zbekona tabiat belgilari bilan ham tanishish mumkin bo'ladi. Masalan, "Devonu lug'otit

turk"da "Og'ilxonada buzoq tug'ilsa, ariq bo'yida o't unadi" degan mazmundagi maqol bor.

Bu maqolda har bir mavjudot, shu jumladan, inson o'z rizqi bilan dunyoga kelarmish degan fikr aytilgan. Ajdodlarimiz mazkur maqol namunasi orqali o'zlaridan keyingi avlod vakillariga bag'ri keng inson bo'lishni, birovning muvaffaqiyatiga hasad qilmaslikni, har bir shaxs o'z hayoti davomida faqat o'zining rizqini yeyishi mumkinligini vasiyat qilgandek bo'ladi. Bu bilan xalqning tarbiyasiga, fe'li va atvoriga oid mulohazalar bayon etiladi. Uzoq o'tmishimizda yaratilgan maqollar orasida insonning hayotida amalga oshirgan har bir savobli amali ham, har bir yomonligi ham el dilidan o'chmas iz qoldirishi bayon etiladi.

Quyidagi maqolga e'tibor beraylik: "Ot kuragidagi yag'ir, bolalariga meros bo'lib qoladi". Ma'lumki, o'zbek xalqining asrlar davomida hayotiy asos bilan tasdiqlangan tajribasi har bir insonning oxir pirovardida nasliga tortishini tasdiqlagan.

E'tibor berish kerakki, bu yerda gap mutlaqo iqtisodiy ta'minlanganlik, zodagonlik yoki qullik, cho'rilik haqida borayotgani yo'q. Bu yerda gap insonning o'z millatdoshlariga yaxshilik qilishga moyilligi, har xil g'iybatchilikdan uzoqligi, kechirimliligi, hotamtoyligi haqidadir. Haqiqatan ham, hayot tajribasi oilaviy muhitning bola tarbiyasiga ta'sir etishi bilan birga qon orqali nasldan naslga o'tishini ham tasdiqlamoqda. Binobarin, xalq maqollarida ana shunday chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan fikrning o'rin olishi tabiiydir.

Mehnatga muhabbat, hurmat ulug'lanuvchi maqollarda dangasalik qoralanadi: Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda; Dangasaning kosasi oqarmas; Ishyoqmasga it boqmas ...

Vatanparvarlik, dushmanga qarshi nafrat targ'ib etiladi: Bulbul chamanni sevar, odam - Vatanni; Vatan gadosi - kafan gadosi; Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas ...

Botirlik, saxiylik, adolat, insof qadrlanadi: Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan; Erni nomus o'ldiradi; Botirdan yov qo'rqar; Yo'lga chiqsang, yo'ldoshli chiq! ...

Ilmni egallash targ'ib etiladi: Ilm - aql chirog'i; Ilm ko'p, umr oz, zarurini o'rgan; Kitob - bilim manbai ...

Matal – ko‘chma ma‘noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi. Matal o‘z ma‘nosidan boshqa ma‘noga ko‘chirilgan so‘z birikmalaridan iborat bo‘ladi, unda o‘xshatish, kinoya, ko‘chirma so‘z va boshqa til vositalari qo‘llaniladi. Bunda majoziy iboraning o‘z asl ma‘nosi bilan ko‘chirilgan ma‘nosi o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish bo‘ladi. Misollar: Temirni qizig‘ida bos, Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin.

Topishmoq – deb, bir-biriga o‘xshash ikki predmetdan jumboq yasab, ikkinchisiga xos o‘xshash belgilar asosida uni topishga mo‘ljallangan she‘riy yoki nasriy topshiriqqa aytiladi. Topishmoq – narsa yoki hodisalarning ataylab yashiringan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalariga qiyoslash asosida topishga asoslangan she‘riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlar. Topishmoqlar o‘zbeklar o‘rtasida topishmoq, jumboq ushuk, top-top kabi atamalar bilan yuritiladi, topishmoqlar xalq turmush bilan chambarchas bog‘liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e‘tiqod va tasavvurlari, ularning olamni bilish va idrok etishga bo‘lgan intilishlari yotadi. Xalqimiz og‘zaki ijodining kichik janrlaridan biri topishmoqlardir. Bu janr ko‘proq bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka o‘rgatadi.

Ammo topishmoqlar folklorida faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblash to‘g‘ri emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etaveradilar. Hatto olim Z. Husainovning ma‘lumot berishi shicha, uzun qish kechalarida urchuq yigirgan va olacha to‘qigan xotinlar. Samarqand atrofida boshqa qishloqlardan to‘yga kelib xonadonlarga bo‘lingan mehmonlar o‘zaro chaldirmoq (tez aytish), jumboq, ya‘ni topishmoq aytishishgan. O‘tgan zamonlarda topishmoqlarni qish faslida uzoq kechalarni zerikmay o‘tkazish uchun aytganlar.

Topishmoq aytgan odamning topishmog‘iga javob topilsa, u musobaqada yutqazgan, topilmasa g‘olib chiqqan hisoblangan. Har ikki holatda ham mag‘lub bo‘lgan taraf yo g‘azal aytgan, yoki biron hayvonga taqlid qilib ovoz chiqargan, yo qo‘shiq kuylagan, yoki biron jismoniy ish qilgan: suv olib kelgan, qor kuragan, eshik supurgan va hokazo.

Topishmoqlar shakl jihatidan nasriy va she‘riy bo‘ladi:

1. Tomdan tuxum irg‘itdim. (do‘l) – nasriy topishmoq.

2. U yoqqa o‘tdim, bildingmi?

Bu yoqqa o‘tdim, bildingmi?

Oq quvrayning boshini,

Chertib o‘tdim, bildingmi? (shamol) – she‘riy topishmoq.

Topishmoqlar xalq orasida jumboq, topmacha, top-top, cho‘pchak, matal, masala, ushuk atamalar bilan atab kelinadi. Ilmiy asarlarda “topishmoq” termini “top” buyruq fe‘liga “ish” harakat nomini hosil qiluvchi shakl va “moq” qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan, deb ko‘rsatiladi. Natijada “topishmoq” so‘zi xalq og‘zaki ijodidagi alohida janr nomini bildirgan. Keyingi paytlarda shevalardagi yuqorida ko‘rsatilgan atamalar deyarli yo‘qolgan.

Asosan “topishmoq” nomi saqlanib qolgan. Xalqimiz orasida “Kichkina dekcha, ichi to‘la mixcha” (anor), “Qoziq ustida qor turmas” (tuxum), “Otdan baland, itdan past” (egar) kabi mashhur topishmoqlar bor. Ammo “Qoragina popish, devolga yopish” (kaltakesak), “Qizil yulg‘unning tagida Qizlargul opam yotibdi” (qirg‘ovul) kabi u qadar keng ommalashmagan va topish anchayin mushkul bo‘lgan topishmoqlar ham bor.

Masalan: “Bir parcha patir, olamga tatir” topishmog‘ida eng to‘yimli ozuqa – patir “Oy”ga o‘xshatilgan. Oy ham go‘zal, tunda olamni munavvar qiladi.

Qo‘shiq – kuyga solib aytiladigan kichik lirik sher. Qo‘shiq haqida ma‘lumot berilgan hamma adabiyotlarda uning “qo‘shmoq” fe‘lidan hosil bo‘lgani aytiladi. Qo‘shiq atamasining kelib chiqishi qanchayin sodda tuyulmasin, og‘zaki ijodimizdagi bu janr juda murakkab ruhiy kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi. Qo‘shiqning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Unda inson kechinmalari, quvonch va iztiroblari, qalb so‘zlari aks etadi.

2. Qo‘shiq shaklan she‘riy tarzda bo‘ladi. O‘zbek xalq qo‘shiqlari asosan barmoq vaznida, ba‘zan aruzda yaratiladi.

3. Ko‘pincha xalq qo‘shiqlari to‘rt misradan iborat bo‘lib, tugal ruhiy holatni ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, bir necha bandlardan iborat biron mavzuga bag‘ishlangan qo‘shiqlar ham bo‘lishi mumkin.

Ayni choqda 6,8 misrali namunalar ham uchraydi. Ular (a-b-a-b) yoki (a-a, b-b, v-v, g-g); to'rt misralilar esa (a-a-a-b); (a-b-a-b), (a-a-a-a); (a-a-b-b) va boshqacha ko'rinishda qo'fiyalanadi.

4. Qo'shiqning kuyi bo'ladi va ana shu kuy jo'rligida ijro etiladi.

Qo'shiqlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Lirik qo'shiqlar. Bunday qo'shiqlarda insonlarning ruhiy olami, ishqiy kechinmalari aks etadi, to'rt misralik bandlardan tashkil topadi, ular kasb, payt, o'rin tanlamaydi: ularni istalgan vaqtda istalgan kishi xohishiga ko'ra baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib aytaveradi.

Allalarni ham lirik qo'shiqlar tarkibining go'zal namunalari sifatida baholash mumkin. To'g'ri, folklorshunoslik ilmida allalarni bolalar folklori sifatida tahlil qilish an'anasi bor. Ammo ayni choqda, bu asarlarni lirik qo'shiqlar namunasi sifatida baholash ham xato bo'lmaydi. Chunki alla qo'shiqlarining matnini o'rganish, ularni bevosita so'z san'ati namunasi sifatida lirik qo'shiqlar qatorida baholash ma'qulligini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, alla yosh go'dak bolalarga uxlash paytida ona yoki buvi tomonidan aytiladi. Beshikda bo'lgan chaqaloqqa allaning matnidan ko'ra kuy ohangi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq matnini bola tushunmaydi. Ammo alla qo'shiqlarida farzand ko'rgan oilaning quvonchi, baxti, shu bilan birga, dardi, alami va orzulari aks etadi.

Qo'shiqlarda, avvalo, farzandli bo'lishning naqadar insonga quvonch bag'ishlashi e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi. Allada shukrona keltirish, taqdir bergan omaddan qoniqish alohida o'rinda turadi. "Alla" so'zining Oллоhdan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlar ham yuqoridagi mulohazada o'z tasdig'ini topadi, deb o'ylaymiz.

2. Mehnat qo'shiqlari:

a) Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar: qo'sh qo'shiqlar, o'rim qo'shiqlari, yanchiq qo'shiqlari ("Xo'p mayda"lar), yorg'ichoq qo'shiqlar.

b) Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar: sog'im qo'shiqlari: xo'sh-xo'sh govmishim, turey-turey, churiyalar.

c) Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar: charx qo'shiqlari, bo'zchi qo'shiqlari, o'rmak qo'shiqlari (o'zbek ayollarining

gilam to'qish bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari), kashta qo'shiqlari.

3. Mavsumiy – marosim qo'shiqlari:

Yil fasllari tasvirlangan qo'shiqlar mavsum qo'shiqlari deyiladi. Qadimgi qo'shiqlarning namunalari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit – turk" asari orqali yetib kelgan. Bizgacha yetib kelgan mavsumiy – marosim qo'shiqlari quyidagilar:

a) Sust xotin (yomg'ir chaqirish qo'shig'i). Sust xotin qadimgi zardushtiylik dinida muqaddas sanalgan Tishtiriyaning xalq o'rtasida nomi o'zgarib ketgan obrazidan iborat. Bunda bahor oylarida yomg'ir yetarli yog'masa, qishloq ayollari yig'ilib, poliz qo'riqchisiga o'xshash qo'g'irchoqqa kekxa ayol ko'ylagini kiydirib, qishloqdagi barcha xonadonlarga kirishib, Susut xotin qo'shig'ini aytib yurganlar. Xonadon egalari ularni shodlik bilan qarshi olib, qo'g'irchoq ustidan suv sepishib, marosim ishtirokchilariga xayr-sadaqa qilishgna. Marosim tugagach yig'ilgan xayr-sadaqa hisobiga Sust xotinga atab katta is chiqarishgan.

b) Choy momo (shamol to'xtatish). Bunday qo'shiqlarda iltijo qilinadigan Choy momo tarixan Chuy momo, ya'ni Shamol momo obrazidan iborat bo'lib, u zardushtiylikning shamol tangrisi hisoblangan. Bu marosim quyidagicha o'tkazilgan: ikki kampir eski kiyim va chopon kiyib, yuzlariga qora quya surtishib, qo'llariga aso ushlab oldinda Choy momo qo'shig'ini aytib yurishgan. Bo'y yetib qolgan beshta qiz boshlariga sholcha yopib, kampirlar ortidan ergashib, qo'shiqqa jo'r bo'lib yurishgan. 7-8 yoshlardagi bir yonadonlardan xayr-sadaqalarni yig'ib yurishgan. Eshakka o'qlog', yumshoq supurgi va keli sopi sudratib qo'yilgan. Marosim tugagach, yig'ilgan xayr-sadaqa hisobiga shamol tangrisi sharafiga is chiqarilgan. Choy momo marosimlari hozir Qozog'istonning Turkiston, Sayram atroflarida yashovchi o'zbeklar orasida saqlanib qolgan.

Lapar – xalq qo'shiqlarining bir turi, asosan, iki kishi tomonidan yoki ikki taraf tomonidan aytiladi. Lapar aytishuv deb ham yuritiladi. "Boshginam og'riydi-yo", "Suv bo'yida turgan yigit" kabi aytishuvlar bunga misol bo'la oladi.

Ma'lumki, hayot faqat bayramlardan, xursandchilikdan, sayillardan, to'y-tomoshalardan iborat emas. Inson hayotida

ko'ngilsiz voqealar ham ro'y berib turadi. Ular qatoridan eng musibatli o'rin tutgani o'limdir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Afrosiyob – Alp Ertunganing xotirasiga bag'ishlangan marsiyalarning borligini aytib o'tgan edik. Insonning o'limiga bag'ishlangan she'riy asarlar "marsiya" deb ataladi. Ular ham lirik asarlar hisoblanadi, chunki bu qo'shiqlarda vafot etgan odamning xotirasini ifodalab ichki his-tuyg'ularni bayon etish yetakchi o'rinni egallaydi.

Marsiyalarning asosiy vazifasi hayotdan ko'z yumgan shaxsning butun fazilatlarini esga olib, ro'y bergan musibatga munosabat bildirishdir. Shuning uchun ota, ona, aka, uka, bola kabi qarindosh-urug'lik munosabatlari marsiyalarda alohida tilga olinadi. Hayotdan ko'z yumgan shaxs marsiya aytuvchi tomonidan "suyangan tog'", "ishongan bog'", "osmondagi yulduz", "hayotdagi yorug' kunduz" kabi go'zal so'zlar bilan bezatiladi. Marsiya matnlarida o'kinch, hasrat ifodasi alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, farzandning ota-onasiga ko'ngildagidek xizmat qila olmagan haqidagi o'kinch, aka va ukani turmush taqozosi bilan qadriga yetmagani haqidagi hasrat bayoni marsiyaning mazmunini tashkil etadi. *Masalan:*

*Aytmay desam bo'lmaydi,
Dog'ingiz o'ti qo'ymaydi,
Ishongan bog'im, voy otam,
Suyangan tog'im, voy otam.*

Yoki:

*Hovlimdagi giyoh bo'ling, voy onam,
Har kun sizni iskayin, voy onam,
Yana qaytib bino bo'ling, voy onam,
Doim sizni eslayin, voy onam.*

Matndan aniq sezilib turibdiki, marsiya aytuvchi shaxs butun ijodiy mahorati imkoniyatidan mukammal foydalangan holda qalbidagi dard, hasratga har bir tinglovchini befarq qoldirmaslikka harakat qiladi. Yurtimizning ayrim hududlarida maxsus marsiya aytuvchi ayollarning borligi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Xalq baxshilari tinglovchilar o'rtasida yirik hajmdagi dostonlarning ijrosini boshlashdan oldin o'ziga xos mashq qilib oladilar.

Bunday mashqlar, odatda, ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, baxshi qo'l barmoqlarini do'mbira dastasi bo'ylab erkin harakat qilishi uchun kuy ijro qiladi. Kuylar hazin ohangda bo'lib, tinglovchilar ularni tinglash jarayonida butun hayotlarini, quvonch va tashvishlarini xayoldan o'tkazadilar. Agar tinglovchi baxshini tanimasa, kuy baxshi va tinglovchi ko'ngli o'rtasida ko'priq vazifasini o'taydi. Ikkinchidan, baxshi ovozi charxlash uchun she'riy parchalardan tuzilgan qo'shiq aytadi.

Qo'shiqlarda shoirning hayoti, turmushda ro'y berayotgan voqealar, ba'zan kulgili hodisalar, dostonlarning eng qiziq o'rnidan lavhalar va baxshining tinglovchilarga murojaati aks etadi. Bunday ijrolarning muddati cheklanmagan bo'ladi. Ba'zan qisqa, ba'zan esa uzoqroq vaqt davomida baxshi "nima aytay?" mazmunidagi savol bilan atrofdagi yurtdoshlarining e'tiborini o'ziga tortadi. Folklorshunoslikda ana shunday she'riy parchalar termalar atamasi bilan yuritiladi.

Termalar – pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi va tanqidiga bag'ishlangan baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlar.

Baxshilarning va folklorshunos olimlarning ta'kidlashlaricha, termalarning eng ko'p tarqalgan ko'rinishi "nima aytay?" hisoblanadi. Bu jarayon asosan tinglovchi va baxshi o'rtasida ruhiy ishonch tug'dirish va aloqa bog'lash maqsadida amalga oshiriladi. Unda xalq dostonlaridagi o'ta qiziq lavhalar, qahramonlarning sarguzasht va taqdirleri esga olinadi:

*O'n beshida oydan to'lgan,
Olmosini belga solgan.
Go'ro'g'liga xizmat qilgan,
Qirq yigitni girdga olgan,
So'rab o'tdi Avaz polvon,
Avazxondan aytaymi.*

Yuqorida qayd qilganimizdek, termalarda ijodkorning hayotidan olingan lavhalarga ham keng o'rin beriladi.

Marosimlar, dostonlar, og‘zaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati

Insonga sog‘liq, to‘kin-sochinlik tilash. uning hayotidagi biror muhim sanani nishonlash maqsadida o‘tkaziladigan, an‘anaga aylanib qolgan harakatlar marosim deyiladi.

Marosim arab tilidagi “marsum” so‘zidan olingan bo‘lib, 1-chizilgan; 2-rasm qilingan; 3-odat bo‘lgan ma‘nolarini anglatadi. Har bir inson umri davomida turli maqsadlarda uyushtirilgan va xalq orasida odat tusiga kirgan marosimlarda ishtirok etadi. Ular to‘ylardan, yig‘inlardan, ma‘rakalardan iborat bo‘lishi mumkin. Ayni paytda, butun xalq qatnashadigan bayramlarni ham marosimlar qatoriga qo‘sha olamiz.

Mazkur ta‘rifdan ma‘lum bo‘lyaptiki, marosim xalq orasida qat‘iy an‘anaga aylangan tadbir hisoblanar ekan. Haqiqatan ham, qizni turmushga berish to‘yi yigit tomonidan qiz yashaydigan oilaga sovchi kelishidan boshlanadi. “Sovchi” Mahmud Koshg‘ariy ma‘lumin kelin oilasiga kuyov haqida ma‘lumot beradi va kelin haqidagi xabarni yigitnikiga olib ketadi. Shundan so‘ng, ikki tarafning kelishuviga binoan fотиha to‘yi o‘tkaziladi. To‘y marosimi ham to‘y olib kelish, indovchi yuborish, ziyofat berish, yor-yor aytish, tor tishmachoq kabi o‘nlab kichik-kichik sahnalardan iborat bo‘ladi. San‘atshunoslik sohasi bo‘yicha fikr yuritsak, har bir to‘y ma‘lum hududda yashovchi xalq tomonidan ko‘p yillar mobaynida maxsus ishlab chiqilgan ssenariy asosida o‘tkaziladi.

Faqat uning ishtirokchilari, ayrim odatlari, sababchilari, uyushtirish sifati, darajasi, oilaviy va hudud sharoiti taqozosi bilan boshqa bo‘ladi. Millat vakillarining an‘analari, odatlari, rasm-rusumlari, mentaliteti (tabiati) ana shu ssenariyda, ya‘ni marosimni o‘tkazishda o‘ziga xos lavhalardan iborat. Insonning tug‘ilishi, uylanishi, turmushga chiqishi bor ekan, marosimlar ham bo‘laveradi. Demak, marosimlar xalq tarixidagi eng qadimgi qadriyatlar hisoblanadi. Qadim zamonlarda yigit kurash tushish yoki boshqa yo‘l bilan jismoniy quvvatini u bilan namoyish qilishi zarur edi. Zamonlar o‘tishi bilan bu odat yo‘qolgan. Uning o‘rniga yangi-yangi odatlar paydo bo‘lgan. Marosimlar o‘tkazilish vaqti, ko‘rinishlari, odamlarning ishtiroki, maqsadiga ko‘ra mavsumiy va oilaviy-maishiy turlarga bo‘linadi.

Jumladan, mavsumiy marosimlarda qon-qarindoshlik jihatidan yaqinlikdan qat‘i nazar, ma‘lum hududda yashaydigan butun aholi ommaviy tarzda ishtirok etadi. Navro‘z, Mehrijon, Ramazon hayiti, Qurbon hayit kabi yirik bayrammarosimlar ham borki, ularni bir yoki bir necha xalq vakillari o‘tkazadilar. Shox moylar, Sust xotin marosimlari esa kichik bir qishloq, mahalla yoki juda bo‘lmaganda tuman miqyosida uyushtiriladi. Oilaviy marosimlarda esa asosan marosim egasining qarindoshlari, do‘st-birodarlari, hamkasb xizmatchilar qatnashadilar. Ammo marosimlar turidan, maqsadidan qat‘i nazar, jamoadagi odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishi, o‘rtada mehr-oqibat tushunchalarini shakllantirishi, har bir odamni topshirilgan vazifani bajarish ruhida mas‘uliyatli qilib tarbiyalashi bilan ahamiyatlidir.

Marosimlarning mavsumiy va oilaviy-maishiy marosim turlari mavjud.

Mavsumiy marosimlar bahorgi, yozgi, kuzgi, qishki marosimlar kiradi. Ular ham turlarga bo‘linadi. Jumladan, bahorgi mavsumiy marosimlarga: loy tutish, shox moylar (dalaga qo‘sh chiqarish), navro‘z, yomg‘ir chaqirish, “Sust xotin” (“Avesto”da madh etilgan) marosimlari kirgan. Chunonchi:

*Havolarni yog‘dirgan, Sust xotin,
Bug‘doylarni bo‘ldirgan, Sust xotin.
Osmondan tomchi tashlab, Sust xotin,
Elu yurtni to‘ydirgin, Sust xotin...*

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o‘zbeklarning hayoti ham ko‘p jihatdan tabiatdagi o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lgan.

Yil fasllarining o‘zgarishi, har bir faslning o‘z vaqtida xalq tasavvurida shakllangan tarzda kelishi oxir pirovardida hosilning mo‘llicini yoki dehqon mehnatining zoye ketishini belgilagan.

Shuning uchun yil boshlanishi – bahor biz o‘zbeklarda umidlar fasli sifatida kutib olingan. “Har faslning o‘z xislati bor. Har faslning o‘z fazilati” – deganlaridek, xalqimiz boshqa fasllarni ham o‘ziga xos ravishda qabul qilgan va har qaysisiga alohida-alohida marosimlar o‘ylab topgan. Bir fasldagi udumlar ikkinchisida takrorlanmagan.

Jumladan, bahorda “Loy tutish”, “Shox moylar”. “Navro‘z”, “Sust xotin” marosimlari o‘tkazilgan. Loy tutishda ariqlar tozalangan, butun aholi bu ishda faol ishtirok etgan. Bevosita ariq tozalash ishini bajarayotganlar, ularning yonidan o‘tib ketayotgan odamga ketmon yoki belkurakda loy tutishgan. Yo‘lovchi o‘ziga loy tutilgandan so‘ng yo biron qo‘shiq, yo boshqa hunarini ko‘rsatib, ishlayotganlarni mamnun qilishi lozim hisoblangan. Aks holda u ham odamlar bilan ariq tozalashga majbur qilingan. Ariq tozalash ishlarining tugashi odatda maxsus uyushtirilgan sayil, holi baqudrat tayyorlangan ziyofat bilan nihoyasiga yetgan.

Shox moylar esa bahorda birinchi yer haydash ishlarining boshlanishi bilan o‘tkazilgan. Bo‘lajak hosilning mo‘l bo‘lishiga niyat qilib, qo‘shga qo‘shilgan ho‘kiz shoxi yog‘ bilan moylangan va dastlab piri badavlat, uvali-juvali bobo dehqon qo‘sh haydab bergan. Keyinchalik ishni yoshlar davom ettirgan. Bu marosim ham gavjum to‘plangan odamlar ishtirokida sayil o‘tkazish, xursandchilik bilan amalga oshirilgan.

Bahor quruq kelgan kezlarda “Sust xotin” marosimi tayyorlangan. Bu marosimda mahalla, qishloq ayollari yig‘ilib mo‘la (poliz qo‘riqchisiga o‘xshagan qo‘g‘irchoq) yasashgan va uning ustidan suv sepib, qo‘shiq aytishgan:

*Sust xotin, suzma xotin
Ko‘lankasi maydon xotin!
Yomg‘ir yog‘dir ho‘l bo‘lsin
Yeru jahon ko‘l bo‘lsin.
Maysalar quloq yozsin,
Sutu qatiq mo‘l bo‘lsin.*

Albatta, bahor faslidagi eng aziz va har bir o‘zbek uchun qadrlı marosim Navro‘z bayramidir. Navro‘z haqidagi dastlabki ma‘lumot Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida uchraydi. Shuningdek, Umar Xayyomning “Navro‘znoma” risolasi va Muhammad Rizo Ogahiyning bevosita Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan she‘riy asarlari bor. Navro‘z ayyomi yilning 21-mart kuni nishonlanadi. Bayramning Navro‘z deb atalishi Yangi kun, ya‘ni yangi yilning kirib kelishi bilan bog‘liq. Bu kunda kecha va kunduz muddati tenglashadi va kunduzning uzayishi boshlanadi. Shuning uchun ham Navro‘z diniy emas, balki

dehqonchilik, bog‘dorchilik ishlarining qizg‘in pallaga kirishi bilan aloqador alohida bayramdir. Navro‘z bayramini faqat o‘zbeklar emas, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar, ozarbayjonlar va boshqa millatga mansub xalqlar nishonlaydilar. Avvalo uni o‘tkazishga katta tayyorgarlik ko‘riladi: halim, sumalak, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, har xil shirinliklar tayyorlanadi. Professor B.Sarimsoqovning ma‘lumot berishicha, katta bir idishda yetti xil don ekinining urug‘i undirilgan. Ular bug‘doy, arpa, zig‘ir, tariq, no‘xot, jo‘xori, sholilardan iborat bo‘lgan. Ogahiyning ma‘lumot berishicha, Navro‘zda hamma qayiqda daryo sayiliga chiqqan. Bog‘larda o‘yin-kulgilar uyushtirilgan. Dor o‘yinlari o‘tkazilgan. Ammo eng muhimi, har bir odam avvalo betob, dili xasta, hech kimi yo‘q kimsalarni. ota-ona ajdodi ko‘milgan mozorlarni ziyorat qilgan. Bu kunda hamma nizolar unutilgan. Ginali qarindoshlar o‘z da‘volaridan voz kechganlar va bayramni totuvlik bilan o‘tkazishgan. Hatto, davlatlar, podsholar o‘rtasidagi urushlar ham bayram munosabati bilan to‘xtatilgan.

Yozgi marosimlar: Odatda yoz fasli, kuzda hosilning mo‘l bo‘lishi uchun tayyorgarlik ko‘rish, ertapishar meva va poliz ekinlarini yig‘ish ishlari bilan o‘tkaziladi. Kuzgi bug‘doyni o‘rish, davlatvoy, asati kabi qovunlarni; chillaki, tog‘ uzumlarini uzish, shubhasiz, qandaydir marosimlar bilan boshlangan.

Ammo mustabid sovet tuzumi davrida bu an‘analari yodimizdan ko‘tarildi. Ehtimol, qovun, qulupnay, uzum sayillari o‘sha an‘analarning bir ko‘rinishidir. Professor Bahodir Sarimsoqovning ko‘p yillar mobaynida olib borgan izlanishlari natijasi o‘plandi. “Choy momo” marosimi haqida ayrim ma‘lumotlar to‘plandi. Olimning aytishicha, bu odat yozgi marosimlar qatoriga qo‘shilib, Janubiy Qozog‘istonda yashovchi o‘zbeklar orasida uyushtiriladi. Dalada pishib yetilgan bug‘doy surunkali shamol oqibatida yerga egilib ketishi natijasida nobud bo‘lishi mumkin. Ana shunday kezlari “Choy momo” marosimi o‘tkaziladi va tabiatdan shamolni to‘xtatish so‘raladi. “Choy momo” aslida “Shamol ona” ma‘nosini beradi. Sayram atrofidagi kekxa ayollar “Choy momo” qo‘shig‘ini aytishadi:

*Choy, Choy, Choy momo,
Choy momosi o‘libdi,*

*O'g'li yetim qolibdi,
Bosa-bosa beringlar
Bosilib qolsin hu shamol.
Ucha-ucha beringlar
Uchilib qolsin quv shamol.
Oblo-hu, Oblo-hu.*

Bir yosh bola eshakka minib xonadonlardan berilgan xayr-ehsonlarni yig'ib boradi. Keyinchalik "Choy momo"ga atab yig'ilgan narsalardan xudoyi qilinadi.

Turkiston atrofida esa bu marosim boshiga kuloh kiyib, yuziga qora surib olgan chollar ishtirokida amalga oshirilgan. Bu yerda quyidagi qo'shiq aytilgan:

*Chuy, Chuy, Chuy momo,
Chuy momoning o'lganiga uch kun bo'ldi,
Chuy, Chuy, Chuy momo.
Ucha-ucha beringlar,
Uchilib qolsin chuy momo.*

Ma'lum bo'ladiki, shamol to'xtatish marosimi mazmunan uzoq, qadim zamonlardagi mifik dunyoqarash belgilari sifatida baholanishi mumkin. Unda so'zning mo'jizaviy qimmatini va xudoyining ta'sir kuchiga ishonish yetakchilik qiladi.

Kuzda esa shamol chaqirish marosimi o'tkazilgan. Endi yig'ilgan don hosilini po'chog'idan ajratish uchun shamol kerak. Don yanchilgach, uni shamolda shopiradilar va somonni shamol uchirib, don tozalanadi. "Yo, Haydar" qo'shig'i aynan ana shu marosim belgisi hisoblanadi.

Professor Bahodir Sarimsoqov qo'shiqda Haydarga, ya'ni Hazrati Aliga murojaat qilib, ajdodlarimiz shamol chaqirishgan, degan xulosaga keladi:

*Haydar, ota-onang o'libdir,
Moli senga qolibdir.
Bolang suvga oqibdir,
Shamolingni qo'yivor.*

Bu marosim ham qadim zamonlardan bizgacha faqat ayrim hududlarda saqlanib yetib kelgan. Qish o'zbeklarda asosan yil bo'yi qilingan mehnatdan dam olish fasli hisoblangan. Gap-gashtaklar, turli yig'inlar, mumtoz

adabiyotimiz namunalarini sharhlash suhbatlari ko'pincha, qishda bo'lar edi. Shu bilan birga, o'zbeklar qishda o'tkazadigan alohida marosim ham bor. Uni "Yasyusun" deb atashgan. Bu marosim asosan bo'za ichish bilan bog'liq. Ma'lumki, yaqin o'tmishgacha o'zbek xonadonlarida mehmonlarni qabul qilish uchun maxsus mehmonxonalar bo'lgan. "Yasyusun" o'ttiz-qirq ulfat ishtirokida ana shu mehmonxonalarda o'tkazilgan. Marosimda kosagul piyolaga quyib bergan bo'zani bir nafasda ichish, uni to'kmaslik, maxsus ruxsatgacha faqat cho'kka tushib o'tirish, odob saqlash, ruxsatsiz ketib qolmaslik, marosim boshlig'iga itoat etish kabi shartlar bo'lgan. Marosimda quyidagi mazmunda qo'shiq aytilgan:

*Alyor bo'lsin-ay,
Xo'jam yo bo'lsin-ay,
Xo'jam bergan bu davlatga,
Dushman zor bo'lsin-ay.*

Xullas, mavsum marosimlari xalqimizning yil fasllari bilan bog'liq yig'inlaridan iborat edi. Bu marosimlar bir tomondan, o'zbek xalqi qadriyatlarini tarkibining boyligini, qadimiyligini dalillasa, ikkinchi tomondan, o'zbeklarning qadim zamonlardan uyushgan millat ekanini isbotlaydi.

O'zbek farzandi uchun oila oldidagi mas'uliyati, mahalla qarshisidagi burchi muqaddasdir. Bu tushunchalar rivoj topib, Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan uyg'unlashadi.

Shuning uchun qadim zamonlardan buyon shakllanib kelgan oilaga munosabat o'zbeklarda mazmunan teranligi bilan ajralib turadi. Ota-ona, aka-uka, opa-singil, tog'ajiyani, amaki va amakivachcha tushunchalari hamisha o'zbek uchun e'tiborli bo'lgan. Hatto o'zbekning otasi olamdan ko'z yumsa, u otasining do'stlarini e'zozlagan.

Binobarin, oilaviy marosimlarga bizning alohida e'tibor bilan qarashimiz tabiiydir. Oilaviy marosimlarimiz shu qadar boy va rang-barangki, uning har bir a'zosi balog'atga yetguniga qadar marosimlar ta'sirida bir-biriga bog'liq va mas'ul bo'lib qoladi. Oilaviy marosimlar to'ylardan, aza ma'rakalardan va so'zning mo'jizali quvvatiga asoslangan odatlardan tashkil topadi. O'zbekda beshik, xatna (sunnat) va nikoh to'ylari o'tkaziladi. Beshik to'ylarida yangi tug'ilgan go'dakni turli ins-jinslardan muhofaza qilish,

ko'rinmas yovuzliklarni aldash va shu yo'l bilan chaqaloqni ulardan asrash, farzandning dunyoga kelganiga shukronalar bildirish maqsadi amalga oshiriladi. Yurtimiz viloyatlaridagi beshik to'yi ularning o'tkazilishidagi farqlardan qat'iy nazar. mohiyat jihatidan umumiylikka ega. Xususan, to'yning go'dak chillasi chiqqanidan keyin boshlanishi, beshikni go'dakning onasi tomon olib kelishi, beshikni turli bezaklar bilan yasatilishi ko'p viloyatlarda bir xil saqlangan.

O'rtada turli tomoshalar uyushtiriladi. Bolani beshikka yotqizishdan oldin uni odatdagidan boshqacha, turli holatda yotqizishadi va shu tarzda yotishining ma'qul ekani atrof xotinlardan so'raladi. Ayollar bir ovozdin "Yo'q, Yo'q!" deb javob qaytaradilar. Oxiri chaqaloq beshikda qanday yotishi lozim bo'lsa, shunday yotqiziladi va bu udum nihoyasiga yetadi. Go'dak quyidagi qo'shiq jo'riligida belanadi:

— *Qoch-qoch, babasi
Keldi eshikning egasi,
Ota-onang gapirishsa,
Qichqirishsa yana qo'rqma!*

Beshik to'yida ham juda qadimgi dunyoqarash belgilari saqlanib qolgan. Jumladan, yosh go'dakning sog' qolishini ta'minlash uchun shartli yovuz kuchlarni aldash usulidan foydalanishlar fikrimiz dalilidir.

Xatna to'ylari asosan yurtimizda islom dinining shakllanishi bilan bog'liq. Uni o'tkazishda bolaning ota-onasi tomonidan hamma qatnashadi. To'y bir necha qismdan iborat bo'ladi. Xususan, mahalladagi qariyalar ishtirokida xudoyi qilish, bola xatna bo'ladigan xonani jihozlash, qarindosh-urug'lar uchun bazm tashkil etish va ko'pincha yurtga osh berish kabilar shular jumlasidandir.

Nikoh to'ylari turli vaziyatlarda o'ziga xos an'analar bilan o'tkaziladi. Toshkent, Farg'ona, Buxoro va boshqa viloyatlarning o'z odatlari va rasm-rusumlari bor. Ammo hamma hududlarda sovchi, fотиha to'yi, yor-yor aytish, kelin salomlar kabi an'analar saqlangan. Kelinning kuyovnikiga kelishi, to'y kechalarini o'tkazish odatlarida bir qator farqlar bor. Xullas, to'ylar insonning hayotidagi muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Ularni turli o'yin-kulgilar, shodiyonalar, bazmlar birlashtirib turadi. Inson to'y bilan tug'iladi va aza marosimi bilan hayotdan ko'z yumadi.

Shuning uchun xalqimizda odamning qo'shiq bilan hayotga kelishi, qo'shiq bilan hayotdan ketishi qayta-qayta ta'kidlanadi.

Motam marosimi ham juda qadim tarixga ega. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida saqlanib qolgan Alp Ertunga (Artunga) haqidagi marsiya fikrimizga dalildir. Motam marosimida juda ko'p kichik-kichik yig'inlar o'tkaziladi. Uch, yetti, yigirma, qirq kunliklar, qor yog'di, gul, shir oshi, qovoq kabi movliyatlar shular jumlasidandir.

Avvalo hayotdan ko'z yumgan kishining ijobiy xislatlari, qarindoshlik aloqalari esga olinib yig'i beriladi:

*Baland tog'lar past bo'ldimi, voy otam?
O'lganingiz rost bo'ldimi, voy otam?
Shamol kelmay o'chdi chirog'im, voy otam,
Kuz kelmay xazon bo'ldi bog'im, voy otam.*

Shu tarzda ota, ona, bola, umuman jigar nomlari tilga olinadi. Bunday qo'shiq turlari marsiya deyiladi. Marsiyalarda yig'i aytuvchi shaxs boshiga tushgan kulfat, yaqin kishidan judo bo'lish qismati, o'ta ruhiy kechinmalar ta'sirida o'z ifodasini topadi. Ayrim hududlarda, ba'zan esa oilalarda marsiyalarni alohida ta'sirchan va mahorat bilan kuylaydigan ayollar aytadilar.

Ular motam marosimlarining markazida harakat qiluvchi bosh shaxslarga aylanadilar. Xalq orasida ko'pincha marsiyani "aytib yig'lash" deb ham atashadi. Odatda, motam marosimi hayotdan ko'z yumgan shaxs vafotiga yillik ma'rakalar o'tkazish bilan yakunlanadi.

Oilaviy-maishiy marosimlar jumlasiga to'y, (beshik) to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, kelin salom, motam marosimi, yig'i-yo'qlovlar va boshqalarda ko'zda tutilgan kishining tarbiyaviy sifat-lari ulug'langan, insoniyat qadr-qimmatini yuqori ko'tarilgan, insonparvarlik, yoshlarda ularga havas, hurmat uyg'otishga undalغان.

Xullas, o'zbek xalqi mavsumiy va oilaviy marosimlarni ko'plab o'tkazgan. Xalq qadriyatlariga munosabat yomonlashgan zamonlar ta'sirida bu marosimlarning ko'pchiligi yo'qolib ketdi. Mustaqillik sharofati bilan ularni qaytadan tiklashga alohida e'tibor berilmoqda.

Doston — qissa, hikoya, ta'rif, sarguzasht ma'nolarini anglatadi. Doston — xalq og'zaki ijodining eng murakkab, yirik va keng tarqalgan janrlaridan biri. Doston so'zi qissa, hikoya, shonu shuhrat,

sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi. Dostonlar lirik doston (Mirtemirning "Surat", A.Oripovning "Yuzma-yuz" dostonlari), epik doston (Oybekning "Davrim jarohati, M.Shayxzodaning "Toshkentnoma", E.Vohidovning "Istanbul fojeasi" dostonlari), dramatik doston (Fitratning "Shaytonning tangriga isyoni", A.Oripovning "Jannatga yo'l" dostonlari) kabi uch turga bo'linadi.

Xalq dostonlarini do'mbira jo'rligida ijro etuvchi va kuylovchi san'atkor shoir yoki baxshi deb atalgan. Xalq dostonlarini ijro etish uslubiga ko'ra Bulung'ur, Shahrisabz, Sherobod, Janubiy Tojikiston va Xorazm dostonchilik maktablari mavjuddir.

Folklorshunoslar tomonidan o'zbek xalq baxshilarining aytib turishi asosida 150 dan ortiq (variantlari bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingan bo'lib, ularning ko'pchiligi kitob holiday nashr qilingan. Bu dostonlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Qahramonlik dostonlari: bunday dostonlar urug'chilik zamonlari bilan, xalqning ko'chmanchilik hayoti bilan bog'liq. Qahramonlik eposi xalq og'zaki ijodi tarixida alohida bosqich sifatida baholanadi. Uning mashhur namunasi yunonlarda "Odisseya" va "Iliada" asarlari hisoblanadi. Qirg'iz xalqining "Manas"i ham ana shunday bosqich namunasi. Bunday asarlarda alohida qahramonlik va mardlik namunasi ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatidan yuqori turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. Qahramonlik eposiga o'zbeklarda "Alpomish" dostoni misol bo'ladi. Unda yurtimizdagi milliy an'analarning shakllanishi, tashqi dushmanlarga qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

2. Jangnoma dostonlar: bunday dostonlarda o'zaro jangu jadallar, afsonaviy yoki tarixiy urushlar, bunday urushlardagi qo'shin yoki yakka shaxsning jasoratlari tasvirlangan. Jangnoma dostonlarni esa voqea rivoji asosan jang lavhalariga boy asarlar tashkil etgan. Baxshilar bunday dostonlarni nisbatan kam ijro etganlar. Bunday dostonlarda ko'proq qahramonning botirligini tasvirlashga e'tibor beriladi.

"Yusuf bilan Ahmad", "Alibek va Bolibek", "Qirq ming" kabi asarlar shular jumlasidandir. "Yusuf va Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Xoldorxon".

3. Ishqiy-romantik dostonlar: bunday dostonlarda sevgi romantikasi va fantastik sarguzashtlar uyg'unlashib ketadi. Romantik dostonlar deganda, xalq dostonlarining mazmunan sevgi – sarguzashtlarni tasvirlovchi turlari tasavvur qilinadi. Ularda voqea tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi.

Keyinchalik qahramon ishq sarguzashtlariga boy safarga o'tlanadi. Bu yo'lda turli qiziqarli, hayratomuz hayot lavhalar ro'y beradi. Dushmanlar bilan yakkama-yakka olishuvlar bo'ladi. Dostondagi voqealar rivoji shu tarzda taraqqiy etadi va oxir-pirovardida oshiq o'z orzusiga yetadi.

"Ravshan", "Kuntug'mish" kabilarni ana shunday dostonlar qatoriga qo'shish mumkin. Murodxon, Rustamxon, Kuntug'mish, Malikai ayyor.

4. Tarixiy dostonlar: bu turdagi dostonlarda tarixda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, ayrim tarixiy shaxslarning faoliyati ifoda etilgan. Edega, Shayboniynoma, Oychinor. Tarixda bo'lib o'tgan muhim voqealar haqida hikoya qiluvchi dostonlar tarixiy dostonlar deb ataladi. Bunday asarlarda tarixiy voqealar tinglovchida shubha uyg'otmaydigan to'qimalar yordamida aks ettiriladi. Ammo ularda tarix qanday bo'lsa, shu tarzda, to'kis ravishda o'zgarishsiz bayon etilmaydi. O'tinishda shuhrat topgan "Oysuluv" ana shunday doston sanaladi.

5. Kitobiy dostonlar: ular yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan dostonlardir. Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Zevaxon, Rustami doston. Kitobiy dostonlar asosan tarixiy hayotimizning keying asrlarida paydo bo'ldi. Yozma adabiyotimiz vakillari tomonidan yaratilgan dostonlardagi qiziqarli va ibratli voqealar bilan tanishgan baxshilar ular asosida o'zlarining nusxa (variant)larini yaratganlar. Natijada kitobiy dostonlar yozma va og'zaki ijodning o'zaro aloqalari natijasi sifatida vujudga kelgan. Og'zaki ijoddagi "Sayyod va Hamro", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Voniq va Uzro" kabi dostonlar ana shu turdagi asarlar namunasi.

U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo'lib, xalqning ma'naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ'ib etadi. Dostonlarda komil shaxs

tarbiyaviy sifatleri umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo'rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o'rnak olish hissi tug'iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. "Baxshi" mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" s'yzlaridan olingan bo'lib, "ustod", "ma'rifatchi" degan ma'nolarni anglatadi.

Dostonlar hajm jihatdan chegaralanmaydi. Doston ijrosi ham ba'zan soatlab, ba'zan kunlab davom etgan. Bunda doston mazmuni, baxshining mahorat darajasi muhim hisoblangan. O'zbekistonda xalq dostonlari Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston muxtor respublikasida ijro etiladi. Ijrochi baxshilar do'mbira, tor, dutor chertib, qo'biz tortib doston aytadilar. Ijro usuliga ko'ra o'zbeklarda Samarqand, Xorazm, Farg'ona (Namangan) dostonchilik an'analari mavjud bo'lib, Samarqandda ichki bo'g'iz ovozda, Xorazmda ochiq qo'shiq aytish yo'li bilan, Namanganda ochiq, ammo, musiqa asbobiga mos holda kuylanadi.

Samarqand dostonchiligida hajm jihatidan katta dostonlar nasrdan va epik she'rlardan iborat bo'ladi. Xorazm dostonchiligida dostonlar nasriy parchalardan va lirik she'rlardan iborat bo'ladi. Bu dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi.

Namanganda ham dostonlarning hajmi kichik, ammo ularning matnlari Samarqand dostonchiligi kabi nasrdan va epik she'riy parchalardan tashkil topadi.

Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati. "Alpomish" dostonida ishq – muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor, ma'lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo'lida xizmat ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalami hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish kabi ibratli tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga quloq solish, ular bilan maslahatlashish, akaukalar o'rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. Shuningdek, o'zbekning qadimiy urf-odatlaridan bo'lgan sovchilarni kutish, mehmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, izzatini qilish, shirinso'zlik bilan muomala qilish kabi axloqiy xislatlar ham o'z ifodasini topgan. Dostondagi qahramonlik jasoratlarini Barchin obrazida ham ko'rishimiz mumkin. Barchin alplaming eng zo'ri

Ko'kaldoshdan olti oy muhlat so'raydi, ular ko'nishadi; o'n yigitga o'n bedov otni berib xat yozib Alpomishga jo'natadi: "Olti oychalik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo'r yovning qo'lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin", – deydi. Doston yoshlarda yoriga vafodorlik, sadoqatlik kabi xislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi. Dostonda aka-singil o'rtasida mehr-oqibat, oila sha'nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi fazilatlar ham ifodalangan. Alpomishning singlisi Qaldirg'och "axmoq qalmoq" elida to'qson alpning orasida talash bo'lib, ular zug'umidan azoblar ichra o'rtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan o'pkalab, unga so'z tig'ini sanchadi: "Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin, Nar-moda ishini bunda qilmagin", – deydi va o'sha gaplarni yanada qamchinliroq qilib aytadi:

"Har kim o'z elida bekmi, to'rami,
Nar-modalar sendan kamroq bo'lami,
Mardning yori toy talashda qolami?"

Ayni, "nar-moda", ya'ni "erkak-urg'ochi" so'zi o'zining ta'nador qudrati bilan yigitning hamiyatini uyg'otib, Alpomishni Boychiborga mindiradi, Barchinni ozod qilishga o'tlanib, shijoat bilan yelib boradi:

*"Dubulg'a boshda dungullab,
Kark qubba qalqon qarqillab,
Tilla poyanak urilgan
O'zanglarga sharqillab,
Bedov otlari dirkillab,
Olg'ir qushdayin charqillab,
Qo'lda nayzasi so'lqillab,
Yurmoqchi uzoq yo'lga,
Qaramay o'ngu so'lga,
Yetsam deb yoming eliga
Siltab yuradi Boychibor...
Yo'l yurar davlatli shunqor.."*

Alpomish Qalmoqshox yurtiga borib, Qorajon bilan do'st tutinadi, u Alpomish nomidan Barchinoyga sovchi bo'lib boradi va shunday deydi: – "Qani, Barchin, Alpomish bo'lsa keldi, alplaming muhlati bo'lsa bitib qoldi, sen nima javob aytasan?" Barchin aytadi:

“Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi. Mening to‘rt shartim bor, shu shartimni bajargan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi Qalmoqlaming biri qilib olsin. Shu so‘zimni xon to‘ramga aytib bor”, – deydi. Barchin qanchalik Alpomishni sevsa ham, lekin o‘zbekona hayo bilan hamma qatori shartni bajarishini, ya‘ni odillikni talab qiladi.

Dostondagi bu parcha qizlarimizni iboli, hayoli, oqila, or-nomusli qilib tarbiyalashda juda ahamiyatlidir. Barchin alplarga to‘rtta shart qo‘yadi: “Poyga qilaman, otini o‘zdirganga tegaman, kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman, yoy tortishsa yoyi sinmay qolganga tegaman, ming qadamda tanga pulni urgan qarag‘ay merganga tegaman”, – deydi. Dostondagi qahramonlik jasoratlari mana shu to‘rtta shartni bajarishda o‘z ifodasini topadi.

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining sevikli dostoni bo‘lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyiligi va ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylilik, samimiyat, to‘g‘rilik, hamiyatlilik, do‘stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlaridan iborat bo‘lgan o‘zbek milliy ruhiyati yaqqol ko‘rinadi. Shu bois ham “Alpomish” dostonining 1000-yilligi 1999-yilda Termiz‘shahrida keng nishonlandi. Zero, “Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o‘zbekning o‘lmas so‘zi timsoli sifatida munawarlik olib kiradi. Chinakam xalq so‘zining umri boqiydir”.

Xalq dostonlarining juda katta qismi sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga bag‘ishlanadi. Ishqiy-romantik dostonlarda voqea tuguni oshiqning ma‘shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Masalan, “Ravshan” dostonida Ravshan Zulxumorni uzukda ko‘rib qoladi. “Kuntug‘mish”da Holbeka yigitni tushida ko‘radi, Kuntug‘mish qizning suratiga oshiq bo‘lib qoladi, ya‘ni bir-birini ko‘rmagan odamlar o‘rtasida g‘oyibdan sevgi paydo bo‘ladi. Sof sevgi esa hamisha odamni qahramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi. “Zevarxon” dostonida Zevar va Malikai Xubon o‘rtasidagi chuqur insoniy munosabatlar, visol va xijron, vafo va sadoqat, do‘stlik tarannum etiladi.

“Kuntug‘mish” dostonida yoshlarni kasb-hunar o‘rganishga undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug‘mish degan yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm-hunar o‘rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O‘n to‘rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko‘pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o‘rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo‘lib yetishadi.

“Ravshan” dostoni ham ishqiy – sarguzasht dostonidir. Bu doston ham “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub, “Ravshan” pok va samimiy muhabbatini kuylovchi, maqsadga erishish yo‘lida mardlik va botirlikni ulug‘lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir.

“Malikai ayyor” dostoni ham “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Unua muhabbat hangomalari va ishqiy sarguzashtlar serob. Dostonda or-nomus, iymon-e‘tiqod, insoniy iroda, chidam, topqirlik singari ezgu ma‘naviy sifatlar tasvirlanadi. O‘zbek yigitlariga xos eng olijanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqol, matal va qo‘shiqlaridan juda keng foydalanilgan.

“Oysuluv” dostonidagi Oysuluv o‘zbek xotin-qizlarining umumlashma obrazidir. Uning hozirgi zamon xotin-qizlariga ibrat bo‘luvchi go‘zal xislatlari juda ko‘p. Masalan, Oysuluv o‘g‘lining zindonband bo‘lganini eshitib esankirab qolmaydi, balki sabr-toqat qilib, mulohaza bilan ish ko‘radi, qo‘rqmay Eron elchilariga qarata: “Men Turon mamalakatimni, el-u-xalqimni unga bermayman!” deb xitob qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, dostonlar yigitlarimizni mardlikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka chorlaydi. Shuningdek, do‘stga vafodorlik, aka uka o‘rtasidagi mehribonlik, ota-onaga g‘amxo‘r bo‘lishga o‘rgatadi. Masalan, aka-uka o‘rtasidagi mehribonlik “Kuntug‘mish” dostonida Gurkiboy va Mohiboy obrazlarida, do‘stlar o‘rtasidagi sadoqatlik “Zevarxon” dostonida Zevarxon va Xasanxon, “Alpomish” dostonida Alpomish va Qorajon obrazlarida tasvirlangan.

Dostonlar xalqimizning o‘ziga xos badiiy tarixi bo‘lib, tarixiy madaniy ahamiyati tengsizdir. Ularda xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan orzu-umidlari, kelajak haqidagi o‘y-fikrlari mujassamlashgan. Xalq dostonlari milliy iftixor va o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik, o‘zaro ishonch, do‘stlik tuyg‘ularini tarbiyalashda juda katta g‘oyaviy-estetik vazifani o‘taydi.

Og'zaki drama – etnopedagogika yo'nalishidagi ijodning mustaqil turi bo'lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og'zaki dramada tomosha ko'rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlar tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og'zaki dramani qiziqchilar, askiyabozlar, masxarabozlar satirik uslubda ijro etishgan. Ularda ochko'zlik, ko'zbo'yamachilik, zulm, adolatsizlik, zo'rvonlik, buzuqlik kabi salbiy axloqiy sifatlar hajv va yengil kulgi ostida tanqid qilingan.

Askiya – arabcha “zakiiy” so'zidan olingan bo'lib, “so'zamol”, “o'tkir”, “zehni” degan ma'nolarni anglatadi. Askiya – o'zbek xalq og'zaki jodining xushchaqchaq va kulguli bir janri. Askiya atamasi arabcha zakiiy so'zidan olingan bo'lib, zehni o'tkir, so'zamol, zakovatli ma'nolarini bildiradi. Zakiiy so'zining ko'plik shakli askiyo bo'lib, talaffuzda askiya ko'rinishini olgan. Askiyalarning o'z syujeti va kompozitsiyasi bo'ladi. Bu, ayniqsa, payrov turida ravshan ko'rinadi. Payrov askiya aytuvchilar tanlagan mavzudir. Askiya – so'z o'yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida “Bo'lasizmi”, “O'xshatdim”, “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz” kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy xislatlari achchiq kulgi vositasida tanqid (masxara) qilinadi. Askiya ko'pincha to'y, sayil, marosimlarda uyushtiriladi. Askiya Farg'ona vodiysida keng tarqalgan bo'lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi.

Afsona, rivoyat, naql, ertak, latifa, loflar tizimining pedagogik xususiyatlari

Afsona – hayoliy uydirmalar asos bo'lgan kichik nasriy hikoyalar hisoblanadi. Afsona atamasi forscha fusun – sehr, avrash so'zidan olingan. Afsonalar asosida muayyan darajada tarixiy voqea va hodisalar yotadi, uzoq davrlar o'tishi bilan o'zining aniq ildizlarini yo'qotadi, voqelikni yuksak badiiylkda aks ettirmaydi. Afsona ijrochisi xalq ommasidir. Aristotel afsonalarni haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalar deb atagan. Afsonalar o'z mavzusiga ko'ra tarixiy, toponomik, diniy, maishiy kabi turlarga bo'linadi.

Afsonada xalq orzusidagi qahramonlar vositasida dushmanlarni, tabiat stixiyalarini daf etishga mifologik obrazlar yordamida erishiladi. Ular o'quvchini ushbu qahramonlarga o'xshashga, ularga xos tarbiyaviy sifatlarini egallashga undaydi. Xalqimiz orasida Xazorasp, Guldursun, Ayoq qal'a, Shohsanam ko'shki, Obshir ota, To'maris, Shiroq kabi afsonalar mavjud. Qadimgi turk adabiyotida afsona sav deb atalgan.

Rivoyat – hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi etnopedagogik manba bo'lib, unda tarixiy voqealar, ayrim shaxslar va geografik joy bilan bog'liq voqealar, ularning bunyod yoki vayron etilishi hikoya qilinadi. Rivoyat xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar. Biz rivoyatlar va afsonalar tufayli ajdodlarimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklar haqidagi tarixni bilib olamiz. Rivoyatlar afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqin turadi. Ular ham xalq ijodidir. Ertakli ertakchi, dostonlarni baxshilar ijro etganlari holda afsona va rivoyat istalgan kishi tomonidan aytilishi mumkin Rivoyat o'quvchida Vatanga, ajdodlarga, xalqqa muhabbat, zulmga nafrat, do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy va jismoniy kamolotga intilish hissini uyg'otadi.

Asotir – ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo'lish sabablarini o'zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og'zaki hikoyalari. Asotirlarda barcha mavjudot jonli obrazlar vositasida harakat qiladi. Biror narsa yoki hodisaningf paydo bo'lishi (etimologiya) va yo'qolib ketishi (esxatologiya) haqida ham juda ko'plab asotirlar mavjud. Asotirlar ertaklarga yaqin turadi. Ularning har ikkisida ham fantastika, badiiy xayolot yetakchilik qiladi. Asotirlar bir qancha turlarga bo'linadi: a) Etiologik miflar – tabiat hodisalari, tabiatdagi biror predmetlarning paydo bo'lishi haqidagi miflar; b) kosmologik miflar – dunyoning paydo bo'lishi, koinot jismlari haqidagi miflar; c) etnogonik miflar – biror urug', qabilaning paydo bo'lishi haqidagi miflar; d) antropogonik miflar – insonlarning paydo bo'lishi haqidagi miflar; e) esxatologik miflar – insonlarning kelajagi haqidagi miflar va h.k.

Misol: Aziz Momo, Oy bilan kun (oilaviy hayot haqida, bu asotirda qo'llangan Yulduz uchdi degan tushuncha Oy uyquga ketganda, Kun bolalaridan birini olib qochmoqchi bo'lgani bilan bog'liqdir.)

Naql – axloqiy-didaktik vazifani bajaruvchi, axloqiy sifatlar, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan etnopedagogik janrdir. Masalan: “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”, “Har kim qilsa o‘ziga”, “Odam-odam bilan tirik”, “Qaqillashi biznikida, tuxum qilishi qo‘shnikida” kabi.

Naqlarda salbiy-tarbiyaviy sifatlarga ijobiy-tarbiyaviy sifatlar qarshi qo‘yiladi. Garchi, To‘g‘rivoy (Yaxshivoy, Soddavoy) yo‘lda Egrivoy (Ayyorvoy, Yomonvoy)ga aldanib qolsada, keyinchalik sehrli yordamchilar tufayli u g‘alaba qilib, murodiga yetadi. Egrivoy esa misi chiqib, sharmanda bo‘ladi.

Naqlarda yashirin holda tarbiyaviy o‘gitlar ifodalanib, nihoyasida qissadan hissa chiqariladi.

Ertak – qadimgi turkcha “Etuk” (M.Qoshg‘ariy) suzidan olingan bulib, biror voqeani og‘zaki so‘zlash ma‘nosini anglatadi. Ertak – Surxon, Qashqa, Farg‘ona vohasi, Samarqandda “matal”, Xorazmda “varsaqi”, Toshkent atrofida “cho‘pchak” deb ataladi.

Ertak – hayot haqiqatiga asoslangan, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan, odamlarga ibrat o‘git beruvchi og‘zaki hikoyalar hisoblanadi. O‘zbeklar o‘rtasida ertaklar varsoq, cho‘pchak, masala kabi atamalar bilan yuritiladi. Ertaklarning o‘ziga xos janr xususiyatlari quyidagilar: 1. Og‘zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli syujetga ega bo‘lishi; 2. voqealarning ongli tarzda xayoliy uydirmalar orqali aks ettirilishi; 3. estetik vazifaning yetakchilik qilishi; 4. o‘ziga xos badiiy shakliy qolip hamda tilga ega bo‘lishi (ertaklar bir bor ekan, bir yo‘q ekan... kabi maxsus boshlamalar bilan boshlanib, murod maqsadiga yetibdi, birga turib, birga yashab-dilar, soqoli ko‘ksiga yetibdi kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanadi.)

Xalq ertaklari mazmunan 3 guruhga bo‘linadi:

1. Hayvonlar haqidagi hamda majoziy ertaklar (Susambil, bu ertakda yo‘lda eshakka ho‘kiz, xo‘roz, ikkita kalamush, arilar hamroh bo‘ladilar. Ertak qahramonlari – Ho‘kiz (munkarnakir), kalamushlar (go‘rkovlar), arilar (Azroil), xo‘roz (so‘fi), eshak (eshon), bo‘rilar)

2. Sehrli – fantastik ertaklar (Guliqahqah – bu ertakda Tilla kokilli bola shum kampirning hiylasi bilan Guliqahqahni, qirq qozonni, oynayi jahonnamoni qo‘lga kiritadi. Ertak qahramonlari: Tilla kokilli bola, Guliqahqah, chol, qush (o‘z farzandini tanimagan

podshohga tilla kokilli bola uning farzandi ekanligini aytgan), podsho (ikki xotinini vas hum kampirni o‘ning dumiga bog‘lab o‘ldirgan), shum kampir va boshqalar. “Bitta dev tishini kavlasa, biror odamning soni chiqibdi” degan mubolag‘a ham shu ertakda uchraydi), Husniyabonu (ertak qahramonlari: Gardanshoh, Nodirai davron, Husniyabonu va boshqalar. Ertakda Husniyabonu o‘g‘rilar-ning boshlig‘i eshon ekanligini aytganda, podsho darg‘azab bo‘lib, uni osishga buyuradi, lekin vazirining maslahatiga ko‘ra Husniyabonu va uning doyasini dashtu biyobonga tashlab kelishadi, daraxt ostidan topib olgan xazinani Husniyabonu yetim-yesirlarga shahar qurish uchun sarflaydi), “Guljamol”.

3. Hayotiy-maishiy ertaklar (Malikai Husnobod)

Voqelikka hajviy yondashish orqali aks ettirish jihatidan o‘zbek xalq ertaklari hajviy va hajviy bo‘lmagan ertaklar kabi turlarga bo‘linadi. Ishqiy-sarguzasht ertaklarda sevgida vafodorlik kuylanadi. Ertaklarni yozib olish va nashr qildirish, asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlandi.

Ertaklarda mo‘jiza yoki sarguzasht ma‘lum voqea-hodisalarni hayot bilan bog‘lab, haqiqat, ozodlik, to‘g‘rilik, odamiylik, olijanoblik g‘oyalarini targ‘ib etadi. Shuning uchun ular bolani o‘ziga ko‘proq jalb etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy, ahamiyatga egadir. Jumladan: “Chol bilan kampir”, “Bulbuligo‘yo”, “Ur to‘qmoq”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Baxtli kal” singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar (“No‘xatvoy”, “Quloqvoy”, “Handalak polvon”, “Yapaloqpolvon” ...) haqidagi turlari, bir yoki ikki epizodli satirik ifoda vositasida salbiy tarbiyaviy sifatlarni tanqid, masxara qiluvchi etnopedagogika turidir. O‘zbeklarda latif qaytarish, so‘zga chechanlik musobaqasi shaklida o‘tkaziladi. mavjud.

Latifa arabcha – latif, mayin, lutf demakdir. Latifa satira va yumorga asoslangan. Latifa – xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyalar. Xalq o‘rtasida afandi deb ham yuritiladi. Mustaqil janr sifatida latifa quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yagona qahramon bilan bog‘liq holda yaratiladi (Nasriddin obrazi, bu obraz asosan XIX asrdan boshlab o‘zbek latifalariga kirib kelgan. XIX asrga qadar latifa qahramoni bir kishi, mashrab, fors-

XALQ PEDAGOGIKASIDA DINIY TA'LIMOTLARNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Yurtimiz tarixidagi dastlabki diniy qarashlar va uning xalqimiz hayotida tutgan o'rni

Din – o'ta murakkab ijtimoiy hodisa. U o'ziga xos tarkibga ega bo'lib, kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti hosilasidir. Din kishilarning g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdan yuzaga kelgan. Zero, "din" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "ishonch", "ishonmoq" degan ma'nolarni anglatadi.

Diniy ong diniy dunyoqarash tarkibida muhim o'rin tutadi. Diniy ong diniy tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'u va kayfiyatlarni ifodalaydigan qarashlar tizimidir. Dinni tarkibiy qismlari qatorida diniy ong ustuvor ahamiyatga ega, chunki diniy marosim va diniy tashkilot kishilar ongida va jamiyatda diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va saqlanib qolishiga ko'maklashadi.

Yurtimizda keng yoyilgan ilk diniy ta'limotlardan biri zardushtiylik dini hisoblanadi.

Zardushtiylik, zoroastrizm – miloddan avvalgi VII-VI asrlarda vujudga kelgan din. Asoschisi – Zardusht edi. So'nggi tadqiqot xulosalariga qaraganda, O'rta Osiyo, xususan, Xorazm vatani bo'lgan. O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon hamda Yaqin va O'rta Sharqning bir necha mamlakatlarida tarqalgan. Qadimiy paxlaviy tilida "Zardusht" so'zi "Magupta" deb atalgan. Paxlaviy tilidagi yodgorliklarni arab tiliga tarjima qilgan olimlar uni "majus" shaklida qo'llagan. Natijada o'rta asrlardan beri "Zardusht" "majus", "zardushtiylik" esa "majusiyylik" sifatida qo'llanib kelingan. Zardushtiylikda "otash" va "quyosh" tangri Ahuramazdanmng o'g'li deb hisoblangan. "Hyp", "otash" Zardushtiylikning ramzi, timsolidir. Bu ta'limotda dunyodagi hamma tartiblar yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashga bog'liq, deb tushuntiradi. Olamdagi hamma yaxshiliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Anxramaynu ifodalaydi. Anxramaynu Ahuramazdaga qarshi kurashadi, lekin uni yengishga o'zlashtiradi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash olam dagi jarayonlar mazmunini tashkil etadi. Odam bu

tojik latifalari ta'sirida mushfiqiy, bahlul yoki turkey xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalgan aldar ko'sa, ko'sa, kal kabi turlicha nomlar bilan yuritilgan.)

2. Ixcham syujetga ega bo'ladi.

3. Asar konflikti, qahramoni va uning muxolifi o'rtasidagi muloqot dialog orqali hal etiladi. Latifalar mazmuni va voqelikka munosabati jihatidan ikki turga bo'linadi: a) hajviy latifalar – ularda Nasriddin afandi yirik davlat arboblari, saroy ahli, mufti, qozilar, hokim va mirshablar, makkor mullalar va johil tabiblar o'rtasida tasvirlanadi. b) yumoristik alatifalar – ularda Afandi bevosita oilasi, bolalar, qo'ni-qo'shni va mahalla-ko'y davrasida tasvirlanadi. Latifani maxsus ijro etuvchilar yo'q, uni har kim aytaverishi mumkin.

Ulug' Vatan a asarlarining tipik qahramoni Nasriddin afandi hisoblanadi. U latifalarda o'ta aqlli, noziktabiat, insonparvar, mehnatsevar kishi sifatida salbiy axloqiy sifatli kishilarni masxara qiladi. Zaxarxanda kulgi, kinoya, kesatiq, xazil-mutoyiba vositasida yomonliklarni bartaraf qiladi.

Lof – mustaqil etnopedagogik tur bo'lib, biror voqeani o'ta bo'rtirib aytish, hazil-mutoyibaga asoslangan janr. Ularda notabiiy voqealar, salbiy xislatlar tanqid ostiga olinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Epos" so'ziga izoh bering.
2. "Xalq qo'shiqlari – lirika namunasi" mavzusida yozma nutq tayyorlang.
3. Xalq og'zaki ijodidagi qaysi janrlar epik tur namunalari hisoblanadi?
4. Og'zaki ijodimizdagi janrlararo munosabat haqida gapiring.
5. Xalq maqollarining o'ziga xos janr xususiyatlari haqida so'zlang.
6. Maqollarning o'z va ko'chma ma'nolari deganda nimani tushunasiz?
7. Maqollar va matallar o'rtasidagi farq haqida so'zlang.
8. Marosimlarni nishonlashda og'zaki ijodning qaysi janrlaridan foydalanilgan?
9. Nima uchun marosimlarni xalq qadriyatlarining namunasi deb atadik?

kurashda tanlash erkinligiga ega bo'lgan, o'z faolligi bilan dunyoda adolat tantanasiga ta'sir eta oladigan shaxsdir.

Avestoda ko'chmanchilik va dehqonchilik hayot tarzi o'rtasidagi qaramaqarshilik bayon etiladi, ko'chmanchilikka hamma yovuzliklarni keltirib chiqaradigan hayot tarzi deb qaraladi va u qoralanadi, dehqonchilik esa yaxshilik belgisi sifatida rag'batlantiriladi. Zardushtlik dinida olov gunoxlardan tozalovchi sehrli kuch deb qaraladi. Zardushtlikning axloqiy ta'limoti "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal"dan iborat muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topgan. Zardushtning talabiga ko'ra, har bir inson tangrining yakkayu yagonaligini e'tirof etishi, xoh erkak, xoh ayol bo'lsin ilm o'rganishi, turli kasblarni egallashi, chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanishi, kanal qazishi, yer ochishi lozim. Eng asosiysi – Zardushtlikda e'tiqod erkinligi mavjud bo'lgan. Zardusht insonlarni tenglikka, hamjihatlikka, birbiriga yaxshilik qilishga, yer yuzida tinch-totuv hayotni ta'minlash uchun kurashga chorlagan, unda ma'rifat zulmatga, adolat zulmga qaramaqarshi qo'yilgan. Zardushtlikda har bir inson butun kuchini o'zini kamolatga yetkazish yo'liga sarf etmog'i lozim. Zardushtlik murdani tuproqqa ko'mish yoki kuydirishni taqiqlaydi. Bu din jonning o'lmasligini, uning abadiyligini tan oladi, jannat va do'zaxni ham e'tirof etadi. Otashkada zardushtiylarning ibodat-xonasi hisoblanadi.

Zardushtlik ruhoniylari alohida tabaqa sifatida ajratilib, ularga maxsus imtiyozlar berilgan. Zardushtlik arshakiylar va sosoniylar podsholigi davrida hukmron dinga aylangan. Zardushtlik 13 yuz yillik davomida ajam mamlakatlarida asosiy din bo'lib kelgan. Arablar VII asr o'rtalari – VIII asr boshlarida Eron va O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin islom dini hukmron dinga aylangach, zardushtiylar quvg'in qilindilar.

Zardushtiylar Hindiston va Eronda hozir ham mavjud. Eronning Yazd va Gilon viloyatlarida ularning soni 100 mingdan, Hindistonning Maharashtra, Gujarot shtatlarida 115 mingdan ziyodni tashkil qiladi.

Avesto ta'limotiga ko'ra, birinchi inson Govamard (ho'kiz-odam; forsha Qayumars) bo'lib, undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh Yima davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o'lim

bo'lmagan, Ahuramazda doimiy bahor yaratgan. Kishilar bekamu kust, baxtiyor yashagan. 900 yil o'tgach shoh Yima gururga berilib, man etilgan sigir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi Anhramaynu hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Olamni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovukdan saqlab qolish uchun qo'rg'on (var) qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtirgan. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, Hayr bilan Sharr (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Ahuramazda g'alaba qilib, ezgulik saltanati barqaror bo'ladi, o'lganlar tiriladi. Avestoning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" kabi muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi. Zardushtiylarning ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora bilan boshlanadi.

Moniyluk qadimgi turkiy xalqlar e'tiqodida alohida oqim bo'lib, "Xuastuanift" ("Moniyluk tavbanomasi") uning nazariy manbasi va diniy yodgorligidir. Bu yodgorlik V-VI asrlarda qadimgi uyg'ur qavmlarida shakllangan.

Moniyluk oqimining asoschisi Moniy ibn Fatak (216-277)dir. "Xuastuanift" Moniy jamoasi a'zolarining madhiyasi va nizomi hamdir.

Moniyning ta'limotida Nur va Zulmat o'rtasidagi azaliy kurash asosiy o'rinni egallaydi. Uning mazmun-mohiyati esa, Nurning Zulmat ustidan g'alaba qozonishiga ishonishdir. Moniyluk mahalliy dinlar – zardushtiylik, buddaviylik va xristianlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Moniy o'zini avvalgi dinlarning "to'g'rilovchi payg'ambari" deb e'lon qilgan. U xristianlikdan Borliqning 2 submessionizm va "Masih" e'tiqodini o'zlashtirgan. Uning yovuzlik va moddiyat olamining o'zaro kurashini e'tirof etuvchi zardushtiylik dualizmi moniylukning asosini tashkil etadi. Ularning e'tiqodicha, birinchi olamda Nur (Xudo), ikkinchisida – Zulmat (Shayton) hukmronlik qiladi. Inson ikki unsurdan – Nur farzandi bo'lgan ruh va Zulmat farzandi hisoblanmish jismdan iborat mavjudotdir. Shuning uchun inson Zulmat kuchlariga qarshi kurashda Nur kuchlariga yordam berishi lozim deb qaraladi. Ushbu ikki olam o'rtasidagi kurash falokat bilan tugaydi, natijada moddiyat halokatga

uchrab, ruh g'alaba qozonadi. Moniylik ta'limotiga ko'ra, bu dunyo yovuzlik dunyosi deb qaralgan va patsifizm (urushmaslik) hamda mol-dunyo yig'maslik muhim o'rin tutgan. Moniylik o'z e'tiqod qiluvchilaridan mol-mulklaridan 1/10 hissa xayri-sadaqa berishni, bir kecha kunduzda to'rt mahal ibodat qilishni, yolg'onchilik, qotilik, o'g'irlik, zino, baxillik, sehergarlik va unga ishonishni, butparastlik kabi amallardan uzoq yurish talab qilgan. Moniylik o'z davrida aholining quyi tabaqa vakillari orasida keng tarqalgan. Bunga sabab ular Zulmat olamini zodagonlarning zulmlari qiyofasida tasavvur qilganlar va bundan xalos bo'lish uchun Nurga ibodat qilganlar. Bu bilan Nurning g'alabasiga har kim o'z hissasini qo'shmoqda deb ishonganlar.

Moniylikdan bugungi kunga qadar birgina Xitoyning Futszyan viloyati Syuanchjou tumanida joyl ashgan moniylik ibodatxonasigina saqlanib qolgan. Bu din qanchalik yengillikka va oddiylikka asoslangan bo'lsada, tarixning murakkab sinovlariga bardosh bera olmadi. Natijada u din sifatida unutildi. Undan esa, yirik tadqiqotlar uchun ma'lumotlargina qolgan xolos. Mazdakiylik ta'limotining asoschisi mazdakiylar harakatining rahbari Mazdak xalq ommasining zardo'sht kohinlari va zodagonlariga qarshi kurashni boshqargan. Bu harakat ta'sirini pasaytirish maqsadida Eron shohi Qubod I (488-531) Mazdakni qo'llab quvvatlagan edi. Mazdak Qubod hukmronligi davrida avval otashgohlarning birida kohin, keyinchalik butun Eron bo'yicha bosh kohin bo'lgan. Kohinlar va amaldorlarning iqtisodiy, siyosiy hukmronligi barbod bo'lgandan so'ng Qubod I Mazdak bilan aloqani uzgan. 529-yili mazdakiylar harakati bostirilgan. Mazdak qatl etilgan.

Mazdakizm diniy-falsafiy ta'limoti (V-VI asrlarda) Eronda keng tarqalgan. Mazdak ta'limotiga ko'ra olamda bo'ladigan voqea, hodisalar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezgulik, yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong'ulik (johillik) manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash "yaxshilik"ning "yomonlik" ustidan muqarrar g'alabasi bilan tugallanadi. Mazdakizm ijtimoiy tengsizlikni yo'qotish uchun kurashga da'vat etgan mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida xizmat qilgan. Mazdakiylar harakati bostirilgan bo'lsa ham (VI asr) Mazdak ta'limoti keyingi asrlar davomida Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon-

dagi dehqonlar, shahar kambag'allarining feodal zulmiga qarshi, keyinchalik Markaziy Osiyoga Islom tarqalgach, unga va arablar istilosiga hamda hokimiyatiga qarshi (Muqanna, Bobak qo'zg'olonlari) kurashning g'oyaviy bayrog'i bo'lib xizmat qildi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta'limotlar, ular ilgari surgan g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatiga ega. Sanab o'tilgan qadimgi diniy-falsafiy ta'limotlar, ya'ni zardo'shtiylik, uning bosh kitobi - "Avesto", Moniy ta'limoti, "Moniy yozuvi", mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishiga da'vat etgan. Vatan ozodligi yo'lida jon fido etgan Muqanna boshchiligidagi harakat nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahonning boshqa o'lkalarida ham aksado bergan. Vatanimizning o'sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma'naviyatimiz, falsafimiz jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Sirasini aytganda, mamlakatimiz tarixi islom dini yurtimizga kirib kelgan davrdan boshlanmaydi. U islomga qadar ham ming yillar mobaynida rivojlanib kelgan shonli tarixiga ega. Lekin afsuski, Vatanimizning ana shu davr tarixi nihoyatda kam o'rganilgan. Bu davrga oid manbalarning aksariyati esa yo'q qilib yuborilgan. Bu vayronkorlikning boshida miloddan avval makedoniyalik Aleksandr turgan bo'lsa, mamlakatimizni zabt etgan keyingi bosqinchilar ham ana shu yo'ldan borgan.

Bugungi kunga kelib ham xalqimiz orasida saqlanib qolgan ba'zi urf-odat va marosimlarimiz orasida mazkur dinlarning qoldiqlari nomoyon bo'ladi. Chunki bu dinlarning g'oyalari, ta'limoti xalqimiz hayotiga singib ketgan. Misol uchun to'y marosimlarida kuyov kelinni olovdan aylantirishi, chiroq yoqib uni tavof qilish zardushtiylik dini ya'ni otashparaslikning qoldiqlari sanaladi.

Islom diniy ta'limotining pedagogik g'oyalarga singdirilishi

Islom dinining asrlar davomida bashariyatni ezgulikka, ma'rifatga choriab kelayotgan, yillar davomida hayotbaxsh ma'no-lari kishilar qalbidan o'rin olib, tarixning turli murakkab onlarida ham benazir hamdam, dillarga malham bo'lib, hazrat Alisher Navoiy ta'birlari bilan aytganda, turmushiga ro'zg'or safoligini, dunyo-qarashiga hidoyat ziyosini olib kirayotgan tushunchalarini diniy qadriyatlar deb ataymiz.

Bu qadriyatlar imon, e'tiqod, vijdon, diyonat, ma'naviyat kabi o'lmas va yengilmas tuyg'ular samarasidir. Bu qadriyatlar oliy darajadagi odob-axloq, bilim va ma'rifatning asosidir. Ularda tinchliksevarlik, haqsevarlik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehnatsevarlik hamda bunyodkorlik kabi umuminsoniy deya e'tirof etilgan, jahon tamadduni taraqqiyotiga bemisl ulush qo'shgan an'analar hosilasi mujassam.

Kezi kelganda milliy va diniy qadriyatlarimiz o'zaro chambarchas bog'lanib ketganini, ularni bir-biridan ajratish mushkuliligini ta'kidlash joiz. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyat, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'alarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Zero, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Sir emaski, qadriyat masalasi islomda ibodat darajasiga ko'tarilgan. Ibadatlar mohiyatida esa qadriyatlarni muhofaza qilish yotadi. Masalan, Qur'oni karim va hadisi shariflarda ota-onaga yaxshilik qilish ta'kidlangan. Bu qadriyat savobi ulug' amallardan hisoblanadi. Shoir ta'kidlaganidek,

*"Otang bilan onang qalbi o'tar Ka'ba tavofidin,
Alar ko'nglini shod etsang bu xizmat ham ibodatdir".*

Islomdagi besh asosning mohiyatiga e'tibor qaratilsa, ularning barchasi insoniyat uchun qadriyat hisoblangan ezguliklarga chorlashi ma'lum bo'ladi. Masalan, imonning eng kichik belgisi yo'ldan kishilarga ozor beradigan narsani olib tashlash deyiladi. Islom asoslari insoniyatni fahsh va buzg'unchi ishlardan qaytarishi qayd etilgan. Savob uchun ochlik va tashnalikni iroda qilsa-yu, yomonliklardan tiyilmasa, bunday mashaqqatdan hech qanday manfaat yo'qligi, savob uchun ulug' ziyoratga borsa-yu ammo tilini buzuq so'zlar, o'zini fisqu fujur ishlardan tiymasa, hatto uzoq davom etgan safaridan ham foyda bo'lmasligi ta'kidlangan. Daromadini qirqdan birini ehtiyojmand kishilarga beraman desa-yu, bu daromad nopok yo'llardan kelgan bo'lsa yoxud nopok yo'llarga sarflansa, savob qilaman, deb gunoh va jinoyatga botib ketishi

haqida ogohlantirilgan. Demak, islomda savob va qadriyat tushunchalari o'zaro chambarchas bog'langan.

O'zini imonli deb hisoblovchi har bir inson atrofdagilarga faqat ezgulik ulashib, kishilarga ozor beradigan ishlarning barchasidan o'zini tiyishi lozim. Bu borada avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri, shoirlar sultoni bo'lgan Alisher Navoiy insoniyatga ibratdir. Alisher Navoiyning umrini buyuk ishlarga bag'ishlashiga sabab bo'lgan tuyg'u komil imon edi. Shuning uchun hazrat: "Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko'nglim'ga sol, Aylagil jondin judo, lek etna imondin judo", deya munojot qildilar.

Qadim-qadimdan zaminimizda ulug'langan qadriyatlardan biri bu kattaga hurmat, rahbarga itoat, qonunga rioyatdir. Har bir imonli inson yoshi ulug'larni e'zozlashi, rahbarlarga bo'ysunishi, davlat va jamiyat qonun-qoidalariga amal qilishi o'ta muhim. Ayni paytda islom olamining ba'zi nuqtalarida yuz berayotgan parokandalik va ziddiyat, ixtilof va adovat, halokatning asosiy sabablaridan biri aynan shu kabi tushunchalarning barbod bo'lganidir. "Kattalarimizni hurmat, kichiklarimizga shafqat qilmaganlar bizdan emas", "Baraka kattalaringiz bilan birga", "Bir qavmning mo'tabar kishisi kelsa siz ham uni izzat-ikrom qiling", "Kim sultonni xorlasa, Alloh uni xorlaydi" mazmunidagi hadislar mazkur fikrlarga isbot bo'ladi.

Milliy va diniy qadriyatlarimizdan yana biri halollik hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Bahouddin Naqshbandning "Ibodot o'n qism bo'lsa, shundan to'qqiz qismi halollikni talab qilish, qolgan bir qismi boshqa ibodatlardir", degan o'gitlari halollik har maqomi qanchalar yuksak ekanini ko'rsatib beradi. Halollik har tomonlama poklikni ifodalaydi. Shu o'rinda yana Navoiy o'gitlari yodga keldi. Buyuk mutafakkir barkamollik namunasi bo'lgan Farhodni tavsiflab, "Demangkim, ko'zi poku ham so'zi pok, Dili poku, tili poku ham o'zi pok", deydilar.

Halollikning eng muhim jihatlaridan biri o'g'rilik, poraxo'rlik, firibgarlik, davlat mulkini talon-taroj qilish kabi bu kishilar mulkiga tajovuz va xiyonat qilishdan tiyilish sanaladi. Halollikning muhimligidan, unga olib boruvchi vositalarning barchasi, ayniqsa, mehnat qilish, kasbu hunar bilan shug'ullanish ham islomiy qadriyatlar orasida alohida o'rin tutadi. Kishilar haqiga ko'z olaytirish,

tama'girlik muqaddas dinimizga qoralanadi. Hadisi sharifda "Inson o'z qo'li bilan ishlab topgan luqmasidan shirinroq ne'mat yo'q", ekanligi ta'kidlangan. Shuning uchun, diyorimizdan o'tgan buyuk alloma va mutafakkirlar kasbu hunar bilan shug'ullanganlar. Masalan, Toshkentning Hastimom – Hazrat Imom dahasiga nomi qo'yilgan Abu Bakr Shoshiy qaffollik, ya'ni qulfsozlik qilganlar. Abu Sa'id Xarroz kosiblikni, Abu Hafs Haddod temirchilikni kasb qilgan bo'lsalar, Bahouddin Naqshband matoga gul solganlar. Diyorimiz musulmonlari amal qiladigan hanafiy mazhabi asoschisi – Imoi A'zam No'mon ibn Sobit tijorat bilan shug'ullangan.

Xalqimiz mehmondo'stligi olamga mashhur. Dunyoda o'zidan-da mehmonini izzat qiladigan kam sonli millatlardan biri. O'zbek xonadonlarida hamisha to'satdan kelib qoladigan mehmon uchun zaxira hozirlangan. Agar unday imkon bo'lmasa, qo'shnidan yordam olib bo'lsa-da mehmonga taom hozirlangan. Bu esa mehmondo'stlik milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligining yorqin ifodasidir. Hadisi sharifda qayd etilgan "Kimki Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan bo'lsa, mehmonini ikrom qilsin", degan tamoyilga amal qilish ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan go'zal an'ana hisoblanadi. Shu sabab o'lkamizga tashrif buyurgan sayyohlar qadim-qadimdan bu yerdagi go'zal urf-odatlariga maftun bo'lganlar. O'z ehtiyojidan boshqalar ehtiyojini ustun qo'yuvchilar Qur'oni karimda Hashr surasi 9-oyatida malh qilinganlar. Mazkur oyatda "iysor qiluvchilar" maqtaladi. "Iysor" so'zi arab tilidan tarjima qilinganda ustun qo'yish ma'nosini anglatadi. Ya'ni o'z ehtiyojidan boshqalar ehtiyojini yuqori qo'yib, nafsini baxillikdan saqlagan kimsalar najotga erishishi bayon qilingan. Bu esa go'zal islomiy qadriyatlardan biri sanaladi. Bu o'tgan payg'ambarlar, aziz avliyolar, ulug' mutafakkirlar, buyuk allomalarga xos bo'lgan yuksak fazilat. O'zbekistonda hali hanuz mazkur fazilat ko'zga tashlanadi. Yemay yedirish, kiymay kiydirish kabi xislatlari bilan mehmonni, musofirni, keksani, qo'shnini, qarindoshni, bolani, yetim-yesirni, beva-bechorani e'zozlagan yurtimiz zamini qadim-qadimdan fayz-u barakaga boy o'lka sifatida dovuq qozondi. Mazkur qadriyatlar Yangi O'zbekistonni barpo qilishda hayotimiz ko'rkiga aylanib, uchinchi Renessans poydevori uchun tamal toshi bo'lib xizmat qilmoqda. Ustozlar, ota-onalar, ziyolilar o'zaro

chambarchars bog'lanib ketgan milliy va diniy qadriyatlarimiz mohiyatini xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga yetkazishlari bugunning dolzarb vazifasidir.

Islom dini g'oyalari va qadriyatlari, unga e'tiqod qiluvchi xalqlar milliy ongning rivojlanishida bir turtki bo'lib asta-sekin ma'naviy ruhiy jihatdan jiplasha borib, yagona maslakdoshlar jamiyati vujudga kela boshladi. Zero, bu qadriyatlar va ruhiy bilimlar mohiyatini ezgulik va poklikka da'vat etuvchi g'oyalar tashkil etgan. Zardushtiylik dinining ezgulik yovuzlik ustidan pirovardida tantana qilish to'g'risidagi g'oya bilan tarbiyalanib kelgan xalqlar uchun islomdagi insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bir-birini to'ldirgandi. Diniy qadriyatlar, marosim va an'analarning shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Ibtidoiy din shakllaridan boshlangan bu jarayon milliy va jahon dinlari shakllanib, keng yoyila boshlagan paytlarda ancha rivojlangan. Hozirgi diniy qadriyatlarning mavjudligi diniy ta'limotlarga asoslansa-da uning rivojlanishi jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy taraqqiyot bilan mustahkamlangan. Ular xalqimizning turmush tarzi va jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari, shu jumladan, islomiy qadriyatlari, noyob va betakror namunalari tadqiq etish, ularni bugungi kun talablari bilan bog'liq holda boyitib targ'ib etishning yangi bunyod etilayotgan fuqarolik jamiyati uchun ahamiyati kattadir. Istiqloq yillarida buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish, yubileylarini nishonlash mamlakatimizda odat tusiga kirib, millatimizning har tomonlama uyg'onib, kamol topishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Xususan, islom falsafasi asarlarini, diniy ulamo va allomalarning merosini nashr qilish, o'rganish, targ'ib etish xalqimizni islomiy qadriyatlar-dan baxramand qilishga katta yo'l ochdi.

Sharq xalqlari, jumladan, o'zbeklar bolalar tarbiyasiga befarq qaramaganlar. Hayotdagi har qanday xatti-harakatning ham oqibati to'g'ri baholangan. Yoshga monand ta'sir ko'rsatish yo'l va vositalari yaratilgan. Kerak bo'lganda rag'batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo'lsa jazolangan. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" deb bejiz aytilmagan. Tarbiya borasida xatolikka yo'l qo'yan bola u kimligidan qat'i nazar jazolangan. Noaxloqiy xatti-harakat-

larni qisqa va lekin o'ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan "yomon bo'ladi" iborasi bilan tavsiflangan.

Masalan, xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq qoidalariga ko'ra nonga hurmat ulug'langan va non ushug'i bexosdan erga tushib ketsa, "yomon bo'ladi" deb, uni qo'lga olib ko'zga surtib o'pib, og'izga solingan yoki chetga olib qo'yilgan.

Suvga tuflash – "gunoh" bo'ladi, "yomon bo'ladi" deb tushuntirishgan. qadimda hovuzlarning suvi haftalab, oylab toza turgan. Biroq, kishi uni "harom" qilishga botinolmagan. Bolalarga bu "yomon bo'ladi" iborasi orqali etkazilgan. Qozonga mushuk yoki it, sutga sichqon tegsa o'sha idishlar "harom" hisoblanib, toza suvda yaxshilab yuvilgan. Kechqurun qozon yuvuqsiz qolsa "harom" bo'lgay... Kechasi uy supurilmagan, supurgi yotqizib qo'yilgan... Ikki qo'lini orqaga tirab chalqancha yotish, barmoqlarni zanjir qilish, oyoqlarni chalishtirib, ko'pchilik oldida uzatib o'tirish odob-sizlik hisoblangan.

"Yomon bo'ladi" iborasi orqali kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik tarbiyalangan, etim bolalarga, boshiga musibat tushgan oilalarga ozor yetkazilmagan. Otaga tik qarash, ularga ters javob berish, qizlarga, umuman xotinqizlarga bexayolik qilish "yomon bo'lish"ni yoshlikdan tushuntirilgan. Bunda bolaning yoshi, xatti-harakatlari, o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Ayrimlariga noaxloqiy xatti-harakatlarning yomonligi Qur'oni karim, hadislaridan misollar keltirish, hikoyalar aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagi bolalar ota-ona, aka-uka, opa-singil, qo'ni-qo'shnilarning ijobiy xatti-harakatlari namunasida tarbiyalangan.

Bunday axloqiy fazilatlar bola aqlini tanimasdan, gapirishni bilmasdan oldin ota-onalar turmush tarzida ifodalangan. Keyinchalik esa, "yomon bo'ladi" iborasi orqali davom ettirilgan. Masalan, musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa, "yomon bo'ladi", erta saharda eshik ochilmasa, "yomon bo'ladi", "kunlik rizqimizdan benasib qolamiz" iboralari bolalarni erta turishga undagan. Kechki payt quyosh botish arafasida uxlasa, "yomon bo'ladi" deb uqtirilgan. Hayvonlarga, qushlarga tosh otma, ozor berma, "yomon bo'ladi", mevalarni tishlab tashlama, "yomon bo'ladi", qush uyasini buzma, ekinlarni payhon qilma, "yomon bo'ladi", kabi iboralari

orqali ona tabiatga hurmat, uni avaylab-asrashga o'rgatilgan, hozirgi so'zimiz bilan aytilganda ekologik tarbiya asoslari berilgan.

Saranjom-sarishtalik – uying bezagi, tejamkorlik – farovonlik kaliti, to'g'rilik, halollik-ko'ngil xotirjamligi ekanligini mehnatkash xalqimiz unutmagan va oilada bolalarni ana shunday fazilatlar asosida tarbiyalashga doimo vaqt topisha olgan. "Toma-toma ko'l bo'lur, tommay qolsa, cho'l bo'lur" – xalq, maqolining qimmati ham ana shunda.

O'zbek xalqida bolalar bilan bog'liq juda ko'p yaxshi an'analar bor. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat, ularni sevish, erkalash, parvarish qilish, ta'lim-tarbiya berish, ehtiyotlash kabi insoniy qarashlarni targ'ib qilib kelgan. Oilada yangi insonniig dunyoga kelishini barcha xalqlar qadimdan kishi hayotidagi eng quvonchli hodisa sifatida nishonlab kelganlar. Xalqimiz ana shu quvonchni ifoda etuvchi turli urf-odatlarini ijod etgan.

O'zbeklarning qadimiy urf-odatlariga ko'ra yangi chaqaloqning dunyoga kelishi faqat uning ota-onasi uchungina emas, balki hamma qarindoshurug'lari va mahalla-ko'y uchun ham sevinchli hodisa hisoblangan.

Biz xalq og'zaki ijodi asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, xalqning nom qo'yish odatiga keng o'rin berilganini ko'ramiz. Sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqida shunday odat bor: bolalarga oiladagi kattalar, elu yurt o'rtasida mo'tabar bo'lgan kishilar, e'tiborli qariyalar nom qo'yadilar. Bu qadimdan qolgan rasmdir. Masalan, "Erali va Sherali" dostonida aytilishicha, o'sha zamonning rasmiga ko'ra bolaning birini podsho o'z qo'lga olib, birini xotiniga ko'tartirib, ipak alvon chodirlarning ichidan xaloyiqqa qarab, bolalarga munosib ot qo'yishni so'radi:

Birisini berdim haylo gulima,

Birisini o'zim oldim qo'lima.

Bir maslahat sizlarday el-kunima,

Birodardlar, otqo'yinglar o'g'lima.

"Bola – aziz, odobi undan aziz". Bu maqolda o'zbek xalqining tarbiyaga oid qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu e'tiqod yillar davomida ular ongiga singib ketgan. Ota-onalar farzand ko'rish, ularni sog'lom o'stirish bilan birga, ularning odobli bo'lishlarini ham orzu qilishgan. Bola tilga kirishi bilanoq axloqiy tarbiyaning

alifbosi bo'lgan salomlashishni o'rgatishgan. Bolalar uyga kirishda, o'zidan kattalar bilan uchrashganda, yo'lda ketayotganda o'ng qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda "Assalomu alaykum" deb so'rashadilar. Bu ham xalq tarbiyashunosligining azaliy o'lmas sabog'i bo'lib, o'zbek xonadonida mustahkam o'rin olgan.

Hadislarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati

Dunyo madaniyatining beshigi Sharqda ijtimoiy tuzumning qaysi bosqichdalgidan qat'iy nazar shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosi hamisha etakchi o'rinda bo'lib kelgan. Islom o'z oldiga ko'ygan maqsadlaridan biri ham, vujudga kelgan kundan boshlab sof fikrli, komil, yaratuvchi, beozor insonni tarbiyalash edi. Hadislar xalqni tarbiyalashga, axloq-odobga, diniy e'tiqodga chaqirish bilan bir qatorda xalqning hayotini, uning o'tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush darajasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. U xalqning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarini, ijtimoiy-maishiy turmush tarzini, orzu va intilishlarini o'zida ifoda etadi. Hadislarda ifodalangan xulq-atvor normalari yoki inkor etiladi, yoki keskin ma'qullanadi. Shuning uchun u o'quvchiga g'oyaviy yo'nalish beradi, ideallarning rivojlanishiga ta'sir etadi, insonparvarlik, halollik, iymon, e'tiqod, tinchlik, do'stlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik hissiyotining shakllanishiga olib keladi. Hadislar tarixiy xarakterga ega bo'lib, yaratilgan davr xarakteriga mos holda ifodalangan.

Hadislar yaratilgan davr tuzumi manfaatlarini aks ettiradi, shu davr kishilarining talab va ehtiylarini nazarda tutadi. Hadislar feodalizm davrida yaratilgan bo'lib, shu tuzum tartiblari, qonun-qoidalari, O'rta Osiyo va Eron xalqlarining boy milliy an'analarini, turmush tarzini ifodalagan.

Hadislarda xalq tajribasida sinalgan ezgu ideallar kuchaytiriladi, nasihat va talab shakladi xalqqa etkaziladi. xalq idealiga zid xislatlar esa salbiy jihatdan bo'rttiriladi, emon oqibatlaridan ogoh etadi. Bunday hollarda mubolag'a usuli orqali hadislarining tarbiyaviy ta'siri kuchaytiriladi. Xalq idealiga mos kelmaydigan noinsoniy hislatlar: ochko'zlik, ug'rilik, adolatsizlik, zino, tekin-xo'rlik, yalqovlik, xiyonatkorlik, ota-onaga hurmatsizlik va boshqalar qoralanadi. Bu qoralash oddiy bayondan iborat bo'lmasdan, balki xalqning izchil g'oyaviy estetik talabi va bahosi sifatida

ifodalanadi. Xalqning ma'naviy fazilati sifatida qaror topmagan illatlar ijtimoiy hayot taraqqiyoti va milliy qadriyatlarining takomiliga salbiy ta'sir etadi.

Hadislardagi badiiy ifoda hamda tasviriy vositalar rang-barang bo'lib, ular har bir hadisning asl mazmunini reallashtirishga imkon beradi. Shu sababli hadislar kishilarni ezgulikka, olijanoblikka, mehr-oqibatli, iymonli, e'tiqodli bo'lishga undaydi. hadislar zaminida kishilarning e'tiqodi va tasavvurlari, odamni bila borish va idrok etish darajasi etadi.

Hadislar mavzu jihatdan g'oyatda boy va rang-barangdir. Xalqning ijtimoiy maishiy turmushi, jamiyatning tabiati, jug'rofiyasi, ekologiyasi, nabotot va insonning diniy, ma'naviy-ruhiy olami, faoliyati qamrab olingan. Unda tarixiy voqealar, ijtimoiy-siesiy masalalar, sinfiy munosabatlar ham o'z ifodasini topgan.

Hadislar (600000 hadis aytilgan) insonning o'limidan keyingi hayoti, yaqin va olis kelajak haqidagi bashoratlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, tabobat va gigiena tug'risidagi bilimlar mujassam etilgan.

Hadislar tuzilishi jihatdan nasriy shaklda bo'lib, kishi xotirasida uzoq saqlanishini ta'minlaydi. Muhammad alayhissalom hadislarida musulmon xalqlarining eng muhim milliy qadriyatlari hisoblangan iymonli bo'lishga da'vat asosiy o'rinda turadi. Islom dini hukmronlik qilib kelgan davrlarda barcha eshdagi kishilarni tarbiyalash quroli bo'lib kelgan hadislarining paydo bo'lishi va uni ma'naviyat xazinasiga aylanib qolishiga kimlar mas'ul bo'lganlar.

Hadis islom olamida payg'ambar Muhammad alayhissalomning hislatlari, xatti-harakatlari, diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqida ma'lumot beruvchi didaktik xarakterdagi ta'limot hisoblanadi.

Hadislarni Muhammad alayhissalomning vafotlaridan bir necha o'n yillardan so'ng yig'ishga va ezishga kirishilgan, hadislarining haqqoniyligi har tomonlama tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, hadislarini aytgan kishilarning xulq-atvorlari, axloqi, shaxsi, hatto avlod ajdodlari har tomonlama o'rganilgan. Chunki Muhammad alayhissalom aytmagan fikrlar ham yanglish ravishda xalq o'rtasida tarqalmasligi lozim, deb hisoblanadi. Olmoniyalik islomshunos idoyatulloh Xobshning fikricha Hadisning haqiqiyligini bildiradigan quyidagilar:

Birinchi dan, hadis Qur'on oyatlarining birontasiga zid kelishi mumkin emas.

Ikkinchi dan, har bir hadis payg'ambarimiz sunnatiga mos kelishi kerak.

Uchinchi dan, hadislar da aytilgan gaplar g'ayriaxloqiy yoki Islom dinining aniq-ravshan ta'limotiga zid bo'lmasligi kerak.

Muhammad alayhissalomning fikricha, inson millati, irqi, davlatiga qaramasdan o'z tabiatiga ko'ra sahovatli bo'lishi, bir birlariga nisbatan mehribonlik ko'rsatishlari zarur. Mana shu fazilat uni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi. Bunday sahovatli dunyo to'rt toifadagi insonlar guruhidan iboratdir:

1. Tangri tomonidan ham boylik, ham ilm ato etilgan bo'lib, bulardan faqat o'zi bahramand bo'lmasdan, balki qarindosh-urug'lar, do'stlar, qo'shnilar va boshqalarni ham bahramand etadilar. Bu toifadagi odamlar har tomonlama ulug' kishilardir.

2. Ikkinchi toifadagi odamlar borki, ilmi, aql-zakovat egalari, lekin boylik ato etilmagan. Bu toifadagilar boy kishilarga g'araz nazari bilan qaramaydilar, o'zlarida ham shunday boylik bo'lsa, ezgu natijalarga sarflashni orzu qiladilar.

3. Uchinchi toifadagi kishilar esa mol-dunyo ega bo'lib, ilmsizdir. Hech kimga muruvvat qilmaydi. Bu toifadagi kishilar eng yomon kishilar hisoblanadilar.

4. To'rtinchi toifadagi kishilarda na mol-dunyo, na ilm bor. Ular ilmi, mol dunyoli bo'lish, ularni ezgu ishlarga sarflash orzusi bilan yashaydilar (247 hadis). Jamiyatning taraqqiyoti birinchi va ikkinchi toifadagi kishilarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Hadislar orqali ijtimoiy masalalar ham o'z ifodasini topadi. Quldorlik, feodalizm jamiyatida qullarning, g'ulomlarning haq-huquqlari nihoyatda chegaralangan bo'lib, ularning moddiy va maishiy ahvollari hech qanday qonun va qoidalar bilan himoya etilmagan. Ularni inson sifatida hurmat qilish, jabr-zulm ko'rsatmaslik, moddiy va maishiy turmush darajasini yaxshilashga e'tibor diniy va badiiy manbalar orqaligina quldorlarga, feodallarga yetkazilgan. Ijtimoiy turmush tartib qoidalarga rioya qilmaslik, jamiyatning ba'zi bir a'zolari tomonidan bunday qonun qoidalarni o'zgartirishga urinish yomon natijaga olib kelishi tabiiy. Qur'oni Karim, Hadisi sharif, xalq og'zaki ijodi, boy mumtoz adabiyotimiz

manbalarida oddiy, eziluvchi xalq ommasini boy, hukmdor doira vakillari bilan o'zaro adolatli kelishtirish asosida jamiyatni o'zgartirish, kishilarni bir-birlariga nisbatan mehr oqibatli, insonparvar bo'lib yashashlariga erishish mumkin, degan g'oya olg'a suriladi. Jamiyat a'zolarining turmush tarzlari turlicha bo'lishi Olloh taoloning hukmiga bog'liq. Shuning uchun uning hukmini o'zgartirishga hech kimning kuchi etmaydi. Faqat sabr, qanoatgina yomon kun ketidan yaxshi kunlarni, azob-uqubat ketidan farovonlikni ishonmaydigan, sabrsizlik qilgan, qo'l ostidagilarga, qo'ni-qo'shnilarga, oila a'zolariga yomonlik qilgan kishi do'zaxiy hisoblanadi. Hadislar mazmuniga singdirilgan bu g'oya kishilarni ijtimoiy turmushga ko'nikishga, ishonch bilan yashashga undab keldi. Hadislar da kishilarning barchasini teng, tinch-totuvlik bilan yashashlarini ta'minlash uchun bu toifadagi birovga qaram, faqir kishilarni qaramlikdan ozod etish, jamiyatni adolat asosida boshqarish lozim degan g'oya olg'a suriladi. Gunoh sifatida taqiqlangan axloqiy kategoriyalar hadislar mazmunida ifodalangan bo'lib, ularning ko'pchiligi diniy g'oyalar va urf-odatlar bilan bog'liq, lekin ularning bir qismi inson axloqiy hayotiga aloqador.

Insonning hayotdagi o'rni uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi hamda kelajak avlodga qoldirgan moddiy va ma'naviy merosi bilan belgilanadi. Islom dini manbalarida oxirat yaqinlashib, qiyomat bo'lishi ma'lum bo'lgan taqdirda ham iloji boricha bo'lajak jamiyatning taqdiri, turmush tarzini o'ylash, qo'ldan keladigan ishni bajarib qolish targ'ib etiladi. "Birortangiz ekish uchun qo'lingizda bir ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bo'lib qolsa-yu, qoyim bo'lishidan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz etsa, albatta ekib quying" (479-hadis). "Sen bir ko'chatni ekayotganingda dajjol chiqib qolibdi, deb eshitsang ham, uni tuzatib ekishga harakat qil, chunki undan keyin ham odamlar yashaydi" (480 hadis)

Bu hadislar ning mazmunidan shunday xulosa kelib chiqadi: "Hayotda qonli urushlar bo'lib o'taveradi, tarix ham soyqalaveradi, odamlar ham aynaydi, bo'ziladi va oqibatda kishi o'z qo'shnisini, aka ukasini, opa singilisini o'g'il otasini, hatto farzandini ham qatl etadi, ammo toki dunyoda e'tiqodlar, insoflilar, olijanoblar,

vijdonlilar, andishalilar bor ekan, hayot barqarordir, shuning uchun ham sen umidsizlikka tushma, agar imon va e'tiqodning salomat albatta, yaxshilik va ezgulik otiga xizmat qilaver". Musulmon olamida iymon va e'tiqod musulmonning haqiqiy musulmonligini bildiruvchi yuksak ruhiy holatdir. Murod-iymon demakdir. Iymon so'zda ham, ishda ham bir hilda bo'lishi talab etiladi. Diniy nuqtai nazardan "iymonning ham o'z farz ham amallari, muayyan chegaralari, bajarilishi lozim bo'lgan sunnatlari mavjud bo'lib", ularga qat'iy rioya etgan insonning iymoni but, rioya qilmaganlarning esa iymoni yo'q hisoblanadi.

Islom dinida ruhiy poklik bilan bir qatorda jismoniy poklik ham targ'ib qilinadi. Jismoniy poklikka erishishi besh vaqt namoz o'qishdan oldin tahorat qilish orqali amalga oshiriladi. Uning o'ziga xos qonun-qoidalariga rioya etish islom ta'limoti orqali targ'ib etiladi. Tahorat-islomga e'tiqodning natijasi, uning oqibati esa jismoniy sog'limlik, ruhiy tetiklik, hayotga, yashashga mehr muhabbat, quvonch va sog'lom turmush tarzidir. Tozalik, ozodalik tibbiy nuqtai nazardan ham, diniy nuqtai nazardan ham shaxsning yaxlit shakllanishini ta'minlovchi xususiyat hisoblanadi. Namoz o'qish oldidan tahorat olish, ko'chaga chiqish, mehmonga borish, uxlash oldidan, ertalab uyqudan turgach yuvinish Sharq xalqlarining qadimiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Bunday qadriyatlar asrlar davomida axloq-odob qoidalari doirasida jamiyat a'zolarining xulq-atvoriga singdirib kelinadi. Tana a'zolarini pokiza saqlash, masx tortish, g'usl qilish, erkaklar uchun, ayollar uchun lozim bo'lgan pokizalik xususiyatlari odob, milliy ma'naviy xususiyatlar doirasida beriladi.

Hadislardagi gigiyenik qoidalar Muhammad alayhissalomning "Subhonolloh, mo'min kishi hech vaqt nopok bo'lmag'aydir" degan g'oyasiga asoslangan holda talqin etiladi.

Ma'naviy madaniyatlilikning oliy mezoni shaxsning ilmli, dunyoqarashi shakllangan, fikr doirasi keng, obyektiv borliq, uning taraqqiyot qonunlari haqida chuqur bilimga ega bo'lishidan iboratdir.

Xalq pedagogikasida tasavvuf ta'limotining o'rni
Musulmon xalqlari hayotida muhim o'rin egallagan tasavvuf ta'limoti, uning ijtimoiy mohiyati va g'oyasi to'g'risida bildirilgan fikrlar, tasavvufga berilgan ta'riflar deyarli bir-biridan farq

qilmaydi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, mintaqamizda tasavvuf maslagi tariqatlar tarzida xalq orasiga keng miqyosda kirib borgan. Musulmon olamida o'ziga xos mavqeiga erishgani sayin tasavvufning badiiy ijodan o'rin egallashi ham kuchayib borgan.

Shu bois professor Najmiddin Komilov ta'kidlaganidek, "XI asrdan boshlab sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va xalqsevarlik g'oyalardan ruhlangan". Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz: "Agar tasavvuf nimadir, deb so'rasalar, aytginki, bu savolga berilgan javoblar bir qancha. Birinchidan, tasavvufni taxlil, ya'ni xoli bo'lmoq, qalbni bo'shatmoq va yaxshi, maxtalgan axloqdir, deyдилar. Ikkinchidan, tasavvufni tasfiya, ya'ni ruhni ag'yor – begonadan tozalashdir, deb aytadilar. Uchinchidan, tasavvuf xuzu', ya'ni nafsni jilovlash, xoksorlik va jonsiporlik namunasini ko'rsatishdir deyдилar. To'rtinchidan, tasavvuf da'voni tark etish va ma'nolarni xalqdan yashirishdir deguvchilar bor. Ya'ni kishi to da'vodan voz kechmasa, ma'noga yetmas va to o'z ma'nolarini yashirin tutmasa, tasavvuf bahra topmaydi. Beshinchidan, tasavvufni (yana) ibodat husniga ishorat, deb ta'riflaydilar. Oltinchidan, tasavvuf nafsni xor tutish va amrni aziz tutishdir deyдилar. Yettinchidan, tasavvuf barcha adabdir va kimki faqr (darveshlik) odobidan biriga o'zini vobasta etmasa, tasavvufdan faqat nomgina biladi, xolos deyдилar (Ushbu ta'riflarning barchasi tasavvuf uchun xosdir)".⁹

"Islom tasavvufi – payg'ambarimiz (s.a.v.)ning yashagan hayot tarzi va shariatning hayotga tatbiq etilishi, ezgulik sog'inchi, diniy vazifalarning samimiyat bilan ado etilishi, iymon asoslarining qalbg'a singdirilishi – islomning asli, ruhi va o'zagidir; ibodatda ehson maqomi, so'z emas, amaldagi hol, g'aflat, johiliyat va xurofot emas, ilmu ma'rifat va hushyorlikdir. Chunki buyuk din olimlari-mizning aksari ayni vaqtda ham avliyo, ham tasavvuf rahnamolari edilar. Tasavvuf esa tafsir, hadis, kalom, aqid va fiqh ilmlari kabi shar'iy bir ilmdir. Qur'on va hadisdan olingan zohiriy fiqhga muqobil botiniy fiqh ilmi, qalb ahvoli ilmi, nafsni poklash ilmidir. Tasavvuf nafsni tarbiyalashdir: sog'lom iroda, go'zal xulq, bo'lsa,

⁹ Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent, 2005. – 27 b.

solix amaldir. Tasavvuf yalqovlik, loqaydlik, miskinlik emas, chunki Islom olamida o'tgan eng buyuk yo'l boshchilar, faol, g'ayratli kurashchilar, mujohidlar mutasavviflardan chiqqan".

"Tasavvufning g'oyasi ham axloqning kamol martabasiga erishmoq uchun har sohada Rasululloh (s.a.v.) ko'rsatgan yo'ldan yurib, botiniy va zohiriy yetuklik jihatidan uning haqiqiy vorisi bo'lmoq yo'lini ko'rsatishdir. Tasavvufning g'oyasi – janobi Haqning roziligiga erishmoq uchun nafsni poklab, go'zal axloq egasi bo'lishga intilmoq, ya'ni Alloh va Rasulining xulqi bilan axloqlanishdir".

"Tasavvuf – insonning kamolga, Haqqa yetishishi yo'llari, usullari majmuasidir. Uning poklanish maktabi ham deyish mumkin". Tasavvuf qoidalari rioya qilgan, tasavvufiy asoslarga ko'ra hayotini ma'lum nizomga solgan kimsalarga tasavvuf axli deyiladi"¹⁰.

Manbalarda ta'kidlanishicha, insonning ma'naviy komillikka yetishishi, Alloh roziligiga erishishi uchun ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tishi lozim bo'ladi. Quyida bu bosqichlarga berilgan ayrim ta'riflar bilan tanishamiz:

"Shariat ochiq, hayot manbaiga eltuvchi to'g'ri yo'l, qonun, zohiriy hukmlar majmuasi kabi manolarni ifodalaydi. Istilohiy jihatdan: Olohning amri, oyat, hadis, ijmoi ummat va qiyosi fiqaho asoslariga tayangan din qoidalari degan manoni anglatadi. Bu so'z Qur'oni karimda "Shir'atun" tarzida qo'llangan. "Moida" surasida esa "Sizlardan har bir millat (ya'ni din) uchun (alohida) shariat va yo'l qilib qo'ydik" (48-oyat)", deyilgan.

Shariat – din yo'li, Olohning daxlsiz qonunlariga amal qilmoqdir: "Olohning yo'li qonun bo'lib, ilgari ham o'tgandir. Olohning yo'lini hargiz o'zgartira olmassiz" ("Fath" surasi, 23-oyat).

Tasavvuf ahli Olohga eltuvchi yo'lni to'rt bosqichga ajratib, birinчисini – shariat; ikkichisini – tariqat; uchinchisini – ma'rifat; to'rtinchisini – haqiqat deb atagan. Hoji Bektoshi Valining yozishicha, "Shariat yo'lida mukammal bo'lmagan kishiga tariqat, ma'rifat va haqiqat martabalari ham nasib etmas..." Bejiz emaski, hazrat payg'ambarimiz ham "Shariat – bir daraxtdur; tariqat – mevalari. Daraxt bo'lmasa, novda ham, yaproq ham, meva ham bo'lmaydi,

¹⁰ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Nodirxon Xasan tarjimasi. – Toshkent, 1999. – 22 b.

deya ta'lim berganlar. Shuning uchun so'fiylar shariatni tamal, ya'ni poydevor, tariqat, ma'rifat va haqiqatni shu poydevor ustida yuksalgan uch qavatli bir imorat shaklida tasavvur qilganlar va "Imoratsiz poydevor bo'lur, ammo poydevorsiz imorat bo'lmas" degan tushunchada sobit turganlar".

Mashhur tasavvufshunos olim Hoja Bektoshi Valining ko'rsatishicha shariatning birinchi maqomi – iymon keltirmoq, ikkinchi maqom – bilim egallash, uchinchi maqom – nomoz o'qimoq, zakot bermoq, ro'za tutmoq, imkoni bo'lsa, hajga bormoq, jihad bo'lsa, dushmanga qarshi chiqmoq va janobatdan poklanmoq, to'rtinchi maqom – halolga erishmoq va sudxo'rlikni harom bilmoq, beshinchi maqom – nikoh, oltinchi maqom – hayz va ko'zi yoriganda jinsiy aloqani harom bilmoq, sakkizinchi maqom – shafqat, to'qqizinchi maqom – pok yemak va toza kiyinmoq, o'ninchi maqom – amri bi'l ma'ruf va nayhi ani'l munkar, ya'ni yaxshilikni amr aylab, yaramas ishlardan tiylimoqdir.

Ko'rinadiki, insonning oila va jamiyat orasida tutgan o'rni, islom shiariati qonun-qoidalari amal qilishi, xatti-harakati uni jismoniy va axloqiy poklikka yetaklovchi maqomlar orqali qat'iy tartibda belgilab berilgan.

Mavjud adabiyotlarda ta'kidlaganidek, insonning ma'naviy komillikni egallashidagi navbatdagi bosqich tariqat hisoblanadi. Tariqat so'zi ham lug'aviy jihatdan shariat so'zi kabi yo'l ma'nosini anglatadi. Shariat islom dinidagi hamma kishilar uchun birday amal qilinishi lozim bo'lgan tartib-qoidalarni o'zida jamlangan bo'lsa, tariqat bevosita inson ruhoniyyati bilan bog'liq bo'lib, uning ham o'ziga xos talab va qoidalari mavjud bo'lib, ular shariat tartib-qoidalariidan farqlanib turadi. Olimlarning aniqlashicha, tasavvufda 160 dan ziyod tariqat tarmoqlari bo'lgan. An'anaga ko'ra, tariqat uch asosiy tarkibga ajratilgan.

Tariqi axyor-xayrli insonlar yo'li. Tariqi arbobi muomalat deb ham ta'riflangan ushbu yo'lning asosini zuqd, taqvo va ibodat tashkil qilgan. Shu bois unga zohidlar va obidlar yo'li sifatida ham qaralgan. Bu yo'l – Haqqa yetishining uzundan-uzoq yo'li. Uni tanlanganlar orasida maqsadga erishganlar nihoyatda kam bo'lgan.

Tariqi abror-yaxshi insonlar yo'li bo'lib, tariqi tasfiya va mujohada deb ham yuritilgan. Bu yo'l – nafs ila kurashish, riyozat

ila qalbni yomonlik va chirkinliklardan poklash, axloqiy komillikka yetishish yo'li hisoblanadi. Xoh haq bilan bo'lsin, xoh xalq bilan bo'lsin munosabat va aloqada ixlos hamda to'g'rilikdan cheklanmaslik – ushbu yo'lning bosh talabidir”.

Tariqi shuttor – oshiqlar yo'li. Uning ikkinchi bir nomi – tariqi soirin. Bu – ishq, muhabbat va jazba bilan maqsadga erishiladigan yo'l. Unga yuz burgan yoki kirgan kishi ishq va jazba maqoliga yuksalguniga qadar juda ko'p maqomlardan o'tmog'i shart bo'lgan. Chunki ushbu yo'lda sayri suluk – asosdir.

Xullas, tariqat – insonlarning maxsus ta'lim-tarbiya bilan go'zal axloq, pokiza qalb va latif ruh sohibi etadigan, oxir-oqibatda esa Ollohga yaqinlikni ta'minlaydigan o'ziga xos maslak va mafkura yo'lidir”.

Tariqatda maqom va hol tushunchalari eng asosiy tushunchalar hisoblanadi. Tasavvufshunos olim N.Komilovning ko'rsatishicha Abu Nasr Sarroj tariqatda tavba, vara, zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo kabi maqomlar mavjudligini qayd etgan.

Tasavvufda tavba deyilganda insonning o'z hayot tarzi, dunyoqarashini tubdan o'zgartirishi, jismoniy va ma'naviy gunohga yetaklovchi harakatlardan yuz o'girish, Olloh va sifatleri bilan sifatlanish, payg'ambar xulqi bilan axloqlanishi tushuniladi. Vara maqomida esa inson vujudi a'zolarini (qo'l, oyoq, ko'z, til, quloq) va qalbni gunohdan saqlash, zuhdida esa iste'mol qilinadigan narsalarga halol va xarom tushunchalari nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishi ko'zda tutiladi. Shuning uchun zuhd vara'ning davomi hisoblanadi.

Lug'aviy jihatdan qashshoqlik, benavolik ma'nolarini bildiruvchi faqr maqomida esa, so'fiy bandadan umidvor bo'lmay, o'zini tuproq qatori deb his qiladi. Uning har bir qiyinchilik, mashaqqatlarga bardam berishi, asosiy dushmani bo'lgan nafsni jilovlashi sabr maqomida yanada mustahkamlanadi. U bu maqomidan o'tgach, shayton vasvasalaridan, nafsning makr va xiylalariga aldanib qolishdan qo'rqib yuradi. Bu maqom xavf deb yuritiladi. Dildagi qo'rquvni yengib, Alloh marhamatidan umidvor bo'lish, so'fiyning Allohga bo'lgan sog'inchi rajo maqomining asosini tashkil etadi. So'fiy qalbining nurlanish va tozalanishi, har bir ishni Allohdan deb

bilib, roziligiga Kirishi tariqatning oxiri maqomi bo'lgan rizo maqomida aks etadi¹¹.

Yuqorida qayd etib o'tilgan maqomlarni har bir kishi tinimsiz harakat, o'z bilimini muntazam ravishda oshirish uchun tirishish va buning uchun pir tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalarga qat'iy amal qilish orqali egallashi mumkin. Lekin tariqatning asosini tashkil qiluvchi xolga erishish, uning qurb, muhabbat shavq, uns, mushohida, mukoshifa kabi maqolarini o'qib-o'rganib yoki sa'y-harakat qilish bilan qo'lga kiritib bo'lmaydi. U so'fiyga Alloh tomonidan beriladigan ilohiy tuhfa, nasiba hisoblanadi. Professor N.Komilov bu maqomlarga shunday ta'rif beradi:¹²

“Qurb (yaqinlik) – solikning o'zini tangri taologa yaqinlashganini xis etish holati, Hudoning xuzurini bevosita sezish, Hudonigohini tushishini ham anglatadi...”

Muhabbat maqomi qalabda kuchli tug'yoning ko'rsatilishi, betoqat va bezovta bo'lib, barcha go'zalliklar manbai, qudratu nusrat, ne'matu rohat egasi Tangri tomon talpinishidir. Shavq-muhabbatning zo'rayishi, Uns – (do'stlashuv) esa ko'nikish, Xudo mehriга, shafqatga odatlanishini anglatadi.

Mujohida – nafsni mahv etishga qat'iy intilish, tanga mashaqqatni ravo ko'rib, ma'naviyat uchun jihod, ya'ni tangga kirish va g'alaba qilish, demak, Mana shunday jiddu jahd, shiddatli ruhiy iztiroblarda keyin solik Haq jamolini mushohida eta boshlaydi, mushohida (ko'rish) esa o'z navbatida g'ayb pardalarning ochilib, ilohiy sirlarining kashf etilishiga yo'l ochadi – mukoshifa martabasi hosil bo'ladi”.

Komillikka yetishishning keyingi bosqichi marifat hisoblanadi. Ma'rifat “aqli donish, amaliy bilim, tanish, fahm, tasavvufga xos ilm; hol sirlari va ilohiy haqiqatlarga tegishli ilm-irfon. “Kashf ul mahjub” muallifining aytishicha, fuqoho singari boshqa kishilar ham, Olloh haqidagi ilmga “Ma'rifat” nomini berganlar. Tariqat shayxlari esa Olloh xususidagi sihatli holni “Ma'rifat” deya ataganlar”.

¹¹ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Nodirxon Xasan tarjimai. – Toshkent, 1999. – 22 b.
¹² N.Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. – Toshkent, 1996. – 46 b.

Tasavvuf yo'liga kirgan, shariat va tariqat maqomlarini bosib o'tgan solik, ya'ni so'fiy dastlab o'zini (o'z nafsini) taniydi va shu orqali Ollohning zoti va sifatlarini tobora aniq bila boradi, hol sirlari ilohiy haqiqatlar va mohiyati bunga ayon bo'ladi. Hoji Bektoshi Valiy marifat bosqichining adab, qo'rquv, parxezkorlik, sabr va qanoat, hayo, jo'mardlik, ilm, miskinlik, ma'rifat, o'zni bilmak kabi 10 ta maqomi mavjudligini qayd etib o'tadi.

Tasavvufning eng so'nggi bosqichi bu – haqiqat bosqichidir. Tasavvufda unga shunday ta'rif beriladi: "Haqiqat chindan mavjud bo'lgan narsa, asl mohiyat Ollohni bilish. Borliq olam sirlarini to'g'ri va teran idrok aylash. Haqiqat – shariatning botishidir. Shuning uchun haqiqat tasavvuf ma'nosida ham keng qo'llanilgan".

Hoji Bektoshi Vali bu bosqich maqomlarini quyidagicha tasniflaydi.

"Haqiqatning birinchi maqomi – tuproq bo'lish, ikkinchi maqomi – yetmish ikki millatni ham ayblamaslik va kamsitmaslik. Uchinchi maqomi – qo'ldan kelganni ayamasklik. To'rtinchi maqomi – dunyoda yaratilgan barcha narsalardan yomin bo'lmoqda. Beshinchi maqomi – mulk sohibiga yuz burib, ko'z yoshi to'kmoqdir. Chunki vahdat unga xosdir. Oltinchi maqomi – suhbatda haqiqat sirlarini so'zlash. Yettinchi maqom – sayri suluk. Sakkizinchi maqom – sir. To'qqizinchi maqom – munojot. O'ninchi maqomi – haq taologa yetishmoqdir".

Biz yuqorida ko'rib o'tgan bosqichlar insonni komillik darajasiga yetishishni ta'minlovchi asosiy yo'l bo'lib, mavjud adabiyotlarda ularning maqomlari soni va nomlanishida turfa xilliklar mavjud bo'lsa-da, ularda bir maqsad – insonni jismoniy va ma'naviy poklikka undash, nafsni jilovlash, islom dini qonun-qoidalari va Qur'on g'oyalariga amal qilish, Alloh va Muhammad (s.a.v.) xulqi bilan axloqlashtirish hamda shu orqali Alloh rizoligiga erishtirish yotadi.

Biz yuqorida komillik ta'limoti – tasavvufning asosini tashkil etuvchi to'rt bosqich haqida fikr yuritdik. Inson islom shariati qoidalarga amal qilgan holda ma'naviy jihatdan yuksala boradi. U qanchalik yuksala borgani sari ruhoniyyati ham turli xil o'zgarishlarga uchraydi. Ruxning turli hollarga tushishi tasavvufiy adabiyotlarda hol, maqom, manzil, rabot kabi tushunchalar ostida har xil nomlar bilan ataladi.

Markaziy Osiyoda **kubroviya, yassaviya va naqshbandiya** tariqatlari mashhur va keng tarqalgandir.

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodin.

Abul-Jannob va Tomatul Kubro laqablariga sazovor bo'lgan tasavvufning Kubraviya silsilasining asoschisi Najmiddin Kubroning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiydir. Hijriy oltinchi va yettinchi asrlarda yashagan Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Shamaviy, Sayfiddin Bahorziy va Bahouddin Valad kabi siymolar u kishining murid va shogirdlari bo'lgan.

Axmad ibn Umar Abul-Jannob Najmiddin Kubro 540 hijriy yilda Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga keladi.

Ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur Shafda degan donishmanddan islomiy ilmlarni o'rganadi va Tabrizda shayx Bobo faraj, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvuf donishmandlardan tasavvufga oid ko'pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham egallaydi. U kishi shayx Ismoil Kasriy qo'lida tasavvufiy xirqapush darajasiga yetib, ul hazratning oq fotihasini oladi. So'ngra Misrdagi ustoz va qaynatasi Ruzbehon maslahati bilan o'z vatani — Xorazmga qaytib kelib xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi, "Kubraviya" yoki "Zahobiya" tariqatiga asos soladi. Bu tariqat ta'limoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib, o'z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliklari orasida zikrni ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro qilish usuli joriy bo'lgan¹³.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur "Lug'atnoma" sida keltirishicha, "u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g'olib chiqar edilar".

Shuningdek, u kishini Tomatul Kubro, ya'ni buyuk balo va qazolarning oldini oluvchi, xaloskor deb ham atashgan. Abul-Jannob

¹³ Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul – Xaqoyiq. N.Komilov tarjimasi. – Toshkent: "Kamalak", 1995. – 42 b.

deb atalishlariga sabab esa, u kishining dunyoviy ikir-chikirlardan uzoqturganliklaridir.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda Turon o'lkasidagi Xorazm, Shosh, Buxoro va Samarqand hukmdorlarining noahilligi, tang nazarligi tufayli mo'g'ullarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, Chingizxon lashkarboshilari Movarounnahrda yirik shaharlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lgan. 1221-yilning jumodi ul-avval (iyul) oyida Chingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li, tumonat lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hamlalaridan saqlab turadi.

Najmiddin Kubro yuksak obro'ga ega bo'lsa ham, kamtarona hayot kechirgan. Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozgan-ki, ular juda ko'p tazkiralarda uchraydi. U o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari "Favo'ix al-Jamol va faovtix al-Jalol", "al-Usul al-ashara", "Risolat al-Xo'if al-xa'im min laumon al-la'im" va boshqalardir.

Ma'lumki, Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasisiga ko'ra, inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokosm, ya'ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokosm, ya'ni katta dunyo bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo'lini qidiruvchilar bunday yuksakliklarga ko'tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo'lishi uchun, ya'ni kamolotlarga erishishi uchun, ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishlari zarur. Buning uchun esa, har bir kishi o'n asosga tayanmog'i kerak:

1. Tavba – o'z xohishi bilan Haq taolaga hech bir ko'rsatmasiz yuzlanishdir.
2. Zuhd fi-dunyo – bu dunyoda ham, uning tashqarisida ham, nimaiki lazzat tomon boshlasa, undan tiyilishdir.

3. Tavakkal – Xudoga ishonch jihatidan bu turmushdagi barcha ikir-chikirlardan voz kechishdir.

4. Qanoat – hayot kechirishni ta'minlaydigan oz narsa bilan-gina qanoatlanish, o'z tarafiga tortadigan barcha nozu-ne'matlardan va hirslardan (ovqatni ko'p iste'mol qilish, qimmatbaho kiyimlarga havas qo'yish, o'yin-kulgi, bekorchilik va boshqalardan) yuz o'girish.

5. Uzlat – tanholikda o'tirib, ruhni mustahkamlash, odamlar bilan muomalani to'xtatish: gaplashmaslik, eshitmaslik, qaramaslik va turli fe'l-atvordan aloqani uzishdir.

6. Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr) – o'z xohishicha Xudoning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbni u bilan to'ldirish.

7. Tavajjuh – butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir.

8. Sabr – o'z ixtiyori bilan nafs doirasidan mashaqqatlar chekib bo'lsa ham, o'zini olib qochishdir.

9. Muroqaba (tafakkurga g'arq bo'lish) – erishilgan darajada mushohada yuritish, qalbni arzimas his-tuyg'ulardan xoli qilib, tozalash va xotirjamlikka erishish.

10. Rizo – shaxsning nafs erkinligidan chiqib, Xudo xushnudligiga kirishi va azaldan nimaga ishongan bo'lsa, o'shani o'z bo'yniga olishidir.

O'n usuldan chiqariladigan natija shundaki, o'lmaydigan shaxsning yodi uning nafsini mag'lubiyatga uchratgan sifatlarida yashaydi.

Yassaviya tariqati bu tariqat asoschisi Xoja Axmad Yassaviy (1160 m.y.v.e)

Oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda sufiyona xikmatlari-sherlari bilan atrofda odamlarni haq yo'lga chaqiradi, ularning manaviyatiga yeuchli tasir etadi. She'r-hikmatlari "Devoni hikmat" nomi ostida kitob xoliga keltirilgan. Axmad Yassaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yassaviy riyozat, chilla, zikr va mujoxadaga kuchli ahamiyat berib, hayotining aksar qismini chillaxonada o'tkazdi. Uning hayoti yu karomatlari haqida ko'plab manoqiblar saqlanib qolgan.

Yassaviya tariqatida jahriy zikr ijro etiladi. Zikr chog'ida darvishning tomog'ida narranting sasi kabi ovoz chiqqani uchun yassaviya zikriga "Zikri arra", "Zikri minshori" deyiladi. Bu zikr quyidagicha ijro etiladi: Darvish ikki qo'lini tizzasini ustiga qo'yib nafasini qorniga chiqarib "ha" deb, yana qorni tomonidan nafas olib bosh, bel, yelka qimirlamagan holda "xayy" deydi va zikr shu tarzda davom etadi.

Yassaviylikda xilvatga ham katta ahamiyat beriladi. Bu tariqatda muhim o'rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: ma'rifatullox, mutloq jo'mardlik, rostgoylik, xaqqal yaqiyn (fanofillox)da g'oyib bo'lish, haqiqiy tanavvul va teran tafakkur. Yassaviya tariqati asosan sunniy e'tiqodiga amal qilish bilan birga Xurosan malomatligidan biroz ta'sirlanganligi sababli, yerma bir ma'daniyat bazasiga ega. Bu xususiyat bilan keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Naqshbandiya-tasavvuf tariqatlaridan biri. Bahauddin Naqshband asos solgan. Asl ismi Muhammad ibn Muhammad Buxoriydir. "Naqshband" taxallusi shu tariqatning asosiy qoidasi "Dil xudo bilan va qo'l ish bilan bo'lsin" dan kelib chiqqan bo'lib, ya'ni Dilda Alloh taolloning naqshi bitilgan bo'lsin demakdir. B.Naqshbandiy 1318-yilda Buhorodagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tavallud topgan. B.Naqshbandiyning sharif nasablari ota tomonidan Hazrat Aliga, ona tomonidan esa Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi.

Naqshbandiya xojagon tariqati asosida paydo bo'lib. Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijdivoniy, Ahmad Yassaviy qarashlariga yangi ruh berib rivojlantirdi. XV-XVIII asrlarda savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan shahar aholisi hamda ko'chmanchi chorvador aholi orasida yoyildi. B.Naqshbandiy ta'limotining asosida "Ko'ngil xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin" ("Dil ba yoru, dast ba kor") shiori yotadi. Unga ko'ra, dilni Alloh bilan bog'lagan holda kasbu-hunar va qo'l mehnatini aslo tark etmaslik kerak. B.Naqshbandiyda axloqiy poklik, qanoatli, sabirli bo'lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi.

Tasavvuf ta'limotining asl mohiyati insonni poklashga qaratilgan bo'lib, inson o'zligini anglash orqali Haqni taniydi, nafsini sa'yi-harakat qilish, riyozat chekish orqali jilovlaydi, tabiat

bularning hammasiga pir rahanamoligida erishiladi, murid shariat qonun-qoidalariga amal qilish bilan cheklanmay, rahbar tomonidan belgilangan vazifalarni ham bajarib tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichiga ko'tariladi. Haq yo'lidagi kishilarning o'z toat-ibodatlari natijasida ko'ngillarida hosil bo'lgan turli xil ruhiy holatlari, zavq va vajdlari to'g'risidagi fikrning hosilasi tasavvuf ilmining xalq orasida keng yoyilishi, alohida xalqchil ta'limot sifatida asrlar davomida yashab kelishi va jamiyat boshqaruvida yetkachi o'rinlardan birini egallash uchun asos bo'ladi.

XALQ O'YINLARI VA O'YINCHOQLARI TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Xalq o'yinlarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.

Tog'ridan-tog'ri va bevosita tarbiya bilan bog'liq hodisalar-dan tarbiyatga eng yaqini o'yinlar. O'yin insonning tabiatga qarab kashf etgan buyuk mo'jizalaridan biri hisoblanadi. Bolalar tarbiya-sida o'yinning ahamiyati g'oyat katta. Ularda so'z, ohang va harorat bir-biri bilan uzviy aloqador. Bolalarda epchillik, chaqqonlik va merganlik qolibiyatlarini rivojlantirishdi o'yinning ahamiyati beqiyos, bundan tashqari, o'yinlar badiiy dramatik hodisa hamdir. O'yinlar vositasida bolaga narsalarning mavjud tartibiga, xalq urf-odatlariga hurmat tuyg'usi singdirilgan, unda odob qoidalariga nisbatan ko'nikma hosil qilingan. Bolalar uchun o'yinlar jiddiy, mashg'ulot, mehnatga, kelajak hayotga tayerlovchi o'ziga xos saboqlarni o'zida namoyon etadi. Ijtimoiy faoliyatdan oldin keluvchi o'yin bamisoli bilan qo'shilib ketadi va tarkibiy unsur kabi mehnatning hal qiluvchi qismiga, hattoki, mehnat jarayonining o'ziga kiradi. Shunday qilib, o'yinlar mehnatga tayyorlaydi, mehnat esa o'yinlar, ermaklar, umumiy xushchaqchaqlik bilan nihoyasiga etadi. Bolalar juda erta, ularning hayotiga So'z kirib kelishdan ancha oldin, quyosh nuri, o'zining barmoqlari, oyisining soch turmaklari va hokazolar bilan birga o'ynay boshlaydilar. Bunday o'yinlar sharofati bilan bola qadam-baqadam o'zini bilib va anglab boradi. O'yin bolalar faoliyatining hayratlanarli darajadagi rang-barang va boy jihatidir.

O'yin bilan birga bolalar hayotiga san'at, nafasat kirib keladi. O'yin, qo'shiqlar, raqslar, ertaklar, topishmoqlar, tez aytishlar, ifodali o'qishlar, Qur'on va xalq ta'limi vositasi sifatidagi xalq ijodiyoti-ning boshqa turlari bilan bog'liq. O'yinlar hayot saboqlari, ular bolani boshqa odamlar bilan el bo'lishga o'rgatadi. O'yin ertak-orzu, afsona-istak, hayolot ruyolarning moddiylashgan ko'rinishidir. O'yin insoniyat hayot yo'lining boshlanishi to'g'risidagi esdaliklar junbushidir. Shunday qilib, o'yin asosida insonning ruhiy, hissiy va jismoniy ehtiyoji etadi. Qadim zamonlardan buyon o'yin bolaning rivojlanishi va shakllanishida eng muhim vositalardan biri bo'lib kelgan.

Milliy xalq o'yinlari orqali yoshlarning aqiy va axloqiy jihat-dan barkamolligi ortadi. Baquvvat, jismoniy yetuk, chidamli irodali bo'lib tarbiyalanadi. Milliy halq o'yinlari uzoq tarixga ega bo'lib musoboqalarda turli urf-odatlar marosimlarda o'ynab kelingan. Xalq milliy o'yinlarning turlari juda ko'p professor F.N.Nasriddinov boshchi-ligida bir guruh mutaxassislar va olimlar milliy o'yinlarni o'rganish, ularni chuqurroq ommalashtirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy ishlarini amalga oshirmoqdalar 1991-yildan boshlab Respublika davlat sport qo'mitasi, Forish tumani hokimiyati milliy o'yinlar bayramini an'anaviy ravishda o'tkazib kelinmoqda.

"Chillik", "Oq suyak", "Qo'loq so'zma", Kichik ko'pkari", kabi harakatli o'yinlar uzoq tarixiy taraqqiyotga ega. Harakatli o'yinlar va mashqlar bolalarning etin va estetik milliy dunyo-qarashini o'stiradi.. mustaqil harakat qobiliyatini rivojlantiradi. Milliy o'yinlarni tiklash sohasida mamlakatimizda anchagina ishlar qilindi va uning salmog'i ortmoqda. Keng jamoatchilik, ayniqsa, keksalar yordamida esda chiqqan milliy o'yinlarni aniqlash, o'yin qoidalarini mukammallashtirish va shu asosida yoshlarga o'rgatish jismoniy tarbiya sohasidagni qadriyatlarimizni tiklashga qo'shilgan katta hissa bo'ladi.

Bunday o'yinlar tafsilotlari xalq og'zaki ijodida alohida ta'rifu-tavsifga sazovor bo'lgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida "Alpomish", To'maris" afsonasi. "Go'ro'g'li", "Kun tug'mish", "YOdgor" kabi ko'plab dostonlar mavjudki, bu dostonlarda pahlavon, chaqqon, chidamli, aqlli qahramonlarning sifatleri ochib berilgan.

"Alpomish" dostonida yigitlarning jismoniy sifatlarini ko'rsa-tilgan qismlardan namunalar keltiramiz. Bu doston o'zbek xalq qahramonlik dostonlarining gultojisi hisoblanadi. Dostonda tasvir-lanishicha, Oybarchinga qalmoq elidan sovchi keladi. Qung'iro-t elining to'rasi Alpomish sevgilisi haqidagi xabar eshitada. Oybarchin janjal chqishini oldini olish maqsadida barchaga barobar shart quyadi.

*Qirq kunli yo'l Boboxonning orasi.
Boboxon tog'idan poyga qilaman.
Boboxondan poyga qilib o'zdirsa.
Oti ildam boyvachchaga tegaman.*

*Yoy tortishga, yoyi sinmay qolganga,
Ming qadamdan tanga pulni urganga.
Men tegaman shul qarag'ay merganga*

*Kurag qilib, to'qson alpni yiqqanga,
Men tegaman nor bilakli polvonga.*

Har bir yigit uchun jismoniy chiniqqan bo'lib otda poyga qilishi. Merganlik, kurash va boshqa yigitlarga xos hislatlarini egallashi urf-odatimiz bo'lib xizmat qilgan.

Dostonda ifoda etilgan voqealar yigit-qizlarning qahramonligi, jasorati shunday nozik misralarda bayon etilgan ularning epchilligi, chaqqonligi, chidamlilik hislatlari hozir davr yoshlarining tarbiyasiga ham ijobiy namuna sifatida ta'sir etadi.

Bunga o'xshash voqealar, g'oyalar. Boshqa dostonlarda ham bayon etilgan. Ko'rinadiki, dostonda milliy g'urur, yigitlarga xos qahramonlik, mardlik sifatleri ochiq bayon qilingan xislat hozirgi zamon yoshlarini tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi.

Bu xalq pedagogikasini chuqurroq o'rganish, mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga, axloq odobga doir asarlarini ko'zdan kechirish jarayonida o'zbek xalqi bolalarini tarbiyalashda eng ta'sirchan uslub, ya'ni uslubidan foydalanirishni ko'ramiz.

Xalq o'yinlarining turlari.

Azaldan har bir xalqda rang-barang o'yinlar mavjud bo'lgan-yu o'rtta Osiyo hududlarida ham ko'plab o'yin turlari keng yoyilgan. Taomildagi o'yinlar bilan bir qatorda u yoki bu mintaqaning, hattoki, qishloqning o'ziga xos bo'lgan o'yinlari bo'lgan. O'zbek xalq o'yinlari o'zining rang-barangligi, turli yosh, jins, shahar va qishloqqa mo'ljallangan keng qamrovligi bilan ajralib turgan. Qisqasi o'zbek xalq o'yinlari shu qadar xilma-xilki, goho ularning turkumi, guruhi, turlari, shakllari, xillari ma'nosini chuqur anglamay turib ular mazmunini tushunish qiyin. Biroq mazkur muammolarning kam yoritilganligi va kam o'rganilganligi sababdan o'zbek xalq o'yinlariga har tomonlama tasnif berish o'ta mushkul. Shunga qaramasdan, ularni nazardan o'tkazish va o'rganish o'yinlarni quyidagidek shartli ravishda sinflarga bo'lib chiqish imkonini berdi:

1) Turli yoshdagilar o'yinlar (go'daklik, bolalik, o'spirinlik, yoshlik va h.k.);

2) Turli jinsdagi odamlar o'yinlari (o'g'il bolalar, qiz bolalar, erkaklar va ayollar);

3) Mavsumiy o'yinlar (bahorgi, ezgi, kuzgi, qishqi);

4) Turli ifoda vositalaridan foydalanishga asoslangan o'yinlar (so'z, kuy-ko'shiq, raqs-pantomima, syujetli, sahna, turli xususiyatli va h.q.) so'nggi tur o'yin turli ifoda vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan. Masalan, so'z, qo'shiq, raqs, harakat, sahna tomoshalar, shuningdek, qilich, kaltak, toshchalar, yong'oqchalar kabi oddiy narsalar. Asosiy ifoda o'xshashligi yoki narsalar o'yinining xarakterini, shaklini, mazmunini va nomini belgilaydi. Deylik, o'yinda asosiy vosita so'z bo'lsa, bu so'z o'yini, agar harakat tezlik, kurash bo'lsa, bu harakat musobaqa o'yiini bo'ladi. Agarda o'yinda syujet, badiiy timsol vositasida muayyan hayotiy hodisa o'z aksini topsa, bu sahna o'yini, agar asosiy rol qo'shiqqa, jo'rovzlikka berilsa, bu qo'shiq o'yini yoki jurovzlikdagi qo'shiq o'yini bo'ladi.

Asosiy vosita so'z bo'lgan o'yinlar suhbat janrini namoyon etadi. Bunday o'yinlarga "tez aytish", "topishmoq top" kiradi. Qo'shiq o'yinlar o'yin shakladiga o'ziga xos jo'rovzlikdagi qo'shiqdir. Bunga "Yaku-yak", "Um-ufu", "Bo'shama", "Kichkina", "Yurmana-yurman", "Sidirg'a", "ezikal", "Botmon-botmon" va hokazolar kiradi. Raqs (yoki pantomima) o'yinlari odatda raqs harakatlari bilan birgalikda ijro etiladi. Bu "Paq-paq", "Besh qarsak", "Cho'pon o'yini", "Xo'sh-xo'sh", "Lakka-lak" va hokazolardan iborat.

Badiiy shakldagi syujetli sahna o'yinlari hayotning eng ta'sirchan, qiziq holatlarini aks ettiradi. Bu, jumladan, "Ov o'yin", "Urush-urush", "Asir olish" kabilarda o'z ifodasini topadi.

Harakat musobaqa o'yinlari epchillik musobaqasi ruhida o'tkaziladi, birg-biriga qarama-qarshi ikki kuch olishuvini ifodalaydi. Bular: "Tepa kurash", "Aylanib tep", "Qirg tosh", "Chunki shivoq", "Chirkash" yoki "Chiri kas" va hokazolar. Turli narsalar ishtirokidagi o'yinlar: "Qochar to'p", "To'p devor", "Shtamba", "To'p o'yin" (koptok), "Besh tosh", "Lappar", "Chillik", "Dastak", "Qadama tayoq" (toshchalar), "Do'lki", "Toq-juft" (yong'oqlar), "Oqsuyak", "Oshiq o'yin" (suyak), "Belbog' tortish" (belbog') va hokazolar.

Jonivorlar yoki parrandalar ishtirokidagi o'yinlar: "Qo'chqor urishtirish", "It urishtirish", "Bedana urishtirish", "Xo'roz urishtirish", shuningdek, "Eshak ko'pkar", "Ot poyga", "Ag'darish", "Chavgon", "Uloq" va hokazolar.

U yoki bu vositadan foydalanishga asoslangan o'yinlar sof holda uchramaydi, boshqa o'yinlar yoki turkumlar bilan chatishib ketadi, zero, ularda turli yoshdagi, jinsdagi odamlar turli fasllarda o'ynaydilar. Shu bois turkum (davra)da nishonlanadigan o'yinlar boshqasida takrorlanishi mumkin.

Turli yoshdagi odamlar guruhiga moslangan va hayotning ma'lum bosqichida o'ynaladigan o'yinlar avlodlardan avlodga o'tib kelgan. Yoshi o'tinquirab qolguncha odamlar bamisoli xalq o'yinlari "maktab"ini o'tagan, bunda har bir sinfda u yoki bu yoshga tegishli o'yinlardan foydalanganlar. Har bir yosh xususiyati o'yinlarning mohiyatini va mazmunini belgilagan. Masalan, yosh bolalar o'rtasida o'yinchoq va qo'g'irchoqlar bilan bog'liq o'yinlar, oraliq yoshdagi bolalar o'rtasida syujetli taqdid o'yinlari keng tarqalgan. "Xolakam-xolakam", "kelin-kuyov", "quvlashmachoq" yoki "bekinmachoq" kabilar.

M.Murodov o'zbek xalqining boy o'yin merosini quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganadi:

1. Tabiiy – mavsumiy o'yinlar.
 2. Hududiy va turli joylarga xos o'yinlar.
 3. Turli yoshlarga xos o'yinlar.
 4. Turli jinsdagilar o'yinlari.
 5. Mashg'ulot, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar.
 6. Voqeaband o'yinlar.
 7. Harakatli o'yinlar.
 8. Turli vositali o'yinlar.
 9. Hayvonlar ishtirokida o'tadigan o'yinlar. 1
- Tabiiy – mavsumiy o'yinlar har bir faslda o'ziga xos bo'lgan. Bahorda "Tolbargak", "Yomg'ir yog'adi", "Oq terakmi – ko'k terak" o'yinlari, yozda "Suvda quvlashmachoq", "Tez suzish", "Arqon o'yin", "Tosh o'yin" kabilar kuzda "Danak", "Yong'oq o'yinlari", "Arg'imchoq uchish", "Oshiq", "Tosh o'yinlari"; qishda qor yoq-qanda yaxmalak uchishgan, "Qorxat", "Qorbo'ron" o'yinlari odatga

kirgan. Qattiq sovuq paytlarda sandal atrofida yig'ilib "Tez ayt", "Topishmoq top", "Kim aytish" kabi o'yinlar o'ynalgan.

Hududiy va turli joylarga xos o'yinlar orasida ma'lum farqlar bo'lgan. Qishloq o'yinlari keng dalalarda, shahar o'yinlari kichik maydonlarda o'tgan. Uyda "Sandal o'yin", boshqotirma – so'z o'yinlari; hovlida – "Tosh o'yinlari", "Arqon", "Bekinmachoq", "Chizma" o'yinlar; maydonlarda – "tortishmachoq"; bog'da – "Yong'oq", "Danak" o'yinlari; suvda – "Suv ostida ko'p turish", "Quvlashmachoq" o'yinlari; havoda – "Arg'imchoq uchish"; osmonda – "Varrak" o'yinlari o'ynalgan. Karvonsaroy, choyxona, mehmonxonalarining o'z o'yinlari bo'lgan. Karvon yo'llarida uzoq yo'l yurgan yo'lovchilar oyog'ini yozish maqsadida arqon sakraganlar. Turli yoshlarga xos o'yinlar bolaning chaqaloqligidan boshlanadi. Chaqaloq yig'lamasligi uchun unga ovunchoq – o'yinchoq berishadi va uni ovutadigan o'yinlarga jalb etishadi. Sal ulg'aygach, o'g'il bolalar ovga chiqish, urush-urush o'yinlarini, qizlar xola-xola, bola boqish, mehmon kutish kabi o'yinlarni o'ynaydilar. Turli jinsdagilar o'yinlarida qizaloqlar qo'g'irchoq o'ynasalar, o'g'il bolalar ish va urush qurollariga o'xshash o'yinchoqlarni o'ynashgan. Mehnat faoliyati bilan bog'liq o'yinlarda termachilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa mehnat turlariga oid o'yinlar o'ynalgan.

Harakatli o'yinlar bir kishili, ikki kishili, guruh bo'lib yoki jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlar kiradi. Bu o'yinlar maqsadga erishish hissini shakllantiradi, inoqlik, o'rtoqlik, birdamlik xislatlarini tarbiyalaydi. Turli vositali o'yinlar qo'g'irchoq, tosh, tayoq, to'p, yong'oq yordamida yoki so'z, qo'shiq, raqs vositasida o'ynalgan. O'yin vositalariga ko'ra o'yinga nom berilgan. Yog'och ot, jundan to'p tayyorlash jarayoni bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirgan. Bolalar o'yinlarida mahalliy aholining kasb-hunar mashg'ulotlari o'z ifodasini topganligi bois o'yinchoqlarda uy-ro'zg'or buyumlari, qishloq xo'jaligi asboblari, idish-tovoqlar aks etgan. "... Har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekanligi ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi.

Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi. kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz. uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi".

Ta'lim-tarbiyada xalq o'yinlaridan foydalanish usullari

O'yinlar bolalar va yoshlarga nima bergan. O'yin bolalarining, xususan, 2 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning asosiy mashg'uloti hisoblanadi va keyinchalik o'qish va mehnatga almashadi. O'yin bolalar uchun hayotga, kelajakdagi voqea-hodisalarga o'ziga xos tayyorgarlik maktabi hisoblangan. Ular bolalarni nafaqat jisman, balki aqlan o'stirib, ongini boyitgan, bolalar hayotini uyg'otgan, xotira, diqqatni charxlagan, irodani mustahkamlagan. O'yin jarayonida bola deyarli bilimlarni egallagan, shaxs kamolotidagi zarur malakani orttirgan. O'yin kelajakdagi katta hayot bo'sag'asidagi repititsiya bo'lib xizmat qilgan. Xalqda: "Agar bola o'yinni vijdonan o'ynasa, hayotda ham vijdoni yashaydi", deb bejiz aytilmaydi-da. Xullas, o'yin bolalarda ijobiy faollik, tashabbus, jamoatchilik, tashkilotchilik o'quvi va malakasini rivojlantirishning samarali vositasidir. O'yinlarda xalq tarbiyasi, xalq ta'limining tabiiylik, uzluksizlik, vazminlik, sarishtalik, tugallik kabi xususiyatlari yanada namoyon bo'ladi. Yana bir juda muhim narsa o'yin jarayonida bolalar o'z-o'zini tarbiyalashga erta kirishadilar, o'z-o'zini tarbiyalash esa oldindan bir maqsadni ko'zlamasdan, tabiiy ravishda kechadi. Maqsad esa o'yin jarayonida, u bilan bog'liq ravishda, yo'l-yo'lakay, natija va yutuqlarga muvofiq holda yuzaga keladi.

O'yinning yana bir muhim vazifasi shundan iboratki, uning vositasida insonning odatdagi rivoji uchun hayotda etishmaydigan narsa ruyobga chiqqan. kamharakatli hayot tarsi kechiruvchi cho'ponlar ko'proq qimirlashga majbur qiladigan, ammo suruvidan uzoqlatmaydigan o'yinlarga ehtiyoj sezishgan. Yaylov o'yin o'yin uchun qulay joy, doim qo'lida ushlab yuradigan tayyoq esa o'ziga xos "dastak" - "klyushka" bo'lib xizmat qilgan. To'p tayyorlash uchun qo'y juni xomashyo bo'lib xizmat qilgan. "Podachi", "Jun to'p", "Chim to'p", "Chovgan" degan cho'pon o'yinlari ana shu tariqa yuzaga kelgan. Chovgon avvaliga otliq cho'ponlar o'yini bo'lgan, keyin uni aholining keng qatlami ham o'zlashtirib olganlar. Bu o'rt

asr harbiylarining sevimli o'yinlaridan edi. Ular ko'pgina Sharq mamlakatlarida yoyilgan, Hindistondan Angliyaga ko'chib o'tgan, keyinchalik zamonaviy chim hokkeyiga asos bo'lgan.

Ajdodlar hayoti hozirgi kunga nisbatan bir zaylda kechgan, o'yin esa unga zavq va mazmun bag'ishlagan. O'yinda inson hayotda amalga oshirolmagan istaklarini mujassamlashtirgan. Tashvish va muammolardan vaqtincha chalg'ib, inson hayotida uchraydigan qiyinchilik va tashvishlarni o'yin bilan bartaraf etishga muvaffaq bo'lgan. Hatto urush vaqtida ham ochlik va parokandalikdan qiynalib turganda odamlar o'yin uchun vaqt va imkon toppishgan. O'yin jarayonida ular ko'ngillarini ezib, ertangi kun mehnat faoliyati uchun "quvvat" olganlar. Bu, darhaqiqat, baxtli daqiqalar bo'lgan. O'yinlar inson hayotida shu qadar muhim ahamiyat kasb etganki, ularga qarab inson shaxsiyati, xarakteri, manfaatlari, mayllari, qobiliyatlari haqida fikr yuritish mumkin hisoblangan. O'zbeklar farzandlarining bolaligidanoq bahodirlik, harbiylik, jangovarlik malkalarini oshirganlar. Xalq dostoni "Alpomish"dagi sevimli bosh qahramoni Haqimbek haqidagi satrlar shundan dalolat beradi. Demak, o'yin bekorchi mashg'ulot emas ekan. Bu bola uchun birinchi maktab. Bobolar va buvilarning qattiqqo'l otanalarga "Bolalarning o'yiniga halaqat bermanglar" deb tanbeh berishlari bejiz emas-da. Xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati bebaho, shu boisdan ham murabbiylar o'quv-tarbiyaviy jarayonda ulardan foydalana bilishlari lozim. O'yinlarni tanlash va tashkil etishda quyidagi omillarni hisobga olmoq zarur:

1. O'ynovchining yoshi. Bolalar uchun eng oson o'yin tanlanadi, unga yangi qo'shimchalar va qoidalar kiritish hisobiga murakkablashtirib boriladi. O'yinni albatta murabbiy ishtirokida jo'r bo'lib qo'shiq aytish bilan boshlash kerak. Bolalar o'z harakatlarni nazorat qila olishlari juda qiyin bo'ladi. Shuning uchun kattalar namuna bo'lmoqlari darkor.

2. O'yini o'tkazadigan joy. O'yin zalda, xonada, keng yo'lakda, ochiq havoda o'tkazilishi mumkin. O'yinlar xonada o'tkaziladigan bo'lsa, shamollatish va obdan supurib sidirish lozim.

3. O'yin ishtirokchilarining miqdori. O'yinni birdaniga butun sinf yoki guruh bilan o'tkazish shart emas, ayniqsa, xona uncha keng bo'lmaganda. Mitivoylarni guruhlariga bo'lish mumkin: o'g'il

bolalar va qiz bolalarga, kuchlilarga va kuchsizlarga, o'ynovchilarga va hakamlarga va hokazo. O'yinda ishtirok etish har bir bola uchun qiziq bo'lmog'i lozim.

4. O'yin uchun jihozlarning bo'lishi. Ko'pgina o'yinlar uchun jihozlar lozim: to'plar, sakramachoqlar, bayroqchalar va hokazo. Ular oldindan etarli miqdorda tayarlab quyilmog'i darkor.

Murabbiy bolalarga o'yin qoidalarini tushuntiradi. U shunday joyda turishi kerakki, hamma uni, u hammani ko'ra olsun. Yaxshisi, bolalar bilan doira hosil qilib tursin (lekin biron-bir bolaga orqa o'girib qolmasligi uchun doira o'rtasida turmasin). Murabbiy qisqa va tushunarli qilib tushuntirsin. Buni u ayrim qismlarini yoki butun o'yinni ko'rsatib bajarmog'i lozim. Barcha yoki ayrim bolalar ularni takrorlasin, toki bolalar o'yin qoidalarini yaxshi o'zlashtirayotganlariga murabbiy amin bo'lsin. Boshqaruvchi tarbiyachi yoki bolalar belgilansin, yoki bolalar yaxshi ko'radigan sanoq she'r yordamida aniqlasin. Sanoq she'r har doim qofiyali bo'ladi. U quvnoq, hazilnoma ham bo'lishi mumkin. Odatda, bolalardan biri sanoq she'rni ayta boshlaydi, har bir so'zni talaffuz etar ekan, u davrada turgan o'yin ishtirokchilariga birdek ishora qilib boradi. Sanoq she'rning so'nggi so'zi tushgan o'yinchi o'yinni olib boradi. Mana sanoq she'rdan ayrimlari:

Nay olgani boraman,

Nayni o'zim chalaman.

Yangra nayim, qattiqroq

Biz ketdik, sen qol o'rtoq.

Ayvondan to'rva tushdi,

Mushukning kayfi uchdi,

To'rvada tuz, non bug'doy,

Kimni istaysan. . . Voy

Darhaqiqat, yoshlarga bolalikdan go'zal odob-axloq fazilatlarini singdirish maqsadida o'yinchoqlardan muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanish o'rinlidir. "Oliyjanoblik bahosi" hikoyatida qo'g'irchoqlar misolida laqmalik va anqovlik qoralanib, olijanoblik yuqori baholanganini ko'ramiz: "Sopoldan turli-tuman buyum, shakl va o'yinchoqlar yasaydigan bir usta kulol bo'lar ekan. Kunlardan bir kun usta loydan uch dona jajji qo'g'irchoq - odam

yasabdi. Usta har uchala qo'g'irchoqqa ham bir xil jilo va sayqal beribdi. Qo'g'irchoqlarni shunday bejirim tayyorlabdiki, bozorga olib chiqishi bilan tezda xaridorlarni o'ziga jalb etibdi.

Qolaversa, xaridorlarni qo'g'irchoqlarning o'zigina emas, balki ular bahosining turlicha ekanligi, ayniqsa, taajjubga solibdi. Xaridorlar ustadan: "Qo'g'irchoqlar bir-biridan biror narsasi bilan farq qilmaydi-ku. nega uchalasiga ham uch xil narx qo'ydingiz?" - deb so'rashibdi. Darhaqiqat qo'g'irchoqlarning bo'y-basti, rang, sayqal va jilolari bir xil bo'lib, bir-biridan aytarli farqi bo'lmasa ham birinchi qo'g'irchoq narxi 1 so'm, ikkinchi qo'g'irchoq narxi 2 so'm, uchinchi qo'g'irchoq narxi 3 so'm deb belgilab qo'yilgan edi. Shunda taajjublanayotgan xaridorlarga jilmayib boqib "Yo'q, azizlar! Ularning ko'rinishi bir xil bo'lsa ham, lekin qo'g'irchoqlarda katta farq bor! Mana, qaranglar!" - debdi kulol va qoliga bir cho'p olib, birinchi qo'g'irchoqning qulog'iga suqibdi. Cho'pning uchi shu zahoti qo'g'irchoqning og'zidan chiqibdi. Cho'pning uchi cho'pni ikkinchi qo'g'irchoqning qulog'iga suqibdi. Uchinchi qo'g'irchoqning narigi qulog'ida ko'rinibdi. Uchinchi qo'g'irchoqning qulog'iga suqilgan cho'p esa hech qayerdan yorib chiqmabdi.

- Ko'rdingizlarmi, - debdi kulol, - bulaming hulqi birlaridan mutlaq farq qiladi. Mana bu qo'g'irchoq - laqma, - ebdi usta birinchi qo'g'irchoqni qo'liga olib. - Eshitganini shu zahoti og'zidan gullaydi. Shuning uchun uning bahosi past.

Usta ikkinchi qo'g'irchoqni qo'liga olibdi.

- Bu esa anqov! Bu qulog'idan kirgan gap u qulog'idan chiqib ketaveradi. Shuning uchun ham uning bahosi o'rtacharoq.

Usta uchinchi qo'g'irchoqni qo'liga olibdi.

- Bu esa olijanob va andishaparvar. U eshitgan har qanday hoh yaxshi, xoh yomon gapni o'ziga kerakligini olib qoladi-da, qolganini esa yutib hazm qilib yuboradi. Shu bois uning bahosi ham yuqoridir! - debdi.

Xaridorlar usta kulolning qo'g'irchoq yasashdagi falsafasiga tahsinlar aytishibdi".

Shu tariqa xalq o'yinlari va o'yinchoqlari ko'p asrlar davomida ajdodlarimizning aqliy, ruhiy, jismoniy kamolotga erishishida muhim o'rin tutib kelgan. Xalq o'yinlari, oddiy, sodda, qiziqarli, shu bilan birga epchillik, kuchlilik, topqirlik, chidamlilik kabi

insoniy fazilatlarni rivojlantirishga yordam bergan. Yuqoridagi fikrlarni muhtasir qilib aytganda, yoshlarni jasurlik, chaqqonlik, mardlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan turli xalq o'yinlari, ijtimoiy-tarbiyaviy xarakterli milliy musobaqalar, jismoniy mashg'ulotlar o'zbeklarda qadimdan rivojlanib kelgan.

Demak, xalq o'yinlari bolalarda ijodiy faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblangan. Lekin afsuski, yuqoridagi xalq o'yinlarining ko'pchiligi unutilib borayotganligi, toza havoda jismonan chiniqib o'ynaladigan o'yinlar o'rnini kompyuter o'yinlari egallayotganligi achinarli hoi, albatta. Biz ajoyib xalq o'yinlari yordamida barkamol avlod tarbiyalanib, uning barcha ijobiy sifatleri shakllanishini unutmastigimiz lozim.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. O'zbek xalq o'yinlari merosi qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Raqamlar bilan bog'liq urf-odatlariga misollar keltiring.

II BOB. XALQ PEDAGOGIKASIDA YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIGA OID FIKRLAR

O'tmishda bola tarbiyasida ota-onalarning qo'llagan usullari.

O'tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada nasihat, tushuntirish, maqtash, rag'batlantirish, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, taqiq-lash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalan-ganlar. Jamoa a'zolari bu usullarni qo'llashda, axloq qoidalariga suyangan holda, qilgan ishi, xatti-harakatining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida bolada ishonch hosil qilishga harakat qilganlar, unga axloqlilik va axloqsizlik, odillik va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma'nosini tushuntirganlar. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan. Tushuntirishda bolalarning yoshi hisobga olingan. Ota-onalar bolalarga axloq qoidalarini tushuntirishda, "Kamtarlik ham bir xislat", "Odob-kishining zebi ziynati", "Eshik ochik bo'lsa ham so'rab kir", maqollari, "Yotish qoidasi" hikoyasi, "Xasis va afandi", "Xovliqma", "Maqtanchiq" kabi latifalaridan foydalanish-gan. Chunki maqol va latifalarning obrazlilik bolalar ongiga, xis-siyatiga kuchli ta'sir etgan. Xalq pedagogikasida bolaga fikrni qisqa, aniq bayon etish qobiliyatini o'stirishga e'tibor berilgan. Yaxshi so'z, yaxshilik qilish, yomonlik va ko'p so'zlashning zarari haqida maqollar ijod qilingan.

*Oz so'z-soz so'z, Yaxshidan bog' qolar,
Tilga ixtiyorsiz- Yomondan dog' g'olar.
Elgu e'tiborsiz. Yaxshi odam oshini er,
Yaxshilik erda qolmas. Yomon odam boshini er.*

va boshqalar.

Axloq qoidalari bir guruh bolalarga va bir bolaga alohida tushuntirilgan. Ayrim vaqtlarda kattalar birlashib bolasi axloqsizlik qilgan oilada suhbat o'tkazishgan, bolaning xatti-harakatidagi no'rin jihatlarni ko'rsatib, ota-onalarga tegishli maslahatlar berish-ganlar. O'tmishda axloq tarbiyasida nasihat qilish, maslahat berish usuli ham keng qo'llangan. Ota-onalar o'z bolalariga kattalar o'rta-sida ular bilan so'zlashanda mehmonga borilganda, o'zini qanday

tush haqida nasihat qilganlar, axloq qoidalariga rioya etgan bolalar va kattalar nomini oʻrnak qilib tilga olganlar. Shuningdek, ular oʻz uylarida mehmonni qabul qilish, tartibini buzgan – “assalomu alaykum” deb kutib olmagan, ovqat va choy keltirishda nooʻrin harakat qilgan, mehmon qoʻliga suv qoʻyib, sochiq tutmagan, ketishda xayrlashishni unutgan, bolalarga mehmon ketgandan keyin nasixat qilib, yoʻl qoʻygan kamchiliklarini ikkinchi marta takrorlamaslikni uqtirganlar.

Ota-onalar oʻz farzandlariga boʻlgan muhabbat va xayri-xohliklarini amaliy ravishda koʻrsatishga harakat qilganlar. Ular-ning fikricha, bola bir yaramas ishni bilmasdan qilgan boʻlsa, kechirish kerak, bilib qilgan boʻlsa, nasihat qilib, qilgan ishining yomonligini tushuntirish, agar u yana yomon ish qilsa, jazo berish kerak. Ammo uni yaramas soʻzlar bilan soʻkib, haqorat qilmaslik lozim, bu uni yomon soʻzlarga oʻrgatadi.

Yaramas ish qilgan bolaning aybini oʻzidan eshitmoqchi boʻlib: “Toʻgʻrisini ayt, ont ich, aytmasang kaltaklayman”, – deb qoʻrqitmaslik kerak. Agar shunday qilinsa, bola qoʻrqanidan yolgʻon ont ichishga, aybni yashirishga yolgʻonchilikka odatlanib qoladi. Shu sababli, oʻtmishda ota bobolar, onalar ayrim hollarda ertaklar-dan ifodalangan voqea, qahramonlar misolida bolalarga nasixat qilganlar:

- Bahorning goʻzal kuni edi, havoni bulut oʻrab oldi. yomgʻir yogʻdi. Keyin yana qoʻyosh chiqdi, hamma yoq goʻzallashdi. Bir kichik sichqon yomgʻirdan keyin oʻynamoq uchun inidan chiqmoqchi boʻldi, onasi unga:

- Bolam, hozir inimizdan chiqma, mushuk bizning chiqishi-mizni poylab turibdi, agar chiqsak darrov tutib yeb qoʻyadi. – dedi.
Bolasi onasining soʻzini tinglamadi, inidan chiqqan zamon- yoq, poylab turgan mushuk uni eb qoʻyadi.

Mana, aziz bolalarim bu hikoyamdan ota-onaga itoat qilmas-likning zarariga bildingiz. Endi mening ikki ogʻiz nasihatim esingiz- dan chiqmasin:

1. Har ona oʻz bolasini sevadi, doimo uning yaxshi bola boʻlishini istaydi, unga har vaqt goʻzal nasihat qiladi.
2. Bolalar ham ota-onalarining soʻzlarini tinglashlari, nasihat- larini quloqlariga olishlari kerak.

Bobolarimiz bola tarbiyasida ota-onalar oldiga shunday talablar qoʻyganlar:

Ota-ona bolaga ustozdir. Ular:

- bolani yaramas ishlardan saqlab yaxshi ishlarga qiziqtirish- lari, uning yonida yomon qiliqlardan saqlanishlari, odob, tarbiyaga, zid soʻzlarni gapirmasliklari lozim;

- bolani hech kimga yomonlik qilmaslikka, qoʻldan kelgancha yaxshilik qilishga koʻniktirish, uning koʻngliga shavqat, marhamat tuygʻularini solishga gʻayrat qilishi kerak;

- bolani yaxshi toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirib, oʻzlari ham shu yoʻldan ketishlari lozim. Ota-onaning odob, tarbiya, ekanligi har bir xatti-harakatidan koʻrinib tursin, bolalarga namuna boʻlsin;

- yaxshi deb bilgan ishni ishlab koʻrsatish va u ishning yaxshiligiga bolani ishontrish kerak;

- bola tarbiya qiladigan ota-onaning oʻzi toʻgʻri soʻzli boʻlishi, muhabbat asarini koʻrsatib, har bir vaqt unga xayrixoh boʻlganini bildirishi lozim;

- yaxshi tarbiyalanib turgan bolani oʻz darajasiga loyiq mukofotlash va uning aksincha, boʻlganlarga isloh qilarlik ravishda jazolash tarbiyaning negizidir. Mukofot uchun shirin soʻzlar bilan ularni maqtash, sevgan narsalariga erishtirish birga oʻtirib suhbat- lashish kerak. Bola ota-onasining yuzida norozilik alomatlarini koʻrib uning jazo ekanini bilsin. Mukofot yoki jazo bolalarning saviyasi darajasida boʻlsin;

- bola bolaligini kilmasdan koʻymaydi, katta-kichik boʻlma- gʻur ishlarni qilib qoʻyadi. Uning bu kamchiliklarini biratoʻla bitirish mumkin emas, vaqti-vaqti bilan sekin-asta tuzatish har bir ishda sabrli boʻlish lozim. Bolalar yonida har vaqt odillik bilan ustozlarcha ish olib borish, tarbiyaning eng muhim negizidir;

Bobolarimiz bola haqqi – ulugʻ xalqlarning ulugʻi boʻlib, bunga ota-ona va murabbiylar masʻuldir, deyдилar: Shuning uchun bu haqlarini bilish va kerakli paytda ado etish, ota-ona va murabbiy- lar uchun lozimdir. Bola yoshlik vaqtida har xil tarbiyaga qobil boʻlgani uchun bu vaqt ulugʻ gʻanimatdir. Shunga koʻra, uni yoshlik-bolalik vaqtidan boshlab, tarbiya qilish kerakdir. Agar bolaga goʻzal tarbiya berilsa, u baxtli saodatli boʻladi, har bir yaxshi ishlari bilan ota-ona va murabbiylarini shodlantiradi.

Bolalarni go'zal tarbiyali etish uchun, ota-onaning o'zlari axloqli tarbiyali bo'lishlari shartdir. Bolalarga bergan tarbiyalariga o'zlari amal qilmasalar, xulq-atvorlarini tuzatmasalar, bolalariga umrlari bo'yicha tarbiya bermasalar foydasi bo'lmaydi. Ota-ona bolalarini to'g'ri so'zlash to'g'ri ishlashga o'rgatib tarbiya etsa, bolalari to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishlashga odatlanadilar. Yomon tarbiya bolalarni baxtsiz qiladi.

Bolalarning buziq so'zlarni eshitib kulib turishi, yaramas ishlarini olqishlash, ularni orsizlik axloqsizlikka odatlantirishdir. Nazorat ostida bolalarga go'zal o'yinlar o'rgatish ularning zexnlarini ochadi. Bolalarni foydali o'yindan ajratmaslik kerak. Bolalarni ularning tabiatlariga mos bo'lgan ko'ngillari istagan o'yinlardan ayirish iste'dod-qobiliyatlarining rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Zero, o'yinlarni man etish natijasida bolalar asabiy o'zlarini tuta olmaydigan va muhokamasiz bo'lib yetishadilar. Bir donishmand: "Ota-ona va murabbiylarning bolalarini zararsiz o'yinlardan ham mahrum etishlari ularning marhamatsiz ittifoqsiz va kishilarga yoqimsiz bo'lishlariga sababchi bo'ladi" – deb aytadi. O'tmishda ishonch hosil qilish usuli noo'rin harakat qilgan, qilgan ishida adolatli bo'lmagan, bolalarga nisbatan qo'llangan. Ishontirish usulida boladan yo'l qo'ygan xatosiga iqrar bo'lish talab etilgan, talab "nima uchun qilding?", "nega bu ishni qilding?" "Kim senga bu ishni qilgin dedi?" savollariga javob olish tarzida bo'lgan.

Bola tarbiyasida o'g'il bolalarga qaraganda qiz bolalarga ko'proq e'tibor berish lozim. Chunki qiz bola voyaga yetgach boshqa xonadonga kelin bo'lib tushadi. Agar u uy ishlarini bilmasa oilaga rahbarlik qila olmaydi. Yo'l yo'riq ko'rsatish, tushuntirish usuli kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yoshdagi bola ota-onadan kattalardan axloq qoidalari haqida birinchi bor saboq oladi, qoidalarni doimo xotirada saqlab tura olmaydi, o'z hayotida unga izchillikda amal qilmaydi. Kichik yoshdagi bolalarda bu xususiyatning bo'lishi tabiiy holdir. Shu sababli ham o'tmishda xalqi qo'llagan tushuntirish usuli an'ana sifatida hozirgi vaqtda ham ijodiy tarzda davom etilmoqda.

O'tmishda hozirgi davrda ham axloq tarbiyasi ota-onaning, katta yoshdagilarning o'z yaxshi fazilatlarini, xulq-atvorlari bilan bolalarga yoshlarga namuna bo'lishlari shart. Shu sababli ham xalq

ijodining maqol va iboralarida namuna bo'lishning ahamiyati keng ifodalangan. Ota-ona va kattalarga izzat-hurmat ko'rsatish olqishlash taqsinga sazovor ishdir. Ota-onaning roziligini olishga diqqat va g'ayrat qilmoq lozim. Yoshi anchagina soqol mo'yablari chiqqan o'g'il ham otasi huzuriga chiqqanda qo'l qovishtirib salom berishi kundalik qarzdor.

Farzandlarning go'zal odobli tarbiyali bo'lishlari uchun eng avval ota-onalarning o'zlari go'zal xislatga, yani yaxshi tarbiyaga odobga ega bo'lishlari shart. Bir olim fozilning: "Go'zal tarbiyali ota-onadan tarbiyali odobli farzand etishadi" – degan so'zi juda to'g'ri.

Bayt.

*Barcha yerda istasang o'tsin so'zing,
Tabiat birla, qurollangil o'zing.*

Ona bo'lish – ulug' bir ne'mat va nazrsiz bir sharafdir. Bola tarbiya etish usuli bilan oshno bo'lish, xotinlar uchun lozim bo'lgan ishlarni bilish go'zal va xunuk xulqlardan xabardor bo'lish, xotinalarning vazifasidir, yana bola tarbiyasi uchun lozim bo'lgan sog'liqni saqlash bilan tarbiya ilmidan olgan ma'lumotlarini ortirish uchun g'ayrat qilish lozimdir.

Bolani urib, qattiq qo'llik bilan emas, balki muloyimlik bilan tarbiya etish kerak. Zarar bilan foydani xali ajratolmagan yosh o'smirni nazoratsiz qoldirish xatodir.

O'zbek xalqi axloqiy tarbiyada o'z bolasiga namunali va yaxshi xatti-harakati bilan boshkalarga namuna bo'ladigan o'rtog'ini maqtash va ibrat ramzi bo'lgan kishilar hayotidan ayrim lavxalarni og'zaki ijod asarlaridagi ijobiy qahramonlarning axloqiy fazilatlarini hikoya qilib berish usulidan ham foydalanadi. "Hikoyat: Sulton isimli bola o'z o'rtog'i Yusufjonga:

- Yusufjon, Ali akaning bog'idagi yong'oqlarni ko'rdingmi? Qanday yaxshi shirin yong'oqlar. Yur shu yong'oqlarni cho'ntagimizni to'ldirib olaylik. – dedi. Yusufjon unga:

- Yo'q bo'lmaydi, – deb javob berdi.
- Nega sen yong'oqni yomon ko'rsanmi? Men bilan, sen yong'oqni yaxshi ko'rsan, nima uchun bo'lmaydi deysan?
- U yong'oqlar Ali akaning yong'oqlari, egasidan so'ramasdan olish yaxshi emas, shuning uchun qabul etmayman.

- O'rtiq, yo'q dema, bizni hech kim ko'rmaydi. Men daraxtga chiqib yong'oq qoqaman sen terib olasan, kel, yo'q dema.

- Yo'q dedim-ku, bo'lmaydi.

- Bugun senga nima bo'ldi. Faqat "yo'q bo'lmaydi" degan so'zni qaytarib turasan, buning sababini so'zla.

-Sababini so'zladim-ku, yong'oqlar bizniki emas, o'g'rilik qilmayman.

-O'g'rilik deysanmi? Qiziq bola ekansan. Hech kim ko'rmagandan keyin o'griligi nimasi?

- Hech kim ko'rmasa ko'rmasin, lekin vijdonimiz ko'rib turadi, u bizni yomon ishlardan qaytaradi, shuning uchun sening taklifingni qabul qilmayman".

"Sevimli o'gillarim, - deydi ota - doimo yomon ishlardan saqlaning, birov sizni yomonlik qilishga taklif etsa. Yusufjondek "yo'q bo'lmaydi" deb javob bering".

Bobolarimiz bolalar bilan suxbatlar o'tkazib, ularning har bir inson sharafi, obro'si yaxshi xulqi bilan ortishining. yomon xulq bilan kamayishini bilib olishlariga alohida etibor berib, yaxshi va yomon xulqning ma'nosini tushuntirib, nasihat qilib deganlar: "Aziz bolalarim, bu so'zlar buyuk bir haqiqat, doimo yodimizda bo'lsin. Doimo yomon xulqlarimizni yo'qotishga, uning o'rniga yaxshi xulqqa ega bo'lishga g'ayrat qilaylik. Kelinig. hammamiz birgalikda yaxshi va yomon xulqlarning ba'zilarini bu suxbatimizda tekshirib o'taylik".

Yomon xulqlardan biri takabburlik va g'ururdir. Har kim o'zini sevadi va o'zining kamsitilishini istamaydi. Takabburlik, mag'rurlik, manmanlik esa boshqalarni mensimay o'zini hammadan yuqori qilib ko'rsatishdir. Mag'rur va takabbur odamlar tez orada hamma do'stlarini yo'qqa chiqaradilar. Olimlardan biri shunday degan:

- Mag'rur, manmanlikka mukkasidan ketgan odam tinchilik bilan ertalab nonushta qiladi, zo'rga-zo'rga tushki ovqatni yeydi, xijolatlar ichida kechki ovqatni yeyishga kirishadi. Buning ma'nosi shudir:

Mag'rur va takabbur, odam oldin boy bo'lsa ham, keyinchalik juda muxtojlikka tushib qoladi. Chunki g'urur, takabburlik insonni doimo isrofga chaqiradi. Mag'rur odamlar o'zlarini hamma-

dan yuqori ko'rsatish uchun ilm, mexnatdan qochadilar. Shu sababli, zarurat va muhtojlik bosh ko'rsatadi. Muhtojlik va zarurat bilan barobar uyalish va xijolat chekish keladi. Har narsa yetarli bo'lib, rohatda yashagan birovning ko'nglini mag'rur va takabbur odam muxtojlikka tushgan vaqtida hech kimdan yordam va yaxshi muomula ko'rmaydi. Hatto bir vaqt undan ko'ngli qolgan odam tomonidan yaxshi muomila ko'rsa, juda ham xijolat chekadi.

Yomon xulqlardan yana bittasi maqtonchoqlikdir. Masalan: bir bola hech bir rasm tushurishni bilmasa ham: "Men falon rassom kabi rasm chizaman, men chizgan rasmni uncha muncha rassom chiza olmaydi" - deb o'zini maqtasa, u bolaga maqtonchoq bola deyiladi. So'zning xulosasini aytganda, bir odam o'zida bo'lmagan sifatlar bilan maqtansa, u odamni "maqtonchoq" deb chaqiradilar. Odam o'z obro'sini ma'nosiz so'zlar bilan ortira olmaydi. Maqtonchoqlar o'zlarini kulgiga qoldiradilar, xalq qoshida bebro' bo'ladi- lar, maqtachoqlik axmoqlikning dalilidir.

Tavoze - o'zini kamtar tutishlikdir. Takabburlik, g'urur, maqtonchoqlik yomon xulq bo'lgani kabi, tovoze hammaga maqbul bir xulq fazilatdir. Tovoze manmanlik va maqtonchoqlikning aksidir. Tavoze odam o'zida bo'lgan avzallikni aslo tilga olmaydi, o'zini kamtar tutadi. Donishmandlardan biri tavoze haqida shu go'zal so'zni aytadi: - Afzallik, ortiqlikni yuqorilashtiradigan va uni yana ham porloq ko'rsatadigan tovozedir. Insonda biror afzallik bo'lsa, uni har kim ko'radi, Afzallik o'z-o'zini ko'rsatuvchi bir nur kabidir. Tavoze uning atrofidagi dog'larni ketkazadigan tozalaydigan bir fazilatdir".

Ota onalar o'z bolalari haqida boshqalardan salbiy fikr eshitmaslik, bolalarida go'zal axloqli odamlarga nisbatan havas, ularga o'xshashga intilish tuyg'usini tarbiyalash va o'stirishga, ularning odob-adab so'zlarining ma'nosini anglab olishlariga harakat qilganlar.

Maktabda o'qitiladigan fanlarda urf-odatlar, xalq og'zaki ijodining ahamiyati.

Maktab ta'limida o'quvchilar o'zbek xalq pedagogikasi an'analari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bunga tabiiyki maktabda barcha fanlarni o'rganishda xalq pedagogikasi an'analaridan foydalanish orqali erishiladi. Fanlarni o'qitishda

ularning mazmuni xususiyati vazifasi hisobga olgan holda axloq, nafosat, baynamillik, insonparvarlik, vatanparvarlikka doir inson va o'simlik va hayvonot olami haqidagi an'analardan foydalaniladi.

Maktabda o'qitiladigan ayrim fanlar mazmunida xalq an'analari urf odatlari mavjud. Masalan ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda o'rganilayotgan mavzu xususiyatlariga qarab, xalq ogzaki ijodidini ertak dostonlarda yozuvchilarning asarlarida aks ettirilgan xalq urf-odatlari an'analari ustida so'z boradi. Ularda tasvirlangan lavhalar mazmuni so'zlatiladi. O'quvchilar o'zlari bilgan eshitgan urf odatlarni aytib beradilar.

Maktabda o'qitiladigan fanlar orasida "Tarbiya", "O'qish", "Adabiyot" kabi fanlarning, ayniqsa, hamiyati kata. Bu fanlarning negizi odob-axloq tushunchalari bilan birga xalq pedagogikasi namunalari orqali tarbiyaviy g'oyalarni ham singdirishga xizmat qiladi.

Tarix fanini o'qitishda o'qituvchi o'zbek xalqining har bir ijtimoiy tuzim davridagi madaniyati san'ati haqida ma'lumot berar ekan, ularni o'quvchilarning puxta o'zlashtirib, olishlari uchun maktab muzeida to'plangan adabiyotlar tasviriy sa'nat me'morlik, kulolchilik, xattotlik kabi san'at na'munalarini yodgorliklarni namoyish etadi. Ularda o'zbek xalqiga mos san'atkorlikning qadimiyligini hikoya qiladi. Mehnat darsida o'qituvchi mehnat go'zalligi inson yasagan har bir yaxshi buyum narsada aks etishi haqida so'zlab, tikilgan eng yaxshi ko'ylak, dastro'mol yasalgan kursini ko'rsatib, ularda inson mehnatining go'zalligi namoyon ekanligini aytib o'quvchilarda go'zallik yaratish tuyg'usini tarbiyalaydi.

Musiqasi va qo'shiq darslarida magnitafon gramm plastinkalarda yozilgan, qadimgi xalq qo'shiqlari o'quvchilarga eshittiriladi. Qadimiy musiqasi asboblari, ko'rsatiladi. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar an'ana sifatida davom etayotgan xalq o'yinlarini ijro etadi.

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analari (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom,

shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasi sanaladi.

Ijtimoiy ongning shakllantiruvchi metodlari o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongning shakllantiruvchi usullari qo'llaniladi.

O'quvchilarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim. Tushuntirishning shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasining mohiyati tushuntiriladi. Suhbat o'quvchining g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirish mumkin:

a) epik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

d) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);

e) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Suhbatlarning, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigiyenik mavzularda ham tashkil etilishi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish juda muhimdir. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boylar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari – radio, televideniye, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushundigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar. Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatning, ba'zan esa yomon sifatning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma'lumotlar, adabiy asar, kinofilm va

spektakllar qahramonlarining xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar. Namunada xalq pedagogikasi g'oyalaridan ham foydalaniladi. Ota-onalar o'z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, "qush uyasida ko'rganini qiladi". Juda oddiy xulosa. Shu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq "uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi", "bola oldida birovlarining g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi", demoqchi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish va o'quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeyini oshirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qish, tarbiya va dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O'z-o'zini tarbiyalash tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli. O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kunda-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli. O'quvchining qobiliyatini o'z

kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari, atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O'z-o'zini baholash o'quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga chetdan turib xolisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganligidir. Ushbu metodni qo'llash sinfning o'quvchilarining umumiy yoki jamoa a'zolarining shaxsiy xususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo'llaniladi: "Shunday harakat qilish kerak", "Hamma shunday qiladi". O'smirlar bilan ishlaganda ma'naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma'nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo'llaniladi:

1. yangi ma'naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko'nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;
2. tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o'quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to'g'ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Maktab amaliyotida izohlash ishonirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o'quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'smirlar ishonuvchan bo'lishadi. Pedagog ishonirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko'rsatmani qabul qilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular ("Did haqida bahs", "Mashhur bo'lish yo'llari", "Biz madaniyatli kishilarmizmi?" va hokazolar)da o'tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quv-

chilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5-6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba'zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o'zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisqa bo'lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi. Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi. O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, joby jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilingan turli harakatlar, amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

- faoliyatda mashq qilish;
- kun tartibi mashqlari;
- maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa

faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar, mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglash olishi zarur. Shundagina o'quvchi o'zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o'z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo'ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o'z o'rniga ega. O'qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag'batlantiruvchi usullardan foydalanadi. O'quvchining yanada ijobiy sifat-larga ega bo'lishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llaniladi. Har qanday rag'batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi zarur, shuningdek, o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo'llaniladi. Jazolash tarbiyalanuvchining

xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham o'quvchining individual xatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo'llaniladigan eng so'nggi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydalanish mumkin emas, o'quvchini qo'rqitish, g'azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o'quvchi qo'rqanda yolg'on gapirishni o'rganadi, ikki yuzlamachi bo'lib qoladi.

Tanbeh berish – eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'qituvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin. Ogohlantirish – sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Hayfsan berish – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo'lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odanning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odanda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin. Jazo puxta o'ylab qo'llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka xarakterda, ya'ni birgina usulni qo'llash asosida bo'lsin, o'quvchining aybiga mos, muvofiq bo'lishi, tez-tez qo'llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to'g'ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug'ilmasin va ular o'z ayblarini sezsin. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Barcha holatlarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlariga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha'nini yerga urmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda yuqorida ta'riflangan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish soha-

larini qamrab olmaydi. Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi. Bu guruhlar o'z navbatida bir qator tarbiya elementlarini tashkil etadi. Chunonchi, shaxs ongini shakllantirish metodlariga: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, ishontirish, nasihat, yo'riqnoma, munozara, ma'ruza, namuna; faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlariga mashqlantirish, odatlantirish, pedagogik talablar, jamoat fikri, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat; xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlariga: musobaqa, rag'batlantirish va jazolash kiradi.

Xalq pedagogikasida farzand tarbiyasida ijobiy ta'sir etadigan metod, usul va vositalari

Oilada bola shaxsini shakllantirishda oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, xonadon qariyalariga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari to'g'ri tarbiyalangan ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari muhimdir.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir, oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak.

Bolalarga onani hurmat qilishni, unga mehribon bo'lishni o'rgatish otaning muhim vazifasi.

Odatda o'g'il bola otasiga, qizlar esa onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham, ona ham, bolani tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar.

Ona g'amxo'r, mehribon, ko'ngilchan bo'lsa, ota - kuch qudrat, jasurlik, qattiq qo'llik, bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qayg'ursa, ona - yurish-turish, muomala, his tuyg'u, nafosat uchun tashvishlanadi.

Ota ham ona ham bolaning aqliy, axloqiy jismoniy kamoloti uchun baravar javobgar, chunki ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Bola shaxsini shakllanishida sog'lom oilaviy muhit katta ahamiyatga egadir. Oilada ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va vafosadoqat bolalar quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga,

normal tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhit yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oila a'zolari hurmatini o'rniga qo'yishlari, bir-birlari uchun jon kuydirishlari, yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Oilada hamisha samimiyat va ko'tarinki ruh hukmron bo'lsa, oila a'zolarining kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Qaysi olida nohaqlik, qo'pollik, do'q-po'pisa, asabiylik, hukmron ekan, unda halovat ham bo'lmaydi. Oiladagi arzimagan janjal ham dastavval bolalarning psixik holatiga ta'sir qiladi, ularda yomon odatlar hosil bo'lishiga olib keladi. Bolalar ulg'aygach, ular ham qush uyasiga ko'rganini qiladi qabilida ish tutishadi.

Ota-onalar bir-birini behurmat qilmasligi, obro'larini tushirmasligi, oilaviy nizolarni bola yo'q vaqtida bartaraf etishlari shart. Bola yomon yoki yaxshi xulqli, fe'l atvorli bo'lib tug'ilishmaydi. Uning o'sib borishi jarayonida oila muhiti, ota-onaning, kishilarning, atrof-muhitdagi munosabatlarning ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oiladagi totuvlik, hamjihatlik, bu o'zaro hurmat va yordam, shirin-suxanlik, mehnatsevarlik va to'g'rilik bolaga ijobiy ta'sir qiladi.

Oilada axloqiy tarbiy. Axloq barcha insoniy munosabatlarning asosi bo'lganligi sababli ijtimoiy tarbiyani negizida bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Pedagogik manbalardan birida oilada "ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va taqiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish maqsadi ko'zlanadi". Yuqoridagi fikrga tayangan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oilada yoki ta'lim muassasalarida bo'lishidan qat'iy nazar ma'naviy-axloqiy tarbiya quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

Ota-onalar oila sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyani uyushtirishda bolalarning eng oliy axloqiy sifatlar - ota-onani hurmat qilish, oilaning katta yoshli a'zolariga g'amxo'rlik ko'rsatish, atrofdegilarga mehr-muhabbatli bo'lish, kattalarni izzat qilish, to'g'risozlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, insonparvarlik, or-nomus, g'urur, vijdon, saxiylik, har qanday jarayonda ham adolatli bo'lish, intizomlilik, ijtimoiy faollik, chin fuqarolik, oilaparvarlik va boshqalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

“Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondashuvlaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. oilada muayyan an'ananing qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdegilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi”.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya negizida vatanparvarlik tarbiyasi, uni tashkil etish ham muhim o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida oilalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, mamlakat mustaqilligi va yurt ozodligi vatanparvar shaxslarning sa'yi-harakatlari evaziga ta'minlanadi. vatan mustaqilligiga erishish qanchalik qiyin bo'lsa, uni himoya qilish, mustaqillikni saqlab qolish ham shunchalik murakkab jarayondir. Shu sababli oilalar ham ta'lim muassasalari kabi mamlakat mustaqilligini himoyalashga tayyor bo'lgan vatanparvar shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishga o'z hissasini qo'sha olishi kerak. oilada vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etar ekanlar, ota-onalar, eng avvalo, o'z farzandlari ongiga vatanparvarlik va vatanparvar shaxs tushunchalarini singdira olishlari lozim bo'ladi.

Shu bilan birga ota-onalar o'z farzandlari bilan birgalikda vatanparvarlik mavzusidagi kinofilm, teatr spektakllarini tomosha qilish, oila davrasida birgalikda vatanparvarlik g'oyalarini yorituvchi kitoblarni mutolaa qilish, shuningdek, xizmat vazifasini bajarish, vatan mudofaasini tashkil etish chog'ida yuksak vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan shaxslarning hayoti, iboratli faoliyatiga oid hikoyalarni bayon qilishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Qolaversa, bolalar xonasi devoriga asl vatanparvar bo'lgan shaxsning portretini osib qo'yish ham bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni mazkur shaxsdan namuna olishga ruhlantiradi.

Oilaviy suhbatlar farzandlarga vatanparvar shaxsga xos bo'lgan quyidagi sifatlar xususidagi quyidagi ma'lumotlarni bera olishi zarur: Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat; o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlariga sodiqlik; Vatana va millat tarixidan g'ururlanish; yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish; Vatana ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat faoliyatini tashkil etish; yurt ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish; Vatana va millat obro'si, sha'ni, or-nomusini himoya qilish; yurt ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonish.

Ota-onalar oiladagi suhbatlar jarayonida odob, axloq, axloqiy me'yor, axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy e'tiqod nima ekanligini bolalarga tushuntirib borishlari lozim.

Odob (arab. “adab” so'zi. ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'z g'alalar bilan munosabat (oilaga, mehnat jamoasi, turli marosimlarda namoyon bo'ladi). Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalar (Masalan: sharm-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik singarilar)ni o'z ichiga oladi. Insonning diniy e'tiqodi uning odobli bo'lib kamol topishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Odob ta'lim-tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

Axloq (lot. “moralis” – xulq-atvor) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi.

Axloqiy me'yor – jamiyat tomonidan tan olinib, uning a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan, ularning xulq-atvori, muomalasi, yurish-turishi, ijtimoiy borliq va tabiatga munosabatini tartibga solib turadigan qoidalar.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning

shakllaridan biridir. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlodlar tomonidan to'plangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Axloq ilmiy yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning ichki va tashqi olamini o'rganish, bilish, tahlil qilish g'oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolatu-diyonat, hayoyu-iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksibeburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro'-shuhrati kishilarning axloq -odobi, yaxshi xislat fazilatlarini bilan belgilanadi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

- tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish).
- mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
- namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'mak bo'lish).
- nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
- qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

O'tmishda ragbatlantirish usuli bola, qilgan ishini xulq atvorini ma'qullash maqtash tabriklash shaklida qo'llanilgan. Bolanig yaxshi xatti-harakatini xulqini maqullash, unga ijobiy ta'sir etadi, unda kelgusida yana go'zal ishlar qilishga o'z

qobiliyati va bajargan yaxshi ishlaridan faxirlanish tuyg'usini o'stirishga xizmat qiladi.

Taqdirlash usuli bolaning qilgan ishidan mamnunlik foydasi bo'lgan. Barakalla, raxmat bolam omon bo'l deyish, yoqimli kulish, boshini silash, peshonasidan o'pish shaklida amalga oshiriladi.

Tanbex usuli kichik yoshdagi bolalarga nisbatan o'rtoqlari bilan qo'pol muomilada bo'lgan topshiriqlarni bajarmagan yoki yomon bajargan qiz bolani noo'rin ranjitgan o'gil bolaga nisbatan qo'llaniladi.

Bola noo'rin qilgan xatti-harakatini tezkor takrorlaganda yoki o'ziga topshirilgan ishni bajarmaganda ogohlantirish usulidan foydalaniladi.

Rizosizlik usuli jazolanishning yuqori bosqichi hisoblangan, rizosizlik bola ruhiyatiga kuchli ta'sir etgan unda ruhiy tushkunlik yuz bergan. Shu sababli bu usul xalq pedpogikkasida kam qo'llanilgan. Ota va ona, ayniqsa, ona o'gli yoki qizi tomonidan yomon xatti-harakat sodir bo'lganda rizosizlik bildirilgan.

O'zbek xalq pedagogikasida man etish buyruk berish usullari uyatli iboralar aytgan, so'kingan giyohvandlik, qimor o'ynash kabi inson sha'niga dog tushuruvchi ishlarga berilgan o'smirlarga nisbatan qo'llanilgan.

Xalq pedagogikasida keng o'rin olgan sinash usuli bolaning odamlar va o'rtoqlari bilan mulokatda, jamoat o'rtasida mehnat munosabatlarida axloq qoidalariga rioya etishni kuzatishda qo'llanilgan, bu haqida maqollar ham ijod etilgan.

Kechirish va oliy hikmatlilik usuli bolalar faoliyatida kamchilik sodir bo'lganda qo'llangan. Ota-on va muallim bunday vaqtda ularning kamchiliklarini kechirgani bunday ishlarga yo'l qo'ymaslik uchun yordam berishni o'zlarini vazifalari deb bilganlar. Darhaqiqat kechirish oliyanoblik yaxshi xulqli ota ona va ustozlarga munosib bir sifatdir. "Kichiklardan adashish, kattalardan kechirish", - deb to'g'ri aytilgan.

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya'ni yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Bu

holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'g'iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordi-yu, bu holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e'tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so'nggi chora sifatida qoralash va jazo metodida foydalanishga to'g'ri keladi. Biroq bu eng so'nggi chora. Zamonaviy pedagogika g'oyalari ko'ra qoralash va jazo metodlarini so'nggi, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlangan.

Nazorat topshiriqlari.

1. Utmishda ota-bobolarimiz tarbiyada kandy usullardan foydalangan?
2. Qanday usullar kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muxim ahamiyatga ega?
3. Islom dini ta'limotida "Qur'on"dan keyin turadigan muqaddas kitob qaysi javobda tugri kursatilgan?
4. Maktabda ukutiladigan ayrim fanlar mazmunida xalq an'analari, urf-odatlar mavjud. Ular kaysi fanlar hisoblanadi?

XALQ PEDAGOGIKASIDA ILM EGALLASH, KASB-HUNAR VA IQTISODIY TARBIYAGA OID FIKRLAR

Etnopedagogika manbalarida ilm va ilm sohiblarining ulug'lanishi

Yosh avlodga aqliy tarbiya berish, ularning ongini ilm bilan qurollantirish barcha davrlarda xalqning diqqat markazida bo'lgan. Keng xalq ommasi o'tmishda ommaviy tarzda ilm egallash imkonidan mahrum bo'lsada, hamisha bolalarni ma'lumotli, fan yutuqlaridan xabardor kishilar qilib tarbiyalash orzusi bilan yashagan. Shuning uchun: "Ilm - aql chirog'i", "Ilmsiz ish topilmas, ishsiz qorin to'q bo'lmas" singari maqollar yaratilgan.

Xalq hamisha ilm - tafakkur quroli, dalillarni ma'lum maqsadga ko'ra o'rganish, tushuncha va qonunlarni o'zlashtirishdan iborat ekanligini tasavvur qilgan. Bu tushuncha va tasavvurlarda tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari aks etganligini bilgan.

Ilmning ahamiyati xalqning bo'rttirilgan tarzdagi "Ovqat topib yeyishning o'zi uchun o'n million turdagi bilim zarur", -

degan maqolida yaxshi ifodalangan. Ushbu maqolda ilm-fan yo'nalishlari va turlari juda ko'p ekanligiga ishora qilingan.

Etnopedagogika manbalarida ilm barcha boyliklardan ustun qo'yiladi, uning yordamida albatta baxtga erishish, dushmani va turmush qiyinchiliklarini yengish mumkinligi ta'kidlanadi:

"Bilim puldan qadri. qilichdan o'tkir, to'pdan kuchli", yoki: "Bilim - aqlning yarmidir". - deyiladi. Xalq ommasi haqiqiy boylik moddiy buyumlarda emas, balki ilmni egallashda ekanligi targ'ib etiladi. Ularda ilm yirtilmas kiyimga, tuganmas buloqqa o'xshatiladi. Shuningdek, bilim qancha ko'p sarflansa ham u tugamaydi, balki ko'payib boradi. Ilmni o'ziga jo etuvchi ong shunday idishga o'xshaydiki, qancha ko'p ilm egallasang ham u kengayib boraveradi, lekin yorilib ketmaydi. Boylik ko'payganda esa uni sig'dirib bo'lmay qolish ham mumkin.

Jamiyatda kishi odamlarni yangi kiyimi bilan emas, balki bilimi bilan hayratlantirish lozim deyiladi. Jumladan: "Aqldan qimmatli narsa yo'q", "Aql bozorda topilmaydi", "Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar", "Olamni quyosh, insonni bilim charog'on etadi" va b..

Xalq pedagogikasida qadimdan ilm sohiblariga nisbatan hurmat, ehtirom ko'rsatish targ'ib etilgan. Ilmli kishilar ulug'lan-gan. Hokimlar, shohlar o'z yonlarida ilmli kishilardan maslahatchi-lar saqlaganlar. Bilimni bolalikdan o'rgatish tavsiya etilgan. o'z bilimini boshqalarga o'rgatmaslik "yomg'irsiz bulut"ga qiyoslan-gan. Shuningdek, ilm o'rganish oqimga qarshi suzishga o'xshatilgan va uni muntazam olib borish kerakligi ta'kidlangan: "Yoshlikda o'rganilgan bilim toshga o'yilgan yozuv", "Bir marta saboq ol, o'n marta takrorla" va hokazo.

Donolarni, ustozlarni hurmatga chorlovchi manbalar ham ko'p: "Ustozing uchun xanjar yut", "Chiroqni yog' yoritir, bilimni ustoz", "Ustoz - otangdan ulug'", "Ustozning qattiqqo'lligi, otaning maqtovidan yaxshiroq" va b..

Xalq pedagogikasida aqliy tarbiya berishni an'analar (dehqonchilik, astronomik ...) bilan bog'lab olib borish tavsiya etiladi. Chunonchi, eski yil hisobi, oy nomlari; hamal, savr, chilla ... kabilar.

Xalq qadim zamonlardayoq aql faqat bilimni emas, balki

bilimni amalda qo'llashni ham o'z ichiga oladi, degan fikrga keldi. U aql g'oyalar majmuidan iborat, aqlli odamgina barcha hayot hodisalarini tushuna oladi va maqsadga erishadi degan fikrni olg'a surdi. Buning uchun bolaga yoshligidan boshlab ta'lim berish lozimligini ta'kidlaydi. Xalq o'z tafakkur kuchi va tajribasiga asoslanib, o'z ta'lim metodlarini ham tavsiya etadi. Ushbu ta'lim metodlari buyuk mutafakkirlarning didaktik qarashlaridan qolishmaydi.

Etnopedagogika manbalarida ta'kidlanishicha, o'qishning kechi bo'lmaydi. Hadislarda: "Beshikdan qabrgacha ilm izla", - degan fikr xalqning ushbu fikriga mazmunan juda yaqin. Shuningdek, A.Navoiyning:

"Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim" ...

tarzidagi hikmatli baytlari ham etnopedagogika durdonalaridan mohirlik bilan foydalanish natijasi bo'lib, u o'quvchini ilmlarni boshqalardan tinimsiz o'rganishga chorlaydi. Shuningdek, xalqda: "Agar o'zing bilmasang, bilganlarga quloq tut", deyiladi.

Etnopedagogikada ilm egallash mashaqqatli yo'l ekanligi ta'kidlanib, uning: "Ilm olmoq igna bilan quduq qazish bilan teng" ligi ta'kidlanadi. Shuningdek, "Takrorlash - bilimning onasi" ekanligi "Bir saboqni ming takror qil!" maqolida yanada kuchliroq mazmun kashf etadi.

Xalq ta'limni tizimli va uzluksiz olish lozimligini allaqachon anglab yetgan. Uning didaktik qarashlarida o'qish - oqimga qarshi suzishga o'xshatiladi. Chunki oqimga qarshi suzishda to'xtagan kishi orqaga ketganidek, o'qishda to'xtash ham ilm egallashni orqaga suradi.

Ta'limning ko'rsatmaliligi ham xalq e'tiboridan chetda qolmaydi. "o'n marta eshitgandan bir bor ko'rgan yaxshi" maqoli bu fikrni yorqinroq ifodalaydi.

Ta'limning muhim elementi - bilimlarning mustahkamligi tamoyili. Yoshlikda samarali amalga oshishini: "Yoshlikda o'rgan-gan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir" maqolida bayon qilinadi.

Shuningdek, xalq pedagogikasi manbalarida ilmning qiymati uning amalda qo'llanilishi bilan o'lchanishi alohida ta'kidlanadi.

Hayot uchun foydasiz ilmni egallash qoralanadi. Amalda qo'llan-maydigan bilim - yomg'irsiz bulutga, o'z bilimni boshqalarga o'rgatmagan kishilar ko'ziga solib qo'yilgan yorug'likka o'xshati-ladi. Tillarni o'rganishga xalq olamni bilish imkonini kengay-tiruvchi vosita deb qaraydi. o'zbeklar shuning uchun: "Tilni bilish-dilni bilishga yo'l ochadi", "Yuzta tilni bilgan kishi yuzta aqlning egasidir", - deyishadi.

Ona tilini bilish, uni asrash-avaylash, ta'limni ona tilida olish aqliy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etishi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta'kidlangan. Ona tili - xalqning bebaho boyligi, u "ona" so'zini aytish, o'z ismini bilish bilan bola qalbiga kiradi. Shu til vositasida bola olamni bila boshlaydi, ilk allalar bola qalbiga xalq san'ati ruhini olib kiradi va uni umrbod sehrlab qo'yadi.

Xalq pedagogikasida ilmni yoshlarga amaliy hayotda zarur bo'lgan tabiiy bilimlar bilan bog'lab tushuntirishga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, qadimgi turkiguy xalqlarda oylar, yil hisobi yevropaliklar tavqimidan farq qilgan. Ularda oylar: "hamal" (mart) - 19-martdan, "savr" (aprel) - 19-apreldan, "javzo" - 20-maydan, "saraton" - 21-iyundan ... boshlangan. Har bir oyning, yil fasllari-ning boshlanishi va tugashi quyosh va boshqa sayyoralar harakati bilan bog'lanib, bu vaqtda qanday ishlar qilinishi ta'kidlangan. Jumladan: "Hamal - ekinlarga kirar amal", "Asad - ekiningni yasat", "Savr kirdi - ekinlarga davr kirdi", "Saratonda suv quy, asadda tek qo'y", "Yer haydasang kuz hayda ..." singari.

Shuningdek, miflar, afsonalar, dostonlardagi ijobiy qahra-monlar ham ilm va ustozlarini hurmat qiluvchi, bilimdon, topqir, kasb-hunarli, matonatli, hayot qiyinchiliklarini o'zi egallagan ilm va hunar vositasida bartaraf etuvchi kishilar sifatida ko'rsatilgan. Dushmanga qarshi kurashdagi mahorat ham harbiy ilm sifatida tasvirlangan.

Laylakning kelishi bahordan, qaldirg'och va yovvoyi kabutar - yozdan, qarg'aning qag'illashi - qordan, sovuqdan darak beradi deb tushunilib, shunga mos yumushlar (hosil yig'ish, ekish ...) bajarilgan.

Bolalarga sigirning 9 oyda, tuyaning 12 oyda, quylarning 5 oyda bolalashi, mollarning yoshini ularning tishlariga qarab aniqlash o'rgatilgan. "Baliq", "sigir" yillari serhosil, "ilon", "ot", "sichqon" yillari qurg'oqchil bo'ladi deb tushuntirishgan.

Matematikaga doir bilimlar masofani, hosilni, qurilayotgan uylar o'ldhamini o'ldhash bilan; fizikaga doir bilimlar amaliyot bilan bog'liq holda oddiy richaglar, shamol va suv kuchidan foydalanish misolida; kimyoviy ilmlar chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash (masalan, sutdan qatiq, yog' ... olish, yog'ni quydirish ...), o'simliklardan bo'yoq olish, kiyimlarni tozalash, yuvish bilan; astronomiyaga doir bilimlar yulduzlar va quyoshga qarab vaqtni aniqlash misolida; tibbiyotga bog'liq bilimlar dorivor o'simliklarni to'plash va hayvonlar hamda o'simliklar yog'laridan foydalanib kasalliklarni davolash misolida o'rgatilgan. Bu jarayonda nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkam bog'lab tushuntirilganligi ahamiyatlidir.

Xalq pedagogikasida bolalarning tafakkuri, mushohada qobiliyatini o'stirishda topishmoqlardan unumli foydalanilgan. Topishmoqlar vositasida bolalarga ibtidoiy hisob (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari) o'rgatilgan. Bular jumlasiga: "Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor" (piyoz), "Aylanaverib aylanaverib semirdi xonim" (urchuq), "O'tarda yuz qo'y va echki bor. Ularning nechta oyog'i va qulog'i bor?" (100 ta qo'y va echkida 400 oyoq, 200 quloq bor) va boshqalarni kiritish mumkin.

Yoki otasidan: "Yoshingiz nechada?" deb so'ragan bolaga ota: "o'zingning yoshingga ... yoshni qo'shsang, mening nechta yoshga kirganligimni topasan", - deb javob bergan.

Etnopedagogikada kasb-hunar egallashning afzalligi va vorisiyligi

Hozirgi paytda yoshlarga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishlariga sharoit yaratmay turib, biz respublika xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish sohasini tubdan o'zgartira olmaymiz. Chunki ishsizlik, maosh kamligi, kadrlar taqchilligi va boshqalar ana shu tufaylidir. Bunda unutilib yuborilgan xalq an'analari va udumlarini tiklashga ham e'tibor berish kerak.

Ko'rinib turibdiki, kasb-hunar tarbiyasi hozir mamlakati-mizda ustivor yo'nalishga aylanmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda bizga xalq pedagogikasi yordam berishi mumkin. Chunki ajdodlarimiz kasb-hunar tarbiyasiga alohida e'tibor berishgan. Ilmni, kasb-hunarni so'rab urganish or hisoblanmagan, balki "Orlanib so'ramagan o'ziga zolim" hisoblangan.

Qadimgi xalq maqollarida kasb-hunar egallashning afzalligi va ijtimoiy ahamiyati ko'rsatib utilgan. Chunonchi, "Temirchining ming urgani, bosqonchining bir urgani" maqolida temirchiga qaraganda bosqonchining zarbi kuchliligi emas, balki hunarsizdan hunarlining zarbi unumli ekanligi aytilsa: "Ko'ra-ko'ra ko'zchil bo'lasan, so'zlay-so'zlay so'zchil bo'lasan" maqolida esa, ilmni va kasb-hunarni asta-sekinlik bilan o'rganib, mahoratli bo'lish mumkinligiga ishora qilinmoqda. Xalq maqollarida hunarni mashaqqat-siz o'rganib bo'lmasligi "Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz - hunar" makolida yakkol ko'rsatiladi. Hunar boylikka yetaklovchi yo'l ekanligi shunday ta'kidlanadi: "Tekin boylik axtarguncha, o'zingga bop hunar top!". Hunarni bilimdon ustozdan o'rganish lozim, deyiladi xalq maqolida. Aks holda: "Usta ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar". Har bir ishni shu sohani kasb qilgan kishi bajarsa sifatli bo'lishi: "Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin" maqolida ta'kidlanadi. Hunarning inson hayotidagi ahamiyati maqollarda shunday ko'rsatiladi: "Hunar - zar, hunarsiz - xor", "Hunarli kishi och qolmas". "Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining" kabi va b. Shuningdek, kasb-hunarni o'rganishda kechikishining zarurligi: "Qirqingda surnaychi bo'lsang, qachon chalasan?", yoki: "Qirqida qo'lga soz olgan, qiyomatda qulog'ini burar" maqollarida ta'kidlangan.

Kasb-hunar o'rganishning ijtimoiy ahamiyati ham etnopedagogika manbalarida alohida ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, "Chistoni Elikbek" afsonasida jinlarga qarshi kurashgan Elibek, "Xubbi" afsonasida Amudaryoda 700 yil hukmronlik qilgan Xubbi, "Gershasp" afsonasida ajdarga qarshi kurashgan Gershasp, Ibn Sinoning "Tadbiri manozil" asarida ("... bir kasb-hunarni o'zlashtirishga kirishgan bo'lsin ..."), Kaykovusning "Qobusnoma" sida ("... Ey farzand, ogoh bo'lgilki, hunarsiz kishi ... hech kishiga naf yetqurmas ...") (tarzida) kasb-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Pedagogika fanida tarbiyaning vorisiyligi haqidagi tushunchaga asoslanib, kasb-hunar tarbiyasining ham vorisiyligini tushuntirish mumkin. Chunki o'tmishda xalq o'z farzandlariga ilm va tarbiya berish bilan birga ularga ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan kasb-hunar o'rgatishni ham zarur hisoblagan. Bu kasb bolaga kela-jakda uning o'zi va oilasi uchun moddiy ta'minot vositasi bo'lishi

bilan birga, xalqi va Vatani uchun ham foyda keltirishi zarurligi ta'kidlangan. o'tmishda kasb-xunar urganishning ijtimoiy ahamiyatini ajdodlarimiz tug'ri anglab yetganlar. Kasb-hunarni ota-ona o'z farzandlariga, ustozlar esa shogirdlariga meros qoldirganlar. Hozir ham xalq orasida kasb-hunar vorisiyligi davom etmoqda va bu hodisaning pedagogik ahamiyati pasaygan emas.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida farzand dunyoga kelgach, ota-onaning asosiy burchlaridan biri unga yaxshi ism qo'yish, oqil tarbiyachiga berish, sunnat qilish, savod o'rgatish bilan birga unga hunar va kasb o'rgatmoqni meros deb bilgil, deyiladi. Shuningdek: "Hunarsiz kishi bila do'stlik qilmag'il, nedinkim bunday kishi do'stlik va dushmanlikka loyiq ermasdur", - deydi Kaykovus.

Islom ta'limotining manbalaridan biri hisoblangan "Hadis"larda dehqonchilik kasbi shunday ulug'lanadi: "Ekin ekinglar. Ekin ekish barokatli kasbdir. Ekinlaringni barakasini oshirish uchun qo'riqchilarni ko'paytirnglar".

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bilimli bo'lishni ham oliy kasb deb hisoblaydi:

Bilim ma'nosin bil, nima der bilim:

Bilimdan yo'lni chap soldi o'lim.

Bilimsiz barchasi dardmanddir, dardmund,

Bu dard davosiga bilim hunarmand.

Hatto, 3000 yil ilgari yaratilgan "Avesto"da tasvirlangan "Odami Od" hikoyasidagi Odami Od (forscha - "ulkan odam" demak) ham mohir duradgor usta sifatida chinordan kema yasab, odamlarni qutqarib qolgan bo'lsa, bu g'oya dostonlar, aytishuvlar, madhiya va marsiyalarda ham davom etib, hunarli kishining xalq uchun xizmati buyuk va qimmatli axloqiy sifat ekanligi ta'kidlanadi.

Ko'p asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, barcha davrlarda jamiyatning asosiy masalalaridan biri - yoshlarni biror bir kasb-hunarga o'rgatish va tanlangan kasbiga sodiqlik, e'tiqod, halollikni tarbiyalash hamda kasb sirlarini o'rgatgan ustozlarga yuksak ehtirom ko'rsatishga da'vat etish kattalar uchun muhim vazifa sanalgan. Bu borada, ayniqsa, o'zbek xalqi boy tarixiy tajribaga ega. Dastlab ushbu masalaning o'ziga xos yechimi o'zbek xalq pedagogikasida mohirona tasvirlangan. Jumladan, "Ustoz

otangdek ulug'". "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar" kabi hikmatlarda murabbiy, ustozning mehnati ulug'lanadi, qadr-qimmatini e'zozlanadi.

Keyinchalik bu masala yozma manbalarda yanada sayqalanib borgan. Masalan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" ko'p asrlar davomida yosh avlodga ilmu ma'rifat, kasb-hunarga o'rgatishning asosiy yo'lchi-yulduzi bo'lib kelgan. "Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, - deyiladi "Avesto"da, - u, avvalo, yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin"¹⁴.

Bu ta'limotga ko'ra bolalarga diniy tarbiya berish 7 yoshdan boshlangan va o'qituvchilar o'sha davr ijtimoiy hayotida asosiy vazifani bajarishgan. Ya'ni ular bolalarga ta'lim berishda ta'lim-vazifani bajarishgan. Ya'ni ular bolalarga ta'lim berishda ta'lim-tarbiyaning o'zaro aloqadorligiga e'tibor berib, bolalarni kichikligidan mehnatga, kasb-hunar egallash, o'y-ro'zg'or ishlarini yuritishga da'vat etgan.

Xuddi shunday islom ta'limotida ham yosh avlodni ilm-ma'rifatli qilish, mehnatsevarlik, kasbi orqali halol yashashga o'rgatish asosiy masala sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, hadislarda nafsni tiyish, haromdan hazar qilish, halol mehnat qilish, halol mol va rizq topish kabilar haqiqiy insonning fazilati sifatida tilga olinadi. Shu bilan birga, hadislarda har jabhadagi halollik kabi kasbdagi halollik kishilarga huzurbaxsh onlarni hadya etishi uqtirib o'tiladi: "Kishi tanovul qilgan narsaning eng pokizasi o'z kasbidan yeganidir" - deyiladi¹⁵.

Shu bilan birga, hadislarda halol kasbdan qilinadigan ajr to'g'risida shunday deyiladi: "Agar banda haloldan kasb qilib, undan sadaqa va infoq qilsa, ajr va barakatga erishadi. Ammo haromdan mol topib, bu ishlar (sadaqa, infoq)ni qilsa yoki u (topgani)ni ortidagilarga qoldirsa, unga faqatgina do'zax olovi ziyoda bo'ladi" - deyiladi¹⁶.

Darhaqiqat, hadislardagi ushbu fikrga asoslanib shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchilik kasbida ham halollik talab etiladi.

¹⁴ Avesto. (Askar Maxkam tarjimasi). - Toshkent: Sharq, 2001. - 128 b.
¹⁵ Mirxamidov O. Halol kasb-hunar - kut-baraqa keltinglar. - Toshkent: Mavoroounnaхr, 2018. - 15 b.
¹⁶ O'sha adabiyot. - 16 b.

O'qituvchining halolligi uning o'quvchiga bo'lgan munosabati, o'z kasbiga vijdonan yondashuvi, bor bilimini chin dildan o'quvchiga yetkazishi, pedagogik jamoa bilan munosabatga kirishayotganda vijdonli va adolatli bo'lishida ko'zga tashlanadi.

Ushbu masalaning o'ziga xos pedagogik talqini Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ham e'tiboridan chetda qolmagan.

Xususan, Abu Nasr al-Forobiy o'z qarashlarida har bir shaxs jamiyatda biror-bir kasbni egallashi kerakligini va shu kasbi orqali halol, chin dildan mehnat qilish fuqarolarning burchiligini uqtirib o'tadi. Chunonchi alloma, o'z qarashlarida har bir kasb egasi oldiga bir qancha talablarni qo'yadi.

Mutakkir "Fozil odamlar shahri" asarida "Kasb-hunarni ish tajribada jahd va g'ayrat bilan o'z vujudlariga singdirganlaridan so'ng ularni asta-sekin egallay boradilar" degan g'oyani ilgari suradi¹⁷.

Darhaqiqat, Forobiy ta'kidlaganidek, kishi tanlagan kasbga mehr qo'ysa va unga qanoat qilsa, g'ayrat va jahd bilan yondasha, shu kasbga nisbatan ko'nikish va e'tiqod hosil bo'ladi. Xuddi shunday o'qituvchilik kasbida ham g'ayrat va shijoat, jahd kerak bo'ladi. Zero, o'qituvchi g'ayratli bo'lmasa va har bir ishga jahd bilan yondoshmasa faoliyati jarayonida ko'plab muammolarga uchraydi.

Mutafakkir Nasriddin Tusiyning ustozlar va uning fazilatlarini haqidagi fikrlari ham bugungi davr uchun o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu borada M.M.Xayrullayevning "O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida" nomli kitobida batafsil to'xtalib o'tiladi. Chunonchi: "O'qituvchi munozaralarni olib borishni bilishi, bilimni, inkor etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishni, o'z fikrining to'g'riligiga ishonishi va ishontira olishi, nutqi esa mutlaqo toza, jummalari mantiqiy ifodalangan bo'lishi, shu bilan birga, o'qituvchi sof vijdonli, rostgo'y, shoshmasdan, ishonchli qilib, qat'iy gapiradigan bo'lishi lozim", - deya ta'kidlaydi¹⁸.

¹⁷ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2016. – 185 б.

¹⁸ Хайруллаев М.М. Ўтмиш мутафаккирлари таълим-тарбия ҳақида / Халқ педагогикаси – инсон камолотининг асоси. 1-китоб. – Тошкент: ЎзПФТИ. 1992. – 180 б.

Darhaqiqat, allomaning ushbu fikricha, o'qituvchi o'ziga ishongan bo'lishi, o'quvchilarga beradigan bilimni dadil bayon eta olishi, vijdonli va halol bo'lishi lozim. Aks holda u beradigan bilim samarasiz va ta'sirsiz bo'ladi. Shuningdek, allomaning ta'kidlashicha, o'qituvchi qo'pol bo'lmasligi, o'zini boshqara olishi darkor.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha, ta'lim-tarbiya jarayoni birini taqazo etadigan yagona jarayon bo'lib, mazkur jarayonda yosh avlodga aqliy, jismoniy, nafosat, axloqiy, kasb-hunar tarbiyasini bermoq joiz. U "Tib qonunlari" asarida o'qituvchilik kasbi haqida to'xtalar ekan, o'qituvchining quyidagi vazifalarini alohida ko'rsatib o'tadi:

- faoliyati jarayonida bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiylikka amal qilish;
- o'quvchilar egallagan bilimlarini nazorat qilib borishi;
- o'qitishda qiziqarli usullarni qo'llay olish;
- o'quvchilarga bilim berishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishi va boshqa ko'plab pedagogik fikrlarni bayon etib boradi¹⁹.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha, insonlarning ehtiyoji boshqa jonzotlarning ehtiyojidan yuqori turadi, ya'ni ular oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlari lozim. Buning uchun esa insonlar mehnat qilishlari, hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishlari lozim. Bu fikri bilan alloma jamiyatdagi insonlarni mehnatga va biror kasb egasi bo'lishga chorlaydi.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida o'z farzandiga pand-nasihat qilar ekan, bu borada kasb-hunarni egallash muhim ekanligini qayta-qayta takrorlaydi: "Ey farzand ogoh bo'lginki, hunarsiz kishi hamisha foyda so'z bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilur-sanki, xori mug'ilonning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'lon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur"²⁰.

Kaykovus hunar kishini yuksaklikka ko'tarishini va har chog' hunarli kishi qadrlil bo'lishini uqtirib o'tadi: "Barcha katta-kichikka

¹⁹ Ирисов А. Абу Али ибн Сино. – Тошкент, 1980. – 101 б.

²⁰ Кайковус Унсурулмаоли. Кайковус. – Тошкент: "Истиклол", 1994. – 26 б.

hunar o'rgatmoq vojibdur, nedinkim kishi hunar o'rganmoq bila o'z hamrohlaridan baland martabada bo'lur. Chunki o'zingda hunar ko'rib o'z tenglaringda ul fazilatni ko'rmasang, ulardan o'zingni va yana seni o'zlaridan baland martaba bo'lurlar. Hunarmand kishi uldurkim, fazli va hunar sababi bila qadr va martabasi o'zgalardan baland bo'lg'on ekanini bilib avvalgidan ko'proq harakat qilg'ay, va burung'idan ziyodroq fozil va hunarmand bo'lg'ay"²¹.

Sa'di Sheroziy asarlarida ilmga e'tiqod muhim masala sifatida tilga olinadi. Alloma ilmsizlikning oqibati haqida so'zlar ekan, bu borada ustoz va muallimlar oldiga ham bir qancha talablarni qo'yadi. Uning fikricha, ustozlar o'ta qattiqo'l ham, o'ta yumshoq fe'l ham bo'lmasligi lozim. Bu borada uning quyidagi hikoyatiga to'xtalib o'tamiz: "Mag'rib diyorida qosh-qovog'i osilgan, tili achchiq, badfe'l, dilozor, gadoytabiat va fosiq bir muallimni uchratdim, uni ko'rgan mahalda musulmonlarning ta'bi tirriq bo'lar, Qur'on o'qiganini eshitganda kishilarning dillari siyoh bo'lardi"²².

Uning fikricha, ilm va tarbiya yoshlar hayotida shu darajada muhimki, ularsiz bolalar kelajakda o'z hayotlarni qura olmaydilar. Shu boisdan shoxmi u, gadomi yoshlikdan ilm va hunar egallashi zarur.

Darhaqiqat, mutafakkirning ushbu fikrlari bugungi davr uchun o'z ahamiyatini yo'qotgan emas, balki ushbu fikrlar zamona-viy pedagogikaning bahs-munozaga boy mavzularidan biridir.

Ilmga e'tiqod – shaxsning asosiy fazilatlaridan biri deb bilgan Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" nomli asarida ilmni yoshlarga bolalikdan o'rgatish lozimligini uqtirib o'tadi, chunonchi:

*Bolam tutsin desang donolik yo'lin,
Kichiklikdan tegiz bilimga qo'lin"²³.*

Mutafakkir "Agar bola kichiklikdan bilim o'rgansa, uning idroki ham yaxshi bo'ladi, zakovati ortadi", – deydi. U o'quv-idrokning bilimdan farqini tushuntirar ekan, har ikkalasi birgalikda

²¹ O'sha adabiyot. – 31 b.

²² Sa'diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: Yoshlar, 2018. – 122 b.

²³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – 63 b.

insonni yuksaklikka ko'taradi, deydi:

*Ikkovi tufayli ulug'dir inson,
Adolatga boshlar ular har qachon.
Bilim bilan kishi judo hayvondin,
Buyukroq nima bor, qani ayt ondin?!*

Mutafakkir ushbu asarida ota-onalarga bola tarbiyasiga jiddiy yondashmoqlikni va bunda yaxshi ustoz tanlash kerakligini tushuntiradi:

*O'g'il-qiz tug'ilsa, yaxshi bilki, bas,
Uyda tarbiya qil, boshqa yerdamas.
Ustozning yaxshisin tanla albatta,
O'g'il-qiz pok o'sar, yomondan chetda?!"²⁴*

Mashhur allomalarimiz pedagog kasbi, uning shaxs tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida ham tahsinga loyiq fikrlarni bayon etib ketganlar. Xususan, alloma Burxoniddin Zarnudjiy "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" nomli asarida o'qituvchilik kasbi, uning shaxsiga qo'yiladigan pedagogik talablar, ustozlarni e'zozlash, ilm egallashda sabr-qanoatli bo'lish, muomala-madaniyati, odobiga doir ilg'or fikr-mulohazalari bayon etilgan:

- muallim tanlaganda eng avvalo bilimlisiga, eng olijanobiga va tajribalisiga to'xtalmoq;
- har bir kishi qanoat, sabr, muruvvatni egallashga intilishi, bilimlarni takrorlashga e'tibor berish;
- o'quvchi muallimdan o'rganayotgan fani, kasbidan to'la qanoat hosil qilishi;
- bilimlarni mukammal o'zlashtirish uchun aql farosatlilik, kuchli istak, chidamlilik, o'rgatuvchi-o'qituvchi, bilim olish uchun yetarli vaqt bo'lishi;
- o'quvchining o'rtog'i, do'sti sofdil, pok fe'l-atvorli bo'lishi, yalqov, ishyoqmas, ezma bo'lmasligi, jinoyatchi va qo'li egrilardan uzoqroq yurish;
- o'quvchining muallimga, ustozga hurmati undan oldin yurmaslik, uning o'rniga borib o'tirmaslik, mashg'ulotlar paytida unga yaqinroq joyda o'tirishida bilinadi.

²⁴ O'sha adabiyot. – 134 b.

O'rti Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotini yuksaltirishda buyuk sohibqiron Amir Temurning xizmatlari nihoyatda kattadir. Ayniqsa, uning ilmu-ma'rifat sohadagi islohotlari, tadbirlari va yuritgan siyosati hozirga qadar o'z qadrini yo'qotgan emas. U mamlakatni boshqarish davrida ustoz va murabbiylarga yuksak ehtirom ko'rsatdi. ularni har tomonlama qo'llab-quvvatladi.

Sohibqironning ilmu-ma'rifatga oid qarashlari zamirida xalqimizni ilmi qilish, diniy va dunyoviy bilimlar sohibiga aylantirish asosida obod yashashini ta'minlash hamda ilm ahllarini qo'llab-quvvatlash masalasi tashkil etadi: "Kasb-hunar va ma'rifat ahllariga saltanatim korxonalaridan ulush berilsin..."²⁵

Amir Temurning ushbu fikridan ma'lum bo'lishicha, u saltanatni boshqargan davrda ilm-ma'rifat egalari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan hamda ular moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turilgan. Buyuk sohibqiron davlatni boshqarishda turli kasb egalari: olimu-fuzalolar, sayyidlar, kotiblar, kasb-hunar egalari, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhandislar, muhaddislar, sarkardalar, sipohiyalar, xizmati va maslahatiga tayandi hamda ularni o'n ikki toifaga bo'ldi. Ularni davlatining: "Bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim", - deb e'tirof etadi.

Jumladan, A.Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning toshlarni qo'porish va kanal qazish hunari, "Aipomish" dagi Hakimbekning jang qilish. kamon otish hunari va boshqa ijobiy axloqiy sifatleri xalq tomonidan ulug'lanadi. Kaykovus inson har qanday hunarni egallagan balsa ham kishi albatta ijobiy axloqli bo'lishi lozim deb hisoblaydi va ban-insonni yumshoq so'zli bo'lishga chaqirib: "Barcha hunarlar ichida eng ulug'i, so'z hunaridir", - deb hisoblaydi.

Navoiy muallimlik kasbini eng ulug' kasblar jumlasiga kiritadi. Muallimga xos sifatlar haqida gapirib, u: "Mudarrisning kerakki g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni ayturg'a murtakab bo'lmasa, hundamolig' uchun dars havzasin tuzmasa ... va g'avgo

²⁵ Тему́р тузуқлари / Форсчадан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1991. – 67 б.

ko'rguzmasa. Jahldin dostoni boshida ... uzun bo'lmasa ...", - deb, salbiy sifatlarini tasvirlasa, ijobiy sifati haqida: "... Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas ..." - deydi.

Mutafakkir alloma Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida turli kasb egalari uchun o'z kasblariga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, halolligi haqida fikrlar jamlangan. Xususan, mazkur asarda mudarrislar va muallimlar, tabiblar va mutriblar, kotiblar va qissaxonlarga bag'ishlangan boblarda kasb-kor egalari vazifalariga to'xtalib o'tadi. Asarning o'n to'rtinchi faslida mutafakkir mudarrislar haqida to'xtalib o'tadi: "Mudarrisning kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni ayturg'a murtakab bo'lmasa va xudnomolig' uchun dars havzasin tuzmasa va xudsitonlig' uchun takallum va g'avgo ko'rguzmasa.

Jahldin dostoni uluv va aloqasi uzun bo'lmasa va mubohat uchun madrasa ayvoni boshi anga o'run bo'lmasa. Bu mudarris emasdurkim, muftade'dur va mundoq kishi suhbat islom mumtane'dur"²⁶

Ushbu jumalarga ko'ra, mudarris, ya'ni ustoz shunday bo'lishi lozimki, mansab maqsadi bilan oshiqmasa va o'zi bilmaydigan narsalari haqida so'zlamasa. Shuningdek, o'zini va bilimini ko'rsatish uchun boshqalar bilan behudaga tortishmasa.

Ustoz madrasaga - maktabga qadam qo'yar ekan, jahlini jilovlay olishi juda ham muhim. U diniy bilim berar ekan, uni ishonchli misollar bilan dalillasin. Ustoz yomon illat va nopokliklardan hazar qilishi, ma'naviy jihatdan halol bo'lishi talab etiladi. Ular olim sanalar ekan, taqvodor bo'lsin.

Yosh avlodga munosib tarbiya berish, ularda ilm va ma'rifatga havas uyg'otish, ilm-ma'rifatga qiziqtirish hamda axloq va odobli bo'lishga chorlash kabi ezgu g'oyalar tarafdori bo'lgan jadid ma'rifatarvarlari o'zlarining asarlarida yoshlar kelajagida o'qituvchilik kasbining o'rniga yuqori baho berdilar.

Bu borada Abdulla Avloniyning o'qituvchilik kasbi, o'qituvchi shaxsining axloqi haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Xayr, bo'lmasa muallimchi desak, "Qaysi muallim? Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qumagan, "usuli ta'lim" ko'rmagan

²⁶ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. www.ziyouz.com кутубхонаси. – 93 б.

muallimlarni aytursizmi? Avval o'zlari dorilmuallimin"larda o'qimaklari, so'ngra dars bermaklari lozimdur"²⁷.

Allomaning ushbu fikricha, muallimlarning o'zlari bilimli va yuqori maktablarda o'qigan bo'lmog'i hamda, albatta, pul va shuhratga o'ch bo'lmasligi lozim. Shuningdek, mutafakkir axloq tarbiyasi haqida gapirar ekan, uni yoshlarga berilishi lozim bo'lgan eng muhim tarbiya deb, e'tirof etadi va muallimlar shogirdlariga bergan tarbiyasini amalda ko'rsata olishi kerak deydi "... tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lub shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chaqushturub o'rgatmaklari lozimdur. Bu ravishi ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar"²⁸.

O'z zamonasining yetuk adibi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy o'z qarashlarida ilm-ma'rifat yoshlar egallashi lozim bo'lgan kun tartibidagi birinchi masala sifatida qaraydi. Chunonchi, Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasida yoshlarni biror-bir kasb-hunar va ilm o'rgatishga da'vat etish jamiyatdagi ziyolilarning burchi deb hisoblaydi. Shu boisdan mutafakkir ziyoli obrazi misolida ota-onalarga o'z farzandlari tarbiyasi va ta'lim olishiga befarq bo'lmaslikka chorlaydi: "Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo'lidan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur" [79; 43-b.]²⁹.

Adib bu kabi asarlarida yoshlarni ilimli qilishda ko'proq muallimlar, ziyolilar, o'qituvchilarning jonkuyarligini ko'rsatib beradi.

Xalq pedagogikasida ta'kidlanadiki, inson uchun va har qanday kasb sohibi uchun yaxshi axloqiy fazilatli bo'lish katta ahamiyatga ega. Aks holda, xalqqa, Vatanga foydasiz kasbning ijtimoiy ahamiyati yo'q. Hunarli kishi, kasb sohibi xalqning koriga yarashi, ommaning mushkulini oson qilishga bel bog'lasa, uning mehnati qadrlanadi. Demak, etnopedagogikadagi kasb xunar egallashning ijtimoiy ahamiyatiga doir ushbu g'oyalarni, hozirgi bo'lajak pedagoglar, albatta, bilishi zarur.

²⁷ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 14 б.

²⁸ O'sha adabiyot. – 16 б.

²⁹ Бехбудий Махмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 43 б.

Etnopedagogikada iqtisodiy tarbiyaning yoritilishi

Xalq pedagogikasida iqtisodiy tarbiya ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalish sifatida tarlkin etiladi. Zero, yer yuzidagi mavjud moddiy boyliklar qancha ko'p bo'lmasin, undan tejab-tergab foydalanish zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, inson hayotda yashar ekan o'zi, o'z oilasi, xalqiga moddiy foyda keltirishi zarurligi, moddiy muhtoj bo'lib qolmaslik choralarini ko'rishi lozimligini ta'kidlaydi. Chunki: "Nonsiz yashab bo'lmas, gapni oshab bo'lmas", "Oz bo'lsa, eplab ko'r, ko'p bo'lsa, seplab ko'r", "Suv qattiq yerda to'xtaydi", "Taom – tuz bilan, tuz o'lchov bilan", "Tejog'lik ish – bejog'lik" ekanligini xalq o'z tajribasida sinab ko'rib, kelajak avlodlarga pandnoma sifatida qoldirgan.

Xalq hamisha yoshlarning tejamkor bo'lishiga g'amxo'rlik qilgan. "Yotib yeyishga tog' ham chidamaydi" qabilidagi maqolda mavjud moddiy boyliklarni tinimsiz sarf qilish tufayli eng katta boylik ham poyoniga yetishi ta'kidlanadi, so'ngra: "Yo'qki yo'ndirib bo'lmas" ligiham eslatiladi. Shuning uchun: "Yarim kunlik umring qolsa ham, bir kunlik mol-dunyong bo'lsin!" deb, o'git beradi. Aks holda "Hisobini bilmagan, hamyonidan ayrilar", – deydi xalq. Chunki, hayotda hamisha: "Avval iqtisod, keyin siyosat" tarzida ish yuritish taqoza etiladi.

"Avesto" da inson o'z hayotini moddiy to'kinlikda o'tkazishi lozim deb ko'rsatiladi. Bu moddiy farovonlik tufayli amalga oshadi. Shundagina inson sihat-salomat bo'ladi, uzoq umr ko'rib, baxtli bo'ladi, deyiladi zardo'shtiylik ta'limotida.

Islomda ham iqtisodiy tarbiyaga jiddiy e'tibor beriladi. Jumladan, "Qur'on" da ta'kidlanishicha, mol-dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol-dunyoga erishgan kishi uni to'g'ri yo'lda sarflashi kerak ("Anfol" surasi, 28-oyat). "Kaxf" surasining 28-oyatida "... Ishi isrofgarchilik bo'lgan kimsalarga itoat etmang!" – deyiladi. Hadislarda ham xayr-saxovatli bo'lib, yeb-ichish, lekin isrof qilmaslikka da'vat etiladi.

So'fiylik ta'limotida ham iqtisodiy tarbiya musulmon dini qoidalariga muvofiq targ'ib etiladi. Uning taniqli vakillaridan biri Ahmad Yassaviy nafsga mute bo'lganlarni qoralaydi: *Nafsdan kechib, qanoatni pasha qilg'an, Har kim topsa, rozi bo'lib, bo'yi sung'an.*

Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'an.

Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.

Ibn Sino "Luqmoni Hakimning aziz farzandiga qilgan yuz nasihati" da: ... "8. Do'stni foyda va ziyonda imtihon qil". ...21. «Ishni, xarjni kirimga qarab qil". Ammo: "...67. Bolalaring nima desa, o'shani qilaverma" slikni, ... 98. Inson o'zini o'ta xor (ham) qilmasligi" kerakligini ta'kidlaydi.

"Qobusnoma"da: "Har narsa qo'lingga tushsa: bir tangadan ikki hissani o'z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilig' va o'jizlig' vaqtining zaruriy ishlarig'a ehtiyot qilib qo'yg'il", - deb ta'kidlangan. Demak, iqtisodiy tarbiya bola uchun hayotda zarur vositadir.

Iqtisod qilishga, tejashga odatlangan odamlar saodat va tinchlik bilan umr kechiradilar. To'g'ri, yaxshi yeyish, ichish, kiyish kerak, ammo "ko'rpangga qarab oyoq uzat" naqlig'a amal qilinsa, boshqalarning narsalariga tama qilinmaydi, ko'ngil ham xotirjam bo'ladi. Qo'lida bo'lgan pulga, mulkka qanoat qilmagan odamning nafi butun dunyo moliga ham qanoat qilmaydi. Isrof - o'rinsiz, foydasiz ishlarga pul va mol sarflashdir. Qo'ldagi pul va molni kerakli joylarga sarflash, yaxshi idora qila olish, isrofgarchilikdan saqlanish lozim. Shuhrat qozonish uchun to'y va ziyofatlar qilib, pul sarflash nodonlikdir. Isrof natijasida yo'qchilik, keyin har kimning mol, davlatiga tama va hasad qilish kelib chiqadi.

Talabalar bilimni sinash uchun nazorat savollari:

1. Ilmni egallash yoshlar kelajagi, mamlakat va xalq istiqboli uchun qanday ahamiyatga ega?
2. Etnopedagogika manbalarida ilmni yoshlar ongiga singdirish, kasb-hunar o'rgatish masalasiga qanday yondoshilganligini tushuntiring.
3. Ilm, hunar o'rganish, ularning ahamiyati necha moddiy boyliklardan ustun qo'yilganligini tushuntiring.
4. Ilm sohiblariga munosabati bildiruvchi etnopedagogika durdonalari haqida so'zlab bering.
5. Ta'limning muntazamligi, ongliligi, mustahkamligini ta'minlashga undovchi etnopedagogika g'oyalarini tushuntiring.
6. Etnopedagogika manbalarida ilm egallash jarayoni qanday talqin qilingan?

XALQ PEDAGOGIKASIDA JISMONIY VA MEHNAT TARBIYASINING YORITILISHI

Etnopedagogikada jismoniy barkamollikning ijtimoiy ahamiyati haqida

O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi turli manbalarda o'z ifodasini topgan. Ularning mazmuni umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jismoniy madaniyat bilan bog'liqdir. Qadimgi ajdodlar taraqqiyot jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish bilan chambarchas bog'lanib kelgan. Shunga asosan ajdodlarimizning jismoniy madaniyatini va uning rivojlanish tarixini turli ijtimoiy tuzumlar davridagi madaniyat, ma'rifat, tarixiy voqealar, urf-odatlar, an'analar bilan birgalikda o'rganish lozim.

Qadimgi ajdodlarimizning madaniyati, jumladan jismoniy madaniyatini o'rganishda uch asosiy manbaga tayanish mumkin:

- arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyoviy dadillar,
- xalq og'zaki ijodi - qadimgi afsonalar, rivoyatlar, xalq ertaklaridan olingan ma'lumotlar,
- buyuk mutafakkirlar, allomalarning ijodiy merosi, qo'lyozmalari,

➤ qadimgi yozma manbalar, tarixiy kitoblar.

Qadimgi ajdodlarimizning madaniyati, jumladan, jismoniy madaniyatini o'rganishda uch asosiy manbaga tayanish mumkin:

Tarixiy manbalarga qaraganda bundan 150-140 ming yil avval o'rta paleolitda Muz davri bo'lgan. Odamlar yashash uchun tabiat bilan kurashganlar. Toshlardan qurol yasashni takomillashtirib, yirik hayvonlarni va baliq ovlash keng tarqalgan. O't chiqarish vositalarini ixtiro qilib, yashash uchun gor, yer to'la, chayla, boshqa boshpanalardan foydalanishgan. Bu jarayonlar esa barchaning jismonan baquvvat: ephil, kuchli, chaqqon bo'lishini talab etgan.

Ilmiy tadqiqotlarning guvoh berishicha, Teshiktosh (Surxondaryo), Afrosiyob (Samarqand), Xo'jakent, Obirahmat (Toshkent viloyati), Farg'ona vodiysida So'x daryosi bo'yidagi makonlar va boshqa joylarda topilgan yodgorliklar, turli ashyoviy dalillar o'rganilgan. Tadqiqotlarning natijalariga qaraganda yuqoridagi nomlari qayd qilingan hududlarda odamlar turli qurollardan hayvon-

larni ov qilish uchun foydalanishgan. Jismoniy chiniqish va o'ljani qo'lga kiritish uchun turli murakkab harakatlarni bajarishga to'g'ri kelgan. Bolalarni ham bunday faoliyatlarga tayyorlaganlar. Natijada, jismoniy tarbiyasining ayrim namunalari (sakrash, yugurish, kurashish, uloqtirish, suzish va h.k.) yuzaga kelgan.

Yuqori paleolit davri miloddan oldingi 40 ming yillikdan keyingi 12 ming yillikka qadar davom etadi. Bu davrda Markaziy Osiyoda iqlim quruq, o'zgarib turuvchi bo'lgan. Sovuq iqlim sharoitida yashagan hayvonlar – serjun karkidonlar, yovvoyi otlar, kiyiklar va boshqalar paydo bo'lgan. Hayvonlarni ovlashga ixtisoslashuv o'sha davr odamlarining yashash manbalariga aylangan.

Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi oqimidagi qator ko'llarda baliq ovi bilan shug'ullanish, ularning o'troq holda yashashiga sabab bo'lgan. Markaziy Osiyoning nihoyatda boy ovchi va baliqchi jamoalari yodgorliklari ichida Markaziy Farg'onaning neolit yodgorliklari – Zambar, Taynoq, Yangiqadam, Madiyor, Sariqsuv, Ming buloq kabilar ajralib turadi. Ibtidoiy podadan yuqori paleolitga o'tilishi bilan ishlilab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va odam qiyofasida o'zgarishlar paydo bo'lgan. Bu davrga kelib, mehnat qurollari ancha takomillashgan, suyak va shoxdan yasalgan buyumlar; igna, bigiz, qarmoq, kamon o'qi va har xil bezaklar yasagan, tosh va suyaklarni parmalaganlar. Toshlarga, sopol idishlarga odamlar, hayvonlarni rasmini chizganlar.

So'nggi paleolit davrining yutuqlaridan biri – nayzaning ixtiro qilinishi bo'lgan. Nayza tufayli ovchilik rivojlangan, tirik hayvonlarni birgalashib ovlash keng tarqalgan. Nayzani ushlab, uni mo'ljalga olib, uzoqqa uloqtirish kabi mashqlar, hayvonlarni ovlash, ularni quvib yetish yetarli darajada chaqqonlik va chidamlilikni talab etadi. Bu natijalarga erishish uchun maxsus tayyorgarliklar, ularni o'rgatuvchilar, tarbiyachilar bo'lgan. Shu sababdan, oilalarda bolalarni maxsus tayyorgarlik va jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlari olib borilgan. Oilada bolalarni tarbiyalashda tabiiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, suvda suzish va h.k.) va turli harakatli o'yinlar eng asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Bolalarning yoshi, jismoniy rivojlanish holatlarini hisobga olgan holda, ularni guruhlariga ajratib, o'yinlar va jismoniy mashqlarga o'rgatish vujudga kelgan. Kichik yoshdagi bolalarga turli

harakatli o'yinlarni o'rgatish boshlangan. O'рта yoshdagi bolalarga chaqqonlik, chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar, to'siqli yugurishlar qo'llanilgan. Katta yoshdagi bolalarga esa tez yugurish, kuch sinashish, kurash, mushtlashish, tosh ko'tarish, daraxtlarga tirmashib chiqish, suvda tez suzish, nayza sanchish kabi murakkab o'yinlar, mashqlar o'rgatilgan.

Eng qadimgi davrda yashagan ajdodlarimizning dastlabki urf-odatlarini, an'anaviy marosimlari, ommaviy tadbirlari, kundalik turmush tarzi qadimgi afsonalar, rivoyatlar, xalq ertaklarida o'z aksini topgan. Bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi. "Avesto", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Qirg'iz", "Manas", "To'maris" kabi tarixiy manbalarda qadimgi davrda jismoniy tarbiya vositalarining – turli o'yinlar, otda yurish, kurash, kamondan o'q otish va boshqa mashqlarning qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bor.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmushi haqida ma'lumotlariga oid daliliy ashyolar ko'p uchraydi. Ularning eng muhimlari Toshkent, Samarqand, Termiz va boshqa shaharlardagi tarix, arxeologiya va san'at muzeylarida saqlanmoqda. Toshlarga chizilgan rasmlarda kishilarning ov qilishdagi shakl va harakatlari, ov qurollari, hayvonlar aks ettirilib, ularning tarixi ham bir necha o'n ming yillik davrlarni o'z ichiga oladi.

Ajdodlarimizning ijtimoiy hayotida turli xil jismoniy mashqlar, o'yinlar ko'p qo'llanilgan. Ular asosan ijtimoiy mehnat va tarbiya jarayonida keng qo'llanilgan. Tarixiy manbalarga qaraganda mamlakatimizda yashab, hayot kechirgan ilk ajdodlarimiz bundan 40 ming yillar avvalgi davrga to'g'ri keladi. Ular haqidagi ma'lumotlar Surxondaryoning Dalvarzin tepa, Teshiktosh, Afrosiyob, Toshkent viloyatining Sirdaryo sohillari va boshqa joylarda o'tkazilgan arxeologik topilmalar guvohlik beradi.

Qadimgi yunon va sharq manbalarida, xususan, "Avesto", "Alpomish", "Shohnoma" va boshqa manbalarda madaniyat markazlar sifatida Sug'diyona, Xorazm, Parkana, Baqtriya podshohligining katta qismi aynan, respublikamiz mintaqalariga to'g'ri keladi.

O'tmishda insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi o'zligi noma'lum tuyulgan hodisalarga javob topishga undagan. Bo'ron, sel, toshqin, zilzila kabi g'ayri tabiiy ko'ringan kuchlarga qarshi kurasha oluvchi qahramonlar yaratishga olib kelgan. Shuning uchun "Avesto"da Anaxita xushqomat, zabardast, kamtarin, to'g'riso'z go'zal qiz sifatida namoyon bo'ladi. U kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. "Avesto" yovuzlikka qarshi kurashuvchi pahlavonlar g'olib bo'lishida Allohdan madad so'raydi.

"Odami Od" hikoyasida Odami Od obrazi ham jismoniy barkamollikda tengsiz qahramon sifatida tasvirlanadi. Uning bo'yi bulutga yetadi, kuchli, dengizda baliqni qo'li bilan tutib, quyosh taftida pishirib yeydi. U Nuh payg'ambarni yelkasiga mindirib, toqqa olib chiqibdi. Tog'da to'rtta bahaybat chinorni tomiri bilan sug'urib, ustiga Nuh payg'ambarni o'tirg'izib, dengiz bo'ylab ravona bo'libdi. Nonushtaga bir hovuz suvga non to'g'rab yer ekan, chinordan kema yasab, hamma odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o'zi kemani tortib ketibdi.

"Avesto" dagi adolatli shoh Jamshid ham shunday qudratli qahramon sifatida tasvirlangan. Yetti yuz yil Amudaryoda hukmronlik qilgan er Xubbi, qahramonlik rivoyatlaridagi To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush, Alpomish singari qahramonlar ham o'z jismoniy barkamolligi tufayli yovuzlikka qarshi kurashganlar.

Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, ko'proq ifodalangan. "Alpomish" dostonida kurash, otda poyga, kamondan o'q otish merganlik kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug' insoniy fazilatlar madh etilgan.

"Alpomish" dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki, bundan bir necha ming yillar mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa, yigit va qizlarining bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan o'ta barkamolligi, dushmanlarga shafqatsiz kurashlari odilona bayon etilgan.

Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, xalq irodasi, an'analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichlashish, kurash, kamondan o'q otish kabi jismoniy faoliyatlar yuqori saviyada madh etilgan. Bunda dushmanlar bilan mardonavor jang

qilishgan yigit va qizlar timsoli tasvirlanadi. Xalq og'zaki dostonlarida xalq irodasi, yigit-qizlarning muhabbat, sadoqat, jasur, botir, pahlavon, chavandoz kabi sifatleri o'z ifodasini topgan. Xalq milliy o'yinlari bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, ularning tarkibida raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va juda ko'p janrlardagi san'at ancha ustun turadi. Shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan qator harakatli o'yinlar va sportga xos o'yinlar ham juda ko'p. O'zbek xalq o'yinlari va milliy jismoniy mashqlarini quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

- kamondan o'q otish; qilichbozlik;
- kurash (buxorocha, farg'onacha, xorazmcha usullar);
- ot o'yinlari (poyga, olomon poyga, ko'pkari, uloq va h.k.);
- kuch sinashish (tosh ko'tarish, arqon tortishish, ot, buqa,

tuya ko'tarish);

- dorboz o'yinlari (dor ustidagi mashqlar);
- harakatli milliy o'yinlar;
- yugurish musobaqalari (batba);
- ov qilish (o'rgatilgan qushlar bilan – lochin, burgut va h.k).

Bunday o'yinlarning deyarli barchasi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanilgan. Qadimgi manbalar Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) daryolari o'rtasidagi vodiya ot musobaqalari keng tarqalgan. Sug'diyona va Baqtriyada kurash, ot poygasi, uloq, dorbozlik juda ommalashgan.

Milodiy IV-V asrlarda yangi ijtimoiy siyosiy munosabatlar yuzaga kelib, Xorazm, Farg'ona, Shoshda yangi davlatlar vujudga kelgan. Nafaqat harbiy yurishlar, balki savdo-sotiq maqsadlari uchun ham chiniqqan chavandozlar va otlar kerak bo'lgan. Bu esa ot musobaqalarining ommalashib ketishiga sabab bo'lgan.

Ibn Sino jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni hamda uning mohiyatlarini gigiyena, sog'liqni saqlash va kasalni davolashdagi majmuiy tadbirlarda berib borgan. Ibn Sino ilk bor har bir insonning jismoniy mashqlar bilan qachon va qaysi tartibda shug'ullanishini belgilab beruvchi ta'limni, ya'ni jismoniy mashqlarning klassifikatsiyasini yaratib bergan. Ibn Sinoning fikricha, "Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri – badantariyadir.

"Tib qonunlari" kitobning birinchi qismi inson "salomatligini saqlash va uni rivojlantirishga bag'ishlangan. Kitobda inson tanasi

va uning a'zolari, insonni shakllantirish hamda uning kamolotida yuz beradigan anatomik tuzilishlar. fiziologik va ruhiy jarayonlarning holati, kasalliklarning kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan bayon qilingan.

Ibn Sino o'z asarlarida jismoniy mashqlar kishining yoshiga, jinsiga, sog'lig'i, salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va uslublarda o'tkazish kerakligi haqidagi tavsiyalari juda muhimdir. Ibn Sino faoliyati va tajribalari asosida bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik davrlarida kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatda bo'lishi kerakligi masalalari bo'yicha alohida ko'rsatmalar bergan. Bu ilmiy-pedagogik ta'lim merosi jahon xalqlari jismoniy madaniyati rivojlanishiga katta hissa ko'shgan.

Ibn Sino "Badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakat". deb ta'rif bergan. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi ingichka og'riq (a'zolarning torayishi) kasaliga uchraydi, chunki harakatsizlik natijasida uning a'zolari zaiflashadi. U badantarbiya turlarini asosan ikki guruhga ajratgan:

- 1) odamning ish jarayonlarida qiladigan harakatlari;
- 2) maxsus badantarbiya harakatlari. Buyuk olim badantarbiya deganda, asosan maxsus badantarbiya harakatlarini nazarda tutgan. Badantarbiya turlari juda ko'p bo'lib, ular tez, nozik, yengil, kuchli va kuchsiz guruhlarga ajratib bergan.

Ibn Sino tortishish, mushtlashish, yoydan oq otish, tez yurish, nayza otish, osilish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik, nayzabozlik va otda yurishlar badantarbiyaning tez bajariladigan turlariga kiritgan. Nozik va yengil turiga arg'imchoq uchish, belanchakda tik yoki yotib uchish, qayiq va kemalarda sayr qilish va boshqa harakatlar kiritgan. Badantarbiyaning kuchli turiga, kishining o'z soyasi bilan olishishi, katta va kichik koptoklar bilan chavgon o'ynash, kurash, tosh ko'tarish, chopayotgan otni jilovidan tortib to'xtatish kabi mashqlarni kiritgan.

Ibn Sinoning tavsiyasiga ko'ra badantarbiya vaqtida tez va shiddatli harakatlar, yengillari bilan doim almashtirib turish, ma'lum bir harakatni uzoq vaqt bajarmaslik uslublari ko'rsatlgan. Turli kasalliklarni davolashda ruhiy ozuqa berish, xursandchilik yo'l-

larini, ya'ni turli xil sayrlar, sayohatlar, kemalarda suzish, tabiat manzaralaridan bahramand bo'lish omillarini ishlatishni tavsiya etgan.

Ibn Sino har bir a'zoning kasalini tuzatish uchun maxsus harakatlar – jismoniy mashqlarni tavsiya etgan. Bunda uqalash mashqlarini ham ko'zda tutib, ularni quyidagi turlarga bo'lgan:

- gavdani baquvvat qiluvchi kuchli uqalash.
- gavdani yumshatuvchi kuchsiz uqalash.
- ozdiruvchi davomli uqalash.
- gavdani o'stiruvchi mo'tadil uqalash.

Olimning fikricha, uqalash dag'al yoki yengil bo'ladi. Dag'al uqalash dag'al latta bilan amalga oshiriladi. Yengil uqalashni yengil mato bilan bajariladi. Uqalashlar asosan bo'shashgan a'zolamizichlatish, yumshoqlarini qotirish, dag'alini mayin qilish va qattiq-larini yumshatish maqsadida qilinishini bildiradi. Bundan tashqari, badantarbiya bilan bog'liq uqalashlar to'g'risida ham ta'lim beradi: 1) badantarbiyaga tayyorlovchi uqalash; 2) badantarbiyadan keyin qilnadigan uqalash. Uqalash mashqlarining qon aylanish tizimini tezlatish, nafas olishni yaxshilash, hazm qilish a'zolarining ish faoliyatlarini to'g'ri yo'lga solishda muhim ahamiyat kasb etishi allomaning ilmiy-amaliy ta'limida to'la mazmun topgan.

Ibn Sino salomatlikni saqlashda dam olish, uyqu va me'yorida ovqatlanish hayotiy zaruriyatligini eng asosiy omillardan deb bilgan. Ibn Sinoning badantarbiya haqidagi ta'limida eng asosiy o'rinlardan birida kurash turlari turadi. Kurashning turlari ham bir nechadir. Ulardan biri: ikki kurashuvchining har biri o'z raqibidan bog'idan ushlab tortadi. shu bilan birga kurashuvchi o'z raqibini qutilishning chorasini qiladi. Ikkinchisi esa qo'yib yubormaslikka harakat qiladi. Boshqa turi: ikki kurashuvchidan biri ikkala qo'li bilan ikkinchisini mahkam quchoqlab o'ziga tortadi va yonga ag'daradi, bu vaqtda birinchi kurashuvchining o'ng qo'li ostidan o'tishi kerak. (kurashuvchilar) goh qadrlarini tiklab, goh egiladilar (kurash) turlari yana ko'krak bilan zarbani qaytarish, ikkinchi bir kishining bo'ynidan ushlab egish, bir-birovlarining oyoqlarini o'z oyoqlari bilan chalkashtirib, chalib yoki oyoqlari bilan ikkinchisining oyoqlarini yirib qilinadigan va polvonlar ishlatadigan harakatlarni ham kiradi, deb yozgan.

Ibn Sino inson salomatligini jismoniy tarbiya vositalari bilan yaxshilash va uni kamolotga yetkazishda gavdaning har bir qismi uchun maxsus harakatlar borligini aniq misollarda ko'rsatib bergan. Qo'l va oyoq harakatlari, ko'krak va nafas a'zolarining hamda boshqa barcha a'zolarining tabiiy harakatlarini ishga soluvchi mashqlar majmuasini o'z asarlarida mujassamlashtirgan. Bunda tovush-og'iz bo'shli'g'idagi barcha a'zolari harakatlantirish, baland-past ovoz chiqarish, tilni chiqarish, tortish, burash, tufllash kabi mashqlarini bergan. Ichki a'zolari ishga tushirish mashqlariga qayiqalarda, arg'imchoqda uchish, belanchakda tebratish, aravalarda yurish va boshqa mashqlarni tavsiya etgan.

Ibn Sinoning jismoniy tarbiyaning eng muhim vositalari sifatida hammomda cho'milish, sovuq suvda cho'milish, suv va ichimliklarni iste'mol qilish, ovqatlanish, uyqu va dam olish tartiblari ham joy olgan. Keksalik davridagi jismoniy tarbiya va umuman safar vaqtlarida fasllarga qarab harakat qilish asoslarini ham ko'rsatgan.

Ibn Sinoning jismoniy tarbiya sohalaridagi ilmiy-pedagogik ta'limotini chuqur o'rganish, uni insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy turmush sharoitlariga qarab qo'llash usullarini hozirgi davrda ham ahamiyatga ega. Buning uchun jismoniy tarbiya ta'limini aholi orasida keng targ'ib qilish, uning insonlar salomatligini yaxshilash hamda jismoniy kamolotga erishish mohiyatlarini barcha kishilar ongiga singdirish lozim. Ibn Sinoning turli xil kasalliklarni oldini olish va uni davolashda badantarbiya mashqlaridan foydalanish tajribalarini jahonning barcha tadqiqotchilari va tibbiyot ilmining mutaxassislari ham ma'qullaydi.

Buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va undan keyingi davrdagi hokimlar o'z jangchilarini jang qilish san'atini o'rgatish bilan birgalikda, askarlarni jismonan kuchli, epchil, chaqqon, chidamli bo'lishiga, ularni jangovorlik ruhida tarbiyalashga e'tibor berganlar.

"Temur tuzuklari"da qo'shin va askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan alohida boblari mavjud bo'lib, bunda piyoda va otda jang qilish, qilichbozlik va nayzabozlik, jangchining harbiy va jismoniy jihatdan tayyorgarligi, eng baland tog'li joylardan o'tish, daryolardan o'tish va h.k. haqida

batafsil bayon qilingan. O'sha davrlardagi piyoda, otda yurish hamda jang qilish jarayonlari juda murakkab bo'lgan. Bir necha kunlab tinmay piyoda yurish, qilich, nayza, to'qmoq, xanjar va boshqa qurol-aslahalarni ishlatish, dushmanni yengishda oyoq-qo'l, gavda kuchlari, epchilik, tezlik, hushyorlikni talab etgan. Fursat kelganda raqibi bilan yakkama-yakka kurashib, uni yiqitish, taslim qilish uchun qanchadan-qancha amaliy kuch, mahorat, ustomonlik, jasurlik kerak bo'lgan.

Hozirgi paytda unumdor yerlar, tabiiy boyliklar, suv resurslarining kamayishi, alkogolizm, narkomaniyaning kuchayishi singari salbiy omillar insonning jismoniy barkamolligi, sog'lig'i, yoshlar salomatligini asrashni taqozo etmoqda. Komil shaxs tarbiya-sida jismoniy tarbiya muhim yo'nalishga aylandi. Xalq hamisha jismoniy tarbiya – salomatlik garovi ekanligini tushungan. Shuning uchun yoshlarga o'yinlar, milliy kurash turlari, sport musobaqalariga, toza havodan foydalanishga alohida e'tibor bergan. Quyoshnuri va suvdan foydalanib, sog'liqni saqlash mumkinligini qadim-dayoq tushunib yetgan. Ba'zan o'z sog'lig'iga e'tiborsiz qaragan yoshlarga qarata aytiluvchi o'gitlar shular jumlasidandir:

"Ikki narsa yo'qotilganidan so'ng qadrlanadi – sog'liq va yoshlik", "Tan sihatlik – tuman boylik", qozoqlar: "Kambag'alning boyligi – sog'lig'i", – desa, turkmanlar: "Sog'liq bo'lsa, erkinlik bo'ladi" deyishadi. Shuningdek, xalq sog'liqni saqolash uchun "Boshingni salqin, oyog'ingni issiq tut" deb pand beradi. Sog'liqni saqlashda ovqatlanish madaniyatiga amal qilishga chaqiradi: "Qorning og'risa – og'zingni, ko'zing og'risa – qo'lingni tiy" va b. Zararli odatlar oqibati achchiq ekanligi ta'kidlanadi:

"Chekuvchining ichi ham, puli ham kuyadi". O'z avlodlarini sog'lom, baquvvat, botir bo'lishini orzu qilgan xalq farzandlariga Quvvat, Polvon, Arslon, Botir, Qahramon, Bahodir, Murod, Komil singari ismlar qo'yishni taomilga kiritgan. Dostonlar va ertaklar qahramonlari qahramonlar darajasida tasvirlangan. Ular vositasida yoshlar jasoratiga, mardlik va insonparvarlikka undalgan.

Jismoniy tarbiyada "Ko'pkari", "Qiz quvdi", "Olomon poyga", "Uloq tortish", "Kurash" singari milliy o'yinlarning ahamiyati katta bo'lgan. Ular hozir ham muhim ahamiyatga ega.

Qadimgi etnopedagogika manbalarida hayvonlarda mavjud bo'lmagan xususiyatlar haqida ham fikr yuritiladi. Jumladan, otning qulog'ini burash bilan ko'kka parvoz qilish, suvda suzish, dunyo-ning narigi chetiga, baland tog'lar osha "uchar gilam"da borish samolyotlarning kashf etilishiga, suv ostida suzuvchi qayiqlar – suv osti kemalarining yaratilishiga, "sehrli etikcha"lar ega mashinalarning yaratilishini orzu qilish tufayli vujudga kelgan. "Sehrli oyna" haqidagi afsona va orzu televizor misolida ro'yobga chiqqan bo'lsa, sehrli dastgoh sehrli dasturxon haqidagi orzular ish unumi juda yuqori bo'lgan dastgohlarning ishlab-chiqarish uskunalarining yaratilishiga olib kelgan. Chunki har bir yangilik dastlab orzularda, hayol (fantaziya)da tug'iladi. So'ngra inson uni amalga oshirishga harakat qiladi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida mavjud bo'lgan ish qurollari, asboblari, mehnat unumini jamiyat talabi darajasida qondirmagach, yangi qurollar haqida o'ylanadi. Hind badiiy filmi "Ramayana"dagi yoy paykonlarining uchishi, boshqarilishi raketalar haqidagi eng ibtidoiy tasavvurga o'xshaydi.

Etnopedagogikada mehnat ahli g'oyat ulug'lanadi. Mehnatning tarbiyaviy ahamiyatiga ham yuqori baho beriladi:

*Donoga ish – shonu shuhrat,
Nodonga ish – g'amu kulfat.*

Hosiling kam bo'lsa, havodan ko'rma!

Qolgan ishga qor yog'ar.

*Qarasang, qand yersan,
Qaramasang, pand yersan.*

Qo'li qimirlaganning og'zi qimirlar.

*Cho'pchak degan – cho'p bo'lar,
Teraversang, ko'p bo'lar.*

Ertalabki ish – ko'ngilni qilar xush.

*To'kilsa, manglay tering,
Unumli bo'lar yering*

va shu kabilar.

*Mol boqqanning barmog'idan moy tomar.
Molga bersang soz yemish, boqar seni yozu qish.
Moling zotli bo'lsa, yemishing totli bo'ladi ...*

Hozirgi zamon pedagogikasida mehnat tarbiyasini tadqiq etgan buyuk pedagoglar tadqiqotlarini o'rganish shunday xulosaga olib keladiki, ular o'z pedagogik fikrlarini xalq pedagogikasiga tayanib yaratganlar.

Hozirgi paytda yoshlarning mehnat tarbiyasini takomillash-tira borish xalq xo'jaligi ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib, ayni paytda bu jarayon komil inson shaxsini shakllantirish vositasi hamdir. Chunki mehnatning mohiyatini, uning inson hayoti uchun zarur omil ekanligini tushunishgina, mehnatni, mehnat ahlini, moddiy ne'matlarni, tabiatni, madaniy yodgorliklarni asrashga, hurmat qilishga o'rgatadi. Xalq pedagogikasida ta'kidlangan bu boradagi fikrlar mazkur muammoni hal qilishga yordam beradi:

*Ko'p yurganga ergashma, ko'p bilganga ergash!
Mullaning qilganini qilma, aytganini qil.
Otang ta'zirini yemay desang, otang ta'sirini ol!
Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q.
o'z qadrini hilmagan, kishi qadrini bilmas.
Aytuvchi nodon bo'lsa, tinglovchi dono kerak.
Ustoz otangdan ulug'. Ish ustasidan qo'rqar.
Asil aynimas, sariyog' sasimas.
Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning ..*

Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlari

Mutafakkirlarimiz bola tarbiyasi va uning kamoloti to'g'ri-sida o'z asarlarida to'xtalib, yoshlarni odob-axloqi, jismoniy barkamolligi, aqlan yetuk, mehnatsevarligi hamda vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelingan.

Xususan, bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevarlik ko'nikma va malakalarini shakllantirib, barcha tarbiya shahobchalarini tarkib toptirish borishning muhim omili ekanligi ta'kidlab kelingan. Ular mehnatni yuksak baholab, kishilarning bir-birlari

bilan qiladigan muomala va munosabatlari ham mehnat orqali yuzaga keladi deydi. Mehnat qilgan kishi doimo o'zgalar mehnatni qadrlay oladi hamda to'g'ri munosabatda bo'ladi deb hisoblashgan. Dangasa, ishyoqmas kishilar esa o'zgalar mehnatini qadrlay olmaydi, hatto ularning ustidan kuladilar deb uqtiriladi. Shuning uchun bunday kishilarni tarbiyalash kerakligini aytiladi.

Kaykovus o'zining mashhur asari "Qobusnoma"da odob-axloq to'g'risida juda ko'p ibratli fikrlarni ilgari suradi. Ayniqsa, bolalarni yoshligidan mehnat qilishga va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga hamda kasbkorlik tarbiyasiga keng to'xtaladi. Ota-onalarni bolalarga yoshligidan boshlab mehnat qilishni va biror bir kasbni o'rgatib borish kerakligini ta'kidlaydi. "Ey farzand sen bola ko'rsang, unga yaxshi ot qo'ygin. Chunki otadan farzand haqlaridan biri yaxshi ot qo'yishdir. Kattaroq bo'lgandan so'ng, raiyat bo'lsang, hunar va kasb o'rgatasan".

Kitobning 43-bobi asosan dehqonchilik va hunarlarga bag'ishlangan bo'lib, Kaykovus kishilarning dehqonchilik ishlari bilan shug'ullanishlari kerakligini aytadi. U dehqonchilik kasbini ulug'lab: "Ey, farzand agar dehqon bo'lsang, barcha dehqondan bilimdonroq bo'lg'in va har bir ekinni eksang, vaqtidan o'tkazmasdan hamma vaqt yerni tarbiya qilgin va dehqonchilik kasbidan bahramand bo'lgaysan".

Abdurahmon Jomiyning mehnat xususidagi qarashlari diqqatga sazovardir. U mehnatni insonga baxtli turmush baxt etuvchi vosita hisoblaydi. Har bir inson o'z halol mehnati bilan yashamog'i lozim, shundagina u baxtli turmushga erishadi:

O'z mehnatining bo'lsin doim yo'ldoshiung.

O'zga minnatidan og'ritma boshing.

Chin do'st ul-do'stligi oshaversa gar,

Do'stidan yomonlik ko'rganida

Boshiga ming jaf osh yig'lsa,

Mehr uyi u toshdan bo'lur mustahkam.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunarli va eng yaxshi insoniy fazilatlarini egallagan kishilar bo'lishini orzu qiladi. Shoir ilgari surgan g'oyalar o'zlikni anglash, shaxs axloqi va kamolotiga xizmat qilar ekan uning asarlarini o'qib-o'rganish,

o'rgatish, targ'ib-tashviq qilish muhimdir. Uning "Munosib el" deb ataluvchi kishilari xalqqa xizmat qiluvchi xalq manfaatini ko'zlovchi mehnatsevar, vijdonli, insofli, to'g'ri, saxovatli va muruvvatli kishilar ekanligini ko'ramiz.

Alisher Navoiy jamiyat kishilarini oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishning birinchi omili bu halol mehnat qilishdir, deb uqtiradi. Har bir insonning biror kasbni egallashi va bu yo'lda tinimsiz mehnat, mashqlar darkorligini ta'kidlaydi. Hunarsiz kishilarni qiladigan ishlarini tayini bo'lmasligini eslatib:

Yo'q hunari yolg'uz esa bir kishi,
Qayda kishi sonida yolg'uz kishi.

Alisher Navoiy insonlarni kamolotga etishishini belgilovchi omil deb mehnatni uqtiradi:

Mehnat arodir murod topmoq, bilgil
Mehnat arodir, qo'shoq topmoq, bilgil.

Alisher Navoiy "Farxod va Shirin" dostonida shoir chin sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g'oyalarini tarannum etadi. Shoir dostonida Farhodning bolalik chog'laridayoq ilm-hunarga, mehnatga va ilmga havas qo'yishini, shaxzodaman-ku, deb o'tirmasdan qasr qurilishida turli ilm va hunarlarni qunt, havas bilan egallab, yuksak kamolot bosqichiga ko'tarilishini bayon qiladi, uning mehnatga bo'lgan muhabbatini zo'r mahorat bilan tasvirlaydi.

Bu Alisher Navoiyning bola tarbiyasida va uning bilim olishiga katta e'tibor bilan qaraganligini ko'rsatadi. Alisher Navoiy Farhod obrazini mehnat va hunarga zo'r havasli, sangtaroshlik, rassomlik, naqqoshlik hunarlarini mukammal egallab olgan yigit sifatida ijodkorlik va mehnatsevarlik ruhi bilan sug'ordi. Farhod boshchiligida va uning bevosita fidokorona mehnati natijasida katta kanal "Hayot daryosi" va hovuz "Najot dengizi" qaziladi.

Navoiy Farxodni suvsiz yerlarga suv chiqargan qahramon mehnat sohasiuda mo'jizalar ko'rsatgan bahodir yigit sifatida ta'riflaydi. U ilm va hunarni omma manfaatini uchun xizmat ettirish lozim deb hisoblaydi. Farhod Shirinni qidirib, Armanistonga borganda, Arman yurtidagi kanal qazish uchun qiynalib kishilarni ko'radi va:

Hunarni asrabon netkumdir oxir.

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir?!'

– deya, o'z bilimi, hunar va g'ayratini ishga soladi, kanal qazuvchilar mashaqqatini yengillashtiradi va xalq o'rtasida katta shuhrat qozonadi.

Demak, Farhod kanal qazishda mehnat mo'jizalarini ko'rsatadi. Ulug' shoir o'zi bu dostonni "Mehnatnoma" deb atadi va unda mehnatning zo'r madhiyasini yaratib qoldirdi.

Alisher Navoiy reja bilan, aql bilan halol qilishni maslahat beradi, mehnat bilan oila, yurt obod bo'lishini aytadi. Navoiy mehnatsiz rohat bo'lmasligini shunday ta'riflaydi:

Mehnat aro har kimki, tahammul yo'q unga.

Tarvijga mutlaqo taxayyul anga.

(Kimki mehnatga chidamsiz bo'lsa, ishining rivoj topishini hayolga ham keltirib bo'lmaydi.)

Alisher Navoiy "Hotami Toyi" hikoyasida halol mehnat bilan kun kechirishni birovning minnat bilan bergan har qanday boyligidan afzal ko'radi. Alisher Navoiy odamlarni, binobarin yoshlarni ham mehnatni puxta qilishga, ishni o'z vaqtida bajarishga da'vat etadi:

Aylar ishingga chu bo'lur dast rus.

Vaqtidan o'tkarma oni bir nafas.

Buyuk alloma Abulqosim Firdavsiy o'z asarlarida mehnat-kash xalqning ezgulikka, yaxshilikka, dangasa va ishyoqmas kishilarni qoralashga bag'ishlangan. Mashhur asari "Shohnoma"da kishi kamolotida, yaxshi turmush kechirishida mehnatning o'rni haqida shunday deydi:

Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,

Ganj topmast hech kimsa topmast ersa ranj.

Hunarda tinimsiz, ishchan donishmand,

Toza ruhi doim fikro' o'yiga band.

Firdavsiy har bir kishini baxtli hayot kechirishida yoshlikdan boshlab hunar o'rganish va bu yo'lda dangasalikdan qochish kerakligini hamda mehnat barcha yutuqlarning garovi ekanligini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida kishilarni halol mehnat qilishga hamda mehnatning hayot uchun eng zarur omil ekanligini ta'kidlaydi. "Tadbiri manozil" asarida barcha jamiyat a'zolarini dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik bilan shug'ullanib xalqqa foyda keltirishlari kerakligini uqtiradi.

Ibn Sinoning fikricha, mehnatsiz hayot kechirish kishini jismoniy va ruhiy tomondan ezadi. Bunday hayot kechirish yomon oqibatlariga olib kelishi uni tushuntirib, ota-onalarning o'z bolalariga yoshligidan boshlab mehnat tarbiyasini berish zarurligini aytadi. Uning fikricha, bolaga yoshligidan boshlab ma'lum bir kasbga o'rgatish lozim. Chunki bola kasbhunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng uni o'sha paytlardan boshlab, o'z kasb-hunaridan foydalanishga, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerak.

Umar Hayyom ijodiga nazar solar ekanmiz, uning ruboiylarida ham ma'rifiy ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalarni uchratamiz. Umar Hayyom o'z asarlarida kishilarni baxt-saodati, turmush tarsi to'g'risida to'xtalib, hayotda halol mehnat qilish va shu mehnat evaziga topilgan nonni totli bo'lishini ta'kidlagan. Ayniqsa, mehnat va mehnatsevarlik tarbiyasi xususida bayon etilgan quyidagi ruboiylarda ko'rishimiz mumkin:

Bir so'ngakka sordek qanoat qilg'on,

Afzaldir nokasga bo'lgandan mehmon.

Nokasning shinnilik nonidan yaxshi,

O'zing topib yegan burda arpa non.

Abu Nasr Forobiyning ijodiy faoliyatida bola tarbiyasi chetdan qolgan emas. Forobiy jamiyatda yashayotgan har bir kishini yoshligidan boshlab biror kasbni o'rganish uchun harakat qilishi va kelajakda shu kasb orqali jamiyatga foyda keltirishi kerak, deb biladi.

Har bir kasbni egallash jarayonida muayyan harakatlar, takrorlash, mashq qilish yo'li bilan ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini aytib, "Axloqiy fazilatlar va razilliklar, axloqiy harakatlarni, ishlarning bir necha marta takrorlanishida va uzoq davom etishi jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi. Agar qilinayotgan ish xayrli bo'lsa, undan fazilat kelib chiqadi, agar yomon bo'lsa, unda razillik kelib chiqadi", – deydi.

Farobiy bolalarni yoshligidan boshlab mehnat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda o'ziga yoqqan ish bilan mashg'ul bo'lishi, asta-sekin o'zi qiziqqan biron bir kasbni egallashi zarurligi hamda barcha hunarlarni bir to'la egallab bo'lmasligini ifodalab, shunday deydi: "Har bir kishiga biriktirilgan ma'lum bir ish bo'lishi kerak, toki u kishi o'ziga biriktirilgan ishni kechiktirmasdan o'z vaqtida bajarsin".

Fors-tojik adabiyotining yirik namoyondasi Shayx Sa'diy o'z asarlarida bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berib, mehnatning kishi kamoloti va hayotida egallagan o'rni hamda halol mehnat qilish farovonlik keltirishini ta'kidlab, barcha yutuqlar zahirida mehnat turishini va bolalarni yoshligidan boshlab mehnat qilishga o'rgatish kerakligini hamda halol mehnat bilan topilgan bir burda non ham totli bo'lishini ifoda etadi:

*Esam arpa nonini mehnat bilan,
Shirindir birovning oq noni bilan.*

Zahiriddin Muhammad Bobur ilm ahlini hurmat qilib ularning mehnatini doimo qadrlab borgan. Boburning didaktik asarlarida asosan insonlar va ularning qadrdimmatini ardoqlash masalalari asosiy o'rinni egallagan. Mehnatkash xalqning zahmatli mehnatlarini doimo qadrlashga chorlaydi:

*Davlatga yetib mehnat elini unutma,
Bu besh kun uchun o'zingni asru tutma.
Borg'onni kel emdi, yod qilmay, ey do'st,
Borish-kelishingni lutf etib o'ksitma.*

Ma'rifatparvar shoira Anbar otin o'z asarlarida kishilarni har qanday mashaqqatlardan chekinmasdan ilm olishga, hunar o'rganishga va mehnatsevar bo'lishga chorlaydi:

*Murodingni hayoting ichra axtar,
Mavhum ilm ichinda bo'lma axtar.
Mashaqqatsiz hunardin chiqmagay dur,
Hayotsiz ilm durdin ko'p erur dur.*

Anbar otin dehqonchilik va uning mashaqqatli mehnatini qadrlab, ularning o'z mehnatlari evaziga baxtli yashashlari

kerakligini ko'rsatib beradi.

Jadidchilik oqimining vakili Xolmuhammad o'g'li Furqat o'z asarlarida mehnatkash xalqning hayotini ko'rsatib bergan. U o'z asarlarida kishilarni ilm olish bilan birga hunar o'rganishiga hamda mehnatsevarlik ruhiyatini takomillashtirib borishga alohida e'tibor bilan yondoshgan.

Furqat hunar ahllarini mehnatini ulug'ab shunday yozadi:

*El ichra o'zlarin ma'zur qildi,
Bahor holi hunar mashhur qildi.*

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoixud axloq" asarida mehnat insonni bezaydigan muhim sifat ekanligi, yalqovlik va dangasalik esa insonga mos xususiyat emasligini alohida ta'kidlab o'tadi. U mehnatni yaxshi yoki yomon bo'lmasligi va bolalarni har bir ishni bajarishga o'rgatish kerakligi bu esa bolalarni yuksak kamolotga olib chiqishga va saodatga erishishga yaqindan ko'mak berishini ta'kidlaydi.

Kasb-hunarni yaxshi yoki yomon bo'lmasligi va bolalarni yoshligidan boshlab kasb-hunarga o'rganishga chorlaydi: "...ushbu ko'mirchilik, bu temirchilik manga munosib ish emas. deb dangasalik qilib, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdir".

Abdulla Avloniy bolalarni mehnatga o'rgatish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hayotiy misollar keltirish bilan hayvonlar va hashoratlar misolidagi hikmatlardan foydalangan. Adib bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilada, otalar yordamidan so'ng maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshirishni ma'qullaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, buyuk mutafakkirlarimizning mehnat tarbiyasi xususidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etib, bolalarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Serqirra olim Abdulla Avloniy ta'kidlaganlaridek, "Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-xushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir". Shu sababli mehnat ta'limi va tarbiyasi yuqori o'ringa qo'yish lozim oqibatda shaxsga qo'lga kiritilgan mehnat muvaffaqiyatidan quvonish, o'z qadr-qimmatini anglash hamda o'z mehnatidan g'ururlanish tuyg'usi qaror topsin.

Adabiy ertak – xalq ertaklari sujetlarini ijodiy o'zlashtirish asosida yuzaga kelgan asar namunasi. Adabiy ertaklarda ham xalq ertaklariga xos g'oyaviy maqsad, mazmuniy jihatlariga to'liq tayaniladi va yangicha shaklda ishlov berish asosida yuzaga keladi. Adabiy ertaklar tuzilishiga ko'ra doston-ertak, naql-ertak, masal-ertak, topishmoq-ertak singari oraliq shakllarga ega. O'zbek adabiyoti, ayniqsa, bolalar adabiyoti vakillari tomonidan adabiy ertaklarning bir qator yaxshi namunalar yaratilgan. Masalan, H.Olimjonning "Oyguil bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Sh.Sa'dullaning "Laqma it", S.Jo'raning "Zangori gilam", "Qaldirg'och", M.A'zamning "Erk qushi" va boshqalar. Adabiy ertaklar bolalarning axloqiy-estetik talablarini to'laroq qondirish jihatidan bolalar adabiyotining taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

Aed (gr.aoidos – kuychi so'zidan) – qadimgi Gretsiyada xalq qahramonlik eposini ijro etuvchi shoirlarni shu nom bilan yuritganlar. Aed o'z asarlarini lira, kifari va farming kabi musiqa asboblari jo'rligida ijro etgan. Keyinchalik aed o'rnini rapsodlar egallab oldi.

Aforizm (rp.aphorismos – hikmatli so'z) – chuqur mazmunga ega bo'lgan, didaktik g'oya tashuvchi hikmatli so'zlar. Aforizmlarning maqol, matal va xalq hikmatli so'zlaridan farqli xususiyatlari muallifining har doim aniq bo'lishi, individualligini saqlashi bilan ajralib turadi. Aforizm davlat arboblari, madaniyat xodimlari, ijodkorlar hayot tajribalari tafakkurining mahsuli asosida yuzaga keladi.

Afsona (ar.-afsun so'zidan) – xayoliy uydirmalar asos bo'lgan kichik nasriy hikoya. Afsonalar ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan voqea va hodisalarni xayoliy uydirmalar asosida hikoya qiluvchi xalq og'zaki ijodi janri.

Alla (aldamoq so'zidan) – go'dakni uxlatishda aytiladigan qo'shiq. Allalar beshik qo'shiqlari(q)ning keng tarqalgan an'anaviy janri hisoblanadi. Allalar bolani tinchlantirish, uxlatish maqsadida aytilishi bilan bir qatorda o'ziga xos tarbiyaviy estetik ahamiyat ham kasb etadi. Kompozitsion izchilligi, voqelik o'rni, ijrochi-

larning mahorati hamda badiiy-estetik funksiyasiga ko'ra allalar voqeaband va parokanda allalarga bo'linadi.

Allegoriya (gr. allos-boshqa, o'zga va adocheno-gapiraman) – majoziy obrazlar vositasida asar yaratish. Folklorning ko'plab namunalarini, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklar majozga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Folklor namunalarida tulki – ayyor, aldoqchi kishilarga, bo'ri – laqma, ochko'zlarga, echki – aqli, tadbirkorlarga, chayon – zararkunandalarga, ilon – makkor, to'ti – gapdon kishilarga nisbatan majoziy obraz vositasida tasvirlanadi. Majoziy obrazlar folklor asarlari badiiy qiymati va ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alp – o'zbek xalq dostonlarida g'ayri tabiiy kuch qudrati, tengsiz pahlavonligi, jasorati va aql-farosati bilan alohida ajralib turuvchi qahramon siymosi. O'zbek xalq qahramonlik eposidagi Alpomish ana shunday badiiy obrazlardan. "Alpomish" dostonida Alpomish yetti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt Hakimbek yetti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyni qo'lga ko'tarib, pahlavonligi, baquvvatligini ko'rsata olganligi uchun unga alp – Alpomish nomi beriladi. "...Alpomishbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tib, alplik otini ko'tarib, yetti yoshida Alpomish ot qo'yildi. Ana shundan – yetti yoshida yoyni ko'tarib otgani uchun Alpomish alp atandi." ("Alpomish")

"Alpomish" – turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining qahramonlik eposi. Doston bir qancha turkiy va ularga yaqinlashgan ayrim turkiy xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Uning o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holda; tojik, tatar, boshqird, O'rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir.

Amaliy san'at – xalq ijodi(q)ning bezak san'ati bilan bog'liq sohasi. Amaliy san'at asosiy badiiy buyumlarni tayyorlash va ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohasini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari va buyumlari inson ruhiyati, uning moddiy buyumlarga bo'lgan estetik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Amaliy san'at buyumlaridagi bezaklar uning obraz sifatida gavdalanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at keng qo'llaniladi. Ularning o'zaro uyg'unlashuvi buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligi,

shakl va bezakning birikuvida namoyon bo'ladi. Asrlar mobaynida xalq ijodiyoti sohasi sifatida amaliy san'at asarlari xalqning yashash sharoiti, turmush tarzi, mashg'uloti va madaniy darajasi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib keldi. O'z navbatida amaliy san'at – kulolchilik, kandakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik, zargarlik, yog'och uymakorligi va boshqa bir qator ichki farqlanishlarga ega bo'lib, ularning yaratilishida xalqning qadimiy ruhiy dunyoqarashi, badiiy tafakkuri aks ettirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Anekdot (gr. anekdotos – chop etilmagan so'zidan) – hajviy yoki hazilomuz tugallanmaga ega bo'lgan qisqa maroqli og'zaki hikoya. Atama sifatida anekdot birinchi marta VI asrda Vizantiyada qo'llanilgan. Anekdotlar hayotdagi turli xil mavzularni qamrab olishi, hazil-mutoyiba va hajvning ta'sirchanligi bilan alohida ajralib turadi. Anekdot o'z mazmun mohiyatiga ko'ra latifa (q)ga yaqin turadi.

Aytishuv – xalq og'zaki ijodining she'riy usulda ijro etiluvchi, badihago'ylik (q) ka asoslangan shakli. Aytishuv baxshi, oqin, jirov, yigit va qizlarning turli mavzulardagi bellashuvi. Uning mavzusi, g'oyaviy-badiiy o'ziga xosligi bellashuvchilarning mahorati, iqtidori va so'zga chechanligiga bog'liq. Mavzusining qamrovidan qat'iy nazar aytishuvlar yumor va hajvga boyligi, didaktik ahamiyat kasb etishi, so'z o'yinining yetakchilik qilishi bilan alohida ajralib turadi.

An'ana – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan hodisa. An'ana ijtimoiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aks etgan keng miqyosli jarayon. An'analar ijtimoiy-madaniy xatti-harakat sifatida kishilar ongiga singgan, qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi. Folklor ijodkorligi va ijrochiligi ham ma'lum an'analar zamirida yuzaga kelgan, otadan bolaga, ustozdan shogirdga, ajdodlardan avlodlarga og'zaki asosda yetib kelgan namunalaridir.

Badihago'ylik (ar.-kutilmagan, tasodifiy, hozirjavoblik so'zlaridan) – maxsus tayyorgarliksiz ijodkorning biror-bir voqea-hodisadan ta'sirlanishi asosida yuzaga keladigan ijod namunasi. Ba'zan badihago'ylik o'rnida improvizatsiya atamasi ham qo'llaniladi. Oldindan tayyorgarligi bo'lmasdan she'r aytgan yoki musiqa asari yaratgan ijodkor badihago'y atamasi bilan ifodalanadi.

Badihago'ylik ko'proq xalq ijodkorlariga xos tushuncha bo'lib, ijodkorning iste'dodi, so'zga chechanligi, ruhiy holati xotira bilan bog'liq jarayonlarda aks etadi. Badihago'ylik ko'proq baxshi-shoirlar ijodida ko'zga tashlanib, bu holat aytishuv (q) (bahslashuv) jarayonida namoyon bo'ladi. Yozma adabiyotda badihago'ylikning yorqin namunasi shoirlar mushoirasida qo'l keladi.

Baxshi (mo'g'. baxsha – ustoz, ma'rifatchi so'zidan) – o'zbek va turkmanlarda xalq dostonlarini ijro etuvchi, yodda saqlovchi yuksak professional san'atkor. Doston va dostonchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liq. Xalq o'rtasida baxshi so'zi turli xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo'llangan. Ko'pchilik yerlarda professional dostonchi, ayrim joylarda afsungarlik, folbinlik, shamanlik (q) qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi vaqtda bu atama dostonchi ma'nosi-dagina yuritiladi. Shu bilan bir qatorda xalqimiz o'rtasida doston kuylovchi, ya'ni baxshi atamasi bilan yonma-yon qo'llanuvchi shoir, yuzboshi, soqi, sozanda, sannovchi, jirov, jirchi, oqin kabilar ham qo'llaniladi.

Bayram – ijtimoiy-madaniy hayotdagi muhim tarixiy voqea, hodisalarni ko'pchilik tomonidan ko'tarinki ruhda xursandchilik, o'yin-kulgi asosida nishonlash. Bayramlar g'oyaviy maqsadiga ko'ra kishilarning xursandchilik, shod-uxurramlik tuyg'ularini ifodalovchi tadbir. Ular o'zining mavzusi, g'oyaviy maqsadi, o'tkazilishi va ishtirokchilari, shuningdek, bayram tarkibida marosimning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra marosim bayramlari va zamonaviy bayramlarga bo'linishi mumkin. Marosim (q) bilan bog'liq bayramlarning o'zi ham bir necha ichki turlarga bo'linadi. Masalan, mavsum-marosim bilan bog'liq bayramlar (Navro'z, gul sayli, tut sayli, Mehrjon, hosil to'yi, gap-gashtak va boshqalar), oilaviy marosimlar bayrami (ism qo'yish odatlari, tug'ilgan kun, beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi va boshqalar), diniy bayramlar (Ro'za hayiti, Qurbon hayiti va boshqalar). Zamonaviy bayramlar ijtimoiy hayotning keyingi voqealari bilan bog'liq jarayonlarda yuzaga kelgan hodisalardir. Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Xotin-qizlar bayrami, O'qituvchilar va murabbiylar kuni va boshqalar. Umuman, bayramlar xalq ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi bilan ahamiyatlidir.

Bolalar folklori – folklorshunoslikning tarkibiy bir qismi bo‘lib, unda bolalarning pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bolalar qo‘shiqlari (q), o‘yinlari (q), topishmoqlari, ertaklari va boshqa og‘zaki nasr namunalari o‘rganiladi. Bolalar folklori ham qadim zamonlardan vujudga kelgan, asrlar mobaynida shakllangan va yangi bo‘yoqlarda rivoj topib, o‘zining bir qator janriy xilma-xilligiga ega. Bolalar folklori o‘zining g‘oyaviy maqsadiga ko‘ra bolalarni jismonan, ma‘nan kamol toptirish, ularni insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, mehnatsevarlik kabi axloq me‘yorlarini shakllantirish, shuningdek, bolalarni topqirlik, epchillikka undashni bosh vazifa qilib belgilaydi.

Bolalar qo‘shiqlari – bolalarga atalgan va bolalar tomonidan ijro etiladigan namunalar. Bolalar qo‘shiqlari ham mavzu ko‘lamining xilma-xilligi, voqelikni ifodalashdagi o‘ziga xosligi, bolalarning tabiat va jamiyatga bo‘lgan qiziqishlari, ehtirosi, ruhiy xususiyatlarini aks ettirish jihatidan bir qancha janrlardan tarkib topgan.

Bolalar o‘yinlari – ishtirokchilari bevosita bolalardan tarkib topgan, turli xatti-harakatlar vositasida sodir bo‘ladigan, qadimiy asoslariga ega o‘yin turlari majmuasi. O‘yinlar bolalar folklori (q) ning mustaqil, ommaviy va an‘anaviy janrlaridan hisoblanadi. Bolalar o‘yinlari obrazlar xilma-xilligi, g‘oyaviy mazmuni, voqelikni tasvirlash o‘rni, o‘ynalish holati, ijro tabiatiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘lib o‘rganilishi mumkin:

- a) qahramonlik ruhidagi o‘yinlar;
- b) hayvonlar haqidagi o‘yinlar;
- d) maishiy o‘yinlar.

Bog‘i Eram – afsonaviy yurt, epik makon. Xalq dostonlarida tasvirlanishicha Bog‘i Eram Ko‘hi Qof (q) tog‘i orasida joylashgan bo‘lib, Gulnor va Misqol parilar shu bog‘da yashaganlar. “... Yunus bilan Misqol parini Ko‘hi Qofdan, Eram bog‘idan keltirib, umr o‘tkazar edi”. (“Ravshan”)

Dehqonchilik qo‘shiqlari – mehnat qo‘shiqlari (q) ning tarkibiy bir qismi. Dehqonchilik qo‘shiqlari ham mehnat qo‘shiqlari kabi qadimiy bo‘lib, dehqonchilik mahsulotlarini yig‘ishtirib olish jarayonida ijro etilgan. Dehqonchilik qo‘shiqlari ijro o‘rni, aytuvchilari, mavzusining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bizgacha

dehqonchilik qo‘shiqlarining “Qo‘sh qo‘shiqlari”, “O‘rim qo‘shiqlari”, “Xirmon qo‘shiqlari” (Xo‘p maydalar) kabi namunalari yetib kelgan. Dehqonchilik mahsulotlari bilan bog‘liq mehnat jarayonida ijro etilganligi uchun shartli ravishda “Yorg‘ichoq qo‘shiqlari” ham mazkur guruhga kiritiladi.

Diniy afsonalar – o‘zbek xalq afsona (q)larining asosiy qismini tashkil etadi. Bu turdagi afsonalarda xudolar, payg‘ambarlar, avliyolar va yirik diniy arboblarning karomatleri, qilgan ibratli ishlari, mo‘jizalari haqida xabar beriladi. Diniy afsonalarning aksariyati “Tavrot”, “Injil”, “Qur‘on” kabi muqaddas diniy kitoblar, payg‘ambar va avliyolar hayoti haqidagi tarixiy manbalar orqali xalq orasida keng tarqalgan.

Dorbozlar (f.dorda o‘ynovchi so‘zidan) – xalq tomosha san‘atida dorda o‘ynovchi kishi. Dorbozlar, asosan, Navro‘z, xalq sayli va to‘ylarida dor ustida turli xil xatti-harakatlari bilan o‘yin ko‘rsatadilar.

Doston – so‘zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta‘rif va maqtoiv ma‘nolarida ishlatiladi. Atama sifatida doston xalq og‘zaki badiiy ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarni anglatadi. Har ikkala turga oid doston janri o‘zining yaratilishi, takomillashib borishi, shakliiy xususiyatlari, ijro etilishi jihatidan farqlanadi. Xalq og‘zaki ijodida dostonlar yaratilishiga ko‘ra baxshilar tomonidan ijro etilib, ustozdan shogirdga, avloddan avlodga bevosita jonli ijro orqali o‘tadi va an‘anaviylik kasb etadi. Shu bois xalq dostonlarining aniq yaratuvchisi bo‘lmasdan, ular yaratilish jihatidan jamoaviy ijod (q) mahsuli hisoblanadi. Yozma adabiyotdagi dostonlar esa ijodkorining aniqligi, ma‘lum muallifga qarashli ekani bilan ajralib turadi.

Dutor (f.ikki tor, ikki torli so‘zidan) – ikki torli, chertib chalinadigan uzun dastali musiqa asbobi. Xorazmda xalq dostonlarini baxshilar ko‘pchilik holatda dutor yordamida ijro etadilar.

Do‘mbira (tanbur so‘zidan) – torli chertma xalq musiqa cholg‘u asbobining nomi. Baxshilar terma va dostonlarni do‘mbira jo‘rligida ijro etadilar. Baxshichilik san‘atida do‘mbiraning muhim o‘rni bor. Shuningdek, do‘mbira jo‘rligida “Cho‘poncha”, “Do‘mbira kuy”, “Baxshi kuy”, “Kelinoy”, “Qo‘ng‘iroti” va boshqa ko‘plab kuylar do‘mbirakashlar tomonidan ijro etiladi. Do‘mbira baxshini doston aytishga tayyorlovchi asosiy asbob.

Epos (gr.epos-soʻz, nutq, hikoya soʻzlaridan) – voqelikni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asar turi. Epos qoʻllanishiga koʻra ikki koʻrinishda aks etadi: 1. Keng maʼnoda voqeaband badiiy asar, badiiy adabiyotning hikoyaviy koʻrinishdagi shakli. 2. Tor maʼnoda-xalq eposi ogʻzaki yaratilgan doʻmbira joʻrligida ijro etiluvchi, xalqning qahramonona oʻtmishi, orzu umidlarini aks ettiruvchi epik asar turi. Xalq eposi turli xalqlarda turlicha shaklda, hajmda va nomda yuritiladi. Masalan, oʻzbek xalq dostonlari, rus bilinalari, ukrain dumalari va boshqalar. Xalq eposi folklorning boshqa janrlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, syujetning kengligi, oʻziga xos kompozitsion tuzilishga egaligi, ikkinchidan, dramatismning kuchliligi, bayonda epik salmoqning yetakchilik qilishi, uchinchidan, voqealarning yagona qahramon bilan bogʻliq holda tasvirlanishi, toʻrtinchidan, anʼanaviy tipik oʻringa va oʻziga xos badiiy til vositalariga egaligidir. Xalq eposiga xos badiiy til, uslub va poetik tarkib alohida ajralib turadi. Epos sujeti tarkibida badiiy toʻqima va real voqelik izlari hayotiy tasavvur hamda mifologik qarashlar asosida chatishib ketgan boʻladi.

Erkalamalar – suyish qoʻshiqlarining bir turi boʻlib, asosan, bolani erkalamash maqsadida aytiluvchi namunalardir. Ehtiroslar joʻsh-qinligi, kayfiyat koʻtarinkiligi erkalamalarning tabiatini belgilovchi yetakchi xususiyatdir. Erkalamalarning aksariyati “O... shugina” yoki toʻppa-toʻgʻri “Shugina” va “Shuginagina” soʻzlari bilan boshlanib, toʻrt misradan oʻn va undan ortiq misralarni tashkil etadi.

Ertak – xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri. Ertaklarda xalqning maishiy turmushi va qahramonliklari, insonparvarlik va vatanparvarlik, sevgi va vafodorlik haqidagi orzulari xayoliy hamda hayotiy uydirmalar asosida hikoya qilinadi. Ertaklar gʻoyaviy asosiga koʻra xalqning yorqin kelajagi uchun olib borgan kurashlari, intilish va orzularini aks ettiradi. Ertak janriga xos muhim belgilar, asosan, sujetlilik va sujet voqealarini ogʻzaki hikoya qilib berish, real hayotiy voqealarni uydirmalar qobigʻida tasvirlash, estetik vazifaning yetakchilik qilishi hamda tarbiyaviy oʻgit berishidir. Demak, hayot haqiqati bilan bogʻliq boʻlib, xayoliy hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik gʻoya tashuvchi ogʻzaki hikoyalar ertak deyiladi. Oʻzbek xalq ertaklari mavzu qamrovi, voqelikni aks etirish tarzi, ishtirok etuvchilar-

ning tarkibiga koʻra hayvonlar haqidagi hamda majoziy ertaklar (q), sehrli ertaklar (q), maishiy ertaklar (q)ga boʻlinadi.

Etiologiya (gr.aitia – sabab va logos – taʼlimot soʻzlaridan) – turli narsa va hodisalarning vujudga kelish sabablarini izohlovchi atama. Jahon xalqlari ijodida ana shunday xarakterdagi namunalardan koʻp. Masalan, etiologik mif, etiologik afsona va boshqalar.

Folbin (ar.f. fol koʻruvchi, fol ochuvchi soʻzidan) – fol ochuvchi kishi, shomon (q). Folbinlar yoʻqolgan narsa-buyumlarni topish, kelajak haqida bashorat qiluvchi, turli voqea-hodisalardan xabardor, ruhlarni bilan muloqot qila olish qobiliyatiga ega deb qaralgan.

Folklor (ing.-folk-xalq, lore-donolik soʻzidan) – “Xalq donoligi”, “Xalq donishmandligi” maʼnolarini anglatib, xalq ogʻzaki badiiy ijodi atamasi bilan yonma-yon qoʻllaniladi. Folklor xalqaro atama boʻlib, turli mamlakatlarda xalq ijodiyoti (q)ning barcha sohalarini ifodalaydi. Respublikamizda folklor atamasi xalqning ogʻzaki badiiy ijodi va muzikasini anglatadi.

Folklorizm – xalq ogʻzaki ijodi namunalarining yozma adabiyotda ijodkorlar tomonidan qoʻllanishi. Folklorizmlar ikki xil koʻrinishda boʻlishi mumkin. Birinchi koʻrinish oddiy folklorizmi tashkil etib, unda ijodkorlar qahramonlar ruhiy holatini yoritish va didaktik vaziyatni shakllantirish maqsadida matal, maqol, qoʻshiq, rivoyat hamda boshqa namunalardan foydalanadilar.

Folklorshunos – folklorshunoslik sohasi mutaxassisi, xalq ogʻzaki ijodini oʻrganuvchi kishi.

Folklorshunoslik maktablari – xalq ogʻzaki ijodi asarlarining tarixiy asoslari, kelib chiqishi, genezisi, ijro usullari, janrlar xilma-xilligi, obrazlari, motiv, sujet, badiiy til vositalari, umuman, jahon folklorshunosligida qoʻllaniluvchi barcha folklorshunosliklarini oʻrganuvchi. tadqiq etuvchi ilmiy markazlar. Folklorshunoslik maktablari folklor namunalarini turli usul va metodlar asosida tahlil qilishiga koʻra bir necha guruhlariga boʻlinadi. Bular mifologik maktab (q), fin maktabi (q), antropologik maktab (q), tarixiy maktab (q), ritual-mifologik maktab (q) va boshqalardir. Folklorshunoslik fanining rivojlanishi, ilmiy taomilga kirishida yuqorida koʻrsatilgan maktablarning oʻrni kattadir.

Guldur-gup – soʻz oʻyinlari bilan bogʻliq bolalar qoʻshiqlari (q)ning bir turi. Guldur-gup oʻyinlari orqali bolalardagi chidam, bardoshlilik sinab koʻriladi. Bolalar oʻyin boshlashdan oldin shu oʻyinning boshlovchisini (ona boshi) aniqlashib oladi. Oʻyin boshlovchi ishtirokchilarning oldiga gapirmaslik va kulmaslikni shart qilib qoʻyadi. Shart buzilsa, bajarilishi lozim boʻlgan vazifa ana shu bolaning zimmasiga tushadi.

Yuqoridan it keladi,

Boʻyi toʻla qurt keladi.

Kim gapirsa yeydi.

Guldur-gup,

Ogʻzim qulp.

Dam...Jim!

Goʻroʻgʻli – “Goʻroʻgʻli” turkumi dostonlaridagi epik qahramon obrazi. Turkumlik dostonlarida Goʻroʻgʻli turkman va oʻzbeklarning begi, qonuniy hukmdor. oʻz xalqi va vatani uchun qaygʻuruvchi, dushmanlarga qarshi kurashuvchi, dono murabbiy, koʻplab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan bahodir siymosidagi obraz.

Hayvonlar haqidagi ertaklar – oʻzbek xalq ertaklari ichida alohida turkumni tashkil etadi. Hayvon bilan bogʻliq boʻlgan ilk tushuncha, fikr-mulohazalar, hayotiy detallar bu xildagi ertak sujeti va motivini tashkil etadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etuvchi personajlarda insonlar obrazi qatnashmaydi. Hayvonlar personajida insonga xos xatti-harakat va munosabatlar aks etadi.

Oʻz navbatida hayvonlar haqidagi ertaklar ham ikki turga boʻlinadi: a) sof hayvonlar haqidagi ertaklar; b) majoziy ertaklar.

Hunarmandchilik qoʻshiqlari – dehqonchilik va chorvachilik qoʻshiqlari kabi mehnat qoʻshiqlarining alohida turini tashkil etadi. Hunarmandchilik qoʻshiqlari ham bevosita mehnat jarayoni xatti-harakatlari – urchuq, charx, oʻrmak, kashta tikish, toʻn tikish, gilam boʻz toʻqish bilan bogʻliq xususiyatlarni aks ettiradi. Ularda hunarmandning mehnati va ruhiy olami tasvirlangan. Hunarmandchilik qoʻshiqlarining oʻzi ham hunarning turli-tumanligiga koʻra bir qator janriy xilma-xillikka ega. “Charx qoʻshiqlari”, “Boʻzchi qoʻshiqlari”, “Oʻrmak qoʻshiqlari”, “Kashta qoʻshiqlari” hunarmandchilik qoʻshiqlarining alohida-alohida turlaridir.

Jarchi – odamlar koʻp toʻplanadigan joylarda, toʻy va bozorlarda, koʻcha-kuylarda kuchli ovoz bilan xabar yetkazuvchi kishi. Asosan, jarchilar jar (q) qoʻshiqlarini aytib, kishilarning tadbir (sayl)ga chaqirganlar.

Jin – gʻayritabiiy xususiyatga ega boʻlgan, odamlar koʻziga koʻrinmaydigan mifologik obraz (q). Xalq tasavvuriga koʻra jinlar, asosan, yongʻoq, jiyda oʻsadigan joylarda, kul toʻkilgan yerlar, tashlandiq xarobalar, kimsasiz choʻllar, qabriston, mol soʻyilgan joylar, qari tut yoki gujum daraxtlarining tagi ularning makoni hisoblangan.

Kashtadoʻz – kashtaga (mato) gul, rasm, chiziq va boshqa shunday turli shakllar beradigan tikuvchi. Kashtadoʻzlar, asosan, amaliy sanʼatning bir turi hisoblanmish kashta tikish ishlari bilan shugʻullanadilar. Kashtadoʻzlar tomonidan kashta qoʻshiqlari ijro etiladi.

Kelin salom – nikoh toʻyi marosimida ijro etiluvchi folklor janri. Kelin salom qoʻshiqlari nikoh toʻyining ikki oʻrinda ijro etiladi. Birinchi oʻrinda qiz uzatar kechasi kuyovning hovlisida yoqilgan gulxan atrofida, ikkinchi oʻrinda nikohning ertasi kuni oʻtkaziladigan “Bet ochar” kabi tantanalarda aytiladi. Kelin salomlar oʻziga xos voqeaband tuzilishiga ega boʻlib, qoʻshiqda qarindoshlar oʻziga xos yaxshi sifatleri eʼtirof etiladi. Har bir tugal fikrda urugʻ va ularning yaxshi sifatleri eʼtirof etiladi. Har bir tugal fikrda oʻziga xos takrorlanib keluvchi “...salom”, “salom-salom, yana salom” soʻzlari naqarot vazifasini oʻtaydi.

Koʻpkari – oʻzbek xalqining qadimiy, oilaviy va milliy oʻyinlaridan biri. Koʻpkari, asosan, Navroʻz, hosil bayrami, toʻy va sayllar munosabati bilan oʻtkazilgan. Oʻyinning asosiy maqsadi yigitlarni chavandozlikka oʻrgatish bilan bir qatorda, ularni mard, jasur, epchil, dovyurak qilib tarbiyalashga qaratilgan. Oʻyinni oʻtkazish orqali ot zotini yaxshilashga, chidamli, tez harakat qiladigan zotlarni koʻpaytirishga harakat qilingan. Oʻyinda uloqni davra-qismdan solim (qoqma) va poygadan iborat. Oʻyinda pul, buyum, mol va dan olib chiqqan chavandoz zot oladi. Sovringa pul, buyum, mol va boshqa narsalar qoʻyiladi. Keyingi yillarda koʻpkari (uloq) oʻyinlari sport turiga kiritilib, respublika miqyosida rasmiy musobaqalar, xalqaro turnirlar oʻtkazila boshlandi.

Lapar – o‘zbek folklorining mustaqil janri bo‘lib, to‘y-marosimlarida yigit va qizning ahdu paymoni, shirin va baxtli umr haqidagi orzu armonlari, vafo va sadoqat, yorning go‘zal qiyofasini madh etish, mehnatsevarlikka da‘vat etish, sevgi mojarolari, xiyonat va aldanchilik haqidagi aytishuvlari. Lapar tarkibi, ijro usuliga ko‘ra o‘lanlarga yaqin turuvchi janrdir.

Laparchi – nikoh to‘yi marosimida lapar (q) aytuvchi ayol.

Latifa (ar.latif va lutf so‘zidan) – xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri. Latifa nozik, mayin kinoya, qochirilmalardan iborat kichik hajmli hikoya ma‘nosida qo‘llanib, satira va yumorga asoslanadi. Janriy belgilariga ko‘ra latifalar ixcham sujetga ega bo‘lishi va yagona qahramon – Nasriddin obrazining barcha asarlarda bir xilda ishtirok etishi bilan farqlanib turadi. Latifalar bir yoki ikki epizoddan iborat syujet tuzilishiga ega bo‘lib, konflikt qahramon va uning “muxolifi” o‘rtasidagi muloqot orqali hal etiladi. Nasriddin afandi xalqning yuksak ideallari, orzu-umidlarini aks ettiruvchi, mehnatkash ommaning manfaatlarini himoya qiluvchi obraz. Latifa mazmuni va voqelikka bo‘lgan munosabatiga ko‘ra hajviy hamda hazil latifalarga bo‘linadi.

Lirik qo‘shiqlar (gr.-lira jo‘rligida aytiladigan so‘zidan) – voqelikni shaxsning ichki kechinmalari asosida hissiy aks ettiruvchi, kuylashga mo‘ljallangan namunalar. Lirik qo‘shiqlarda xalqning nozik his-tuyg‘ulari, kechinma va orzulari butun tarovati hamda oqilligi bilan aks ettiriladi. Lirik qo‘shiqlarning mustaqil janr sifatidagi o‘ziga xos xususiyati ularni istalgan joyda, istalgan kishi tomonidan ijro etilishidir.

Lof (f.t.–haddan tashqari bo‘rttirilgan yolg‘on gap, mubolag‘a so‘zlaridan) – xalq og‘zaki ijodining nasriy janrlaridan biri. Loflar tuzilishi, hajv va yumorga asoslanganligi bilan latifa (q) hamda askiya (q) janriga yaqin turadi. Lof janri dialog asosida qurilgan bo‘lib, qiziqchi va askiyabozlar orasida shakllangan hamda ijro etilgan. Lof aytish mubolag‘ali epizodga mantiqli, so‘zamolli javob qaytarishga mo‘ljallangan.

Mavsum-marosim qo‘shiqlari – yilning to‘rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat faoliyati bilan aloqador ruhiy xususiyatlarini aks ettiruvchi namunalar. Mavsum-marosim qo‘shiqlari asosan, Navro‘z bayramlarida, bahor, yoz, kuz va qish kelishi

munosabati bilan aytiladi. Bu qo‘shiqlarning yaratilishi va ijro etilishi har bir faslning hislatlarini turlicha izohlash va tushunish asosida yuzaga kelgan. Shu boisdan ham yil fasllari, urf-odatlar ko‘pgina o‘ziga xos bayram va marosimlar bilan birgalikda kutib olingan. Masalan, bahor kelishi bilan “Navro‘z”, “Sumalak” haqidagi qo‘shiqlar, shuningdek, “Omonlik, hey omonlik”, “Boychechak”, “Halinchak”, “Hey, lola”, “Lola, lola, lolajon”, “Sust xotin” (yomg‘ir yog‘dirish qo‘shig‘i), yoz faslida “Choymomo” (shamol to‘xtatish qo‘shig‘i), kuz faslida “Yo, Haydar” (shamol chaqirish qo‘shig‘i) kabi qo‘shiqlar ijro etilgan.

Magiya (afsun, jodu so‘zidan) – tabiat va jamiyatdagi narsa, hodisalarga g‘ayritabiiy ta‘sir ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘z, ibora, xatti-harakatlar yig‘indisi. Magiya bilan bog‘liq tabiiy hodisalar va mehnat jarayoniga ta‘sir qilish, kasal davolash, dushmanlarga zarar keltirish, yomonlikdan asrash, sevgida omadli bo‘lish, issiq-sovuq qilish kabi ko‘plab odatlar kishilar ruhiy olamiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Xalq og‘zaki ijodining ko‘plab namunalarida ham magiya bilan bog‘liq vositalar o‘ziga xos badiiy-estetik vazifa sifatida saqlanib qolgan. Masalan, xalq qo‘shiqlarida soch magiyasi analogi sifatida kokil, gajak, haydar, zulf, kiprik, jamalak, qil, taroq va boshqalar magik xususiyatli deb talqin qilinadi. Ular ham soch bajargan ijtimoiy, badiiy-estetik vazifalarni bajaradi. Masalan:

*Kokilim qiymat baho,
Tashlab ketolmaysan meni.*

Maishiy ertaklar – o‘zbek xalq ertaklarining alohida bir turi bo‘lib, ular real, hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, ayoliy uydirmalar yordamchi vosita bo‘luvchi namunalaridir. Ertak sujeti g‘ayri tabiiy joy, saroy, bog‘larda emas, balki real joy-shahar va qishloqlarda bo‘lib o‘tadi. Maishiy ertaklarning mavzu ko‘lami ham hayvonlar va sehrli (q) ertaklardan farqlanib, ularda aqlni sinash, vafodorlik, jangovorlik, oilaviy-maishiy tortishuvlar, ayyorlik va tentaklikni tanqid qilish kabi xususiyatlardan iborat. Ertak qahramonlari hayotning faol kishilari, ular aql kuchi, tadbirkorlik, jasorat, sadoqat, do‘stga vafodorlik, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni mujassamlashtirgan, oliyjanob obrazlar.

“Manas” – qirg‘iz xalq eposi. “Manas” o‘z hajmi jihatidan dunyo xalqlari eposida eng kattasi hisoblanib, uni to‘liq kuylash manaschi mahorati va badihago‘yiligiga bog‘liq. “Manas” dostonining to‘liq nusxasi Sayaqboy Qorliyevdan yozib olingan bo‘lib, u nasliy turkumlik sifatida Manas, uning farzandi – Semetey hamda nabirasi – Seytek haqidagi dostonlardan iborat.

Marosim (ar.-ma‘raka, yig‘in so‘zlaridan) – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, xalq orasida qat‘iy an‘anaga kirib qolgan tadbir. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni qayd etadi (masalan, tug‘ilish, uylanish va o‘lim kabilar). Xalqning marosim bilan bog‘liq barcha qarashlari, o‘ziga xos estetik-funksional harakatlarining g‘oyaviy asoslari marosim folklori (q) da o‘rganiladi.

Masxaraboz – ijtimoiy hayotdagi ba‘zi salbiy holatlarni hajviy bo‘yoqlarda ko‘rsatuvchi, turli xatti-harakatlar bilan tomoshabinlarni o‘ziga jalb etuvchi aktyor, san‘atkor.

Matal (ar.-tugal ma‘no ifodalaydigan obrazli ibora, hikmatli so‘z) – xalq orasida tarqalgan birikmalar, voqelikka hissiy munosabat bildiruvchi, ko‘chma ma‘noda qo‘llanuvchi xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri. Matallarning paydo bo‘lishi turg‘un iboralarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Matallar tugal fikr ifodalamaydi, obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarni tasvirlash, ifodalashda bo‘yoqdorlikni kuchaytiradi, grammatik jihatdan gapning bir bo‘lagi bo‘lib keladi. “Semizlikni qo‘y ko‘taradi” “Burnini yerga ishqamoq”, “Bekorga mushuk oftobga chiqmaydi” kabi matallarda ana shunday xususiyatlar aks ettirilgan.

Maqol (ar. qavlun-gapirmoq, aytmoq so‘zidan) – xalqning ko‘p asrlar mobaynida to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan, ixcham, chuqur mazmunga ega og‘zaki ijod namunalariidan biri. Maqollar xalq ommasining uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribalari va kundalik turmushida sinovdan o‘tganligi bois tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodi janrlari orasida hajmi, tashqi shakliy tuzilish va voqelikni ifodalash jihatidan maqollarga yaqin turuvchi matal (q) kabi janrlar ham bor. Ammo maqollar o‘zining bir qator xususiyatlari bilan ushbu janrlardan farqlanib turadi. Masalan, maqollarda fikr aniq, tugal, xulosa lo‘nda hukm tarzida ifodalanadi. Matalda esa fikr tugal ifodalanmaydi.

Maqollarda muayyan hukm mantiqiy izchillikda ifodalanishi, o‘z va ko‘chma ma‘noda qo‘llanish xususiyatiga ega. Matallar faqat ko‘chma ma‘nodagina qo‘llana oladi.

Mehnat qo‘shiq-lari – o‘zbek xalq qo‘shiqlarining eng qadimiy namunalaridan biri. Mehnat qo‘shiq-lari insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelgan, o‘ziga xos ijro etilish xususiyatiga ega bo‘lgan qo‘shiq turi. O‘zbek xalq mehnat qo‘shiq-lari mehnat jarayonining turi, ijro etilish o‘rni va tarkibi, ohangi, badiiy shakli hamda mazmuni, obrazlar xilmaxilligiga ko‘ra mustaqil janrlarni qamrab oluvchi alohida turkumlardan tashkil topadi.

Milliy o‘yinlar – musobaqa qilish uchun ma‘lum qoidalar asosida o‘tkaziladigan o‘yinlar majmuasi. Milliy o‘yinlar xalq milliy-ruhiy xususiyatlarini aks ettiruvchi, turli xil xatti-harakatlar asosida sodir bo‘luvchi, ma‘naviy-moddiy rag‘bat negizida shakllangan musobaqa. O‘zbek xalq milliy o‘yinlari serqirra, turli-tumandir. O‘yinlarda qadimgi insonlarning turli e‘tiqodiy qarashlari, mifologik tasavvurlari, marosim bilan bog‘liqligi alohida ajralib turadi. Shu bilar bir qatorda o‘yinlarda yugurish, sakrash, merganlik ko‘rsatish, insonning jismoniy kuch-qudratini oshirishga harakat qiluvchi musobaqalar yetakchilik qiladi. O‘zbek xalq milliy o‘yinlari o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra doimiy va mavsumiy, ishtirokchilarning yoshi jihatidan kattalar va bolalar, soniga ko‘ra yakka va jamoa tarzida tashkil etilishi mumkin. Xalq o‘yinlari, asosan, bayram sayllari, tomosha va to‘ylarda o‘tkazilib, ular ko‘pkari (q), kurash (q), bedana urishtirish (q), qo‘chqor urishtirish (q), xo‘roz urishtirish, dorbozlik o‘yinlari va ishtirokchilari bolalar bo‘lgan ko‘plab bolalar o‘yinlari (q) ni tashkil etadi.

Mif (gr.-mythos-so‘z, rivoyat) – xalqaro atama. Ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo‘lish sabablarini o‘zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og‘zaki hikoyasi. Miflar ko‘pincha xudolar, yer yuzidagi dastlabki insonlar, afsonaviy qahramonlarning ishtirok etishiga ko‘ra afsonalardan farqlanib turadi. Qadimgi insonning dunyoqarashi, tafakkuri bevosita miflar bilan bog‘liqdir. Shu boisdan ham miflar dunyodagi barcha xalqlarda mavjud. Har qanday mif asosida ham real narsalar yotadi, biroq bu narsalarning bajargan funksiyasi reallik kasb etmaydi.

Mifologiya – mif (asotir) (q)larning kelib chiqishi, g'oyaviy asoslari, tasniflanishi, obrazlar tizimi, umuman, miflar majmuini tekshiruvchi fan. Mifologiya tadqiqotchilari mifolog, mifshunos atamallari bilan yuritiladi.

Motiv (fr.-motif-kuy, ohang, soʻzidan) – sujet xalqalaridan biri boʻlib, asosan, xalq doston va ertaklarini oʻrganishda qoʻllanuvchi atama. Masalan, epik qahramonlarning gʻayritabiiy ravishda tugʻilishi, ov va safarga chiqishi, tush koʻrish bilan bogʻliq motivlar asar gʻoyasini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslikda motiv atamasi asarning asosiy mavzu va gʻoyasini toʻldirishga xizmat qiluvchi vosita.

Mubolagʻa (ar.-lof urish, boʻrttirish soʻzidan) – tasvirlanayotgan voqea-hodisani haddan ziyod boʻrttirib koʻrsatish. Mubolagʻa vositasida ijodkor tasvirlanayotgan narsa va hodisalarni nisbatan ajratib, boʻrttirib koʻrsatish asosida uni goh maqtash, goh masxaralashga erishadi. Quyidagi misralar mubolagʻaning eng yaxshi namunalardan:

*Oh ursa olamni buzar tovushi,
Toʻqson molning terisidan kovushi.*

Navroʻz (f.t.-yangi kun soʻzidan) – bayram marosimlari folklorining bir turi. Sharq xalqlarining qadimgi davrlardan buyon keng nishonlab keladigan bayrami. U bahorgi kun va tun tengligiga asoslanib, asosan, 21-mart kuni nishonlanib, 25-martga qadar davom etgan. Navroʻz bahor bayrami, tabiat va jamiyatdagi jonlanishning boshlanishidan darak beradi. Xalqimiz bayramni alohida nishonlashga eʼtibor qaratgan. Navroʻz bayramiga tayyorgarlik koʻrish toʻkin-sochinlik, shod-u xurramlikka intilishning bosh sababi, yilning boshlanishi qanday boʻlsa, yakuni ham shu asosda davom etadi degan qarashdir. Bayramga tayyorgarlik ishlari 21-martdan oldinroq boshlanib, yetti xil donli ekin undirilgan. Ularning unishiga qarab, yilning hosildorlik darajasi chamalangan. Shu asosda Navroʻz dehqon, dehqonchilikning boshlanishi bilan bogʻliq bayram.

Naql (ar.-hikmatli gap soʻzidan) – axloqiy-didaktik nasihatlardan tuzilgan, majozga asoslangan xalq ogʻzaki ijodi janri. Naqllar axloqiy-didaktik vazifa oʻtashlari bilan ogʻzaki nasrning boshqa

janrlaridan ajralib turadi. Naqlda ezgulik maʼqullanib, yomonlik inkor etiladi. Xalq dunyoqarashi va donishmandligining ifodasi, axloq meʼyori haqida hikoya qiluvchi, negizida nasihatomuz fikrlar yotuvchi hikoya naqldir. Demak, naqlning majoziy maʼnosi va taʼlimiy-didaktik vazifasi uning asosiy belgisi hisoblanadi.

Ovutmachochlar – bolalarni erkalovchi qoʻshiq namunalari-dan biri. Ovutmachochlar, asosan, kichkintoylar yigʻlaganda, injiqlik qilganda ularni tinchlantirish maqsadida aytiluvchi namunalardan hisoblanadi. Ovutmachochlar onalar, baʼzan otalar tomonidan ijro etilib, ular bevosita bolaning oʻziga poetik murojaat shaklida qurilganligi bilan ovutish jarayonini jonlantiradi.

Odat (urf-odat) (ar.harakat, qiliq soʻzidan) – kishilarning ijtimoiy-maishiy hayotida maʼlum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, koʻpchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari koʻnikmasi. Urf-odatlar, asosan, kishilarning turmush tarzi, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida urf-odatlar hodisa. Xalq ogʻzaki ijodining koʻplab namunalari urf-odatlar bilan bogʻliq hodisalar oʻzining gʻoyaviy-badiiy asoslariga ega. Ayniqsa, xalq dostonlarida urf-odatlarining koʻplab namunalari milliy-ruhiy xususiyatlarni yoritishda oʻziga xos ahamiyat kasb etadi.

Olonxo – yoqut xalq qahramonlik eposi. Olonxolar professional ijrochilar – olonxosutlar tomonidan muzikasiz ijro etiladi. Asarning nasriy qismlari tez surʼatlarda bayon qilinib, sheʼriy shakldagi monologlari esa kuylanadi. Olonxolarning asosiy gʻoyasini xalqning adolat, tinchlik va doʻstlik haqidagi orzu-umidlari tashkil etadi. Ular oʻziga xos sujet tuzilmasiga ega boʻlib, voqealar rivojida qahramonning sevgilisini izlashi, bu yoʻlda uchraydigan yovuz kuchlar ustidan gʻalaba qozonishi kabi masalalarni yoritish yetakchilik qiladi.

Olqish (maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash soʻzidan) – insonga yaxshi istaklar tilashdek ezgu amallarni maqsad qilib qoʻyishi bilan folklor namunalari orasida alohida oʻrin tutadi. Kishiga ezgu niyat tilash, uning ruhini koʻtarish va yaxshilik sari davʼat etish olqishlarning muhim janriy belgisi hisoblanadi.

Onaboshi – bolalar oʻyini (q)da qatnashuvchi tomonlarning boshligʻi. Oʻyinni boshlab berishda onaboshi yetakchilik qiladi.

Pari (f.go'zal ayol, yaxshilik qiluvchi ruh so'zlaridan) – xalq og'zaki ijodi namunalarida, ayniqsa, dostonlarida juda go'zal siymodagi qiz, epik qahramonlarni ins-jinslardan asrovchi afsonaviy obraz. "Go'ro'g'li" turkum dostonlaridagi Gulnor va Yunus parilar ana shunday qiyofadagi epik personajlar hisoblanadi.

Personaj – obraz (q)

Qarg'ishlar (qarg'amoq so'zidan) – kishiga ziyon-zahmat yetkazish, ularga yomonlik tilash maqsadida aytiluvchi folklorning so'z sehri bilan bog'liq janri. Qarg'ishlarning negizida faqatgina kishilarga baxtsizlik tilash yetakchilik qiladi. Qarg'ishlar ifoda maqsadi, xatti-harakati va g'oyaviy asosiga ko'ra so'kish va haqoratlashlardan farqlanadi. Kishilarga tilanadigan yomonlik yoki baxtsizlik hamma vaqt istak, xohish tarzida ifodalanishi qarg'ishlarning yetakchi xususiyatlari hisoblansa, so'kishlarda kishi shaxsiyati haqoratlanadi. Qarg'ishlarning o'ziga xos genetik asoslari, poetikasi va hayotiy qo'llanish o'rni, holatlari mavjud. O'zbek xalq qarg'ishlari genetik asosiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganilishi mumkin:

a) mifologik tasavvurlar bilan bog'liq qarg'ishlar – "jin urgur", "arvoh ursin" kabi;

b) tabiat dunyosi bilan bog'liq qarg'ishlar – "go'shtingni quzg'unlar cho'qisin", "ko'zingga gul tushkur";

d) turli jonsiz predmetlar bilan bog'liq qarg'ishlar – "sut ko'r qilsin", "non ko'r qilgur";

e) kishiga o'lim tilash bilan bog'liq qarg'ishlar – "topganing tobutingga buyursin" va boshqalar.

Qahramonlik eposi – xalqning asriy orzulari, intilishi, kurashi, qahramonona o'tmishi haqida tasavvur beruvchi xalq dostonlarining bir turi. Qahramonlik atamasi o'zbek folklorshunosligida ikki ma'noda: keng ma'noda umuman, o'zbek eposiga nisbatan, tor ma'noda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi. Qahramonlik g'oyalarining bosh asosini xalqning asriy orzu umidlari, kurashi, intilishi, ona-Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, dushmanga nafrat, mardlik, jasurlik, sevgi muhabbat, do'stlik, vafodorlik va insoniy fazilatlarini ulug'lashdek oliyjanob tuyg'ulari qamrab oladi. Har bir xalq o'z qahramonlik o'tmishi, hayotiga ega bo'lganidek, qahramonlik dostoniga ham ega. Masalan, qadimgi greklarning "Iliada",

"Odissey", rus bilinalari, gruzin "Amirani", arman "Sosunlik Dovud"i, turkiy xalqlarning "Alpomish" kabi dostonlari mavjud. Qahramonlik eposiga xos asosiy xususiyatlardan biri xalqning biror tarixiy davrdagi orzu intilishini bir yoki bir necha obrazda mujassamlashtirgan bo'ladi. Qahramonlik eposi sifatida bizgacha faqat "Alpomish" (q) va uning uzviy qismi "Yodgor" dostonlari yetib kelgan.

Qiziqchi – xalq teatrda qiziqarli xatti-harakatlari bilan rol bajaruvchi, tomoshabinlarni kuldiruvchi san'atkor, masxaraboz.

Qissa (ar.-hikoyat, afsona, sarguzasht so'zidan) – Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan folklor va yozma adabiyot asarlari. Xalq og'zaki ijodidagi qissalar og'zaki aytilib, ularda badihago'ylik yetakchilik qiladi. Xalq og'zaki ijodidagi qissalar ko'pincha xalq kitoblari (q) atamasi bilan yuritiladi.

Qo'chqor urishtirish – xalq milliy an'anaviy o'yinlaridan biri bo'lib, uning ildizi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qo'chqor urishtirish, asosan, Navro'z, hosil bayrami va to'ylarda namoyish ettirilgan. Maxsus parvarish qilingan, o'rgatilgan qo'chqorlar qo'chqorbozlar tomonidan o'yinga olib kirilgan. O'yinning ma'naviy rag'batidan tashqari moddiy-iqtisodiy foydali tomoni ham bo'lgan. Bu o'yin orqali qo'chqorlarning zotdorlari tanlangan va parvarishlangan. Qo'chqor urishtirish o'yinida, asosan, erkaklar ishtirok etganlar.

Qo'shiq (qo'shmoq so'zidan) – misrani qo'shib kuylash, aytish. Qo'shiq (lirika) badiiy adabiyotning har ikkala shakli – og'zaki va yozma ijodga xos adabiy turidir. Bu ikki turga xos lirik namunalar she'riy shakli, ritmga asoslangani bilan bir-biriga o'xshashlikka ega bo'lsa-da, xalq qo'shiqlari folklorga xos og'zaki lik, jamoaviylik, an'anaviylik va variantligiga ko'ra farqlanadi. Ikkinchidan, xalq qo'shiqlari ramzlar tizimi, o'ziga xos badiiy tasvir vositalari, lirik obrazning an'anaviy xarakterga egaligi hamda ijro etilish o'rniga ko'ra ajralib turadi. Xalqning qadimiy dunyoqarashi, an'analari, marosim va maishiy turmushi, ramziy va an'anaviy obrazlari, kuy va raqs bilan munosabatini barqaror saqlagan she'riy san'at turi qo'shiqdir.

Rivoyat (ar.-og'zaki hikoya, bayon etish so'zlaridan) – hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi

janrlardan biri. Rivoyatlarda tarixiy va ayrim shaxslar bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Ularda u yoki bu voqea haqida xabar berish, uni tasdiqlash xususiyatlari yetakchilik qiladi. Ana shu jihatlarga ko'ra rivoyatlar afsona (q)larga yaqin turadi. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafu, yaxshilik va odamiylik kabi g'oyalar zulm va zo'rlik, haqsizlik va adolatsizlik singari illatlarga qarshi qo'yiladi. Rivoyat voqelik o'rni va obrazlar xilma-xilligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: tarixiy va toponomik.

Saj (ar.bulbul, to'ti, qumri kabi qushlar ovozinig uyg'unlashib kelishi) – folklorning, asosan, nasriy janrlarida bir yoki bir necha gapdagi ayrim so'zlarning yo vaznda, yo qofiyada yoxud har ikkalasida moslashuvi. Saj san'ati dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan. Xalq ertak va dostonlaridagi an'anaviy o'rinlar (boshlanma, personajlar tavsifi, ruhiy holatlar, peyzaj va afsonaviy joy nomlari)da saj tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llanilgan.

Sayl (ar.sayr, piyoda yurish, kezish so'zlaridan) – turli xil bayramlar munosabati bilan o'tkaziladigan xalq o'yin-kulgusi, xursandchiligi va namoyishlaridir. Masalan, Navro'z sayli, gul sayli va boshqalar.

Sanamalar – bolalarning harakatli o'yin turlaridan biri bo'lib, ularning asosiy vazifasi o'yin boshlanishidan oldin navbatda turuvchini aniqlash. Ana shu xususiyatlariga ko'ra sanamalar o'yinda muqaddima vazifasini o'taydi. Sanamalarda sanash ohangi yetakchilik qilib, eng so'nggi so'z ishtirokchilarining qaysi biriga to'g'ri kelsa u navbatda qoladi.

O'n, yigirma,

O'ttiz, qirq,

Ellik, oltmish,

Yetmish, sakson,

To'qson, yuz.

Yuzga kirgin

Oppoq qiz!

Sehrgar (ar.sehrgarlik, afsun, jodu so'zlaridan) – turli sehrli vositalar yordamida mo'jiza ko'rsatuvchi kishi.

Sehrlil ertaklar – o'zbek xalq ertaklarining alohida bir turini tashkil etib, sujet voqealari xayoliy uydirmalar asosida tuzilganligi

bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham sehrli ertaklarda personajlar, voqea va hodisalar, joylar g'ayri tabiiy, sehr, jodu, mo'jiza va xayoliy ravishda tasvirlanadi. Sehrli ertaklarning ham mavzu qamrovi keng bo'lib, asosan, qahramonlikni himoya qiluvchi, uch og'a-ini sarguzashti, o'gaylik va kamsitilgan kishilar va "mitti polvonlar"ni tashkil etadi. Sehrli ertaklarning poetikasida tilsim alohida o'rin tutib, ertak mazmunini belgilaydi. Sehrli narsalar, tilsimlar, an'anaviy uch yo'l, uch aka-uka, uch ot, uch kecha-kunduz va boshqalar ertak sujetini tashkil etadi. "Guliqahqah", "Zumrad va Qimmat", "Aqli qiz", "No'xatvoy", "Xurmacha polvon", "Ilon og'a", "Kenja botir" va boshqalar sehrli ertaklarning yaxshi namunalari.

Sinchi – xalq dostonlarida otlarning zotini, naslini, fe'latvorini yaxshi biladigan epik obraz. "Sinchi otning ta'rifini qilib, "chini shul" deb, bir so'z aytib turgan ekan" ("Alpomish").

Soqi – respublikamizning ayrim hududlarida doston ijro etuvchi baxshi shaxsi ma'nosi va tushunchasini ifodalaydi.

"Sust xotin" – mavsum–marosim qo'shiqlari (q)ning bir turi bo'lib, u asosan, bahor faslida yog'ingarchilik kam bo'lgan holatlarda marosim tarkibida ijro etilgan. Sust xotin qadimgi zardushtiylik dinida muqaddas sanalgan osmon suvlari tangrisi Tishtiriyanning xalq o'rtasida nomi o'zgargan obrazidan iborat. Qo'shiqda yomg'ir tangrisi Sust xotining murojaat qilinib, undan madad kutiladi. Qo'shiqda Sust xotin yo naqarot ko'rinishida, yo radif ko'rinishida kelib muayyan kompozitsion izchillik kashf etadi.

Havolarni yog'dirgin, Sust xotin,

Dehqonning uyi to'lsin, Sust xotin.

Yomg'irlarni yog'dirgin, Sust xotin,

Yomonlarning uyi kuysin, Sust xotin.

So'z o'yini – badiiy usullardan bo'lib, unda ijodkor ba'zan so'z shakldoshligidan, ba'zan so'zning majoziy va ramziy ma'no-laridan foydalanib, o'zi xohlagan tushunchalarni anglatishi mumkin. Xalq og'zaki ijodida so'z o'yinidan, asosan, latifa (q), askiya (q) janrlarida ko'plab o'rinlarda foydalaniladi. Quyidagi askiya matnida so'z shakldoshligi asosida so'z o'yini yaratilgan. "G'oyib aka: – Qanday o'rik yeyman axir, siz bog'ning o'rtasida turib, olma, olma, deysiz-u!".

Tabu – kishilarning e'tiqod va axloqiga nomuvofiqligi jihatidan qo'llanishi man etilgan so'z va iboralar. Tabularning mavzusi va qo'llanish qamrovi keng. Ular ijtimoiy hayotdagi turli voqea-hodisalarda aks etadi. Masalan, nikoh marosimiga, qiz va o'g'il bolalarga, homilador ayollarga, o'limga oid, kun va vaqtga, ro'zg'or ashyolari va turli predmetlarga oid xalqning maishiy hayoti bilan bog'liq xususiyatlarida aks etadi.

Tarixiy afsonalar – o'zbek xalq afsonalari tarkibida katta o'rin egallaydi. Bu tur afsonalar tarixiy voqea, shaxslar haqida yaratilsa-da, ularda tasvirlangan voqealar asosan xayoliy uydirmalar qobig'ida bo'ladi. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlari orqali bizga yetib kelgan "To'maris", "Shiroq" kabi, shuningdek, xalq orasidan yozib olingan "Iskandarning shoxi" va boshqalar sof tarixiy afsonalar hisoblanadi.

Terma (terib, tanlab tizish so'zidan) – baxshi (q)lar tomonidan ijro etiladigan, o'ziga xos g'oyaviy-badiiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan folklorning alohida bir janri. Termalar, asosan, pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi va tanqidiga bag'ishlangan, 10-12 satrdan, 150-200 satrgacha bo'lgan she'riy tuzilmadagi asar. Termalar yaratilishi jihatidan an'anaviy va zamonaviy turlarga bo'linadi. Termalar, asosan, ijtimoiy funksiyasiga ko'ra baxshi tayyorlash, dostonchini doston aytishga, tinglovchilarni doston tinglashga hozirlash vazifasini o'taydi. Termalar ham do'mbira jo'rligida ijro etiladi, musiqa bilan munosabati barqaror bo'ladi.

Topishmoq (topmoq so'zidan) – xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga ega bo'lgan, qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan hisoblanadi. Topishmoq janriga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar bir-biriga yaqin bo'lgan, o'xshash narsa va hodisalarni ikkinchisiga xos belgilar asosida topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol hamda topshiriqlar.

"Turey-turey" qo'shiqlari – sog'im (chorvachilik) qo'shiqlarining bir turi. Turey-turey qo'shiqlari qo'ylarni sog'ish va qo'zilarni emizishda ijro etiluvchi namunalaridir.

Tilsim (ar.sirli, maxfiy yozuv so'zlaridan) – sehr lab qo'yilgan, sehrli joy ma'nolarini anglatib, folklor namunalarida, ayniqsa,

sehrli ertaklarda ko'plab o'rinlarda uchraydi. Ilmiy tushunchaga ko'ra, sehr-jodu orqali ifodalanuvchi g'ayritabiiy kuchning g'ayri-oddiy hosilasini aks ettiradi. Uning epik namunasi narsa va hodisalarning yo'qdan bor, bordan yo'q bo'lishida (olmaning parizodga, parizodning olmaga aylanishi, sehrli suv, oynada yorni ko'rish, bir aylanib kabutar bo'lish, bir gaz qilichning qirq gaz bo'lishi kabilari) namoyon bo'ladi. Tilsim ma'no xususiyatiga ko'ra fantastikadan farq qiladi. Ular ertaklarning asosiy belgilari, an'anaga aylangan barqaror motivlarni tashkil etadi.

To'y olqishlari – marosim folklorining bir turi bo'lib, kampir o'ldi, it irillar, chiroq aylantirar, oyna ko'rsatar, qo'l ushlatar, soch siypatar marosimidan so'ng, nikoh kechasining so'nggida aytiladi. Olqishlar ham to'y marosimining boshqa janrlari singari ommaviy ijro etilgan. Olqishlarda ham kelin va kuyovga yaxshi tilaklar tilash yetakchilik qiladi. To'y olqishlari ham o'ziga xos an'anaviy boshlanma, asosiy va yakunlovchi qismlardan tashkil topadi. To'y olqishlaridan so'ng kelin kuyovnikiga kuzatiladi.

To'y qo'shiqlari – to'y marosimlarida ijro etiluvchi qo'shiqlar namunalaridan bo'lib, xalqning qadimiy marosim va an'alarini g'oyaviy-badiiy asosda aks ettiradi. To'y qo'shiqlari ham deyarli barcha xalqlari ijodi uchun xos. O'zbek to'y qo'shiqlari ham turli-tuman bo'lib, ular bir-biridan o'tkazilish tarzi va vositalari, ishtirokchilar tarkibi, vazifasiga ko'ra farqatlanadi. Ularning o'ziga xosligi, o'xshashligi yagona "To'y marosimi" degan tushuncha ostida birlashganligi, ko'pchilik tomonidan nishonlanishi va ziyofat, xursandchilikning mavjudligidir.

Xalfa – Xorazmda epik asarlar yoki ulardan parchalar kuylovchi ijodkor. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgan. Xalfachilik ijro usuliga ko'ra ikki xil ko'rinishda shakllangan. Birinchisi ansambllik xalfalar guruhini tashkil etib, ular uch kishidan iborat bo'lib, biror-bir soz asosida qo'shiqlar ijro etganlar. Ikkinchisi yakka xalfalar bo'lib, ular doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etganlar.

Xalq ijodi – xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, xalq ommasining ijodiy faoliyati bilan bog'liq barcha san'at turlarini – xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqa folklori), xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'yin-

lari (raqs), qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'ochoyoq san'ati (xalq sirki), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati. xalq arxitekturasi (qurilish amaliyoti) hamda badiiy va texnikaviy havaskorlik kabi ijodiyot turlarini qamrab oladi.

Xalqchillik – folklor namunalarida xalq orzu-umidlari, ruhiyati va kayfiyati, xarakter hamda kurashlari, yuksak g'oyalari, umuman, umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarni g'oyaviy-badiiy asosda qo'yilishi. Yozma adabiyot va san'at namunalarida bo'lgani kabi folklor asarlarida ham xalqchillik muhim ahamiyatga egadir. Xalqchillik tushunchasining bosh maqsadi xalq ruhiyati, orzu-umidlarining badiiy ifodalashga qaratilganligidir. Xalq ijodkorlari sevimli qahramonlari Alpomish, Go'ro'g'li va boshqa obrazlarni tipiklashtirish uchun badiiy vositalardan o'rinli foydalanganlar. Masalan, Go'ro'g'lining kuch-qudrati ko'proq sher, arslon, yo'lbars va qoplon kabi eng kuchli hayvonlarga nisbat berilsa, savlati va gavda tuzilishi tog', qoya, adir, qirga, epchilligi burgut va qarchig'aylarga o'xshatiladi.

Umuman, folklor namunalarining xalqchilligi masalasi faqatgina g'oyaviy mazmuni bilangina emas, balki badiiy shaklining o'ziga xosligi, ommaga yetib borishi, badiiy tilining xalqchil bo'lishida ham ko'rinadi.

Xizr – xalq og'zaki ijodi namunalarida, ayniqsa, doston va ertaklarida epik qahramonning homiysi sifatida talqin qilinuvchi mifologik obraz (q). Xizr xalq qarashlariga ko'ra ajdodlar ruhining epik timsoli, afsonaviy homiy, donishmand oqsoqol sifatidagi personaj. "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonni doimo qo'llab turuvchi, u bilan har doim birga yuruvchi obraz hisoblanadi. Xizr yordamida epik qahramonlar o'z maqsadlarini amalga oshiradilar, murod-maqsadlariga yetishadilar.

Xotima – doston va ertaklarning tugallanma qismi. Folklor asarlarining xotima qismida qahramonlarning dushman ustidan g'alaba qozonishi, turli xil to'siqlar, qarama-qarshiliklarni yengib o'tib, murod-maqsadlariga erishuvi tugallanma qismda o'ziga xos tasvir elementlarida namoyon bo'ladi. Ular maxsus jumlar tarzida qisqacha bayon qilinadi: "Shunday qilib, ular bir-birlari bilan tanishib, murod – maqsadlariga yetishibdi".

Yalinchoqlar – bolalarning mavsum-marosim qo'shiqlaridan biri. Bolalarning quyosh, oy, shamol, yulduz, yomg'ir va boshqa tabiat hodisalariga poetik munosabatining ifodalanishi yalinchoqlarning g'oyaviy asosini tashkil etadi. Bolalar repertuarida yalinchoqlarning ko'p turlari mavjud bo'lsa-da, ularning keng tarqalgani "Oftob chiqdi olamga". U qish oxirlab, quyosh bulutni yorib chiqqanda ijro etiladi. Bolalar quyoshni ko'rishganda tizilishib, qo'shiqni birgalikda kuylashgan.

Yalmog'iz kampir – xalq ertaklarida o'ta yovuz mahluq sifatida qo'llanuvchi obraz. Yalmog'iz kampir ertaklarda odamxo'r sifatida tasvirlanuvchi, xalq qahramonlari yo'lidagi asosiy yovuz kuchlardan biri hisoblanadi. Yalmog'iz kampir obrazi turli xildagi sehr-jodular yordamida ertak qahramonlariga qarshi kurash olib boruvchi, ularni mahv etuvchi yovuzlik timsolidir. O'zining tarixiy asoslariga ko'ra bu obraz ezgulik kuchlariga qarshi kurash olib boruvchi mifologik obrazdir.

Yor-yorlar – nikoh to'yi marosimida ijro etiluvchi, qiz uzatish kechasi aytiladigan qo'shiqlardan biri. Bu janr qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq va turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan. Yor-yorlar asosan kelinning uyidan kuyovning uyiga olib borilayotgan vaqtda aytiladi. O'zbek xalq yor-yorlarining mavzu qamrovi juda keng bo'lib, unda kelin va kuyovni ta'riflash, ularni baxtli-saodatli hayot kechirishga, bola-chaqali bo'lishga va boshqa maishiy hayot muammolari haqida fikr yuritiladi. Yor-yorlar ijrosi o'ta murakkab bo'lib, uni maxsus tayyorgarlikka, tajribaga ega bo'lgan kishilar aytib, qolganlar esa qo'shiqning naqarot va umumiy joylarida jo'r bo'ladilar.

O'lan (ula, ulamoq so'zidan) – nikoh to'ylarining birinchi bosqichida, ya'ni qiz uzatar oqshomidan bir yoki bir necha kun oldin qizning uyida o'tkaziladigan "qiz oqshomi", "qizlar majlisi" kabi turli nomlar bilan nishonlanadigan tantanada ijro etilgan. O'lan hazil-mutoyiba, hozirjavoblik talab etuvchi folklor janri. O'lan janrining ijrosi ommaviy xarakter kasb etib, professional o'lanchilar tomonidan boshlanib, ular tomonidan boshqarib borilgan. O'lan janrining mavzu doirasi keng bo'lib, unda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtoqlik motivlari yetakchilik qiladi. O'lan aytishni yigitlar boshlab berishadi qizlar davom ettiradilar.

G'irot – "Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridagi epik obraz. G'irot xalq idealidagi afsonaviy ot obrazi bo'lib, u turkumlik dostonlarining barchasida qatnashadi. Epik qahramon Go'ro'g'liga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, yanglishgan paytida tanbeh beradi, dushmanga qarshi kurashda qahramonni himoya qiladi, dushman askarlari bilan kurashadi. U epik qahramon – Go'ro'g'lining muvaffaqiyatga erishuv yo'lida xizmat qilib, g'oyat mushkul vazifalarni bajaradi. Go'ro'g'li G'irotga ega bo'lganligi bois orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradi. Shu boisdan ham o'zbek xalq baxshilari Go'ro'g'li obrazi bilan bir qatorda G'irot siyomosiga ham alohida yondashadilar, o'ziga xos tasvirleydilar

FAN YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1.– xalq ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismidir.

- A. Xalq pedagogikasi
- B. Etnopedagogika manbalari
- C. Mutafakkirlar merosi
- D. Tarixiy asarlar

2. Kim o'zining asaridagi "Maktabda bolalarni o'qitish va tarbiyalash" deb nomlangan bobida umumta'lim g'oyasi olg'a suradi. Ta'limda suhbat metodini qo'llashni, aqliy mashg'ulotni jismoniy mashg'ulotlar bilan almashib turishni tavsiya etadi.

- A. Farobiy "Fozil odamlar shahri"
- B. Ibn Sino o'zining "Tadbiri manozil"
- C. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"
- D. Ibn Sino "Ibn Sino va Ilon"

3. Mifologik obazlarning ilk namunalari nimalarda o'z aksini topgan.

- A. Mif va asotirlarda
- B. Afsona va rivoyatlarda
- C. Afsona va latifalarda
- D. Mif va afsonalarda

4. Mif so'zining lug'aviy ma'nosi?

A. Yunoncha "mithos" – so'z, rivoyat so'zidan olingan bo'lib, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar

B. Grekcha "mithos" – so'z, rivoyat so'zidan olingan bo'lib, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar

C. Yunoncha "mithos" qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi

D. Grekcha "mithos" qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi

5. Obodonlik, farovonlik xudosi kim?

- A. Xumo
- B. Axriman
- C. Axura Mazda
- D. Noxit

6. ...– yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonidir

- A. Xalq pedagogikasining bosh obyekti
- B. Xalq pedagogikasining subyekti
- C. Xalq pedagogikasining mazmuni
- D. Xalq pedagogikasining vazifasi

7. Mifologik qarg'ishlarqaysi qatorda berilgan?

- A. "Ko'zingga gul tushsin", "Go'shtingni quzq'unlar cho'qisin". "Arvoh ursin"
- B. "Alvastiga yo'liqqur", "Jin ursin", "Jin chalsin", "Arvoh ursin"
- C. "Sut ko'r qilgur", "Non ko'r qilgur", "Jin chalsin"
- D. "Sut ko'r qilgur", "Non ko'r qilgur", "Arvoh ursine", "Jin chalsin"

8. ...– xalqning ko'p asrlar mobaynida to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan, ixcham, chuqur mazmunga ega og'zaki ijod namunalari biri.

- A. Matal
- B. Afsona
- C. Masal
- D. Maqol

9. "Qo'shiq" so'zining lug'aviy ma'nosi?

- A. Turkiy "qo'shmoq" so'zidan olingan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi.
- B. Arabcha axloqiy-didaktik nasihatlardan tuzilgan, majozga asoslangan xalq og'zaki ijodi janri.
- C. Grekcha "qo'shmoq" so'zidan olingan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi.
- D. Lotincha "qo'shmoq" so'zidan olingan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi

10. Arabcha "zakiiy" so'zidan olingan bo'lib, "so'zamol", "o'tkir", "zehnli" degan ma'nolarni anglatadi.

- A. Baxshi
- B. So'z ustasi
- C. Askiya
- D. Lofchi

11. Axloqiy-didaktik vazifani bajaruvchi, axloqiy sifatlar, fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan etnopedagogik janrdir.

- A. Afsona.
- B. Matal
- C. Naql
- D. Maqol

12. Ham didaktik, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega ertaklar?

- A. Bulbuligo'yo", "Ur to'qmoq", "Uch og'a-ini botirlar", "Chol bilan kampir"
- B. "No'xatvoy", "Quloqvoy", "Xandalak polvon", "Uch og'a-ini botirlar".
- C. "Uch og'a-ini botirlar", "Bo'ri bilan qo'zichoq", "Ur to'qmoq", "Uch og'a-ini botirlar", "Chol bilan kampir"
- D. "Ur to'qmoq", "Uch og'a-ini botirlar", "Chol bilan kampir"

13. U xalqning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarini, ijtimoiy-maishiy turmush tarzini, orzu va intilishlarini o'zida ifoda etadi.

- A. Ertak
- B. Hadis
- C. Rivoyat
- D. Qissa

14. Muhammad alayhissalomning fikricha, inson millati, irqi, davlatiga qaramasdan o'z tabiatiga ko'ra sahovatli bo'lishi, bir birlariga nisbatan mehribonlik ko'rsatishlari zarur. Bunday sahovatli dunyo to'rt toifadagi insonlar guruhidan iboratdir ikkinchi toifa insonlari ko'rsatilgan qatorni belgilang?

A. Odamlar borki, ilmli, aql-zakovat egalari, lekin boylik ato etilmagan. Bu toifadagilar boy kishilarga g'araz nazari bilan qaramaydilar. o'zlarida ham shunday boylik bo'lsa, ezgu natijalarga sarflashni orzu qiladilar.

B. Tangri tomonidan ham boylik, ham ilm ato etilgan bo'lib, bulardan faqat o'zi bahramand bo'lmasdan, balki qarindosh-urug'lar, do'stlar, qo'shnilar va boshqalarni ham bahramand etadilar. Bu toifadagi odamlar har tomonlama ulug' kishilardir.

C. Toifadagi kishilar esa mol-dunyo ega bo'lib, ilmsizdir. Hech kimga muruvvat qilmaydi. Bu toifadagi kishilar eng emon kishilar hisoblanadilar.

D. Toifadagi kishilarda na mol-dunyo, na ilm bor. Ular ilmi, mol dunyoli bo'lish, ularni ezgu ishlarga sarflash orzusi bilan yashaydilar

15. ... -qadimiy urf-odatlar, an'analar, marosimlar va udumlarni avlod-dan-avlodga etkazuvchi vosita hisoblanadi

- A. Xalq pedagogikasi
- B. Hadis
- C. Xalq qo'shiqlari
- D. Asotir

16. - ko'p qirrali tarixiy, boy madaniyatimiz va ma'naviyatimizning ajralmas bir qismi bo'lsa, olis o'tmishda yaratilgan va asrlar osha sayqal topib, bizgacha yetib kelgan xalq o'gzaki ijodi madaniy meros durdonalaridir.

- A. Xalq pedagogikasi
- B. Hadis
- C. Xalq qo'shiqlari
- D. Askiya

17. Dostonlar mazmuniga ko'ra bir necha turlarga tavsiflanadi? Bular...

- A. Qahramonlik, jangnoma, romantik, tarixiy, kitobiy
- B. Romantik, tarixiy, kitobiy,
- C. Qahramonlik, jangnoma, Ishqiy sarguzasht
- D. Qahramonlik, jangnoma kitobiy

18. Dostonida ishq-muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor, ma'lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo'lida xizmat ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi.

- A. Kuntug'mish
- B. Ravshan
- C. Alpomish
- D. Rustamxon

19. Alpomish dostonining 1000 yilligi 1999-yilda qaysi shaharda keng nishonlandi?

- A. Termiz
- B. Qarshi

- C. Samarqand
- D. Toshkent

20. Yolg'iz o'g'li bo'lib, o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi. Qaysi qahraman haqida so'z yuritilgan?

- A. Alpomish
- B. Kuntug'mish
- C. Rustamxon
- D. Ravshan

21. ...- milliy an'analar, urf-odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar, xatti-harakatlar bilan bog'lab tasvirlanadi, ular timsolida adolatparvarlik, rostgo'ylik, mardlik, mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, do'stlik va samimiyat kabi xislatlar, mehnat tarbiyasi, jismoniy: kamolot, aqliy va axloqiy sifatlar ulug'lanadi.

- A. Xalq dostonlarida
- B. Xalq ertaklarida
- C. Afsonalarda
- D. Miflarda

22. Mustaqil etnopedagogik tur bo'lib, ularda notabiiy voqealar, salbiy xislatlar tanqid ostiga olinadi. Qaysi tur haqida so'z yuritilgan?

- A. Askiya
- B. Lof
- C. Latifa
- D. Matal

23. Afsona - ???
A. Grekcha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi.
B. *Arabcha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi.
C. Hayoliy uydirmalar asos bo'lgan kichik nasriy hikoya.
D. Lotincha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi.

24. Kattalami hurmat qilish, kichiklami izzat qilish kabi ibratli tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga quloq solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlar tasvirlangan tur qaysi?

- A. Rivoyat
- B. Ertak
- C. Doston
- D. Maqol

25. Jonivorlar yoki parrandalar ishtirokidagi o'yinlar:

- A. "Qo'chyaqor urishtirish", "Toq-juft", "It urishtirish", "Bedana urishtirish"
- B. "Xo'roz urishtirish", "Eshak ko'pkar", "Ot poyga", "Ag'darish", "Chavgon", "Uloq".
- C. "Chavgon", "Uloq", "Eshak ko'pkari", "Chirkash"
- D. "Uloq", "Chavgon", "Uloq", "Eshak ko'pkari"

26. Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri – tozalik, ikkinchisi – parhez, uchinchisi – badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz va kayfiyatdir. Qaysi asardan olingan?

- A. "Ibn Sino shogirdlari" rivoyatda
- B. "Ibn Sino va ilon" afsonasida
- C. "Luqmoni xakim" rivoyatida
- D. "Qobusnoma"da

27. "To'g'ri aytasan, men ham sening qayering kasalligini ko'rib-bilib turibman: sening ko'zing og'rikan, bizning fahmufarosatimizga ko'ra ko'zning bir tomiri oyoq ostida joylashgan. Sening o'sha joying, ko'zingning oyog'ing ostiga ulashgan tomiri shamollagan. Shunga xina qo'ysang, zora ko'zing tuzalib, asli holiga qaytsa" jummlar kimga tegishli?

- A. Ibn Sino
- B. Luqmoni Hakim
- C. Ibn Sino shogirdi
- D. Luqmoni Hakim o'g'li

28. Bilimni bolalikdan o'rgatish tavsiya etilgan. O'z bilimni boshqalarga o'rgatmaslikga qiyoslangan.

- A. Parvonasiz shamga
- B. Qoyasiz tog'ga
- C. Suvsiz baliq
- D. Yomg'irsiz bulut

29. "Hamal – ???"

- A. Ekinlarga davr kirdi
- B. Ekinlarga kirar amal
- C. Ekiningni yasat
- D. Ekiningni ek

30. "... Ey farzand, ogoh bo'lgilki, hunarsiz kishi ... hech kishiga naf yetqurmas ..." Qaysi asardan olingan?

- A. Ibn Sinoning "Tadbiri manozil"
- B. "Chistoni Elikbek"
- C. Kaykovusning "Qobusnoma"
- D. Yassaviy "Hikmatlar"

31. "Har narsa qo'lingga tushsa: bir tangadan ikki hissani o'z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilig' va ojizlig' vaqtining zaruriy ishlarig'a ehtiyot qilib qo'yg'il".

- A. Ibn Sinoning "Tadbiri manozil"
- B. "Chistoni Elikbek"
- C. Kaykovusning "Qobusnoma"
- D. M.Qoshg'ariy "Devoni lugotit-turk"

32. Nafsdan kechib, qanoatni pesha qilg'an, Har kim topsa, rozi bo'lib, bo'yi sung'an. Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'an, Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q. Jummlar kimga tegishli?

- A. Yassaviy
- B. Kaykovus
- C. Ibn Sino
- D. Luqmoni Hakim

33. "Odami Od" hikoyasi qaysi manbaga tegishli?

- A. Hadis
- B. Avesto
- C. Qobusnoma
- D. "Devoni lug'otit-turk"

34. . Bilim ma'nosin bil, nima der bilim: Bilimdan yo'lni dard davosiga bilim hunarmand. Qaysi asardan olingan?

- A. A.Navoiy
- B. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida
- C. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"
- D. Ibn Sino

35. Mol-dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol-dunyoga erishgan kishi uni to'g'ri yo'lda sarflashi kerak. Jumalari qaysi manbada keltirilgan?

- A. Hadis
- B. Qur'on
- C. Qobusnoma
- D. Qutadg'u bilig

36. ".....-qonunlar,- urf-odatlar asosida boshqariladi?"

- A. G'arb, Sharq
- B. Sharq, G'arb
- C. Yevropa O'rta Osiyo
- D. O'rta Osiyo Yevropa

37.- tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga tola javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir

- A. An'ana
- B. Qadriyat
- C. Urf-odat
- D. Marosim

38. - kishilar ongida, hayotida o'z o'mini topgan ijtimoiy hodisa bolib, avloddan avlodga oladigan, takrorlanadigan tartib va qoidalardir.

- A. An'ana
- B. Qadriyat
- C. Marosim
- D. Urf-odat

39.kishilaming kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalardir

- A. An'ana
- B. Marosim
- C. Qadriyat
- D. Urf-odat

40. ... - ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirlardir.

- A. Urf-odat
- B. An'ana
- C. Qadriyat
- D. Marosim

41. Xalq og'zaki ijodida qaysi raqamlar sehrli son hisoblanadi.

- A. 3, 4, 9, 40
- B. 2, 5, 6, 9
- C. 3, 4, 5, 7, 9, 40
- D. 3, 4, 6, 9, 11

42. Qur'onning birinchi "Fotiha" surasi necha oytdan iborat ekanligini ta'kidlashadi?

- A. 9
- B. 3
- C. 6
- D. 7

43. Nasroniylar o'ttiz uch (33) sonini qaysi payg'ambarning umr yoshi sifatida hurmat qilishadi?

- A. Iso
- B. Muso
- C. Muhammad
- D. Ali

44. "Evoh, yo do'mbira chertishni, yoki ko'pkari chopishni o'rgatmagan ekanman. Mabodo, ikkalasidan birontasini bilganida ham omon qolar edi-ya. Chunki do'mbira chertganda kuy sehridan, ko'pkari chopib, uloq ayirganda esa zavq-shavqdan yuragi kengayib, unga o'ralgan qil uzilib ketishi va farzandim o'lmay qolishi aniq edi" nutq kimga tegishli?

- A. Ibn Sino
- B. A.Navoiy
- C. Yassaviy
- D. Luqmoni Hakim

45. Ibn Sino kimga “Do‘stni foyda va ziyonda imtihon qil”, “Ishni, xarjni kiringa qarab qil”. “Bolalaring nima desa, o‘shani qilavermaslikni”, “Inson o‘zini o‘ta xor (ham) qilmasligi” kerakligini ta’kidlaydi?

- A. Luqmoni Hakimning aziz farzandiga
- B. Shogirdiga
- C. Do‘stiga
- D. Luqmoni Hakimga

46. “Ikki narsa yo‘qotilganidan so‘ng qadrlanadi – ?

- A. Sog‘lik va oila
- B. Sog‘liq va yoshlik
- C. Yoshlik va oila
- D. Oila va do‘st

47. O‘z avlodlarini sog‘lom, baquvvat, botir bo‘lishini orzu qilgan xalq farzandlariga qanday ismlar qo‘yishni taomilga kiritgan?

- A. Polvon, Arslon, Botir, Qahramon Anvar
- B. Quvvat, Polvon, Arslon, Botir, Qahramon, Bahodir, Murod, Komil

- C. Polvon, Arslon, Botir, Qahramon, Rustam
- D. Jahongir, Bahodir, Murod, Komil

48. Kitobiy dostonlar qaysi qatorda keltirilgan?

- A. Rustamxon, Sayod va Hamro, Oshiq G‘arib va Shoxsanam
- B. Alpomish Ravshan, Oshiq G‘arib va Shoxsanam
- C. Rustamxon, Oshiq G‘arib va Shoxsanam
- D. Sayod va Hamro, Oshiq G‘arib va Shoxsanam, Layli va Majnun

49. Ko‘kaldosh kim?

- A. Olti alpning kattasi
- B. Alpomishning bobosi
- C. Cho‘pon
- D. Alpomishning do‘sti

50. O‘yin bolalarning, xususan, necha yoshgacha bo‘lgan bolalarning asosiy mashg‘uloti hisoblanadi?

- A. 2-5
- B. 2-8
- C. 2-7
- D. 3-10

51. Etnopedagogika genezeologik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi nuqtai-nazaridan qanday xususiyatlarga ega.

- A. Og‘zaklilik, vorisiylik, an‘anaviylik, qorishiqlik
- B. Anonimlik, og‘zaklilik, vorisiylik, an‘anaviylik, qorishiqlik
- C. Anonimlik, og‘zaklilik, vorisiylik, ko‘pvariantlilik, an‘anaviylik
- D. Qadimiylik, og‘zaklilik, vorisiylik, an‘anaviylik, qorishiqlik

52. Xalqimizning axloqiy, ta‘lim-tarbiyaviy qarashlari bo‘yicha to‘plangan boy ma‘naviy ma‘rifiy meros va pedagogik g‘oyalari bilan tanishtirish jarayoni

- A. Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi hisoblanadi.
- B. Xalq pedagogikasining asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.
- C. Xalq pedagogikasi fanining vazifasi hisoblanadi.
- D. Xalq pedagogikasi fanining metodologik asosi hisoblanadi

53. Xalq Chingizxonga bo‘lgan nafrati ifodalangan qanday afsona yaratdi?

- A. “Guldursin”
- B. “Chingiziynoma”
- C. “Qonxo‘rxon”
- D. “Qoraxon”

54. Qadimgi urush va g‘alaba xudosi kim bo‘lgan?

- A. Noxit
- B. Mirrix
- C. Axriman
- D. Mitra

55. Bola tarbiyasida qo‘llaniladigan ijobiy metodlar qatorini toping.

- A. Kechirish, tushuntirish, maqtash, qo‘rqitish
- B. Kechirish, tushuntirish, maqtash, oqlash
- C. Maqtash, oqlash, buyurish, zarda qilish
- D. Ishonch bildirish, oqlash, buyurish, zarda qilish.

56. Bola tarbiyasida qo‘llash qoralangan metodlar qatorini toping.

- A. Urishish, qo‘rqitish, odatlantirish, uyaltirish
- B. Majbur qilish, uyaltirish, oqlash, ont ichirish
- C. Uyaltirish, oqlash, ont ichirish, jismoniy jazo berish
- D. Ont ichirish, jismoniy jazo berish, yolvorish, talab qilish.

57. Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi nima?

A. Xalqimizning axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy qarashlari bo'yicha to'plangan boy ma'naviy ma'rifiy meros va pedagogik g'oyalari bilan tanishtirish jarayoni sanaladi.

B. Bo'lg'usi pedagogik kadrlarda pedagogik tafakkumi shakllantirish va kengaytirish, xalqimizning o'qitish jarayonini tashkil etish va tarbiya nazariyasi bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy merosi va pedagogik qarashlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishdir.

C. Xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarida, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat.

D. O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalami ilmiy jihatdan to'la bilish orqali uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab berish}

58. Xalq pedagogikasi fanining vazifalari nimalardan iborat?

A. Xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarida, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat.

B. Bo'lg'usi pedagogik kadrlarda pedagogik tafakkumi shakllantirish va kengaytirish, xalqimizning o'qitish jarayonini tashkil etish va tarbiya nazariyasi bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy merosi va pedagogik qarashlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishdir.

C. O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalami ilmiy jihatdan to'la bilish orqali uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab berish.

D. Xalqimizning axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy qarashlari bo'yicha to'plangan boy ma'naviy ma'rifiy meros va pedagogik g'oyalari bilan tanishtirish jarayoni sanaladi

59. Etnopedagogikaning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ko'rsating.

A. Og'zakilik, anonimlik, tarbiyaviylik, noan'anaviylik, vorisiylik

B. Anonimlik, tarbiyaviylik, noan'anaviylik, vorisiylik, og'zakilik, yakka variantlilik.

C. Anonimlik, an'anaviylik, vorisiylik, og'zakilik, ko'p-variantlilik.

D. Og'zakilik, anonimlik, tarbiyaviylik, noan'anaviylik, vorisiylik, yakka variantlilik, tarixiylik.

60. Etnopedagogika fanining metodologik asosi nima?

A. xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarida, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirish

B. O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalami ilmiy jihatdan to'la bilish orqali uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab berish.

C. Prezidentimiz asarlarida olg'a surilgan milliy, madaniy avlodlarga meros qoldirish haqidagi fikrlar; falsafaning jamiyat, shaxs, ong va ularni tarbiya vositasida o'zgartirish mumkinligi haqidagi qonuniyatlari; buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari; komil insoni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga dior diniy ta'limotlar.

D. xalqimizning axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy qarashlari bo'yicha to'plangan boy ma'naviy ma'rifiy meros va pedagogik g'oyalari bilan tanishtirish jarayoni.

60. "Qiyinchilik va tajribasizlik barcha xulqiy va fikriy fazilatlar oldida ko'ndalang turadi, umuman, har qanday hunarni o'rganishda o'ziga yarasha qiyinchilik bor". Bu fikr qaysi asardan olingan?

- A. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otut turk"
- B. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri"
- C. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"
- D. Abu Nasr Farobiy "Buyuk ishlarning naqlaridan".

61. "Xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o'yinlari va o'yinchoqlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir". Ushbu fikrlar kimga tegishli?

- A. M.Ochilov
- B. Voronov
- C. Volkov
- D. Sultanova G.

62. Tarbiya metodlari ichida eng ko'p qo'llaniladigan turlarini ko'rsating.

- A. Tushuntirish, ta'qiqlash.
- B. Ta'qiqlash, majburlash.
- C. Tushuntirish, namuna ko'rsatish
- D. Ta'qiqlash, namuna ko'rsatish

63. Folklor asarlariga xos bo'lgan xususiyat bo'lib, ular zahirida pedagogik fikrlar xalqning xotira manbaidan og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu etnopedagogika manbalarining qaysi xususiyati?

- A. Og'zakichilik
- B. Vorisiylik
- C. An'anaviylik
- D. Ko'pvariantlilik

64. Jang maydonlarida bahodirlarcha kurashib halok bo'lgan kishilarning mardlik, jasorati, fidoiylik fazilati tasvirlanadigan xalq qo'shiqlari qanday ataladi?

- A. Ov haqidagi qo'shiqlar
- B. Marosim qo'shiqlari
- C. Mehnat qo'shiqlari
- D. Marsiyalar

65. Bola noo'rin qilgan xatti-harakatlarini tezkor takrorlaganda yoki o'ziga topshirilgan ishni bajarmaganda qanday usuldan foydalaniladi?

- A. Tanbeh;
- B. Kechirish;
- C. Rizosizlik;
- D. Ogohlantirish

66. Xalqning turli mavzularda yaratgan qo'shiqlari qaysi manbada uchraydi?

- A. Avesto
- B. Devon u Lug'ati turk
- C. Qutadg'u bilig
- D. Tadbiri manozil.

67. "Ilm – dunyoning izzati. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir", – deb ta'riflagan alloma kim?

- A. Abdulla Avloniy
- B. Mahmud Qoshg'ariy
- C. Yusuf Xos Hojib
- D. Alisher Navoiy

68. Etnopedagogika fanining metodologik asosi qaysi variantda tog'ri keltirilgan?

- A. Buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari
- B. Milliy urf-odatlar, an'anava marosimlar
- C. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik
- D. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi

69. Xalqimizning axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy qarashlari bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy meros va pedagogik g'oyalari bilan tanishtirish jarayonida quyidagilardan qaysi biri o'rganilmaydi?

- A. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik tarixi
- B. Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar
- C. Buyuk mutafakkirlaning pedagogik g'oyalari
- D. Xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari sog'lom turmush tarzining aks etishi.

70. Gershaps kim?

- A. O'limni yenguvchi bahodir
- B. Yaxshilikni ulug'lovchi qahramon

C. Obodonchilik xudosi

D. O'z husni jamoli bilan hammani maftun qiluvchi qahramon.

71. Firdavsiyning Sharq va Garbda shuhrat qozongan "Shohnoma" asarining asosini nima tashkil etadi?

A. O'tmishda oilada turli mavzudagi ertak, latifa, hikmatlar

B. Xalq pedagogikasida og'zaki ijod namunasi bo'lgan dostonlari

C. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan afsonalar

D. Ibtidoiy kishilarning dunyoni shu tarzda tasavvur qilishlari zahirida xodolar, hayvon va qushlar haqidagi miflar

72. Ijtimoiy hayot bilan bog'lik holda bo'lib ularda xalq qahramonlarining vatanga, xalqqa bo'lgan sadoqati ifodalangan rivoyatlar?

A. "To'maris", "Shiroq: "Rustam"

B. "Siyovush", "Rustamxon", "Shiroq"

C. "Alpomish", "To'maris", "Kuntug'mish"

D. "Zarina va Strangiya", "Rustam", "Go'ro'g'li".

73. "Qiyinchilik va tajribasizlik barcha xulqiy va fikriy fazilatlar oldida ko'ndalang turadi, umuman har qanday hunarni o'rganishda o'ziga yarasha qiyinchilik bor". Ushbu fikr kimning qaysi asaridan olingan?

A. Farobiy "Buyuk ishlarning naqillaridan"

B. Ibn Sino "Tadbiri manozil"

C. Farobiy "Fozil odamlar shahri"

D. Imom al-Buxoriy "Adab durdonalari"

74. Xalq pedagogikasida farzand tarbiyasida qaysi usul jazolanishning yuqori bosqichi hisoblangan?

A. Sinash usuli

B. Tanbeh usuli

C. Oliy hikmatlilik usuli

D. Rizosizlik usuli

75. "Pedagogik fikrlar xalqning xotira manбайдan og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan". Ushbu ta'rifda etno-pedagogikaning qaysi xususiyati ko'zda tutilgan?

A. Vorisiylik

B. An'anaviylik

C. Og'zaklilik

D. Ko'pvariantlilik

76. Imom al-Buxoriyning hadislaridan birida "chin mo'min emasdir" deb kimlar tasvirlangan?

A. Qo'shnisi och bo'lib, o'zining qorni to'q bo'lgan kishi

B. Berilgan omonatga hiyonat qilgan kishi

C. Qilgan savob ishini oshkor qilgan kishi

D. Ota-onasini xaqorat qilgan kishi

77. Xalq og'zaki ijodida odobli bo'lmagan aql egasi kim yoki nimaga o'xshatilgan?

A. Qurol-aslahasiz bahodirga

B. Zanglagan temirga

C. Sozandaning uzilgan toriga

D. Qilichi o'tmas pahlavonga

78. Ota-onalar bolalariga axloq qoidalarini tushuntirishda qanday latifalardan foydalanishgan?

A. "Xovliqma", "Maqtanchoq", "Xasis va afandi"

B. "Xasis va afandi", "Yotish qoidasi", "Xovliqma"

C. "Afandining axloqi", "Maqtanchoq"

D. "Afandining odobi", "Maqtanchoq"

80. Qaysi afsonaviy qahramon "O'limni yenguvchi bahodir" deb ta'riflanadi?

A. Rustam

B. Mitra

C. Gershaps

D. Jamshid

81. Mitraning qaysi quroli "yaltiroq temirdan yasalgan va ustiga oltin qoplangan", - deya ta'riflangan?

A. Yaltiroq gurzi

B. Buqa tasmasi

C. Yaltiroq chopqi

D. Oltin tasma

82. "Uch yoshlining amali ..." maqolining davomi to'g'ri keltirilgan qatorni toping?

A. Onasining amali

B. Yuz yoshda ham saqlanadi

C. Sakson yoshda ham saqlanadi

D. Amalida sabog'i

- A. Xalq o'yinlari
- B. Diniy ta'limotlar
- C. Tasviriy san'at
- D. Dunyoviy ta'limot

93. ...xalqimizning turmushi, madaniyati, ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, xalq pedagogikasining tarbiya usullarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarda, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishdan hamda o'rganish – bu xalq pedagogikasining....

- A. Vazifasi
- B. Maqsadi
- C. Predmeti
- D. Obyekti

94. Fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo'lgan nasriy hikoyalarga nima deb ataladi?

- A. Rivoyat
- B. Adabiy ertak
- C. Afsona
- D. Hikoya

95. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan afsonalar buyuk fors shoiri Firdavsiyning Sharq va G'arbda shuhrat qozongan qaysi asarining asosini tashkil etadi?

- A. Donishnoma
- B. Shohnoma
- C. Jahonnoma
- D. Boburnoma

95. "Xalq pedagogikasini xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlar yig'indisi" ushbu ta'rif muallifi kim.

- A. Sohibov A.
- B. Yo'ldoshev Q.
- C. Mutalipova J.
- D. Usmonov R.

96. Tarbiyaning tushuntirish usulidan foydalanishda bolalarning nimasi hisobga olingan?

- A. Yoshi
- B. Bilimi
- C. Qobiliyati
- D. Mehnat

97. Hayot haqiqatini ifodalaydigan chuqur ma'noli va mazmunli gaplarni nima deb ataymiz?

- A. Maqol
- B. Hikmatli so'zlar
- C. Rivoyat
- D. Afsona

98. "Bir kattaning gapiga kir, bir-kichikning" maqolining mazmuni to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- A. Tarbiya haqida
- B. Samimiylilik haqida
- C. To'g'rilik haqida
- D. Aqllilik haqida

99. "Xalq pedagogikasi-tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui" ushbu fikarlar kimga tegishli.

- A. Yo'ldoshev Q.
- B. Sohibov A.
- C. Usmonov R.
- D. Mutalipova J.

100. Amir Temur va uning avlodi hukmronlik qilgan davrlarda xalq pedagogikasining qaysi manbasi rivojlandi?

- A. Xalq og'zaki ijodi
- B. Xalq raqs san'ati
- C. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlari
- D. Xalq hunarmandchiligi

ASOSIY DARS LIKLAR VA O'QUV QO'LLANMALAR

1. Sh.M.Mirziyoyev Prezident farmoni PF-6000-son 26.05.2020. "Madaniyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 14 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 185 b.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri // Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. www.ziyouz.com kutubxonasi. – 93 b.
6. Avesto. (Asqar Mahkam tarjimasini). – Toshkent: Sharq, 2001. – 128 b
7. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul – Xaqoyiq. N.Komilov tarjimasini. – Toshkent: "Kamalak", 1995. – 42 b.
8. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 43 b.
9. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. – Toshkent, 1980. – 101 b.
10. Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent, 2005. – 27 b.
11. Karimov I.A. "Adolatli jamiyatsari". – Toshkent, 1998. – B. 39-40.
12. Kaykovus Unsurulmaoli. Kaykovus. – Toshkent: "Istiqlol", 1994. – 26 b.
13. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. – Toshkent, 1996. – 46 b.
14. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litseylar uchun darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – 208 b.
15. Mahmudov Nizomiddin. O'qituvchi Nutqi madaniyati: talabalar uchun darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy ko'tubxonasi nashriyoti, 2007.
16. Mirhamidov O. Halol kasb-hunar – qut-baraka keltirar. – Toshkent: Movorounnahr, 2018. – 15 b.
17. Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi". – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1994.

18. Musurmonova O. "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi". – Toshkent, 1996.
19. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning shakl va metodlari. – Toshkent, 1995.
20. Mutalipova M. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
21. Navoiy, Alisher. Maxbub ul-qulub. Asarlar 15-tom. – Toshkent, 1966.
22. Nishonova S.Imomova. M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
23. Nurullaeva Sh. "Pedagogik mahorat" kursidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi. – Qarshi: Nasaf, 2011. – 86 b.
24. O'zbekistonning yangi tarixi. (tuz. N.Juraev va boshq.). 2-kitob. – Toshkent: "Sharq", 2000. – 148 b.
25. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori: Saylanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
26. Ochilov S. va Xoshimov K. O'zbek Pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995-1999.
27. Oripova N.X. Variativ modellashirish asosida talabalar pedagogik e'tiqodini shakllantirish nazariyasini tizimlash-tirish (boshlang'ich ta'lim ixtisosligi misolida) 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. pedagogik ta'limotlar tarixi, pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. – 252 b.
28. Raximov S., Turakulov E. Abu Rayxon Beruniy Ruxiyat va ta'lim-tarbiya to'g'risida. – Toshkent, 1992.
29. S.G'ulomov v.b. Ta'lim tarbiya sifati va qirralari. – Toshkent, 2000.
30. Sa'diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: Yoshlar, 2018. – 122 b.
31. Sohibov A. Xalq pedagogikasi istoriyagrafiyasi. Qarshi. "Nasaf" NMIU, 2021. – 156 b.
32. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'unuy va X.Karomatov tarjimasini. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991. – 67 b.
33. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Nodirxon Xasan tarjimasini. – Toshkent, 1999. – 22 b.
34. Valixojayev Boturxon. Samarqanda oliy ta'lim-madrasai oliya – Universitet tarixidan lavhalar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Samarqand, 2001. – B. 38-47.

35. Volkov G.N. va boshqalar. Etnopedagogika. – Toshkent: “FAN”, 2000. – B. 6.

36. Xayrullayev M.M. O‘tmish mutafakkirlari ta’lim-tarbiya haqida / Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. 1-kitob. – Toshkent: O‘zPFITJ, 1992. – 180 b.

37. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. – 63 b.

38. <https://uz.wikipedia.org/wiki>

O‘QUV NASHR

MUHAMMADIYEVA MANZURA MARATOVNA

XALQ PEDAGOGIKASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5111800 – maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Muharrir:

Texnik muharrir:

Musahhah:

E. Jabborov

J. Raxmatov

M. Primova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0051. 08.04.2020 yil.
Terishga 08.04.2023 yilda berildi. Bosishga 11.04.2023 yilda ruxsat etildi. Bichimi 64x84 ^{1/16}. Shartli bosma tabog‘i 17,25.
Ofset usulida chop etildi. Times New Roman garniturasini.
Ofset qog‘ozi. Nashr bosma tabog‘i 16,25. 27-shartnoma.
42-buyurtma, 100 nusxada. 276 bet. Erkin narxda.

“Fan va ta’lim” nashriyoti, 180103.
Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy.

Qarshi davlat universiteti
kichik bosmaxonasida bosildi.
Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy.

ISBN 978-9943-8994-9-3



9 789943 899490